

Karim ERGASHEV

**TOLALI MATERIALLARNI  
PARDOZLASH KORXONALARI  
JIHOZLARI**



677.  
E-74.


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA  
ORTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

Karim ERGASHEV

**TOLALI MATERIALLARNI  
PARDOZLASH KORXONALARI  
JIHOZLARI**

To'qimachilik, yengil va qog'oz sanoati mahsulotlari  
kimyoviy texnologiyasi ta'lif yo'nalishi bakalavrлari va  
to'qimachilik buyumlarini kimyoviy padozlash texnologiyasi  
mutaxasisligi magistrлari uchun darslik

"YANGI NASHR" NASHRIYOTI  
TOSHKENT - 2010



UDK: 677.1/5 (075)

BBK 37.23

E74

**Taqrizchilar:**

TDTU prorektori, t. f. d., professor R. Sayfutdinov;

TKTI professori M. Alimuxamedov;

TTESI to'qimachilik mashina va apparatlari  
kafedrasi professori, t. f. d. M. Shukurov.

**Ergashev, K.**

Tolali materiallarni pardozlash korxonalari  
jihozlar: darslik / K. Ergashev; taqrizchilar: R.  
Sayfutdinov, M. Alimuxamedov, M. Shukurov;  
O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta-maxsus ta'lif  
vazirligi. – Toshkent: Yangi nashr, 2010. – 400 b.

BBK 37.23-5

Darslikda tolali materiallarni pardozlash uchun ishlataladigan texnologik  
jihozlar to'g'risida asosiy ma'lumotlar keltirilgan. Bundan tashqari, tolali  
materiallarni bo'yashga, gul bosishga tayyorlash, bo'yash, ularga gul bosish va  
yakuniy pardozlashda keng qo'llaniladigan mashina va agregatlarning tuzilishi.  
ishlash prinsiplari va ularning ba'zilarining texnologik hisob-kitoblari yoritilgan.  
Pardozlash jihozlarini rivojlanish tendensiyalari aks ettirilgan.

ISBN-978-9943-330-78-8

© "YANGI NASHR" nashriyoti, 2010- yil

## SO·Z BOSHI

Respublikamiz iqtisodiyoti qadam-baqadam o'tayotgan bozor munosabatlari to'qimachilik va yengil sanoat korxonalaridan raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni va ulardan o'z mahsulotlari bilan jahon bozoriga chiqishni talab qilmoqda. Ishlab chiqarilayotgan mahalliy tolali xomashvolarni Respublikamizda qayta ishlashni kengaytirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Masalan, tayyorlanadigan paxta tolasini o'zimizda qayta ishlash hajmini 2010- yilga borib 50 foizga yetkazish vazifasi qo'yilgan. To'qimachilik va yengil sanoat tayyor mahsulotlari hajmini kengaytirish bilan bir qatorda, ularning sifat ko'rsatkichlarini jahon andozasi talablarini qondiradigan darajaga olib chiqish muhim vazifa hisoblanadi.

Bu talab va vazifalarni bajarish uchun to'qimachilik va yengil sanoat korxonalari mulkchilik ko'rinishlarini o'zgartirishlari bilan bir qatorda, chet el firmalarining hozirgi zamон texnologik jihozlari bilan jihozlanmoqda. Yangi qo'shma korxonalar tashkil etish orqali iqtisodiyotning bu tarmog'iga chet el investitsiyalarini jalb qilishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu sohada respublika hukumatining bir qator qarorlari qabul qilinib, amalga oshirilmoqda.

Tolali materiallarni pardozlash jihozlari yuqori unumdorlikka, alohida yoki agregat tarkibida ishlay olish imkoniyatiга va komputerlashgan boshqarish tizimiga egaligi bilan

ajralib turadi. Ularni yaratishda sanitар-gigiyenik talablarga javob berishiga va elektr energiyasi, kimyoviy moddalar, bug', suv sarflarini kamayтиrishga erishish asosiy vazifalar hisoblanadi.

Tolali materiallarni pardozlash texnologiyasi mexanik, kimyoviy va bug'lash kabi murakkab jarayonlarni o'z ichiga oladi. Shuning uchun bunday korxonalarda faoliyat ko'rsatadigan mutaxassislar texnologik jihozlarda kechayotgan jarayonlar mohiyatini va bu jihozlarning tuzilishini, ishlash prinsiplarini mukammal o'zlashtirishlari yuqori sifatli mahsulot ishlab chiqarishning garovi hisoblanadi. Ayniqsa, texnologik jarayonlar bilan ularni amalga oshirishga xizmat qiladigan pardozlash jihozlari konstruksiyalarining o'ziga xosligi, ular o'rtaida bog'liqlik mavjudligini anglab yetish ular to'g'risida bilimga ega bo'lishni taqozo qiladi. Jihozlar tuzilishini, ishlash prinsiplarini shunday yondashish bilan o'rganish tolali materiallar kimyoviy texnologiyasi kursini yaxshi egallashga xizmat qiladi va u taqdim qilinayotgan darslikning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Taqdim etilayotgan ushbu darslikda "Tolali materiallarni pardozlash korxonalarini jihozlari" va "Pardozlash korxonalarining jihozlari" kurslarining bayoni O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan tasdiqlangan dasturlarga muvofiq amalga oshirilgan. Bayon xarakteri talabalarga jihozlar tuzilishini oddiy lashtirib tushuntirishga, ammo bunda har bir o'rganilayotgan konstruksiyaning o'ziga xos jihatlarini ko'zdan qochirmslikka yo'naltirilgan. Darslikda ma'lumotlarning berilishi, asosan, tolali materiallarning kimyoviy texnologiyasi jarayonlari

ketma-ketligiga mos keladi. Bu talabalar tomonidan tanlangan mutaxassislikni chuqur egallashga xizmat qiladi.

Muallif Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti tolali materiallar va qog'oz kimyoviy texnologiyasi va dizayni kafedrasi professori M. Z. Abdukarimovaga, dotsentlar: A. A. Miratayev va I. A. Nabiyevalarga darslik qo'lyozmasini nashrga tayyorlashda ko'rsatgan yordamlari uchun o'z minnatdorchiligini bildiradi.

# I B O B. PARDOZLASH JIHOZLARINING UMUMIY UZEL VA MEXANIZMLARI

## 1- §. Pardozlash jihozlarining ishlash muhitni

Tolali materiallarni pardozlash texnologiyalarini tashkil qiluvchi jarayonlar ishqoriy, kislotali muhitda, yuqori yoki past haroratda, har xil davomiylikda kechadi. Masalan, ip-gazlamalarni bo'yashga, gul bosishga tayyorlash texnologiyasiga kiruvchi qaynatish jarayoni NaOH ning 60 – 65 g/l konsentratsiyali suvli eritmasida olib boriladi. Bunday matolarni merserlashda esa suvli eritmadi NaOH konsentratsiyasi 240 – 250 g/l ni tashkil qiladi. To'qilgan mato va trikotaj polotnolarini pardozlashda sulfat va sirka kislolarining suvli eritmalaridan keng foydalaniladi. Bo'yagan hamda gul bosilgan mato va trikotaj polotnolariga bug'li yoki yuqori haroratli havo muhitida ishlov berish muhim jarayonlar hisoblanadi. Bundan tashqari, pardozlash texnologiyasida har xil oksidlovchilardan keng foydalaniadi. Yuqorida sanab o'tilgan muhitlar qo'llanilayotgan jihozlarda mahsulotni pardozlash uchun yaratiladi. Natijada bunday muhit ishlov olayotgan mahsulot bilan bir qatorda, jihoz tayyorlangan konstruksion materialga ham ta'sir qiladi. Jihozning ishlash sharoitidan kelib chiqqan holda uni tayyorlashda foydalanilgan materiallarga bir qator talablar qo'yiladi:

- konstruksion material matoga ishlov berish muhitida korroziyaga uchramasligi lozim;

– konstruksion materialning fizika-mexanikaviy xossalari jihozning ekspluatatsiyasi davomida pasaymasligi kerak.

## **2- §. Pardozlash jihozlarini qurishda ishlataladigan konstruksion materiallar**

Pardozlash jihozlarini qurishda foydalaniladigan konstruksion materiallarni tanlash shu jihozda kechadigan texnologik jarayonlar xususiyatlariga va kechish sharoitlariga bog'liq. Tanlangan konstruksion material, avvalo, jarayon kechadigan muhitga chidamli bo'lishi zarur. Uning mexanik xususiyatlari undan yasalgan jihoz elementining ta'sir etuvchi kuchlar ta'sirida uzoq vaqt davomida xizmat qilishini ta'minlashi lozim. Tanlangan materialning arzonligi va yetarli hajmda mavjudligi muhim hisoblanadi. Jihoz narxini arzonlashtirish maqsadida uning konstruksion elementlari nisbatan arzon materialdan tayyorlanib, uni korroziyadan saqlashning har xil usullari yordamida xizmat muddati talab darajasida bo'lishiga erishiladi. Ammo jihozning muhim qismlari xizmat muhitiga chidamli bo'lgan konstruksion materiallardan tayyorlanadi. Endi konstruksion materiallarning turlari, ularni olish usullari va xossalari bilan tanishib chiqamiz.

### **1. Temir va uning rudalari**

Mashinasozlikda ishlataladigan konstruksion materiallarning qariyb 90% dan ortiqrog'ini temir qotishmalari

tashkil qiladi. Buning sababi bu qotishmalar qoniqarli fizika-kimyoviy, texnologik va mexanik xossalarga ega bo'lishidadir. Bundan tashqari, bu qotishmalarga termik, termokimyoviy ishlovlari berib, ularning xossalarini kerakli yo'nalishda o'zgartirish mumkin.

Kimyo fanidan talabalarga ma'lumki, sof temir oq tusli, yaltiroq metalldir. Uning yer qobig'idagi miqdori 4,3% ni tashkil qiladi. Sof temir odatdag'i sharoitda havoda buzilmaydi va suvda erimaydi. Ammo temirda oddiy sharoitda turli qo'shimchalar mavjud, shu sababli temir nam havoda korroziyalanadi. Shunig uchun temir tabiatda sof holda uchramaydi, balki uning rudalari mavjud. Mashinasozlikda keng qo'llaniladigan temirning uglerod bilan qotishmlari bo'lgan cho'yan va po'lat sanoat miqyosida tabiatda uchraydigan temir rudalaridan olinadi.

Temir rudalarining tarkibiga temir oksidlari bilan bir qatorda, ma'lum miqdorda qo'shimchalar (qum, tuproq, silikat va boshqalar) kiradi. Ta'kidlash lozimki, ba'zi temir rudalari tarkibida oz miqdorda bo'lsada, Cr, Ni, W, V, Cu, Ti, Mo va boshqa metallar uchraydi. Bunday rudalar tabiiy legirlangan rudalar deb ham ataladi, chunki ulardan olin-gan cho'yanning xossalari yaxshilanadi.

Ma'lum bo'lishicha, yer bag'rida 200 ga yaqin temir rудаси turlari bo'lib, shulardan 40% dan ziyodrog'i Sobiq Ittifoq hududida uchraydi. O'zbekistonda ham konlar borligi aniqlangan, lekin respublikamizda metallurgiyaning bu sohasi hozircha rivojlanmagan.

Cho'yan ishlab chiqarish uchun asosiy xomashyo hisoblanuvchi rudalar:

Magnitli temirtosh ( $\text{Fe}_3\text{O}_4$ ) qoramtiq rangli bo'lib, silikatlar, sulfitlar, kalsitlar va boshqalar ruda qo'shimchalarini tashkil qiladi. Ruda tarkibidagi temir miqdori 40 – 60% ni tashkil kiladi. Ural, Sibir, Qozog'iston, Kavkaz va Ukraina'da magnitli temirtosh ruda konlari mavjud.

Qizil temirtosh ( $\text{Fe}_2\text{O}_3$ ) rangi qizildan qoramtirgacha, qo'shimchalar magnitli temirtosh rudasidagiga o'xshash. Tarkibidagi temir miqdori – 50 – 60% orasida. Ukraina, Sibir va Qozog'istonda uning konlari bor.

Qo'ng'ir temirtosh ( $2\text{Fe}_2\text{O}_3 \cdot 3\text{N}_2\text{O}$ ) rangi jigarrang sariqdan qora qo'ng'irgacha. Tarkibidagi qo'shimchalar magnitli temirtosh rudasidagiga o'xshash. Ukraina va Qozog'istonda uning konlari majud.

Shpat temirtosh ( $\text{FeSO}_4$ ) rangi sarg'ish va kulrang. Tarkibidagi qo'shimchalar magnitli temirtosh rudasidagiga o'xshash. Ural, Qrim va boshqa hududlarda zaxiralari bor.

Temir rudalaridan cho'yan olish uchun domna pechlari dan foydalaniladi. Domna pechlari qimmatbaho qurilma bo'lganligi tufayli, ularning ish unumini oshirish va ularda ishlatiladigan koks sarfini kamaytirish maqsadida temir rudalari dominaga yuklanishdan oldin maxsus tayyorlash jarayonlaridan o'tadi. Bu jarayonlarda rudalar maydalanadi, saralanadi, boyitiladi va o'lchami 30 – 100 mm oralig'iда bo'lgan rudalar pechga kiritiladi. Mayda rudalar esa maxsus uskunalarda yiriklashtirilgandan so'ng domna pechiga yuklanadi. Temir rudalaridan cho'yanlar ishlab chiqarishda, ulardan po'lat olishda zarur haroratda qizdirish tabab etiladi. Buning uchun uskunalarda yoqish uchun turli yoqilg'ilardan foydalaniladi. Ular yonganda yuqori ha-

rorat hosil qilishi bilan birga, temirni oksidlardan qaytarishda faol ishtirok etishi lozim. Metallurgiyaning asosiy yoqilg'iilar bo'lib toshko'mir koksi, tabiiy gaz va mazut hisoblanadi. Domna pechida ishlatishga mo'ljallangan toshko'mir kokslarining sifati uning kimyoviy tarkibiga, fizika-kimyoviy va mexanik xossalariiga bog'liq. Koks tarkibida 85 – 90% C; 0.5 – 2.0% S; 0.8% gacha R: 7 – 15% kul hosil qiluvchi birikmalar; 1% ajraluvchi gazlar va 2 – 4% namlik bo'ladi. Sifatli koksning g'ovakligi 44 – 55% ni tashkil qiladi.

Temir rudalari tarkibiga kiruvchi begona qo'shimchalar hisoblanuvchi  $\text{SiO}_2$ ,  $\text{Al}_2\text{O}_3$ ,  $\text{CaO}$ ,  $\text{MgO}$ , S, P lar va yoqilg'i kulini o'zi bilan biriktirib, shlakka aylanuvchi flus deb ataluvchi moddalar tayyorlangan rudaga aralashtirilib, domna pechiga kiritiladi. Flus sifatida  $\text{CaSO}_4$  (ohaktosh) va  $\text{CaSO}_4 \cdot \text{MgCO}_3$  (kamroq ohaktoshli dolomit) ishlataladi.

## 2. Domna pechining tuzilishi


Domna pechi murakkab agregat bo'lib, uning tarkibiga, pechdan tashqari, uning ishlashi uchun sharoit yaratib beradigan yordamchi qurilmalar: shixta yuklash apparati va havo qizdirgich ham kiradi. Domna foydali hajmi 2000 – 5000  $\text{m}^3$  bo'lgan shaxta pechi bo'lib, uning balandligi 100 m gacha, diametri 19 m gacha yetishi mumkin. 1- rasmda domna pechi tuzilishining umumiy ko'rinishi berilgan.

Domna pechining devori qalinligi 20 – 40 mm li po'lat listni payvandlash (svarka) usuli bilan tayyorlanadi va ich-

ki qismi o'tga chidamli shamot g'isht terib qoplanadi hamda ichki sirti o'tga chidamli gil bilan suvaladi. Pech balandligining 3/4 qismiga ichida sovuq suv aylanib turuvchi sovitgich trubalar o'rnatish orqali o'tga chidamli g'isht qoplamasining xizmat davri uzaytiriladi. Amalda domna pechi 5 – 10 yil davomida uzluksiz ishlaydi. Ruda, koks va flus aralashmasi – shixtani pechga bir me'yorda portsiyalab yuklash apparati (2) o'rnatilgan, uning yuqori qismi "koloshnik" (1) deb ataladi. Yuklash apparati pechda hosil bo'lgan gazlarining tashqariga chiqishiga va tashqi havoning pech ichiga kirishiga qarshilik qiluvchi katta va kichik konuslarga ega.

Ish davrida hosil bo'lgan gazlar

koloshnikning trubalari (3) orqali tozalash apparatiga yuboriladi. Pechning kesik konussimon eng katta qismi (4) "shaxta" deb ataladi. Pech shaxtasining pastki qismi "zapplechik" deb ataluvchi silindrsimon qism (5) bilan tutashadi. U, o'z navbatida, o'txona deb ataluvchi silindr shaklli qism (7) bilan tutushadi. Uning tubi "leshchad" grafit bloklar



*1- rasm. Domna pechining umumiy ko'rinishi:*

1 – koloshnik; 2 – yuklash apparati; 3 – trubalar; 4 – shaxta; 5 – raspar; 6 – zapplechik; 7 – o'txona; 8 – furma; 9 – cho'yan chiqish novi; 10 – shlak chiqish novi; 11 – temir ustun.

yoki yuqori sifatli shamot g'ishtlari bilan himoyalananadi. Pechning tubi metall halqali taglik plitaga, u esa beton poy-devorga o'rnatilgan temir ustunlar (11)ga mahkamlanadi. Hozirgi zamon domna pechlari komputerlashgan, avtomat-lashgan boshqaruvga ega murakkab agregat hisoblanadi. O'rta hisobda 1 tonna cho'yan olish uchun 2035 kg temir rudasi, 146 kg marganes rudasi, 971 kg koks, 598 kg ohak-tosh, 3575 kg havo sarf bo'ladi. Bunda 755 kg shlak, 5217 kg domna gazi va 348 kg koloshnik changi ajraladi.

Domna pechining ishlash prinsipi. Sifatli tayyorlangan shixta yuklash apparati orqali portsiyalab pechga bir me-yorda berib turiladi. Koksning yaxshi yonishini ta'minlash uchun isitish apparatida 800 – 900°C gacha isitilgan havo pech o'txonasining yuqori qismida aylana bo'ylab o'rnatilgan bir necha teshigi bor uskunalar (furmalar) orqali 0,25 MPa bosim bilan beriladi. Koks yonishi nati-jasida pechda talab qilingan harorat ta'minlanadi. Pech tubiga suyuq cho'yan, uning ustida shlak qatlami to'planadi. Suyuq cho'yan har 2 – 4 soatda chiqish novi (9) orqa-li, shlak esa har 1 – 1,5 soatda chiqarish novi (10) orqali kovshlarga chiqarib turiladi. Chiqarilgan suyuq cho'yan formalarga quyilib, kerakli shakldagi detal mahsulotlar olinadi. Cho'yan va shlak chiqarish teshiklari o'tga chidamli tinqinlar bilan berkitiladi va chiqarish vaqtida, burg'ilash mashinasi yordamida 50 – 60 mm li teshik ochiladi.

Pechda kechadigan asosiy jarayonlar: pechga berilayotgan 800 – 900°C gacha qizdirilgan havo kislороди hisobiga koks yonadi:  $S + O_2 = SO_2 + Q$  (ajralgan issiqlik miqdori). Ajralgan issiqlik hisobiga havo berilayotgan nuqta atrofida

harorat  $1100 - 2000^{\circ}\text{C}$  gacha ko'tariladi. Hosil bo'lgan SO<sub>2</sub> gazi cho'g'langan koks qatlamidan o'tadi va uglerod (II) oksidga aylanadi:  $\text{SO}_2 + \text{S} = 2\text{SO} - \text{Q}$  (issiqlik yutiladi). Bu reaksiyalar bilan bir qatorda, cho'g'langan koks havo tarkibidagi suv bug'laridan vodorodni ham qaytaradi:



Hosil bo'lgan uglerod (II) oksidi, qattiq uglerod va qisman vodorod hisobiga temir oksidlaridan temir qaytariladi:



Qaytarilgan temir uglerod (II) oksidi va uglerod bilan reaksiyaga kirishib, temir karbidini hosil qiladi:



Hosil bo'lgan temir karbidi g'alvirak temirda erib, temirning uglerodli qotishmasini qosil qiladi. Sof temirning suyulish harorati  $1539^{\circ}\text{C}$  bolsa, uning uglerodli qotishmasida uglerodning ortib borishi bilan, qotishmaning suyulish harorati pasayib boraveradi. Masalan, qotishmadagi uglerod miqdori  $1,8 - 2,0\%$  ga yetganda, u  $1150 - 1200^{\circ}\text{C}$  da suyuladi. Suyulma cho'g'langan koksdan pastga o'tib borishida yanada uglerodga to'yinib boraveradi va pech o'txonasiiga yetganda, qotishma tarkibidagi uglerod miqdori  $3,5 - 4,0\%$  ni tashkil qiladi.

Yuqorida keltirilgan asosiy reaksiyalardan tashqari, shixta tarkibidagi fosforli tuzlardan fosfor qaytarilib, cho'yan tarkibiga o'tadi. Shixtaga oltingugurt koks va

temir rudalarida mavjud  $\text{FeS}_2$ ,  $\text{FeS}$ ,  $\text{CaSO}_4$ ,  $\text{CaS}$  birikmalarini ko'rinishida o'tadi. Cho'yan olish jarayonida oltingurgurtning 10 – 60 foizi  $\text{SO}_4$ ,  $\text{H}_2\text{S}$  gazlar tarzida pechdan chiqib ketadi. Ammo bir qismi cho'yanda  $\text{FeS}$  va shlakda  $\text{CaS}$  shaklida qoladi. Yuqori sifatli cho'yan olish uchun undagi oltirgugurt va fosfor miqdorini imkon qadar kamaytirish lozim. Buning uchun shixtani ohaktosh bilan boyitish kerak. Ohaktosh ( $\text{CaSO}_3$ )  $900^\circ\text{C}$  haroratda  $\text{CaO}$  va  $\text{SO}_2$  ga parchalanadi.  $\text{CaO}$  pechda shixta tarkibidagi  $\text{SiO}_2$ ,  $\text{Al}_2\text{O}_3$  va boshqa qo'shimchalarni biriktirib,  $1150 - 1200^\circ\text{C}$  da suyulgan shlak hosil qiladi. Shlak suyultmasi pech o'txonasi tomon oqish davomida koks kulini, qaytarilmay qolgan oksidlar, qo'shimchalarni o'zida eritadi.

Domna pechidan olinadigan cho'yanlar tarkibiga qarab oq. quyma va legirlangan cho'yan turlariga ajratiladi. Olinadigan cho'yanlarning 80 – 90% ini po'latga aylanadiriladigan oq cho'yan tashkil qiladi. Ularning tarkibida uglerodning ko'p qismi temir karbidi ( $\text{Fe}_3\text{S}$ ) shaklida, qolgani grafit ko'rinishida bo'lganligi tufayli mo'rt va qattiq bo'ladi. Aksincha, quyma cho'yan tarkibidagi uglerodning ko'p qismi grafit ko'rinishida bo'ladi. Ular kulrang cho'yanlar deb ham yuritiladi. Ular yuqori mustahkamlikka, kam kirishuvchanlikka ega bo'lgani uchun, ulardan jihozlarning gardishlari va murakkab shaklga ega bo'lgan mashina detallari quyiladi. Bunday cho'yan markalari – SCh 12 – 28 va SCh 15 – 32 dan kichik va o'rta miqdordagi kuchlar ta'sirida ishlovchi mashina gardishlari, ramalari hamda kronshteynlari tayyorlanishi ma'lum. SCh 15 – 32 va SCh 18 – 36 markali cho'yanlar esa o'rtacha miqdordagi

kuchlar ta'sirida, ishqalanish, bosim va egilish duformatsi-yasi ta'sirida ishlovchi mashina detallarini tayyorlashda tavsiya etiladi. SCh 21 – 40 markali cho'yandan esa tishlig' ildiraklar tayyorlanadi. Tarkibida qimmatbaho elementlar bo'lgan cho'yanlar legirlangan cho'yanlar deyiladi.

### 3. Po'latlar

Oq cho'yan va maxsus cho'yanlarni (ferroqotishmalar) maxsus pechlarda qayta ishlash orqali po'lat olinadi. Po'lat mustahkamlikka, plastiklikka, oquvchanlikka, payvand-lanuvchanlikka va kesib ishlanuvchanlikka ega bo'lganligi tufayli mashinasozlikda va qurilishda keng qo'llanadigan asosiy material hisoblanadi. Ayniqsa, uning legirlangan maxsus navlariga kimyoviy mashinasozlikda talab katta. Cho'yan, metallurgiya korxonalarida ishlab chiqarish usuliga qarab, konverterlarda, marten va elektr pechlarda po'latga aylantiriladi. Kimyoviy tarkibiga ko'ra po'latlar uglerodli va legirlangan navlarga ajratiladi. Uglerodli po'latlar tarkibidagi uglerod miqdori 0,3% gacha bo'lsa – kam uglerodli, 0,3 – 0,5 % oralig'ida bo'lsa – o'rtacha uglerodli, 0,7% dan yuqori bo'lsa ko'p uglerodli po'latlar deb ataladi. Sifatiga ko'ra po'latlar oddiy sifatli va yuqori sifatli navlarga ajratiladi. Bunday ajratish po'lat tarkibidagi uning asosiy xossalariiga ta'sir etuvchi oltingugurt va fosfor elementlari miqdori bilan belgilanadi. Masalan, oddiy sifatli uglerodli konstruksion po'latlardan sifatli va yuqori sifatli uglerodli konstruksion po'latlarga qarab, tarkibida oltingugurt, fosfor elementlari va nometall qo'shimchalar

miqdori kamayib boradi. Maxsus po'latlar tarkibiga doimiy mavjud elementlar: temir, uglerod, oltingugurt va fosforlardan tashqari, ma'lum miqdorda legirlovchi elementlar: xrom, nikel, volfram va boshqalar kiritiladi.

Konstruksion materiallarni tanlash va ulardan foydalanishni osonlashtirish uchun ular markalanadi. Shu jumladan, po'latlar ham markalanadi. Po'latlar markalaridagi harflar va sonlar ma'lum ma'noga ega. Kam uglerodli, oddiy sifatli konstruksion po'lat markalari: BSt1, St1, St2, St3 va hokazo. Markadagi B harfi po'lat bessemer konvertorida olinganligini bildiradi, St harflari po'latligini va harflardan keyingi raqam tartib raqamini ko'rsatadi. Tartib raqami oshib borgan sari, po'lat tarkibidagi uglerod miqdori ham oshib boradi.

O'rtacha uglerodli konstruksion po'latlarning markalari: Stal 0,5, Stal 0,8, Stal 10, Stal 30 va boshqalar. Markadagi sonlar, masalan, 10 po'lat tarkibidagi uglerodning 100 ga bo'lingan o'rtacha foizini bildiradi. Ko'p uglerodli konstruksion po'lat markalari: U7, U8, U8A va boshqalar. U harfi ko'p uglerodli asbobsozlik po'latligini bildiradi. markadagi raqam esa, o'nga bo'linsa, tarkibidagi uglerodning o'rtacha foizini ko'rsatadi. A harfi esa po'latning tarkibidagi oltingugurt va fosfor elementlari yo'q darajada bo'lib, po'latning yuqori sifatli ekanligini bildiradi.


Texnikaning ko'p sohalari rivojlanishi yangi konstruktion materiallarni yaratish bilan bir qatorda, po'latlarning xossalari yaxshilashni talab etdi. Jumladan, kimyoviy mashinasozlik, harbiy aslahalar ishlab chiqarish, atom energetikasi yuqori mexanik xossalari yuqori harorat va


bosim sharoitida, agressiv muhit ta'siri sharoitida o'zida saqlab qola oladigan po'lat markalarini yaratishni dolzarb vazifa qilib qo'ydi. Bu vazifani hal qilish ustida olib borilgan izlanishlar turli markali, maxsus xossali, legirlangan po'lat markalarining yaratilishini ta'minlaydi. Legirlangan po'latlarni olish uchun uglerodli po'latlar tarkibiga, maqsaddan kelib chiqqan holda, ma'lum miqdorda legirlovchi elementlar: xrom, nikel, vannadiy, volfram, titan, tantal va boshqalar kiritiladi. Legirlangan po'latlarning tarkibiga kiruvchi elementlar ularning markalarida aniq harflar bilan belgilanadi. Masalan, X – xromni, N – nikelni, D – misni, G – marganesni, V – volframni, F – vannadiyni, T – titanni. A – azotni, P – fosforni, S – kremniyni bildiradi. Legirlangan po'lat markasiga misol: X18N9T – po'lat tarkibida 18% xrom, 9% nikel va 1% gacha titan bor degani.

Sanoatda ishlab chiqarilayotgan po'latlarning 16 – 18% ini legirlangan po'latlar tashkil qiladi. Hozirda po'latlarning 1500 dan ortiq markalari mavjud.

Po'lat olish usullari haqida umumiy ma'lumot. Hozirda po'latlar metallurgiya korxonalarida konvertorlarda, marcen va elektropechlarda ishlab chiqarilmoqda. Misol tariqasida konvertorda po'lat olish jarayonini ko'rib chiqamiz. 2- rasmda konvertorning tuzilishini va ishlash prinsipini izohlovchi sxema keltirilgan.

Konvertor gardishi (korpusi) (1) noksimon ko'rinishga ega bo'lib, tagi berk qilib tayyorlanadi. Uning devorlari dolomit yoki magnezit smolali xrommagnezit g'ishtidan teriladi, ya'ni futirovkalanadi. Konvertor yuqori haroratga





2-rasm. Kislorod konvertorining tuzilishi va ishlash sxemasi:

- 1 – konvertor gardishi;
- 2 – futerovka; 3 – kislorod haydash furmasi; 4 – og’ish;
- 5 – o’q; 6 – tayanch; 7 – po’latni chiqarish teshigi.

ka buriladi. Shu holda, unga birinchi cho’yan massasining 20 – 30% miqdorida qora metall chiqindilari yuklanadi, so’ng 1250 – 1400°C haroratli suyuq cho’yan kiritiladi. Olinadigan po’lat tarkibini zararli elementlar – oltirgugurt va fosfordan tozalash uchun qayta ishlanadigan metall massasining 5 – 8% miqdoriga teng ohaktosh ham kiritiladi. Shundan so’ng gardish vertikal holatga o’tkaziladi.

Konvertorga yuklangan xomashyodan po’lat olish jarayonini boshlash uchun furma naycha orqali unga 0.9 – 1,14 MPa (9 – 14 kg/sm<sup>2</sup>) bosim ostida kislorod haydala-

chidamli bo’lishi va 400 – 800 marta po’lat olishni ta’minlashi uchun gardish devorlarining qalinligi hajmiga qarab 700 – 1000 mm oralig’ida bo’ladi. Sirtidan devorlar po’lat list bilan qoplanadi. Shunday tayyorlangan va sig’imi 100 – 300 t li konvertor gardishi (1) tayanchlarda horizontal o’q (5) atrofida chapga va o’ngga ma’lum burchakka egila oladigan qilib o’rnataladi. Konvertorda po’lat olish texnologiyasi quyidagi jarayonlardan iborat: konvertor gardishidan po’latni kovshga chiqarish teshigi (7) o’tga chidamli tiqin bilan berkitiladi, so’ng gardish xomashyo yuklashni osonlashtirish uchun chapga bir necha gradus burchak-

di. Naycha metall sathiga 300 – 800 mm yetmagan holda o'rnatiladi. Ish davrida yuqori harorat (2000 – 2400°C) ta'sirida kislorod uzatuvchi furma materiali erib ketmasligi uchun uning ikki qavat qilib tayyorlangan devorlari ora-siga sovuq suv yuborib turiladi. Konvertorga yuborilayotgan kislorodning bir qismi suyuq metallga o'tadi va uni aralashtiradi, temir bilan kuchli reaksiyaga kirishib, temir (II) oksidini hosil qiladi, qolgan qismi esa vanna sirtiga tarqaladi. Jarayon davomida kechadigan kimyoviy reaksiyalar natijasida suyuq metall tarkibidagi kremluy, fosfor, marganes elementlari oksidlanadi va hosil bo'lgan oksidlar o'zaro birikib, shlak hosil qiladi. Kiritilgan ohak esa fosfor angidridini shlakka o'tkazishga xizmat qiladi.

Marten pechida ham yuqorida keltirilgan jarayonlar kechadi, ammo pech statcionar o'rnatilgan bo'lib, tabiiy gaz yoki mazut bilan qizdiriladi. Elektropechlarida esa yuqori harorat uning ichiga tushirilgan elektrodlarga yuqori kuchlanishda berilgan tok ta'sirida hosil bo'ladigan elektr yoyi bilan hosil qilinadi. Pechda induktiv tok bilan yuqori harorat hosil qilinadigan elektropechlar ham mavjud.

Respublikamizning Bekobod metallurgiya kombinati skrip variantida ishlovchi pechlarda turli markadagi uglerodli po'latlar ishlab chiqarmoqda.

#### **4. Rangli metall qotishmalari**

Temir qotishmalari cho'yan va po'lat mexanik xossalaring yuqoriligi, ishlov berishning mavjud usullaridan foydalanib, mashina detallarining hamma turlarini olish

mumkinligi tufayli mashinsozlikda asosiy konstruksion materiallar hisoblanadi. Ammo, yuqorida ta'kidlanganidek, ularning korroziyaga beriluvchanligi, zichligining yuqoriligi ba'zi mas'ul sharoitda ishlovchi detallarni tayyorlash imkonini bermaydi. Bunday sharoitda, narxining yuqoriliga qaramay, rangli metallar va ularning qotishmalarini ishlatalidi.

Pardozlash jihozlarida keng qo'llaniladigan qotishmalaridan biri bu latun hisoblanadi. Latun misning ruxli qotishmasi bo'lib, unda rux miqdori 39% atrofida bo'lganda, u puxta, plastik va korroziyaga bardoshli bo'ladi. Ammo qotishma tarkibida rux miqdori 43% gacha oshganda, latunning mexanik xossalari yanada yaxshilanadi, shuning uchun texnikada bunday tarkibli latundan keng foydalaniadi. Masalan, undan trubalar, simlar, vtulkalar, vintlar, gaykalar, podshipniklar va boshqa mashina detallari tayyorlanadi. Latun markalariga misollar: L 90 – L harfi latunligini ko'rsatsa, 90 soni esa qotishma tarkibida 90% mis va qolgani rux ekanligini bildiradi; LAJ – 6 – tarkibida 60% mis, 1% aluminiy, 1% temir bor va qolgan 38% ni rux tashkil qiladi. Ko'rinish turibdiki, latun tarkibiga misdan, ruxdan boshqa elementlar, jumladan, aluminiy, temir, marganes, kremniy, qalay va boshqa elementlar kiritilishi mumkin. Bunday latunlar legirlangan deyiladi va latun markasida legirlovchi elementlar rus tilidagi nomining bosh harfi bilan belgilanadi.

Misning yana bir muhim qotishmasi bronzadir. Bronza misning qalay bilan qotishmasi bo'lib, uning tarkibida qalay elementining miqdori 8 – 9% dan ortishi bilan.

bronzaning qattiqligi va mo'rtligi ortadi. Qalay qimmat-baho metalligi tufayli, bronzaning xossalariiga putur yet-kazmagan holda u qisman aluminiy, temir, qo'rg'oshin va boshqa metallar bilan almashtiriladi. Bronza oquvchanlikka. antifriksion xossalarga egaligi va korroziya bardoshligi uchun texnikada keng qo'llaniladi. Undan podshipnik vtulkalari, ishqalanish sharoitida ishlovchi mashina detalari va boshqalar olishda foydalilaniladi. Bronzaning markalanishi: OF 6,5 – 0,4. Bu yerda 6,5 % qalay, 0,4 % fosfor va qolgani mis. Br A7 – aluminiyli bronza.

## 5. Nometall konstruksion materiallar

Texnika rivojining boshlanish davrida daraxt turlaridan konstruksion material sifatida keng foydalaniqgan. Masalan, mashina gardishlari, vannalar, ruchkalar va hokazo detallar yog'ochdan tayyorlangan. Hozirda polimerlar kimyosi yutuqlari asosida olingan polimerlarning ko'p turlaridan. ular bazasidagi plastmassalar va kompozitsion materiallar mashinasozlikda, shu jumladan, pardozlash jihozlari konstruksiyalarda keng qo'llanilmoqda.

Polimerlar asosidagi konstruksion materiallar. Konstruksion materiallar texnologiyasi va materialshunoslik fanning rivojlanishi polimerlarga asoslangan yangi materialarni yaratilishiga olib keldi. Quyida nometall materiallar haqida qisqacha ma'lumot keltiramiz.

O'quvchida pardozlash korxonalari jihozlari tuzilishi va ishslash prinsiplarini o'rganishda cho'yan va po'lat

olish jihozlari va texnologiyasiga shunchalik e'tibor berish zarurmi, degan sovol tug'ilishi tabiiy. Hozirda butun dunyo miqyosida energiya resurslarining qimmatlashib borishi sanoat mahsulotlari tannarxining oshishiga sabab bo'lmoqda. Shuning uchun jihozlarni tayyorlashda qo'llaniladigan konstruksion materiallar ham qimmatlashib bormoqda. Bu, o'z navbatida, jihozlar tannarxining oshishiga olib kelmoqda. Ishlab chiqariladigan to'qimachilik mahsulotlari raqobatbardosh bo'lishi uchun foydalaniladigan mashina va apparatlar mustahkam va uzoq davr xizmat qilishi hamda ichida sifatli mahsulot olishni ta'minlashi zarur. Jihozlarni to'g'ri ekspluatatsiya qilish va ularni sifatli ta'mirlash uchun foydalanilgan konstruksion materiallar to'g'risida ma'lumotga ega bo'lish muhim hisoblanadi.

Hamma nometall konstruksion materiallar polimerlar asosida olinadi. Shuning uchun polimerlar to'g'risida. qisqa bo'lsada, ma'lumotga ega bo'lish foydalidir. Kelib chiqishiga qarab, polimerlar tabiiy, sun'iy va sintetik guruhlarga ajratiladi.

1. Tabiiy polimerlar (selluloza, oqsil) o'simlik va hayvonlar hujayralarida tabiiy sharoit ta'sirida sintezlanadi.

2. Sun'iy polimerlar tabiiy polimerlarni qayta ishlash va tozalash natijasida olinadi (atsetilselluloza, gindratselluloza, karboksimetilselluloza va boshqalar.).

3. Sintetik polimerlar har xil past molekular birikmlarni (monomerlar) sintezlash yo'li bilan olinadi. Masalan, poliolifenlar, poliamidlar, poliefirlar va boshqalar. Sanab o'tilgan polimerlarning ba'zilaridan konstruksion material sifatida foydalanilsa, ko'pchiliklari plastmassalar va kom-

pozitsion-konstruksion materiallar olishda asosiy material sifatida ishlatiladi.

Polietilen etilenden olinadigan polimer bo'lib, yuqori (150 Mpa) va past bosimda olinadigan turlarga ajraladi. Yuqori bosimda olinadigan polietilen yuqori zichlikka, mustahkamlikka egaligi va issiqlikka chidamliligi bilan ajralib turadi. Bu polimerdan tayyorlangan detallar minus 60°C dan to plus 60°C gacha bo'lган chegarada xizmat qilishi mumkin. Undan tayyorlangan trubalar, plyonkalar, armaturalar, har xil idishlar pardozlash jihozlarida va sexlarda keng qo'llaniladi. Bu mahsulotlar ko'pgina kislotalar, ishqorlar, moylar va benzin ta'siriga chidamli.

Poli amidlar kaprolaktam, geksametilenadipinamid va boshqa monomerlardan olinadigan polimerlar bo'lib, tola sifatida, konstruksion material sifatida keng ishlatiladi. Ular yuqori mustahkamlikka, suv, moy, ishqor, kuchsiz kislotalar ta'siriga chidamli bo'lib, kichik ishqalanish koefitsiyentiga ega bo'lганligi uchun sirpanish podshipniklari, tishli g'ildiraklar, vtulkalar, mashina ruchkalari va boshqa mashina detallarini tayyorlashda ishlatidi.

Plastmassalar. Polivinilxlorid polimeriga har xil qo'shimchalar qo'shish orqali viniplast olinadi. Bu material yuqori kimyoviy chidamlilikka ega, ya'ni sulfat, fosfor va xlorid kislotalarining barcha konsentratsiyali eritmalari, ishqorlar ta'siriga chidamli. Azot kislotasining 50% gacha bo'lган eritmasi ta'siriga chidamliligi bilan ham ajralib turadi. Bu materialdan qalilnigi 2 – 20 mm bo'lган listlar, trubalar, sterjenlar tayyorlanadi. Undan detallar tayyorlashda, ta'mirlash ishlari bajarishda yuqori haroratlari

(220°C) havo yordamida payvandlashdan yoki yelimlash usulidan foydalanish mumkinligi bu materialdan foydalanish chegarasini yanada kengaytiradi. Viniplastga – 40°C – + 60°C harorat ta'sir etmaydi.

Tekstolit termoreaktiv smola fenolformaldegid shimidirilgan va qotiruvchi aralashtirilgan tolali materiallarni presslash yo'li bilan olinadigan konstruksion material bo'lib, undan sirpanish podshipniklari, shovqinsiz ishlaydigan tishli g'ildiraklar, chervyaklar, listlar tayyorlanadi.

Ftoroplastlar tarkibida fтор tutgan polimer asosida olingan bo'lib, hamma platmassalar ichida eng yuqori kimyoviy chidamlilikka ega bo'lган plastmassadir. U ma'lum bo'lган barcha erituvchilarda erimaydi, yelim uni yelimlamaydi, yonmaydi, namlanmaydi va past ishqalanish koeffitsiyentiga ega. Konstruksion material sifatida uning Ftoroplast – 4 markasi –260 – +250°C chegarasida chidamli, hatto "sarskaya vodka" ("podsho arog'i") ta'siriga ham chidamli. Bu materialdan kimyo sanoatida keng qo'llaniladigan nasoslarning korpuslari, issiqlik almashuv uskunalarini yasashda va boshqa detallarni tayorlashda foydalaniladi.

Pardozlash jihozlarida keng qo'llaniladigan polimer materiallardan biri bu rezinadir. U juda elastik, kislota, ishqor ta'siriga chidamli dielektrik materialdir. Rezina olish uchun xomashyo sifatida o'simlikdan olinadigan tabiiy kauchuk bilan bir qatorda, xossalari tabiiy kauchukka yaqin bo'lган sintetik kauchukdan keng foydalaniladi. Rezinaga kerakli xossalalar berish uchun kauchukka qo'shimchalar (rux ok-

sidi, paxta, stearin, magniy oksidi, vazelin, oltingugurt) qo'shilib yuqori haroratda ( $140^{\circ}\text{C}$ ) ishlov beriladi. Pardozlash jihozlari konstruksiyalarida rezina zichlovchi (prokladka) sifatida, mashinalar ishchi vallari yuzasining koplamasini va boshqa maqsadlar uchun ishlatiladi.

### *Takrorlash uchun savollar:*

1. Temir va uning xossalari haqida gapirib bering.
2. Asosiy temir rudalari to'g'risida ma'lumot bering.
3. Domna pechining tuzilishini gapirib bering.
4. Domna pechida ishlatiladigan yoqilg'ilarni sanab o'ting.
5. Domna pechida kechadigan kimyoviy reaksiyalarni tu-shuntiring.
6. Cho'yan turlari, ularning markalari haqida ma'lumot bering.
7. Cho'yan qanday pechlarda po'latga aylantiriladi?
8. Po'lat markalariga misollar keltiring va legirlash qanday jarayon-ligini tushuntiring.
9. Rangli metallar asosidagi konstruksion materiallar haqidagi aytib bering.
10. Polimerlar asosidagi konstruksion materiallar to'g'risida gapirib bering.

## **3- §. Pardozlash jihozlarining umumiyligi mexanizmlari**

### **1. Pardozlash jihozlarining tasnifi**

Pardozlash jihozlaridan foydalanishni osonlashtirish va ularni ta'mirlashning tannarxini kamaytirish bilan bir qat

torda, ta'mirlashning sifatini oshirish maqsadida jihozlar bir necha alomatlari bo'yicha tavsiflanadi.

Pardozlanayotgan material bilan o'zaro ta'siri bo'yicha, jihozlar texnologik va yordamchi guruhlarga bo'linadi. Texnologik jihozlar guruhiga ishchi organi ishlov olayotgan tolali materialga bevosita ta'sir qiladigan jihozlar kiradi. Masalan, matoni bo'yashga tayyorlash jihizi, bo'yash agregatlari, gul bosish agregatlari va boshqalar. Yordamchi jihozlarga texnologik jihozlar ishini ta'minlovchi jihozlar kiradi. Masalan, nasoslar, ishqor eritmasini bug'lash jihozlari, gul bosish shablonlarini (andoza) tayyorlash jihozlari va hokazolar.

Jihozni pardozlash texnologiyasida egallagan o'rniliga qarab tavsiflash ham qo'llaniladi. Unga muvofiq, jihozlar quyidagi guruhlarga ajratiladi:

1. Mato yuzasiga ishlov beruvchi jihozlar.
2. Tolali materiallarni bo'yashga va gul bosishga tayyorlovchi jihozlar.
3. Tolali materiallarni suvsizlantiruvchi, qurituvchi va ularga termik ishlov beruvchi jihozlar.
4. Tolali materiallarni bo'yash jihozlari.
5. Tolali materiallarga gul bosish jihozlari.
6. Tolali materiallarga yakunlovchi ishlov berish jihozlari.

Bundan tashqari, ishslash davomiyligiga qarab, jihozlar davriy, yarim uzlusiz va uzlusiz ishlaydigan guruhlarga ham ajratiladi. Ma'lumki, hamma jihozlar ikkita katta guruhga: mashina va apparatlarga bo'linadi. Ishlov davomida ichidagi tolali materialga harakatdagi ishchi organi ta'sir

qiladigan jihoz mashina deb yuritiladi. Ishlov davomida ichidagi tolali materialga ta'sir qiladigan ishchi organi bo'lmagan jihoz apparat deb ta'riflanadi.

## **2. Jihozlarning texnik pasporti va ularning markalanishi**

Jihoz ishlab chiqaradigan zavod yoki firma har bir jihoz uchun texnik pasport tayyorlaydi va u jihoz bilan birga iste'molchiga taqdim etiladi. Texnik pasportning muqovasida jihozning nomi, markasi, uni ishlab chiqargan zavod yoki firmaning nomi va chiqarilgan yili ko'rsatiladi. Pasportning ichki qismida esa jihozning vazifasi, texnik xarakteristikasi, texnologik sxemasi, ishslash prinsipi, yurituvchisining kinematik sxemasi va uning o'rtacha tezlikka hisob-kitobi, jihozni montaj qilish sxemasi va tartibi, elektrrosxemasi, zaxira detallarining ro'yxati, jihozni ekspluatatsiya qilishdagi texnika xavfsizligi qoidalari keltiriladi.

Jihozning texnik xarakteristikasiga uning asosiy ko'rsatkichlari kiradi. Masalan: markasi, asosiy o'lchamlari, materialning o'tish usuli, ishlov berish tezligi, ish unumdorligi, material ishlov vannalarining hajmi, yurituvchining ko'rsatgichlari, suv, bug' va elektro energiyasi sarfi, texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari va boshqa zarur ma'lumotlar.

Pardozlash mashinasining asosiy xarakteristikalaridan biri uning ishchi kengligidir. Mashinaning ishchi kengligi uning ishchi vallari kengligiga teng. Sobiq Ittifoqda qabul qilingan GOST 6468 – 72 ga muvofiq, mashinalarning ikki qator kengligi o'rnatilgan edi.

Birinchi qator: 1200, 1400, 1800, 2200, 2800, 3600, 5000 mm.

Ikkinci qator: 1000, 1600, 2000, 2400, 2600, 3000, 3200, 3400, 3800, 4000 mm.

Ammo chet el firmalari mashina ishchi kengligini oshirish ustida tinmay izlanishlar olib borishmoqda. Sababi mashina ishchi kengligi oshgan sari, uning unumдорлиги oshadi, ishlov olgan matolardan foydalanish koeffitsiyenti oshadi, natijada tikuv fabrikalarida chiqindilar miqdori kamayadi.

Sobiq Ittifoqda va hozirda Hamdo'stlik mamlakatlarida ishlab chiqarilayotgan pardozlash jihozlari markalari uning vazifasini ko'rsatuvchi harflardan, biror texnik ko'rsatkichini ifodalovchi sonlardan iborat. Masalan, sanitmetrda o'lchangan ishchi kengligi. Ba'zida harflardan keyin qo'yilgan son mashina seriyasini ko'rsatadi. Jihoz markasi oxiridagi harf uning sanoatning qaysi sohasiga ta-alluqlilagini ko'rsatadi. Masalan: L – len, P – penka, Sh – jun, Shl – ipak, I – suniiy tola, T – trikotaj. Ip-gazlamalarni pardozlash jihozlari markasida sohani ko'rsatuvchi harf qo'yilmaydi. Ba'zi jihoz markasidagi M harfi uning modernizatsiya qilinganligini ifodalaydi, U harfi esa konstruksiyaning unifikatsiya qilinganligini ko'rsatadi. Masalan: GO – 240 M gazli kuydirish mashinasi ishchi valining kengligi – 240 sm, mashina konstruksiysi modernizatsiya qilingan.

### 3. Matolarni mashinaga kirituvchi mexanizmlar

Pardozlash jihozlarida matolarga ikki xil usulda ishlov beriladi: mato eni bo'yicha yoyilgan holda, mato eni bo'yicha yig'ilgan (jgut) holda. Shuni ta'kidlab o'tish joizki, matoga eni bo'yicha yoyilgan holda ishlov berish usuliga ko'proq e'tibor qaratilmoqda, chunki bu usulda sifatli mahsulot ishlab chiqarish imkonи katta. Ammo trikotaj mahsulotlarini bo'yashga tayyorlash, bo'yash jarayonlarni matoni jgut holida olib borish rivojlanmoqda. Bunday jarayonlarni sifatli bajaruvchi ejektor jihozlari ko'plab mashinasozlik firmalari tomonidan jahon bozorida taqdim etilmoqda.

Jihozda matolar qanday holda – jgut yoki yoyilgan holda ishlov olishidan qat'i nazar, har bir jihoz unga matoni kirituvchi mexanizmlarga ega bo'lishi shart. Bunday mexanizmlarning asosiy vazifasi matoni talab qilingan yo'nalishda, minimal talab qilingan taranglikdagi harakatini ta'minlashdan iborat.


Yo'naltiruvchi halqa mato jgutlari harakatini yo'naltiradi. Ichki diametri 100 – 140 mm bo'lib, zanglamaydigan po'-latdan yoki keramikadan tayyorlanadi va mato harakat yo'lida qo'zg'almaydigan qilib yoki mato yo'nalishini buradigan mexanizmga o'rnatiladi. Birin-ketin o'rnatilgan mato yo'naltiruvchi halqlar orasidagi masofa 4 metrdan oshmasligi zarur, aks holda, mato jgutining osilib qolishi ishchilar hayotiga xavf solishi mumkin.

Halqaning ishlash prinsipini izohlovchi sxema 3- rasmda keltirilgan. Pardozlash mashinasiga kengligi bo'yicha yo-


yilgan holatda kiritilayotgan matoning mashina vallariga o'ralib qolish xavfining oldini olish uchun unga minimal zarur taranglik beriladi. Bunday taranglikka mashi-na kirishiha o'rnatilgan harakatsiz bruslar yoki o'z o'qi atro-fida ozod aylanadigan roliklar orqali yoyilgan matoni o'tkazish bilan erishiladi. Matoning shunday taranglovchi bruslardan o'tish sxemasi 4- rasmida keltirilgan.

Mato bir brusning ustidan, keyingi brusning esa ostidan o'tkaziladi. Mato bruslar yuzasiga ishqalanishi natijasida taranglik oladi. Mato tarangligi darajasini bruslar soni belgilaydi. Mashina ishlayotgan vaqtda mato tarangligini o'zgartirib bo'lmasligi bu brusli (rolikli) mexanizmning kamchiligi hisoblanadi. Mato taranglovchi bremza bu kam-chilikdan holi. Quyida bremzaning tuzilishi va ishlash prinsipini tushuntiruvchi sxema keltirilgan.

Bremza gardishi ikkita kronshteyn (2)dan iborat bo'lib, ular o'q (3)qa mahkamlangan. O'z navbatida, bu kronshteynlarga rolik (4)larning podshipniklari o'rnatilgan.



**3- rasm.** Mato jgutini yo'naltiruvchi halqa:  
1 – halqa; 2 – rolik; 3 – mato.




**4- rasm.** Mato taranglovchi roliklar:  
1 – mato; 2 – gardish; 3 – taranglovchi  
bruslar (yoki roliklar).

O'q (3)qa birikitilgan chervyakli uzatma orqali bremza gardishining fazodagi holatini o'zgartirish mumkin, natijada matoning roliklar (4)ga tegib turish burchagi o'zgaradi. Shunday qilib, bremza mashina ishlab turgan sharoitda mato tarangligini o'zgartirish va boshqarish imkonini beradi.


Rolikli mato yo'naltiruvchi mashinaga berilayotgan yoyilgan matoni mashinaning markaziy o'qi bo'yicha simmetrik ravishda bukilgan joylarini to'g'rilab yo'naltirish uchun xizmat qiladi. Uning ishchi organi mato yo'nalishiga nisbatan qiyshiq o'rnatilgan roliklar juftligidir. Bu roliklar o'zaro yuk, prujina yoki pnevmosilindr ta'sirida siqilib turadi. Juft roliklar matoning ikki tarafida o'rnatilganligi 6-rasmda keltirilgan umumiy ko'rinish sxemasidan ko'rinib turibdi.

Mato yo'naltirovchining har bir golovkasi gaykali gardishi (4) bilan vint (3)ga biriktiriladi. Vint chap va o'ng rezbaga ega bo'lgani uchun, unga mahkamlangan maxavichok (8) yordamida aylantirish bilan golovkalar holati mato kengligiga mos qilib joylashtiriladi.

Mato chekkasi golovka roliklari orasiga kiritiladi va roliklarning o'zaro siqilib turishi va ularning mato yo'nalishiga qiyshiq turishi tufayli, mato tortilish kuchi



5- rasm. Bremzaning sxemasi:  
1 – mato; 2 – bremza gardishi; 3 – aylanish o'qi; 4 – rolik.




6- rasm. Rolikli mato yo'naltiruvchining umumiy ko'rinishi:

A – chap golovka, V – o'ng golovka; 1 – gardish; 2 – podshipnik; 3 – chap va o'ng rezbali vint; 4 – gayka korpusi; 5, 6 – qattiq yuzalni rolik, uning ortida elastik yuzalni rolik o'matilgan; 7 – mato; 8 – maxavichok.

vertikal va gorizonttal tashkil etuvchilarga ajraydi. Gorizonttal kuch mato chekkasini tortib turadi. Mato chekkasiga ta'sir etuvchi kuchlar sxemasi 7- rasmda keltirilgan.

Agar mato mashina markaziy o'qidan chapga siljisa, golovka datchigiga tegadi va roliklar siqilishi yo'qoladi, natijada mato chap chekkasiga ta'sir qilib turgan gorizontal kuch ham yo'qoladi. Mato o'ng chekkasiga ta'sir etayotgan kuch ta'sirida uning o'qi mashinaning markaziy o'qiga mos tushgunga qadar o'ngga siljiydi va muvozanat tiklanaadi. Agar mato o'ng tomonga siljisa, o'ng golovka roliklari-



7- rasm. Rolikli mato yo'naltiruvchi ning ta'sir kuchlari sxemasi:


F – umumiy kuch;  $F_{\text{gor}}$  – gorizonttal ta'sir kuchi;  $F_{\text{vert}}$  – vertikal ta'sir kuchi.

ning ta'siri yo'qolib, mato chap tomonga siljiydi va mato chekkasiga ta'sir etayotgan kuchlar muvozanati tiklanadi.

Mato yuzasini rostlovchilar. Pardozlash mashinalariga mato eni bo'yicha yoyilgan holatda yuborilayotganda, uning yuzasida bukilgan joylari va mato chetida buralib qolgan joylari bo'lmasligi lozim. Aks holda, bu kamchiliklar mashina vallari orasidan mato siqilgan holatda o'tganda muhrlanib qoladi va keyin ularni to'g'rilib bo'lmaydi. Shuning uchun mato mashinaga kirish oldidan yoki uning har bir ishchi organiga kirishi oldidan mato yuzasini rostlovchi mexanizmlardan o'tkaziladi. Bu mexanizmlarning vintli, yoysimon ko'rinishdagi va plankali turlari mavjud.


Vintli mato yuzasini rostlovchi. Bu rostlovchi podshipniklar (3)ga o'rnatilgan va yuzasida rezba chiziqlari bo'rtib chiqib turgan silindr (1)dan iborat. 8- rasmda keltirilgan sxemadan ko'rrib turibdiki, rezba chiziqlari silindr markazidan uning chetiga qarab tarqaladi.

Mato bu rostlovchi yuzasiga ishqalanib o'tayotganda, hosil bo'lgan ishqalanish kuchi uni o'rtasidan ikki tarafga qarab yo'naltiradi, natijada mato yuzasidagi buklangan joylari tekislanadi. Mexanizmning matoga ta'sir kuchini



8- rasm. Vintli mato yuzasini rostlovchi sxemasi:

1 – silindr; 2 – silindr yuzasidagi chap va o'ng rezba chiziqlari; 3 – podshipnik;  
4 – tishli g'ildirak.



9- rasm. Yoysimon mato rostlovchi:

1 – yoysimon o'q; 2 – o'q podshipnigi; 3 – o'qni mahkamlash vinti; 4 – rezina qoplama; 5 – qoplama podshipnigi.

oshirish maqsadida vint mato yo'nalishiga qarshi tarafga majburan aylantiriladi, buning uchun, unga tishli g'ildirak (4) orqali harakat beriladi.

Yoysimon mato yuzasini rostlovchi. Vintli rostlovchiga nisbatan matoga yumshoqroq ta'sir etuvchi bu mexanizm mashinalarda keng qo'llaniladi.

U egilgan yoysimon o'q (1), unga o'rnatilgan shariko-podshipniklar (5) va podshipniklar tashqi halqasiga kiy-gizilgan rezina qoplama (4)dan iborat.

Rezina qoplama matodan harakat olib aylanadi, mexanizm o'qi egilgan bo'lgani uchun, qoplamaning yasovchi chiziqlari aylanish yarmida cho'zilsa, yarmida qisiladi. Gazlama mato rostlovchi yuzasiga uning chiziqlari cho'zila boshlagan joyida tegadi, shuning uchun rezina qoplama bilan birgalikda mato eni bo'yicha kengayadi, natijada mato yuzasidagi buklangan joylari rostlanadi. Mato qoplama yuzasini maksimal kengaygan joyida tark etishi lozim, aks holda, uning yuzasi qoplama bilan birga qisqarishi, ya'ni yana buklamalar hosil bo'lishi mumkin. Rostlovchining matoga ta'sir kuchi uning o'qi holatini o'zgartirish bilan

o‘zgartiriladi. Buning uchun yoysimon o‘q holatini mahkamlovchi vint (3) bo‘shatilib, o‘q (2)ning yangi holati tanlanadi va yana mahkamlanadi.


Plankali mato yuzasini rostlovchilar hozirgi zamon mashinalarida qo‘llanilmayapti, bunga sabab ularning konstruktsiyasi murakkabligi va rostlash imkonining kamligidir.

#### 4. Mato yo‘naltiruvchi va siqish vallari


Mato yo‘naltiruvchi vallar pardozlash mashinalari van-nalaridan, quritish, termoishlov berish va boshqa mashinalardan matoning o‘tishini ta‘minlash uchun xizmat qiladi. 10- rasmda yuvish vannasiga o‘rnatilagan vallar ko‘rsatilgan.

Ishlov davrida yoyilgan mato vallar orasidan o‘tadi va vanna ichidagi ishchi eritmada ishlov oladi. Bu vallarning materiali ishlov muhiti ta’siriga chidamli bo‘lishi shart, shuning uchun val yuzasi zanglamaydigan po‘latdan, kislota yoki ishqorga chidamli ebonitdan, polimer materiallardan tayyorlanadi.

Siqish vallari orasidan o‘tayotgan mato mexanik shikastlanmasligi uchun vallar juftligining bittasi qattiq, ikkinchisi esa elastik yuzaga ega bo‘ladi.




10- rasm. Yuvish vannasiga o‘rnatilgan yo‘naltiruvchi vallar:  
1 – vanna; 2 – yo‘naltiruvchi vallar; 3 – purkagich.



11-rasm. Oddiy yo naltiruvchi val:


1 – val shipi; 2 – disk; 3 – silindr.

Elastik yuza val yuzasiga rezina qoplash, tolali materiallardan tayyorlangan qoplama kiydirish bilan hosil qilinadi. Vallarning yuzasi sayqal berilib silliqlanadi.



12-rasm. Siqish vallarini fazoda joylashish sxemalari:

A – ikki valli mexanizmlar; B – uch valli mexanizm.



13-rasm. "Vakayama" firmasining uch valli kalandri:

1 – mato; 2 – mato kiritish mexanizmlari gardishi; 3 – rolikli mato yo'naltiruvchi; 4 – bremza; 5 – yuqoridagi yurituvchisi bor val; 6 – o'rtanchi val; 7 – pastki val.

Odatda, mexanizmning bitta vali yurituvchidan harakat oladi. qolgan vallari esa siqish evaziga ishqalanish orqali harakatlanadi. Siqish vallari fazoda, 12- rasmida keltirilganidek, vertikal-gorizontal yoki qiyshiq holatda joylashishi mumkin. Misol tariqasida “Vakayama” (Yaponiya) firmasining uch valli kalandrining umumiy ko‘rinishini keltiramiz.

Taxlangan mato (1) umumiy mexanizmlardan o‘tib, valarga “zapravka” qilinadi. Ishlov olgan tayyor mato yuqorida joylashgan yo‘naltiruvchi roliklardan o‘tib, qabul qilish mexanizmiga keladi.

## 5. Vallarni o‘zaro siqish mexanizmlari


Ko‘p mashinalarning ishchi organi bo‘lgan vallarni o‘zaro siqish mexanizmlari, siqish kuchini hosil qilish usuliga qarab, pishangli, pnevmatik va gidravlik turlarga bo‘linadilar. Pishangli mexanizmlar hozirgi zamon mashinalarida mavjud kamchiliklar (mashina gabarit o‘lchamlarini kattalashtirishi, yukni qo‘l kuchi yordamida yuklash va jildirish, talab etilgan siqish darajasini aniq ta‘minlash qiyinligi) tufayli qo‘llanilmaydi.

Gidravlik siqish mexanizmi turida siqish kuchi val podshipnik korpusi bilan shtogi bog‘liq bo‘lgan silindrga bosim ostida ishchi moyini yuborish bilan hosil qilinadi. Pishangli mexanizmlarga nisbatan bu mexanizm talab qilin-gan siqish darajasini ta‘minlasa ham, hozirgi mashinalarda qo‘llanilmayapti. Buning sababi mashina alohida moy

saqlaydigan akkumulatorga va nasosni o'z ichiga olgan qo'shimcha qurilmaga ega bo'lishidir. Bundan tashqari, ish davrida moyning mashinaga xizmat ko'rsatish maydon-chasiga qurilma elementlaridan oqib chiqishi ishchilarga xavf tug'diradi. Hozirgi zamon mashinalarida pnevmoelementli siqish mexanizmlari keng qo'llanilmoqda. Siqilgan havodan foydalanish bir qator afzalliliklarga ega. Siqilgan havo qovushoqligi tufayli bosim energiyasini ishchi organ-larga tezda yetkazadi, uning qovushoqligi harorat sezilarli o'zgarganda ham doimiy saqlanadi. Eng muhimi, pnevmomexanizmning siqish kuchi texnologik jarayon davomida doimiy saqlanadi va ishlab bo'lган havoni qaytarish zaruriyati yo'q, chunki u sexga chiqarilsa, muhitni ifloslamaydi. Pnevmmomexanizmda havo sarfi aytarli katta emas. Albatta, bu siqish mexanizmining ham kamchiliklari mavjud: pnevmomexanizm elementining tezligi birdan ortishi mumkin; havo kengayganda, uning harorati pasayishi natijasida undan namlik ajraydi, bu esa mexanizm elementlarini korroziyaga uchrashiga sabab bo'ladi.

Pnevmmomexanizmlarning porshenli, tarelkasimon membranali va katta siljishli membranali bajaruvchi turlari mavjud. 14- rasmda porshenli mexanizm sxemasi keltirilgan.

Rasmda keltirilganidek, porshenli bajaruvchi mexanizmlarni bir va ikki taraflama ishlovchi turlari bor. Porshenli bajaruvchi pnevmomexanizm silindr (1)dan, uning ichiga o'rnatilgan porshen (2) dan, shtok (5) va porshenni oldingi holatiga qaytaruvchi prujina (6)dan iborat. Silindrlarning ishchi kamerasi havo uzatuvchi naychalalar bilan siqilgan havoni tarqatuvchi taqsimlagich (4) bilan bog'langan. Bir




14- rasm. Porshenli pnevmomexanizmlar:

A – ikki taraflama ishlovchi turi; B – bir taraflama ishlovchi turi.

1 – silindr; 2 – porshen; 3 – porshenning manjet uchun ariqchalari; 4 – havo taqsimlagich; 5 – shtok; 6 – prujina; 7 – zichlagich.

taraflama ishlovchi pnevmomexanizmning (14- B rasm) bitta ishchi kamerasi bo'lib, ishchi bo'limgan kamerasi atmosfera bilan tutashgan. Porshen dastlabki holatiga prujina (6) ta'sirida keltiriladi. Ikki taraflama ishlovchi mexanizmda esa ikkala kamerasi ham ishchi bo'lib, ikkalasiga ham havo yuboriladi, ishlagan havo esa taqsimlagich orqali atmosferaga chiqariladi. Pnevmmexanizmning shtogi siqish valining podshipnik korpusi bilan sharnir yordamida biriktiriladi. Mexanizm ta'sir kuchini zo'raytirish uchun uning shtogi siqish vali podshipnigi korpusi bilan pshang orqali bog'lanadi. Porshenli siqish mexanizmida manjetlarning bir xilda yemirilmasligi, ularning porshenga siqilib turishining har xilligiga, qolaversa, silindrlarni aynan bir xil qilib tayyorlab bo'lmasligi valning chap va o'ng tarafiga o'rnatilgan silindrlar shtogidagi kuchlarning farqlanishi shiga olib keladi, natijada vallar kengligi bo'yicha bir xil siqilmaydi. Bu ularning kamchiligi hisoblanadi.



15- rasm. Membranali pnevmomexanizmlar:


A – tarelkasimon membranali; B – uzun yo'lli membranali;  
1 – gardish; 2 – qopqoq; 3 – membrana; 4 – qopqoq; 5 – shtok; 6 – prujina;  
7 – tarelna.

**Membranali pnevmomexanizmlar.** 15- rasmida sxemasi keltirilgan membranali pnevmomexanizmlarda havo yo'qolishi, ishqalanuvchi elementlarining yo'qligi bilan ular porshenli mexanizmlardan afzal turadi. Ammo tarelkali membranali mexanizmlar shtogining siljish uzunligi kamroq. Lekin bu kamchilikni qo'shimcha pshanglarni qo'llash va mexanizmda uzun yo'lli membranalar qo'llash orqali bartaraf etish mumkin.

Membrana (2) gardish (1) va qopqoq (3) orasiga mahkamlanadi. Shtok (4) bevosita yoki bilvosida siqish vali podshipnigi gardishi bilan sharnirli bog'lanadi. Bosim ostidagi siqilgan havo membrana ostidagi A kameraga beriladi, natijada tarelna (6) yuzasiga ta'sir etuvchi kuch shtok (4) ka va u orqali val podshipnigiga uzatiladi.


Siqilgan havo ta'siri yo'qolishi bilan, prujina (5) membranani dastlabki holatga qaytaradi. Tarelkasimon membranali mexanizmda (15- A rasm) shtok oldinga siljigan sari, unga membrana orqali berilayotgan kuchning bir qismi qopqoq (3)qa o'tganligi tufayli kamayib boradi. Bu kamchilik uzun yo'lli membranali mexanizmda (15- B rasm) membrana shaklining bukilgan ko'rinishda keltirilganligi bilan bartaraf qilingan.

16- rasmda tarelkasimon membranali pnevmomexanizmnning pshang orqali val podshipnigi gardishi bilan bog'lanishi keltirilgan.



16- rasm. Tarelkasimon membranali pnevmomexanizmli siqish mexanizmi:

1 – yuqoridagi val; 2 – pastdag'i val; 3 – pshang; 4 – tarelkasimon membranali pnevmomexanizm.




17- rasm. "Kusters" firmasi uch valli kalandrining umumiy ko'rinishi

17- rasmida vallarning pnevmomexanizm yordamida siqilishi "Kusters" (Germaniya) firmasining uch valli kalandri ko'rninishida namoyish qilingan. Pastki va o'rtadagi vallar yuqorida o'rnatilgan valga pnevmosilindrli siqish mexanizmi yordamida siqilib turadi.

## 6. Yoyilgan va jgut holatidagi matolarni transportirovkalash va taxlash mexanizmlari

Pardozlash korxonalari sexlarida yoyilgan yoki jgut holidagi matolarni mashina ichida bir mashinadan ikkinchisiga, bir jarayondan ikkinchisiga yuborish zarur bo'ladi. Bundan tashqari, ishlov olgan quruq yoki nam matolarni mashinadan tortib olish, uni taxlash yoki rulonga o'rash kerak bo'ladi. Bu vazifalarni bajarish uchun maxsus mexanizmlardan foydalaniladi. Mato mashina ichida uning ishchi organlari tomonidan harakatga keltiriladi. Yoyilgan matoni yoki uning jgutini ishlovdan so'ng mashinadan tortib olish uchun sxemasi 18- rasmda keltirilgan barabandan foydalaniladi.



18- rasmd. Mato tortib oluvchi baraban:


1 – val; 2 – vtulka; 3 – disk; 4 – birkitish uchburchagi; 5 – brus; 6 – shponka.

Baraban vali (1) podshipnik korpuslari bilan mashina gardishiga o'rnatiladi va yurituvchi bilan bog'lanadi. Baraban aylanishi tufayli, uning yuzasiga tashlangan mato ishqalanish kuchi ta'sirida mashinadan tortib olinadi va aravachaga tushiriladi. Bu mexanizmda mato bir joyga tushiriladi, bu uning kamchiligidir.

Matoni mashinadan tortib olib, stolga yoki aravchaga taxlagich bu kamchilikdan holi. 19- rasmida shunday taxlagich sxemasi keltirilgan.

Mato tortish vallari (1) va (2) yordamida tortib olinadi va pishang (5)da mahkamlangan roliklarga uzatiladi. Mashina yurituvchisidan harakat oluvchi krivoship shatunli mexanizm (4)dan pishang (5) ma'lum amplitudali bordi-keldi harakatga keltiriladi, natijada mato taxlanadi. Rolik (6)lar, o'z navbatida, tortish vallaridan harakatlanadi va ularning chiziqli tezligi tortish vallarini kiga nisbatan biroz kattaligi matoning tortilib turishini ta'minlaydi.


Matoni rolikka o'rash mexanizmi. Hozirgi zamон pardozlash mashinalari matoni tortib olib, rolikka o'rash mexanizmlari bilan jihozlangan. Bu mexanizm va matoni roliklarda transportirovkalash usuli matoni aravachalarga taxlash va transportirovkalash dan bir qator afzallikkarga



19- rasm. Mato taxlagich:

1 va 2 – tortish vallari; 3 – yoyilgan mato; 4 – krivoship – shatunli mexanizm; 5 – pshang; 6 – roliklar.

ega, jumladan, matoning bukilmasligi. katta miqdordagi matoni o'rash imkonining borligi. 20- rasmda "Bianko" (Italiya) firmasining matoni rolikka o'rash mexanizmining texnologik sxemasi keltirilgan.




20- rasm. Matoni rolikka o'rash mexanizma sxemasi:

1 – gardish; 2 – pishang; 3 – yurituvchili rolik; 4 – silindrli pnevmomexanizm; 5 – bremza; 6 – tortuvchi baraban; 7 – rolik gardishi; 8 – mato o'raluvchi rolik; 9 – mato; 10 – lotok.

Mato o'raluvchi rolik (8)ni pishang (2)ga o'rnatilgan yurituvchidan harakat oluvchi rolik (3) harakatlantiradi. Buning uchun uni pnevmomexanizm (4) rolik (8)ka si-qib turadi. Mato bir tekisda, yuzasida buklangan joylarisiz rolik (8)ka o'ralishi uchun taranglovchi bremzalar (5)dan va yo'naltiruvchi roliklardan o'tib keladi. Rolikdagi mato o'rami diametrini oshishi bilan pishang (2) ko'tarilib bora-di, ammo matoning o'ralish tezligi o'zgarmay qoladi.

21- rasmda matoni o'ralgan rolikdan yoyib olish mexanizmining sxemasi keltirilgan.

Mato (1) tortish roliklari (3) yordamida o'ramdan olinib, etik-simon kompensator (2)ga taxlanadi. Undan tortib olish roliklari



21- rasm Rolikdan matoni yoyib olish mexanizmi:

1 – mato o'rami; 2 – etiksimon (lotokli) kompensator; 3 – tortish roliklari.

yordamida olinib, mashinaga uzatiladi. Mato o'ralgan rolikni yangisiga almashtirish vaqtida, mashina kompensator (2)dagi mato zaxirasi hisobiga uzliksiz ishlaydi.

## 7. Mashina yurituvchisi va uning kinematik hisobi

To'qimachilik kimyosi mashina va apparatlarining umumiy mexanizmlaridan biri ularning yurituvchisidir. Yurituvchining vazifasi mashina yoki apparat ishchi organini harakatga keltirishdir.

Yurituvchi deb, elektrodvigatel, mashina ishchi organi va ularni bog'lab turgan harakat uzatuvchi mexanizmlar majmuasiga aytildi.

Yurituvchi umumiyl yoki xususiy bo'ladi. Umumiyl yurituvchi deb, bir necha ishchi organlarni yoki bir necha mashina ishchi organlarini harakatga keltiruvchiga aytildi. Xususiy yurituvchi esa yagona ishchi organni harakatga keltiradi.

Umumiy yurituvchida elektrodvigatelning o'rnatilgan quvvati statsionar tartibda sarf bo'ladi quvvatdan ancha ko'p bo'ladi, chunki mashinani ishga tushirish davrida harakatda qatnashuvchi katta massaning inertsiyasini yengishga to'g'ri keladi.

Xususiy yurituvchida esa massa inertsiyasi kam va mashinani ishga tushirish davrida qisqa muddat ichida elektrodvigatelning ortiq darajada quvvat bilan ishlashini hisobga olib, uning quvvatini statsionar tartibda ishlaganda sarf bo'ladi quvvatga yaqin qilib tanlash mumkin. Buning natijasida elektroenergiyadan foydalanish koeffitsiyenti yuqori bo'ladi.


Mashina ishchi organining tezligini ikki usul bilan o'zgartirish mumkin: pog'onali sozlash; bir tekisda sozlash.

Birinchi usulda mashina ishchi organi belgilangan aniq tezliklarga ega bo'ladi, masalan,  $V_1$ ,  $V_2$ ,  $V_3$  va hokazo. Ikkinci usulda esa tezlik belgilangan oraliqda xohlagan qiymatni olish mumkin, masalan,  $V_1$ ,  $V_2$ , ya'ni  $V_1$  dan  $V_2$  gacha.

Pog'onali sozlash elektrodvigatel tezligini o'zgartirish. ya'ni o'zgaruvchan tokda ishlovchi ko'p pog'onali tezlikka ega bo'lgan elektrodvigatellardan foydalanish hisobiga. tasmali harakat uzatuvchilarda shkivlarning diametrini o'zgartirish hisobiga, ochiq tishli g'ildiraklar va zanjirli uzatuvchilardagi tishli g'ildiraklarning tishlar sonining o'zgartirish hisobiga erishiladi.

22- rasmda ikki valli plusovka yurituvchisining kinematik sxemasi keltirilgan.

Berilgan kinematik sxemaga muvofiq:



22- rasm. Plusovka yurituvchisining kinematik sxeması.

$$n_r = \frac{V}{\pi D} \text{ ayl/min. } i_{umum} = \frac{n_{dh}}{n_{i.o.}}; i_{umum} = i_{TU} \cdot i_r \cdot i_{tish.u}$$

Shu formuladan foydalanib:

- 1) ndv ni topamiz, agar tezlik elektrodvigatel hisobiga sozlansa.
- 2) tezlik qaysi harakat uzatuvchi hisobiga sozlansa, o'sha uzatuvchining uzatish sonini hisoblaymiz. Masalan:

$$i_{tish.u} = \frac{i_{umum}}{i_{TU} \cdot i_r}.$$

Ikkinci tenglama bo'lib esa  $D_1 + D_2 = \text{const}$  yoki  $Z_1 + Z_2 = \text{const}$  xizmat qiladi. Bu ikki tenglamadan  $D_1$  va  $D_2$  ni, yoki  $Z_1$  va  $Z_2$  larni hisoblab topib, mashina jadvalidan ularning yaqin miqdorga ega bo'lganlarini tanlab olamiz.

Bir tekisda sozlash esa yurituvchida doimiy tokda, chas-totasi o'zgaruvchan tokda ishlaydigan elektrodvigatellar-dan va tezlik variatoridan foydalanish hisobiga erishiladi.

Bu usuldan foydalanib, mashina tezligini sozlashda dvigatel tezligi yoki variatorning uzatish soni hisoblab topiladi.

## **8. Uzluksiz ishlaydigan liniyalar tarkibidagi mashinalar tezligini o'zaro moslash**


Uzluksiz ishlaydigan mashinalar tizimida matoning tarang-ligining doimiy bir miqdorda bo'lishi uchun mashinalar tezligi o'zaro teng bo'lishi lozim. Ammo mashinalar konstruksiyasi ideal bir xil bo'limganligi tufayli ularning ishchi organlari tezligi bir-biriga teng bo'lmaydi. Shuning uchun mashinalar tezligini o'zaro moslash muammosi paydo bo'ladi. Bu muammoni hal etishning ikki usuli mavjud:

1) tezligi oshib ketgan mashinani bir necha daqiqa to'xtatib turish. Buning uchun bajarilayotgan texnologik jarayon shunday imkoniyatga ega bo'lishi lozim;

2) mato tarangligini doimiy tutib, uning yordamida mashina tezligini sozlab turish.

Bu usullarni amalga oshirish uchun mashinalar oralig'iga tezlik datchiklari o'rnatiladi. Masalan, 23- rasmida rolikli taranglovchi datchikning bir variantining ishlash prinsipini izohlovchi sxema keltirilgan.

Bu datchikdan olingan signal datchikdan oldingi, ya'ni (2) vallar yurituvchisining xarakteristikasini o'zgartirishga ishlataladi. Mashinalarning ishchi organlari tezligi bir xil bo'lsa, rolik (4)ning fazodagi holati o'zgarmaydi. Agar vallar (3)ning tezligi oshsa, rolik (4) pastga harakatlanaadi; bu harakat zanjir orqali g'ildirak (6) o'rnatilgan valga




23- rasm Rolikli taranglovchi datchik sxemasi:

1 – mato; 2, 3 – mashinalarning ishchi organlari – vallar; 4 – kompensator – rolik; 5, 6 – tishli g’ildiraklar; 7 – yuk; 8 – elektrodvigatel; 9 – reostat; 10 – dvigatelni uyg’otish o’rami.

beriladi va uning aylanma harakati reostat (9)ning qarshiligini o’zgarishiga olib keladi va val (2)lar yurituvchisi tarkibidagi elektrodvigateling tezligini o’zgartirib rolik (4)ning oldingi holatiga qaytishini ta’minlaydi.

#### 24- rasmda esa tezlik variatorining sxemasi keltirilgan.

Ishlash prinsipi: kesilgan konuslar (3) o’rnatilgan val (1) yurituvchidan harakat oladi va harakat val (2)ga unga o’rnatilgan kesilgan konuslar orqali beriladi. Variator yordamida tezlikni o’zgartirish uchun uning uzatish sonini o’zgartirish zarur. Buning uchun vint (9)ni aylantirib, undagi gaykalarning joyi o’zgartirilsa, vallar (1 va 2 )da o’rnatilgan konuslar holati o’zgarib, ularning zanjir (tasma) bilan uchrashgan joyidagi diametrlari o’zgaradi. Nati-




24- rasm. Tezlik variatorining sxemasi:

1 – val; 2 – val; 3, 4 – kesilgan konus disklar; 5 – zanjir yoki tasma; 6 – taran-glovchi rolik; 7 – pishang; 8 – gayka; 9 – vint; 10 – dastak; 11 – strelka; 12 – shkala.

jada  $i_B = \frac{D_2}{D_1}$  o'zgarib, valning aylanish tezligi o'zgaradi. Hisoblangan i<sub>v</sub> miqdori 12- shkalada o'rnatiladi.

1- misol. Yurituvchisining kinematik sxemasi 22-rasmida keltirilgan mashina tezligi pog'onali usul bilan almashtiriladigan Z sm g'ildiraklarni almashtirish yo'li bilan o'zgartiriladi.



25- rasm. Valli gul bosish mashinasi yurituvchisining kinematik sxemasi

Kinematik hisobdan berilgan 80 m/min tezlikni ta'minlash uchun zarur bo'lgan Z sm g'ildiraklarining tishlari soni topilsin:

Mato tezligi – 80 m/min; elektrodvigatel valining aylanish tezligi – 1490 ayl/min; almashadigan tishli g'ildiraklar tishlari sonlarining yig'indisi – 90; reduktorning uzatish soni:

$$1) n_{r.o} = \frac{V}{\pi \cdot D} = \frac{80}{3,14 \cdot 0,3} \cong 85 \text{ ob/min};$$

$$2) i_{ohsh} = \frac{n_{dv}}{n_{r.o}}, 53;$$

$$3) i_{ohsh} = i_{rp} \cdot i_r \cdot i_{sm};$$

$$4) i_{sm} = \frac{i_{ohsh}}{i_{rp} \cdot i_r} = \frac{17,53}{\frac{450}{200} \cdot 8} = \frac{17,53}{18} \cong 0,973;$$

$$5) i_{sm} = \frac{z_{sm_2}}{z_{sm_1}}; z_{sm_2} = 90 - z_{sm}; 0,973z_{sm_1} = 90 - z_{sm};$$

$$6) z_{sm_1} = \frac{90}{1,973} \cong 46 \quad z_{sm_2} = i_{sm} \cdot z_{sm_1} = 0,973z_{sm_1};$$

$$7) z_{sm_1} = 0,973 \cdot 46 = 44.$$

Quyida yana bir misol tariqasida valli gul bosish mashinasi yurituvchisining kinematik sxemasi keltirilgan. Mashinaning ishslash prinsipidan kelib chiqib, uning harakatlantiriluvchi asosiy ishchi organi bu gul bosish vallari dir. Gul bosish vallarini esa unda o'tiruvchi rapport shes ternyalari harakatlantiradi. Raport shesternyalari gruzovik

valida ozod holda o'tiruvchi va elektrosvigateldan reduktor va tasmali harakat uzatuvchi orqali harakat oluvchi ona g'ildirakdan bir xil harakat oladi. Gul bosish vallari va gruzovik orasiga zapravka qilingan mato hamda gruzovik gul bosish vallarining unga siqilib turishi natijasida harakatlanadi. Gul bosish vallari tezligi yurituvchi tarkibidagi doimiy tokda ishlovchi elektrosvigatelning tezligini o'zgartirish orqali bir tekisda o'zgartiriladi.

Sxemada elementlar shartli belgilarda beriladi, shuning uchun yurituvchining bunday kinematik sxemasi o'qiladi.

#### *Takrorlash uchun savollar:*

1. Pardozlash jihozlari qanday alomatlari bo'yicha tavsiflanadi?
2. Jihozning texnik pasporti tarkibini tushuntiring.
3. Jihoz markasiga misollar keltiring.
4. Mato taranglovchi mexanizmlar ishlash prinsipini aytib bering.
5. Rolikli mato yo'naltiruvchining ishlash prinsipini tu-shuntirib bering.
6. Mato yuzasini rostlovchilar haqida ma'lumot bering.
7. Mato yo'naltiruvchi roliklar vazifasini tushuntiring.
8. Oddiy yo'naltiruvchi val konstruksiyasini chizing va tuzilishini tushuntiring.
9. Siqish vallarining fazoda joylashishini izohlang.
10. Porshenli siqish mexanizmining ishlash prinsipini tu-shuntiring.

11. Membranali pnevmomexanizmlarning tuzilishini chizing va tushuntiring.
12. Mashinadan matoni tortib olish mexanizmlari haqida gapirib bering.
13. Mashina yurituvchisi tarkibini tushuntiring.
14. Mashina yurituvchisining kinematik hisobi tartibini tushuntiring.

## **II BOB. MATOLAR VA TRIKOTAJ POLOTNOLARINI BO'YASHGA VA GUL BOSISHGA TAYYORLASH JIHOZLARI**

### **1- §. Agregat va potok liniyalar**

Tolali materiallarni bo'yashga va gul bosishga tayyorlash bir necha ketma-ket bajariladigan jarayonlardan iborat. Bu jarayonlar oldinlari davriy ishlaydigan mashina va apparatlarda amalga oshirilar va natijada xarakteristikalarini bir xil bo'lgan ikki partiya materialni tayyorlashning imkonini yo'q edi. Bunga bir necha sabablar mavjud bo'lib, ularning asosiyлари: jarayon texnologik parametrlarini vaqt birligida bir xil qaytarishning qiyinligi; jihozlarning ma'naviy eskirganligi va boshqalar. Shuning uchun hozirda uzlusiz ishlaydigan, tarkibiga bir necha mashinalar kiramidan agregatlar va agregatlardan iborat potok liniyalarini keng qo'llanilmoqda. Bunday potok liniyalarda pardozlash jarayonlari vaqt davomida turg'un bo'lganligi tufayli ishloving bir maromdaligi ta'minlanadi, natijada mahsulot sifati oshadi, vaqt tejaladi va mashinalarni boshqarish osonlashadi, ishlab chiqarish unumdarligi oshadi.


Yuqorida ta'kidlangan ustuvorliklar agregat mashinalari tezligini va agregatning umumiy tezligini bir tekisda o'zgartirish (moslash) imkonini beruvchi, tarkibida doimiy

tokda ishlaydigan elektrodvigatel bo'lgan yurituvchidan foydalanish orqali erishiladi. Buning uchun har bir agregat o'zgaruvchan tokni o'zgarmas tokka aylantiruvchi uskuna bilan ta'minlanadi va yurituvchilar o'zgarmas tokda ishlovchi elektrodvigatellar bilan jihozlanadi.

Mato tezligini sinxronlash uchun agregat mashinalari orasida matoning tortilgan yoki ozod holdagi zaxirasini yaratish lozim. Bunday zaxira mashinalar orasiga har xil kompensatorlar o'rnatish orqali erishiladi. Kompensatorlarni ikki guruhga bo'lish mumkin. Birinchi guruh kompensatorlarida mato tarangligini o'zgartirish imkonini bo'lib, mato zaxirasi katta emas. Masalan, rolikli kompensator. Ikkinci guruh kompensatorlarida mato zaxirasi ozod holda bo'lib, uning miqdori mashinaning 3 – 20 daqiqa uzluksiz ishlashini ta'minlay oladi. Masalan, lotokli (kovshli) kompensator.

26- A rasmida rolikli kompensatorning ishslash prinsipi ni izohlovchi sxema keltirilgan. Kompensatordan oldin o'rnatilgan mashina siqish vallari (2)dan o'tgan mato (1) kompensator roligi (3)dan egilib o'tadi va keyingi mashinaning siqish vallari yordamida tortiladi. Kompensator roligi (3)ning podshipniklari zanjirlar (4)ga o'rnatilgan va zanjirning qarama-qarshi qismiga mahkamlangan yuk (5) ta'sirida yuqoriga ko'tarilishga intiladi, ammo moto taranglashishi natijasida uning holati muvozanatga keladi.

Agar  $V_1 = V_2$ , bo'lsa, rolik (3) o'z joyida qoladi.  $V_1$  ning o'zgarishi natijasida rolik (3)ning muvozanati buziladi va u yuqoriga yoki pastga zanjir bilan birgalikda harakatlanadi, shu bilan birga, tishli g'ildirak (6) ham o'z o'qi atrofida ha-



26- rasm Kompensatorlarning texnologik sxemasi

A – rolikli kompensator: 1 – mato; 2 – oldingi mashinaning siqish vallari (ishchi organi); 3 – kompensator roligi; 4 – zanjir; 5 – yuk; 6 – tishli qildirak (yuduzcha); 7 – keyingi mashinaning siqish vallari (ishchi organi).

B – lotokli kompensator: 1 – gardish; 2 – zaxira lotogi; 3 – mato; 4 – prujina; 5 – kontaktlar.

rakat oladi. Tishli g'ildirak (6)ning harakati mashina elektrosvigateli elektrosxemasiga kiritilgan reostat (R)ning ruchkasi holatining o'zgartirganligi uchun uning qarshiliqi o'zgaradi. Bu, o'z navbatida, dvigatel magnit oqimini o'zgartiradi va natijada dvigatelning tezligini o'zgartiradi hamda rolik (3)ning muvozanatini tiklaydi.

Rolikli kompensator agregatni avariya holatida to'xtatish imkoniga ham ega.


Lotokli kompensatorlar potok liniya agregatlari boshida o'rnatiladi va agregatga mato o'ralgan rolikni o'rnatish davrida, uning uzluksiz ishlab turishini ta'minlashga xizmat qiladi. Shunday kompensator turiga kiruvchi etikli kompensatorning ishlash prinsipini tushunturuvchi sxema 26- B rasmda keltirilgan. Bu kompensator mashinalar ora-

siga o'rnatiladi va ularning tezligi kompensatoridan oldin o'rnatilgan mashinani vaqtinchalik to'xtatish orqali o'zaro moslanadi.

Mato V<sub>1</sub> tezlikda zaxira lotogi (2)ga tushirib turiladi, V<sub>2</sub> tezlikda esa mato mashinaga uzatiladi. V<sub>1</sub> > V<sub>2</sub> bo'lganligi tufayli zaxira lotogida mato zaxirasi tashkil bo'ladi. Zaxira miqdori oshgan sari prujina (4) siqilib boradi va oqibatda kontaktlar (5) ulanishi natijasida zaxira lotogiga mato uzatayotgan vallar juftligi to'xtaydi. Zaxira kamayganda, prujina ko'tariladi va kontaktlar uzilishi natijasida, lotokka yana mato uzatila boshlaydi.

Matoni bo'yashga va gul bosishga tayyorlovchi, uzlusiz ishlaydigan agregat va potok liniyalarining keng ro'yxatini qator mamlakatlar mashinasozlik firmalari jahon bozorida taklif qilmoqdalar. 27- rasmda ip-gazlama matosini tayyorlash potok liniyasining blok sxemasi keltirilgan.


Misol tariqasida "Beninger" firmasi tayyorlash potok liniyasining umumiy ko'rinishi 28- rasmda keltirilgan.



27- rasm. Matoni bo'yash va gul bosishga tayyorlash potok liniyasining blok sxemasi:

I – qaynatish agregati. II – oqartirish agregati

1 – kuydirib tozalash mashinasi; 2 – shimdirish mashinasi; 3 – yuvish vannalari;  
4 – shimdirish mashinasi; 5 – bug'lash kamerasi; 6 – quritish mashinasi.



28- rasm. "Beninger" firmasi tayyorlash potok liniyasining umumiy ko'rinishi


Agregatlar tarkibiga kiruvchi mashinalarning tuzilishi va ishalash prinsiplarini ko'rib chiqamiz.

## 1. Gazli kuydirish mashinasi

Matoning yaxshi pardozlanishi uchun uning tashqi ko'rinishini yomonlashtiradigan va yuzasiga chiqib turgan tola va iplarning uchlaridan, momiqlardan, unga yopishib qolgan tolalardan sifatli tozalanishi lozim. Bunga ularni kesish yoki kuydirish orqali erishiladi. Jarayonni yuqori tezlikda, matoning ikki tomonida olib borishni va bunda mato strukturasi ichidagi tolacha va yunglardan ham tozalanishini ta'minlaydigan gazli mashinalardan foydalanish asosiy usul bo'lib qoldi. Matolar yuzini kuydirib tozalash gazli va ishchi organi qizdirilgan silindr dan yoki tarnovdan iborat bo'lgan mashinalarda olib boriladi. Hozirda faqat jarayonning yuqori sifatli kechishini ta'minlovchi gazli mashinalar keng tarqalgan. Bu mashinalar ishchi organni oldindan qizdirishni talab qilmaydi, matoga ikki tarafdan bir vaqtning o'zida ishlov berilishi yuqori unumdorlikni va

sifatni ta'minlaydi. Ish davrida gazli mashinaning ishchi organlari mato yuzasini chang va unga yopishgan zararli aralashmalardan ham tozalaydi. 29- rasmida Rossiyada ishlab chiqarilgan gazli kuydirish agregati GO – 240 – M ning texnologik sxemasi keltirilgan.

Mato mashinaga kirishdan oldin kerakli taranglikni oladi va yuzasini chang va yungdan tozalovchi cho'tkalar orasidan o'tib, ikkala yuzasi ham tozalanadi. Tozalash mashinasining cho'tkalari mato yo'nalishiga qarama-qarshi tarafga aylanadi. Shundan so'ng mato kuydirish mashinasining gorelkalari o'rnatilgan kamerasi ichiga kiradi va yonayotgan gaz alangasi ustidan o'tadi. Bu kamera o'tga chidamli va eshiklari zikh yopiladigan qilib tayyorlanadi. Mato yuzasida kuyib ulgurmay uchqunlanib turgan (ay-niqla, jun matolarda) tolachalarni o'chirish uchun mato uchqun o'chiruvchi kameradan o'tkaziladi, shu maqsadda kameraga ochiq bug' beriladi. Shundan so'ng mato vanna (4)da ishqor eritmasiga shimdirilib, aravachaga taxlanadi yoki rolikka o'raladi.




29- rasm. GO – 240 – M aggregatining texnologik sxemasi:

1 – mato yuzini momiqdan, changdan tozalash mashinasи; 2 – to'rtta gorelkali kuydirish mashinasи; 3 – o't uchqunini o'chiruvchi; 4 – vanna; 5 – siqish vallari; 6 – tortib olish vali; 7 – mato taxlagich.

Kuydirish mashinasining gorelkasiga gaz havo bilan kerakli proporsiyada aralashtirib beriladi. Gazning havo bilan aralashmasining pastki va yuqori portlash nuqlari borligi tufayli (tabiiy gaz uchun 7,25%), gazni havo bilan aralashtirish avtomatlashtirilgan va kuydirish mashinasini alohida xonada o'rnatish tavsiya etiladi. Agregatni boshqaruvchi ishchilar texnika xavfsizlik qoidalariga o'rgatilishi, kuydirish kamerasi hamda u o'rnatilgan xona havoni tortib olish ventilatorlari bilan jihozlanishi lozim. Bundan tashqari, mashina avariya holatida to'xtab qolganda, mato yonib ketmasligi uchun, mashina to'xtaganda yoki mato uzilganda, uni avtomatik ravishda gorelka ta'siridan uzoqlashtirish mexanizmi bilan jihozlangan bo'lishi shart.

30- rasmida Yaponiyaning "Sando" firmasi gazli kuydirish agregatining texnologik sxemasi keltirilgan.

Sxemasi keltirilgan agregat jundan, sintetik tolalardan, tabiiy va sun'iy tolalar aralashmasidan tayyorlangan matolar yuzasini tozalashga mo'ljallangan. Bu firma paxta,



30- rasm. "Sando" firmasi gazli kuydirish agregatining texnologik sxemasi:

1 – mato; 2 – bremza; 3 – oldindan quritish silindrлari; 4 – tozalash kamerasi; 5 – gorelka; 6 – ichidan sovitiladigan mato yo'naltirish roligi; 7 – uchqun o'chirish va tozalash kamerasi; 8 – quritish silindrлari; 9 – mato taxlagich.


ipak matolarini va ular aralashmasidan tayyorlangan matolar yuzini kuydirib tozalashga xizmat qiluvchi agregatlar turini ham taqdim etadi. Bu agregatlarning bir-biridan farqi tarkibidagi quritish silindrлarining sonida va ip-gazlamalarni kuydirish agregati tarkibiga shimdirish mashinasining kiritilganligidadir. Bu agregatlar gaz va havoni aralashtirishning yuqori avtomatlashtirilganligi va gorelkadagi haroratni  $400 - 1200^{\circ}\text{C}$  oralig'ida moslash mumkinligi bilan ajralib turadi.

Mato (1) bremza (2)da kerakli taranglikni olib, mato yo'naltiruvchi roliklar orqali oldindan quritish silindrлari (3)ga uzatiladi. Shundan so'ng kamera (4)da o'rnatilgan cho'tkalar yordamida chang va boshqa iflosliklardan tozalanib, kuydirish kamerasiga yo'naltiriladi. Bu kamerada ikkita gazli gorelka (5) o'rnatilgan bo'lib, mato uning qarshisidagi ichidan sovitiladigan yo'naltirish roligi (6)dan egilib o'tadi. Natijada mato yuzasidagi momiqlar va tolachalar ko'tarilib, oson kuyadi, rolikning sovuq yuzasi esa mato haroratining ko'tarilishi oldini oladi.

31- rasmda kuydirish aggregatining umumiy ko'rinishi keltirilgan.


Sariq rangdagi trubalardan gaz va oq rangli trubalar dan esa havo oqimi keladi. Kuydirish kamerasidan keyin, shimdirish mashinasi ko'rinish turibdi. Demak, bu agregat – ip-gazlama va ipak matolarni kuydirish agregati.

Yaponianing "Vakyama" ("Wakayama") firmasi agregat tarkibiga yuvish va shimdirish vannalarini kiritgan. Shunday agregat bir turining texnologik sxemasi 32-rasmda keltirilgan.




31- rasm. "Sando" firmasi gazli kuydirish aggregatining umumiy ko'rinishi

Kuydirish mashinasining asosiy ishchi organi gorelkasi bo'lib, uning turli xil konstruksiyalari mavjud. Professor V. M. Beltsov ularni to'rt turga ajratishni taklif qilgan: ochiq alangali, to'siqli yonish kamerali, radiatsion-konvektiv va alangali. Gaz gorelkasining ochiq alangali va alangali turlari issiqlikdan foydalanish koeffitsiyenti kamligi tufayli hozirgi zamon mashinalarida qo'llanilmaydi. 33- rasmda gaz gorelkasi ikki turining sxemasi keltirilgan.



32-rasm. "Vakayama" firmasi gazli kuydirish aggregatining texnologik sxemasi:

1 – mato; 2 – matoni mashinaga uzatish elementlari 3 – tozalash kamerasi;  
4 – kuydirish mashinasi; 5 – yuvish vannasi; 6 – shimdirish vannasi; 7 – tayyor  
mato roligi.



33- rasm. Gaz gorelkalar sxemasi:

A – to'siqli yonish kamerali gorelka: 1 – gardish; 2 – gaz-havo aralashmasi beriladigan truba; 3 – tirqish; 4 – yonish kamerasi; 5 – keramik nasadka; 6 – sovitish kamerasi; 7 – aralashtirish kamerasi; 8 – mato.

B – radiatsion-konvektiv gorelka: 1 – gardish; 2 – gaz-havo aralashmasi beriladigan truba; 3 – tirqish; 4 – keramik nasadka; 5 – radiatsion yuza; 6 – mato.

To'siqli yonish kamerali gorelkada (33- A rasm) gaz aralashmasi chiqadigan tirqish ustiga o'tga chidamli keramik nasadka bloklar o'rnatilgan. U kichik hajmli gaz aralashmasining yonish kamerasini hosil qiladi, natijada issiqlikning chetga tarqalishi kamayadi va keramikaning  $1000^{\circ}\text{C}$  gacha qizishi ta'minlanadi. Mato keramik bloklar ustidan ularning do'ng joyiga tegib o'tadi. Gorelka konstruksiyasining qo'polligi va suv bilan sovitish sistemasi ning murakkabligi uning kamchiligidir.


33- B rasmda keltirilgan raditsion-konvektiv gorelka konstruksiyasi oddiy va unda suv bilan sovitish sistemasi yo'q. Gorelka ustiga o'rnatilgan keramik nasadkalar alohi-da shaklga ega. Gaz-havo aralashmasi tirqish (3)da yonadi

va nasadka devorlarini 1100 – 1200°C gacha qizdiradi. Keramik bloklar issiqlikni yaxshi akkumilatsiya qiladi va ular yuzasidan chiqayotgan infraqizil nurlar gazning yonish mahsulotlari bian birgalikda matoning yuqori sifatli tozalanishini ta'minlaydi.

Mashina kengligining ortib borishi matoning kengligi bo'yicha bir tekisda ishlov olishida muammolar tug'dirmoqda. Bu muammolardan eng muhimi – gorelka kengligi bo'yicha alanga haroratini bir xillash. Buning uchun gaz-havo aralashmasi gorelka kengligi bo'yicha bir xil miqdorda taqsimlanishi lozim. Gorelkalarning yuqorida keltirilgan konstruksiyalari bu talabga javob bera olmaydi. Yaponianing "Sando" firmasi yuqoridagi talablarga javob beradigan gorelka konstruksiyasini taklif qildi va bu firmaning agregatlari shunday gorelkalar bilan jihozlandi. Bu gorelkaning konstruksiyasi 34- rasmda keltirilgan.

34- rasm. "Sando" firmasi gorelkasining konstruksiyasi:


- 1 – alanga tili; 2 – o'tga chidamli keramik blok; 3 – birlamchi olov; 4 – sovitish g'ovagi; 5 – klapan teshigi; 6 – klapan; 7 – maxovikcha; 8 – birlamchi aralashtirish kamerasi; 9 – qiyshiq teshik; 10 – ikkilamchisi aralashtirish kamerasi; 11 – zanglamaydigan po'latdan yasalgan teshikli plita.



Gaz va havo avtomatik rejimda ishlovchi aralashtirgich bilan aralashtirilib, birlamchi aralashtirish kamerasi (8)ga kiritiladi, so'ng aralashma qiyshiq joylashgan teshiklar (9) va klapan berkitadigan teshik (5) orqali ikkilamchi aralashtirish kamerasi (10)ga beriladi. Yaxshi aralashtirilgan gaz va havo zanglamaydigan po'lat plita (11)ning teshiklari orqali gorelka labiga uzatilib, alanganing gorelka uzunligi bo'yicha bir tekisda bo'lishi ta'minlanadi. O'tga chidamli keramikadan tayyorlangan keramik blok (2)ning devorlari esa gaz aralashmasining bir tekisda yonishini ta'minlaydi, natijada gaz aralashmasi yuqori tezlikda yonadi. G'ovak (4)da gorelka gardishining qizib ketishidan g'ovak (4)ka beriladigansov uq suv saqlanadi.

Mato qalinligi, yuzidagi tolacha va momiqlarning oz yoki ko'pligiga qarab, gorelka alangasi ichidan sovitiladigan mato yo'naltiruvchi rolikka nisbatan holatini o'zgartirishi mumkin. 35- rasmida gaz gorelkasining matoga ta'sir holatlari keltirilgan.

a) standart kuydirish. Odatda. (ko'pincha) mato yuzi shu usulda kuydiriladi;



35- rasm. Gaz gorelkasining matoga ta'sir holatlari:


1 – mato; 2 – gaz gorelksi; 3 – alanga; 4 – ichidan sovitiladigan mato yo'naltiruvchi rolik.

b) kuchli kuydirish. Bu usul og'ir, yuzasida tolacha va momiqlari ko'p matolar uchun yaroqli va qulay;

d) urinma kuydirish. Bu usul nozik matolar uchun qulay va yaroqli.

Standart holatda alanga rolik yuzasiga nisbatan perpendikular yo'naladi. b holatda esa alanga mato yo'nalishiga qarama-qarshi tomonga burilgan, natijada matoga alanganing ta'sir vaqtini uzayadi va mato yuzasidagi tolachalar, momiqlar ko'p bo'lishiga qaramay, kuyib ketishga ulguradi. Va nihoyat, d holatda alanga mato yo'nalishi bo'yicha orqaga surilgan, alanganing matoga ta'sir vaqtini kamayadi, shuning uchun mato yuzasiga yengil ta'sir ko'rsatadi.

Ko'pincha kuydirish agregati o'zi mustaqil ekspluatatsiya qilinadi, chunki uning matoga ishlov berish tezligi ma-



36- rasm. Matoni uzluksiz tayyorlash aggregatining umumiy ko'rinishi:  
1 – kuydirish agregati; 2 – yuvish vannasi; 3 – shimdirish vannasi; 4 – bug'lash kamerasi.

toni bo'yashga va gul bosishga tayyorlash potogi tarkibiga kiruvchi boshqa agregatning tezligidan yuqori. Lekin mashinasozlik firmalari bu agregatni boshqa agregat bilan bir potokda ishlatalish mumkinligini ta'kidlaydilar. Shunday tayyorlov potogining boshlanish qismining umumiy ko'rinishi 36- rasmida keltirilgan.

*Takrorlash uchun savollar:*


1. GO – 240 – M agregati tarkibiga kiruvchi mashinalarni aytib bering.
2. "Sando" firmasi kuydirish agregati tarkibiga kiruvchi mashinalarni aytib bering.
3. "Vakayama" firmasi kuydirish agregati tarkibi boshqa firmalar agregatlari tarkibidan nimasi bilan farq qiladi?
4. Gaz gorelkalari turlari to'g'risida gapirib bering.
5. "Sando" firmasining gorelkasi nimasi bilan xarakterlanshini tushuntirib bering.
6. Gorelka ta'siri matoni qanday o'zgartirishi mumkinligi to'g'risida gapirib bering.

## **2. Matoni shimdirish-yuvish mashinalari**

Ip-gazlama matoga yoyilgan holda ishlov berish unga jgut holatida ishlov berishga qaraganda ko'p afzalliklarga ega ekanligiga qaramay, ba'zi korxonalarda matoni jgut holatida bo'yashga va gul bosishga tayyorlash usulidan foy-dalanib kelinmoqda. Bunday usulni amalga oshirish Ros-siyada ishlab chiqarilgan tayyorlash agregatlari LJO – 1;

LJO – 2 va AQShning “Rodney Xant” firmasining “Dyupon” agregatlarida amalga oshiriladi. 37- rasmda LJO – 2 agregati tarkibiga kiruvchi shmdirish-yuvish MM – 200 mashinasining texnologik sxemasi keltirilgan.

Hajmi 1200 litr bo‘lgan vanna (1)ning ichiga mato yo‘naltiruvchi roliklar (3) o‘rnataligan. Vanna ustida uchta siqish vallari (5) o‘rnatalgan bo‘lib, ularning yuzasi rezina bilan qoplangan. Pastki valning podshipnik gardishi qo‘zg‘almas qilib mashina gardishiga mahkamlangan va bu val yurituvchi bilan bog‘langan. O‘rtada va yuqorida joylashgan vallarning podshipnik gardishlari mashina gardishi bo‘ylab yo‘nalish tekisligida harakat qila oladi va ular o‘zaro sterjen bilan bog‘langan. Bu vallar siqilib turishlari natijasida pastki valdan harakat oladi va ular bir-biridan ajratilganida, ularning orasidagi zazor 30 mm ni




37- rasm. MM – 200 mashinasining texnologik sxemasi:

1 – mato jguti; 2 – vanna; 3 – mato yo‘naltiruvchi rolik; 4 – jgtularni ajratib turuvchi taroq; 5 – val; 6 – yo‘naltiruvchi halqa; 7 – suv purkagich; 8 – bo‘shatish kanali.

tashkil qiladi. Sxemadan ko'rinish turganidek, mato jguti vannaning ikki tarafidan beriladi va spiralsimon tarzda pastki val va yo'naltiruvchi roliklardan o'tib, mashina markazidan o'rtadagi hamda yuqoridagi vallar orasidan o'tib, mashinadan chiqariladi. Har bir jgut 10 tadan spiral hosil qiladi. Bunday zapravkani jgutlarni ajratib turuvchi taroq (4) ta'minlab turadi. Matoni yuvish jarayonida suv va jgutlar qarama-qarshi harakatlanishlari yuvish jadalligini ta'minlaydi. Suv purkagich (7) orqali mato jgutiga sepilayotgan suv ham yuvish jadalligini oshirishga xizmat qiladi. Bu turdag'i mashinalarning katta kamchiliklaridan biri matoning qattiq tortilishi natijasida uning cho'zilishidir va bu cho'zilish jgutlarda bir xil emas. Mashina vaqtiga vaqtiga bilan to'xtatishni, va jgutlarni tekislashni talab qiladi va bu, o'z navbatida, agregat unumdorligini pasaytiradi. Boshqa firmalarning shunday mashinalariga qaraganda, bu mashinaning unumdorligi yuqori, mato tezligi 200 – 224 m/min ni tashkil qiladi. Ammo bu mashinada mato tarangligi yuqori bo'lgani uchun faqat ip-gazlamalarga ishlov berishga mo'ljallangan.

“Rodney Xant” (AQSh) firmasining mato jgutini kam taranglikda va yuqori tezlikda yuvuvchi “Tenzitrol” mashinasini ish davrida mato tarangligini o'zi moslashi bilan boshqa mashinalardan ajralib turadi. Uning texnologik sxemasini 38- rasmda keltirilgan. Matoga ishlov berish tezligi 270 m/min gacha yetadi.

Mashinaga berilayotgan mato (8) halqa (9)dan o'tib, yuqoridagi val (2)da o'tirgan blokka beriladi. Jgut taroq (6) orqali pastki yurituvchi val yordamida planka (5)ga



38- rasm. "Tenzitrol" yuvish mashinasining texnologik sxemasi:

1 – vanna; 2 – yurituvchi val; 3 – yo'naltiruvchi blok; 4 – yurituvchi val; 5 – planka; 6 – taroq; 7 – siqish vallari; 8 – mato jguti; 9, 10 – halqa.

roq, shuning hisobiga mato roliklar yuzasiga ishqalanib harakat oladi. Matoning bu yurituvchi rolikning yuzasiga ishqalanish kuchi qancha katta bo'lса, mato tezligi shuncha katta bo'ladi. Ma'lumki, ishqalanish kuchi rolikni mato tegib turgan yuzasi o'lchamiga va mato tarangligiga bog'liq. Matoning rolik yuzasiga tegib turish burchagi vertikal bo'yicha haraktlana oladigan planka (5) yordamida o'matiladi. Jarayon davomida mato taranglikka o'zi moslashadi va u matoning cho'zilishi yoki kirishishiga bog'liq emas. Agar ba'zi sababga ko'ra xohlagan mato jgutining tarangligi oshsa, u holda uning rolik (2) yuzasiga ishqalanish kuchi oshadi. Bu matoni uzatish tezligini oshiradi, natijada mato tarangligi pasaya boshlaydi. Mato jguti su-


ishqalanib o'tib, val (2)dagi ikkinchi blokka keladi. Shu yo'sinda hamma bloklardan o'tib, 14 ta vertikal spiral hosil qiladi. Shundan so'ng mato halqa (10) orqali mashinaning ikkinchi bo'limiga o'tadi. Bu bo'limda mato spirali teskari tomonga harakat qiladi va ishlov olgan mato si-qish vallari (7) yordamida mashinadan chiqariladi.

Pastdagi roliklar (4) yurituvchi bilan bog'liq, shuning uchun ularning tezligi mato tezligidan biroz katta-roq, shuning hisobiga mato roliklar yuzasiga ishqalanib harakat oladi. Matoning bu yurituvchi rolikning yuzasiga ishqalanish kuchi qancha katta bo'lса, mato tezligi shuncha katta bo'ladi. Ma'lumki, ishqalanish kuchi rolikni mato tegib turgan yuzasi o'lchamiga va mato tarangligiga bog'liq. Matoning rolik yuzasiga tegib turish burchagi vertikal bo'yicha haraktlana oladigan planka (5) yordamida o'matiladi. Jarayon davomida mato taranglikka o'zi moslashadi va u matoning cho'zilishi yoki kirishishiga bog'liq emas. Agar ba'zi sababga ko'ra xohlagan mato jgutining tarangligi oshsa, u holda uning rolik (2) yuzasiga ishqalanish kuchi oshadi. Bu matoni uzatish tezligini oshiradi, natijada mato tarangligi pasaya boshlaydi. Mato jguti su-

sayganda esa, ishqalanish kuchi kamayadi va mato uza-tish kamayishi natijasida tarangligi oshadi. Matoni yuvish jadalligi matoning sirtmoqlar sonini ikki marta ko'paytirish (bunda matonining yuvish vannasida bo'lish vaqtiga ikki matria oshadi), suvning mato tomonidan aralashtirilishini oshirish va haroratni ko'tarish hisobiga erishiladi. Yuvili-shi qiyin bo'lgan matolarni tozalash uchun ikkita vannasi bor "Tandem-tenzitrol" mashinalaridan foydalanish tavsi-ya etiladi. Bunday mashina vannalari o'rtasiga siqish val-lari o'rnatilmaydi.

Matoga yoyilgan holatda ishlov berish pardozlash texnologiyasida keng qo'llaniladi. Bunda mato kengligi bo'yicha tez va bir tekisda ishlov oladi. Gazli kuydirish mashinasida mato yuzasi tozalanadi va to'qish jarayonidan oldin. tanda iplarni shimdirilgan oxordan tozalash uchun matoga kam konsentratsiyali ( $4 - 6 \text{ g/l}$ ) ishqor eritmasi shimdiriladi. Shundan so'ng oxor eritmasi tarkibiga kiruv-chi kraxmal ishqor ta'sirida parchalanishi uchun mato bir necha soatga ( $10 - 12$  soat) rolikka o'ralgan holatda qoldiriladi. Reaksiya mato uzunligi bo'yicha bir tekisda ketishini ta'minlash uchun mato o'ralgan rolik bir tekis aylantirib turiladi.

Mato tayyorlash agregatida oxorning parchalanishidan hosil bo'lgan mahsulotlardan yuviladi. Yuvish jarayoni rolikli yuvish mashinasida amalga oshiriladi. Oxordan tozalangan mato yuvish mashinasidan so'ng o'rnatilgan shimdirish vannasida yuqori konsentratsiyali ( $60 - 70 \text{ g/l}$ ) ishqor eritmasiga shimdiriladi. Agregatning bu qismidan matoning o'tish sxemasi 39- rasmda keltirilgan.




39- rasm. Matoning tayyorlash aggregatining boshlang'ich qismidan o'tish sxemasi:

1 – mato; 2 – yuvish vannasi; 3 – shimdirish vannalari; 4 – siqish vallari.

Ko'p firmalarning matoni tayyorlash aggregatlari tarkibi va ishlash prinsipi bir xil bo'lsada, ularni tashkil qiluvchi mashinalar konstruksiyasi bilan farqlanadi. Ayniqsa, bug'lash-qaynatish kamerasining konstruksiyasi va undan matoning o'tish sxemasi har xilligi bilan ajralib turadi. Ma'lumki, bug'lash kamerasida matoga shimdirilgan ishqor ta'sirida selluloza yo'ldoshlari suv bug'i va yuqori harorat ta'sirida suvda eriydigan komponentlarga par chalanadi. Bu jarayon mato tayyorlash texnologiyasining eng muhim bosqichi bo'lib, kimyoviy reaksiyaning mato kengligi va uzunligi bo'yicha bir tekisda kechishi tayyor mahsulot sifatini belgilaydi. Shuning uchun mashinasozlik firmalari bug'lash-qaynatish kamerasining konstruksiyasini takomillashtirish ustida tinimsiz izlanishlar olib boradi. Firmalar taklif etayotgan bug'lash-qaynatish kameralari ning tuzilishi va ishslash prinsiplarini ko'rib chiqamiz.

40- rasmda "Vakayama" ("Wakayama") firmasining matoni oxordan tushirish, relaksasiyalash va tozalash aggregatining texnologik sxemasi keltirilgan.



40- rasm. Tayyorlash agregatining texnologik sxemasi:

1 – mato kiritish elementlari; 2 – shimdirish vannasi; 3 – baraban; 4 – qaynatish-bug'lash kamerasi; 5 – ta'minlovchi rolik; 6 – mato kirituvchi kichik kamera; 7 – matoni ushlab turuvchi va harakatlantiruvchi zanjir; 8 – sirkulatsiya nasosi; 9 – mato tortib oluvchi mexanizm; 10, 12 – ta'minlovchi rolik; 11 – yuvish mashinasi; 13 – mato qabul qilish mexanizmi.

Bu agregat viskoza, atsetat, poliefir tolalaridan va ular asosida olingan teksturlangan iplardan to'qilgan matolarni tarangmas holda oxordan tushirish, relaksatsiyalash va tozalash uchun yaratilgan. Agregat tarkibidagi mashinalar tezligining avtomatik ravishda nazorat qilinishi va ta'minlovchi roliklar diametrining katta qilinganligi mato yuzasida buklanishlar bo'lishiga yo'l qo'ymaydi. Matoning kam taranglikda harakatlantirilishi va qaynatish kamerasida ozod holda bo'lishi esa tolani tashkil qiluvchi polimerda oldingi ishlovlar davrida to'plangan kuchlanishlarning relaksatsiya bo'lishi imkonini yaratadi. Qaynatish kamerasi sirkulatsion nasos bilan jihozlangan bo'lib, u vannadagi eritmaning bir me'yorda aylanib turishini ta'minlaydi. Kamereda mato undagi harakatlanuvchi zanjirlar elementlariga osilgan holda harakatlanadi. Firma bu agregatning 3 xil

modifikatsiyasini taklif etadi, ularning ba'zi ko'rsatkichlari quyidagi jadvalda keltirilgan.

### 1- jadval

“Vakayama” firmasi mato tayyorash agregatlarining ko'rsatkichlari

Agregat turi	Shimdirish vannasining soni	Qaynatish kamerasidagi mato miqdori, m	Yuvish vannasining soni
Boil – 100	1	100	1
Boil – 150	2	150	2
Boil – 120	2	200	3

Firma iste'molchining taklifi bilan qaynatish kamerasiga 300 va 400 metr mato joylashadigan agregat turini ham tayyorlab berishi mumkin.

#### *Takrorlash uchun savollar:*


1. MM – 200 mashinasining vazifasi to'g'risida gapirib bering.
2. “Tenzitrol” mashinasining ishlash prinsipini tushuntirib bering.
3. “Vakayama” firmasining matoni tayyorlash agregatini tarkibi to'g'risida gapirib bering.

### **3. Tayyorlash agregatlarining reaksiyon kameralari turlari**

Ma'lumki, ip-gazlamalarni tayyorlash jarayonida mato qaynatish-bug'lash kamerasida 15 – 20 daqiqa davomida

ishlov olishi zarur. Tayyorlash agregatida matoning tezligi 0 – 200 m/min ni tashkil qilishi kerakligi hisobga olinsa, qaynatish-bug'lash kamerasidagi mato zaxirasi 4000 metrgacha yetishi lozim. Shuning uchun ip-gazlamalarni tayyorlash agregatlarining qaynatish-bug'lash kamerasi konstruksiyasi va undagi mato holati yuqorida keltirilgan agregatdan tubdan farq qiladi. 41- rasmida Yaponiyaning "Kioto" mashineri Ko. LTD" ("Kyoto" machinery Co. LTD") firmasi tomonidan ishlab chiqarilgan "L – Box "Super" agregatini tarkibiga kiruvchi bug'lash kamerasining sxemasi keltirilgan.

Kamera konstruksiyasining oddiyligi va unda harakatlanuvchi elementlarning kamligi bilan boshqa firmalarning kameralaridan ajralib turadi. Kamerada og'irligi keng dia-pazonda bo'lган matolarga ishlov berish mumkin. Bu 2-jadvalda keltirilgan ma'lumotdan ham ko'rinish turibdi.



41- rasm. "L – Box "Super" aggregatining bug'lash kamerasi:

1 – mato; 2 – matoni yoyilgan holda bug'lash bo'limi; 3 – ta'minlash roligi; 4 – konveyer; 5 – tortib olish roligi; 6 – gidrozavtor; 7 – bug' berish trubasi.


## Bug'lash kameralarining ba'zi ko'rsatkichlari

Turi	Kamera uzunligi, (L), m	Konveyer uzunligi (S), m	Tezlik 100 m/min bo'lganda, mato miqdori	
			Mato uzunligi, m	
			Mato og'irligi 300g/m <sup>2</sup>	Mato og'irligi 130g/m <sup>2</sup>
L 1	4,65	3,2	1500	2700
L 2	6,15	4,7	2400	4200
L 3	7,85	6,4	3500	6200
L 4	9,55	8,1	4500	8000
L 5	11,25	9,8	5800	10300

Matoning kameraning oldingi bo'limidan yoyilgan holatda o'tishi uning tezda va bir tekisda bug'lanishini ta'minlaydi va konveyer ustida ozod holda yotishi kamera da matoning yetarli zaxirasi bo'lishini ta'minlaydi. Konveyerning boshlanish va oxirgi qismlarining qiya qilib tayyorlanganligi matoning unga yuklanishi va undan tortib olinishini osonlashtiradi. Matoga bug'ning ta'siri bir tekisda bo'lishi uchun konveyer panjarasimon gardishga ega. Matoning agregatdan o'tish tezligi 200 m/min gacha.

42- rasmda bug'lash kamerasining tashqi ko'rinishi keltirilgan

Bu tayyorlash agregati ikki qismidan iborat: 1- qismida mato qaynatib bug'lanadi, 2- qismida esa oqartiriladi. 1-qismiga bitta rolikli yuvish mashinasi, ikkita minorali yuvish mashinasi, shimdirish mashinasi, bug'lash kamerasi. uchta minorali yuvish mashinasi kiradi. 2- qismining tarki-




42- rasm. "L – Box "Super" agregati bug'lash kamerasining  
tashqi ko'rinishi

bi esa bitta rolikli yuvish mashinasi, bug'lash kamerasi, ik-kita minorali yuvish mashinasi va 30 ta barabanli quritish mashinasidan ibirat.

Yaponianing "Vakakyama" ("Wakayama" iron works, LTD) firmasi o'zining tayyorlash agregati tarkibiga kiritgan "L – box steamer" bug'lash kamerasini taklif qilgan. Bu kameraning tuzilishi "Kioto" firmasining kamerasiga o'xshash, ammo konveyeri bir yoki ikki yarusli bo'lishi mumkin. 43- rasmida bug'lash kamerasining ikki yarusli turining sxemasi keltirilgan.

Mato (15)ni ta'minlovchi rolik (1) kamera ichiga kiritadi, ta'minlovchi rolik (2) esa matoni yo'naltiruvchi rolik (3) orqali tortadi va mato yo'naltiruvchi plita (11)ga sirpanib, konveyer roliklari ustiga taxlanadi. Konveyerning yuqori tarmog'i matoni kameraning chap tarafidan o'ng tarafiga eltadi va mato konveyerning pastki tarmog'i roliklari ustiga tushib, chap tarafga harakatlanadi. Truba (9)dan berilayot-



43- rasm. "Vakayama" firmasining ikki yarusli bug'lash kamerasi:

1 va 2 – ta'minlovchi rolik; 3 – yo'naltiruvchi rolik; 4 – urgich rolik; 5 – konveyer roligi; 6 – tortib olish roligi; 7 – taranglash uskunasi; 8 – mato miqdorini moslash datchigi; 9 – bug' berish trubasi; 10 – isitish trubasi; 11 – yo'naltiruvchi plita; 12 – ajratuvchi plita; 13 – chiqarish ventilatori; 14 – eshik; 15 – mato.

gan ochiq bug' mato yuzasiga yo'naltirilganligi bois mato harorati oshadi. Trubalar (10) bug' bilan isitilanliklari tufayli kamerada talab etilgan harorat ta'minlanadi. Ishlov olgan mato tortib olish roligi (6) yordamida konveyerdan olinadi va kameradan chiqaruvchi rolikka yuboriladi. Ventilator (13) ishlab bo'lgan bug'ni kameradan tortib chiqaradi. 3- jadvalda kamerani xarakterlovchi ma'lumotlar keltirilgan.

### 3- jadval

1 va 2 yarusli bug'lash kameralarining texnik ko'rsatkichlari


Kamera modeli	Kamera uzunligi, m	Mato miqdori, m	
		Mato og'irligi 130 g/m <sup>2</sup> bo'lganda	Mato og'irligi 300 g/m <sup>2</sup> bo'lganda

**S2L - 05	6,0	4500	2700
S2L - 1	7,5	6000	3600
S2L - 2	9,0	7500	4500
*SL - 05	5,5	2250	1500
SL - 1	7,0	3000	1950
SL - 2	8,5	3750	2400

\* – bir yarusli; \*\*– ikki yarusli.

44- rasmda “Beninger” firmasining kombinatsiyalangan, ya’ni roliklardan mato yoyilgan holda va konveyerda ozod taxlangan holda o’tadigan bug’lash kamerasining konstruksiysi keltirilgan. Bu rasmda ikki konveyerli kamera keltirilgan, ammo matoning bitta konveyerdan o’tishi ko’rsatilgan.

Rasmda ko’rinib turganidek, mato (1) yo’naltiruvchi roliklardan o’tib, bug’lash kamerasi roliklariga sirtmoq-sirtmoq tarzida zapravka qilinadi. Bu bo’limda mato ochiq bug’da ishlov olib, mato taxlagich (4) yordamida konveyer roliklari ustiga taxlanadi va shu holatda bug’ ta’sirida ishlov olishni davom ettiradi.




44- rasm. “Beninger” firmasining kombinatsiyalangan bug’lash kamerasi:

1 – kiruvchi mato; 2 – chiquvchi mato; 3 – rolikli bug’lash bo’limi; 4 – mato taxlagich; 5 – rolikli konveyer.

Bug'lash kamerasidagi mato o'tkazish roliklarining diametri katta (193 va 159 mm) bo'lgani va roliklar qatori orasidagi masofa kichikligi (840 mm – ichki rolik qatori uchun, 1200 mm – boshqa roliklar qatori uchun) matoda bukilishlar hosil bo'lmasligini kafolatlaydi.

Ko'p firmalar xodimlarining o'tkazgan tadqiqotlari shuni ko'rsatdiki. Yuqorida sxemalari keltirilgan bug'lash kameralarida konveyerdagi mato taxlaming yuqori qismida namlikning kamayishi natijasida ishqor konsentratsiyasi oshadi, natijada mato kengligi bo'yicha bir tekisda ishlov berishga erishilmaydi. Bu, o'z navbatida, bo'yash jaryonida nuqsonlar kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Shuning uchun yetakchi firmalar matoga bug' va qaynatish eritmasida ishlov beruvchi kameralar konstruksiyalarini yaratib, matoni tayyorlash agregatlarini jihozlamoqdalar. Bunday bug'lash-qaynatish kamerasiga misol tariqasida 45-rasmda keltirilgan "Ramish Kleynevefers" ("Ramisch Kleinewefers") firmasining "Vikofleks" ("Wicoflex") kamerasini ko'rib chiqamiz.

Mato (1) bug'lash zonasida tortib oluvchi vallar (5) yordamida roliklardan o'tib, yuqoridagi konveyer ustiga taxlanadi. Mato taxlaming yuqori qismi qurib qolmasligi uchun ishqor eritmasi purkagichlar orqali mato yuzasiga purkalib turadi. Shundan so'ng mato taxlami yuqoridagi va pastki konveyerlar orasida, eritmaga cho'kkan holda harakatlanadi. Nasos (6) eritmaning tinimsiz sirkulatsiya bo'lishini va sxemada ko'rsatilgan joylarda mato yuzasiga sepilib turishini ta'minlaydi. Kameradagi bug' va eritma harorati nazorat qilinib, talab qilingan sathda ushlab turila-



45- rasm. "Ramish Kleynefes" firmasining bug'lash-qaynatish kamerasi.

A – bug'lash zonasi; B – eritmada ishlov berish zonasi; 1 – mato; 2 – yuqoridagi konveyer; 3 – pastdag'i konveyer; 4 – purkagichlar; 5 – tortuvchi vallar; 6 – nasos.

di. Natijada mato bir xil sharoitda, bir tekisda ishlov oladi. Firma kamerani bir va ikki konveyerli variantlarini ishlab chiqqan. 4- jadvalda ikki konveyerli kameraning texnik ko'rsatkichlari keltirilgan.

"Moenus" (Germaniya) firmasi mato tayyorlash agregati tarkibiga kiruvchi bir konveyerli kamera konstruk-


#### + jadval

Ikki konveyerli bug'lash-qaynatish kamerasining texnik ko'rsatkichlari

Kamera turi	S 1500	S 3000	S 4000	S 6000	S 8000
Mato og'irligi 200 g/m <sup>2</sup> bo'lganda, mato sig'imi, m	120	240	320	480	640
Roliklar kengligi 1800 mm. turida eritma sirkulatsiyasi, m <sup>3</sup> /min	30	60	60	60	60

siyasnisi ishlab chiqqan. Bu kamerani trikotaj polotnosi va kam taranglikda ishlov olishi kerak bo'lgan matolarni tayyorlash, bo'yash va boshqa ishlovlar berish agregatlari tarkibiga kiritish mumkin. Uning texnologik sxemasi 46-rasmda keltirilgan.


Mato (1) kameraga gidrozatvor (2) orqali kiritiladi va ta'minlovchi rolik (3) uni konveyer roliklari (6) ustiga tashlaydi. Ozod holatda tushayotgan matoning ta'minlovchi rolik yuzasiga o'ralib qolishidan urgich (4) saqlaydi. Urgich soat strelkasi yo'nalishida aylanma harakat qilib, matoning konveyer roliklari ustiga tushishini ta'minlaydi. Konveyer roliklarining maksimal tezligi 50 – 80 m/min oralig'ida bo'lishi mumkin. Konveyer roliklari tezligi moslanib, u matoning kamerada bo'lishi talab qilingan vaqtida o'rnatiladi.



46- rasm. "Moenus" firmasining bug'lash-qaynatish kamerasi:

- I. Ishlov olgan matoni o'tish sxemasi. II. Matoni tayyorlashda o'tish sxemasi.  
 1 – mato; 2 – gidrozatvor; 3 – ta'minlovchi rolik; 4 – urgich; 5 – yurituvchining elektrodvigateli; 6 – konveyer roligi; 7 – nasos; 8 – purkagich; 9 – vanna; 10 – gardish.


Mato kameraga kirishidan konveyerga taxlanishigacha ochiq bug' ta'sirida ishlov oladi, so'ng unga purkagichlar (8) orqali tayyorlash vannasi eritmasi purkalib ishlov beriladi. Bu kamera bo'yash agregati tarkibiga kiritilganda esa, matoni bo'g'lash uchun ishlatilishi mumkin. Firma ma'lumoti bo'yicha, bu kamerada ishlov olgan mato yoki trikotaj polotnosida buklanish izlari qolmaydi. Kameraning yakka holda yoki boshqa mashinalar bilan agregat holida ishlatilishi uning universalligini ta'minlaydi. Kamera-da suyuqlikning katta tezlikda ( $150 \text{ m}^3/\text{soat}$ ) sirkulatsiya qilinishi jarayonning jadal kechishini kafolatlaydi. Matoga ishlov berish davomiyligi 30 daqiqagacha bo'lishi keng assortmentdagi matolarga ishlov berish imkonini beradi. 47- rasmda matoning konveyer ustida taxlanish jarayoni tasvirlangan



47- rasm. Kamera konveyeri roliklari ustidagi mato taxlami:  
1 – mato yoki trikotaj polotnosi taxlami; 2 – konveyer roligi.

Trikotaj polotnolari tortilishga ta'sirchan bo'lganligi uchun ularga ishlov berishda tortish kuchlari imkon darajasida kichik bo'lishi talab etiladi. Jahon mashinasozlik firmalari bu talabni qondiruvchi, tarkibida turli xil bug'lash-qaynatish kamerasi bo'lgan trikotaj polotnolarni bo'yashga va gul bosishga tayyorlash agragetlarini taqdim etishmoqda. Shunday agregatlar tarkibiga kiruvchi "Vakayama" firmasining "Hi – Cellent" turidagi bug'lash kamerasining sxemasi 48- rasmda keltirilgan.

Shimdirish mashinasi (1)da ishchi eritma bilan shimdirilgan polotno oldingi qizdirish bo'limi (2)ning roliklari dan o'tish davrida ochiq bug' bilan ishlov oladi, natijada harorati bir tekisda ko'tariladi. Shundan so'ng u ichki konveyerning yacheykalariga taxlanadi va uning bug' ta'sirida



48- rasm. "Hi – Cellent" bug'lash kamerasining texnologik sxemasi:

- 1 – shimdirish mashinasi; 2 – oldingi qizdirish bo'limi; 3 – ta'minlovchi rolik;
- 4 – mato taxlash bo'limi; 5 – ichki konveyer; 6 – tashqi konveyer; 7 – qaynatish vannasi; 8 – gidrozavtor; 9 – siqish vallari; 10 – tezlik datchigi.

bo‘lishi davom etadi. Ichki va tashqi konveyerlar harakati natijasida yacheikalarda joylashgan polotno qaynatish vannasi (7)ga cho‘kkan holda ishlov oladi. Ishlov oлган polotno gidrozatvor (8)dan o‘tib, siqish vallari (9) yordamida tortib olinadi va yuvish mashinasiga yo‘llanadi. Ishchi organlar o‘zlarining shaxsiy yurituvchisiga egaligi va ular o‘rtasida tezlik datchiklari (10) o‘rnatilganligi ishchi organlar tezligini muvofiqlashtirib. polotno tarangligining ishlov davomida bir me'yorda bo‘lishini ta‘minlaydi. Kameradan polotnoning maksimal o‘tish tezligi 200 m/min ni tashkil qiladi. Firma kameraning turli o‘lchamli turlarini taklif qiladi; ularning ba‘zi ko‘rsatkichlari 5- jadvalda keltirilgan.

### *5- jadval*

“Hi – Cellent” bug‘lash kamerasining ba‘zi texnik ko‘rsatkichlari


Kamera turi	Kameradagi polotno uzunligi, m (mato og‘irligi – 120 m <sup>2</sup> )	Kamera o‘lchamlari, mm	
		L	TL
EX – 09	2800	5150	10150
EX – 11	3600	5600	10600
EX – 15	4800	6500	11500
EX – 19	6000	7400	12400

Bu firma trikotaj polotnosini tayyorlashning bir va ikki bosqichli sistemalarini taklif etgan. Bir bosqichli sistemada agregat tarkibiga ikkita minorali yuvish mashinasi, shimdirish mashinasi, “Hi – Cellent” bug‘lash kame-

rasi, uchta minorali yuvish mashinalari va rolikli yuvish mashinasi kiradi. Bunday agregatda polotno faqat tozalanadi. Ikki bichqichli sistemada esa mato tozalanadi va oqartiriladi. Shuning uchun bunday sistemada ishlovchi agregat tarkibiga qo'shimcha shimdirish mashinasi, "Hi – Cellent" bug'lash kamerasi, uchta minorali yuvish mashinalari va o'ttiz barabanli quritish mashinasi kiradi. Firma tarqatgan ma'lumotga ko'ra, bu agregatlarda polotnoda buklanish izlari bo'lmaydi va polotno kam taranglikda tayyorlanadi.

Germaniyaning "Goller" firmasi paxta va paxta-poliefir tolalaridan tayyorlangan ,tortilishga ta'sirchan matolar va trikotaj polotnolarini tayyorlash agregatlari tarkibiga kiruvchi "Star-trans" bug'lash-qaynatish kamerasini ishlab chiqargan. Bu kamerada mato ochiq bug' tasirida va qaynatish-pishirish vannasida ishlov oladi. Asosiy ishchi organi 16 yachevkali baraban bo'lgan bunday kameraning sxemasi 49- rasmida keltirilgan.

Sxemasi keltirilgan kameraga ishlov olmagan xom mato (1) berilishi mumkin, chunki uning ichiga shmdirish vannasi (2) va siqish vallari (3) o'rnatilgan bo'lib, ular matoning ishchi eritma bilan yetarlicha shmdirilishi ni ta'minlaydilar. Yurituvchisi bor ta'minlash barabani va mato taxlagich (4) matoni baraban yachevkasiga taxlaydi. Bu jarayonga purkagichdan mato yuzasiga yuborilayotgan eritma oqimi ham yordamlashadi. Yachevkali baraban o'z o'qi atrofida asta-sekin aylanganligi tufayli mato taxlamlari barabanning gorizontal o'qi sathiga to'ldirilgan ishchi eritma cho'kadi va ishlov oladi. Ishlov olgan matoni tortib




49- rasm. "Star-trans" bug'lash-qaynatish kamerasining texnologik sxemasi:

1 – xom mato yoki polotno; 2 – shimdirish vannasi; 3 – siqish vallari; 4 – ta'minlash barabani va taxlash mexanizmi; 5 – yulduzsimon baraban; 6 – barabanning gorizontal o'qi; 7 – gidrozatvor; 8 – tortib oluvchi vallar juftligi; 9 – mayatniksimon rolik; 10 – isiqlik almashtirgich.

oluvchi vallar juftligi (8) gidrozatvor (7) orqali kameradan tortib oladi va mato mayatniksimon rolik orqali keyingi mashinaga uzatiladi. Tarkibiga nasos, filtr va issiqlik almashtirgich (10) kiruvchi sirkulatsion sistema kamerada ishchi eritma haroratini va uning sirkulatsiyasini ta'minlab turadi. Ishchi eritmani isitish uchun kameraga ochiq bug'ham beriladi. Bu kamera matolarning kichik partiyalariiga ishlov berishga xizmat qiladi, shuning uchun u 8 yoki 16 yacheykali baraban bilan jihozlanadi. Birinchisining yacheykalariga 200 m, ikkinchisining yacheykalariga 400 metr mato joylashadi. Har bir yacheqa 30 – 60 metr mato sig'diradi. Mato tezligi 40 m/min atrofida bo'lgani uchun, har bir kimyoviy modda bilan ishlov berish vaqtি 15 – 22,5

daqiqani tashkil etadi. Bunday kamerali mato tayyorlash agregatlari "Pedrol" rusumidagi mato oqartirish agregatlariga alternativ sifatida taklif etilgan. Tarkibida uchta "Star-trans" kamerisi bor agregat matoni oxordan tozalash, tozalash va oqartirish uchun juda munosibdir. Hozirda tarkibida vibroyuvish mashinasi va "Star-trans" kamerasi bor agregatlar sanoatda ko'p tarqalgan. Bu agregatlardan matolarni gul bosishdan keyin yuvish uchun foydalanish ham katta samara beradi.

Paxta va poliefir tolalari aralashmasidan tayyorlangan mato va polotnolarni tayyorlash ishlovdan oldin qizdirish va stabillashni talab qiladi. Shuning uchun "Star-trans" bug'lash-qaynatish kamerasi oldiga matoni qizdirish va stabillash seksiyalari o'rnatiladi. Shunday kameraning texnologik sxemasi 50- rasmda keltirilgan.




50- rasm. "Star-trans" bug'lash-qaynatish kamerasining paxta-poliefir mahsulotlariga mo'ljallangan modeli:

1 – mato (yoki polotno); 2 – silindr; 3 – rolikli tezlik datchigi; 4 – bug lash kamerasi; 5 – siqish vallari; 6 – ta'minlash barabani va taxlash mexanizmi; 7 – yulduzsimon baraban; 8 – barabanning gorizontal o'qi; 9 – gidrozavtor; 10 – tortib oluvchi vallar juftligi; 11 – rolikli tezlik datchigi; 12 – isiqlik almatirgich.

Yuzasiga teflon qoplangan silindrlar (2) matoni tez qizdirish uchun xizmat qiladi, rolikli tezlik datchigi (3) esa qizdirish silindrlari (2) bilan siqish vallari juftligi (5)ning tezligini o'zaro moslashga xizmat qiladi.

Bug'lash kamerasiga o'rtacha hisobda 28 metr mato joylashadi, qolgan qismi 48- rasmda keltirilgan kamera bilan bir xil.

Yaponianing "Sando" firmasida ishlab chiqarilgan mato tayyorlash agregati tarkibiga sxemasi 51- rasmda keltirilgan bug'lash-qaynatish (reaksion) kamerasini kirtigan. Kamera ichi bug'li va qaynatish zonalariga bo'lingan. Bug'li bo'limda mato bug' bilan bevosita qizdiriladi. Kerakli yuqori haroratni bu qismda o'rmatilgan bug'li kalorifer ta'minlaydi. Uzatuvchi siqish vallaridan chiqqan mato to konveyerga tushgunga qadar bug' bilan bevosita qizdiriladi. Qizdirilgan mato erkin holda markaziy baraban bilan



51- rasm. "Sando" firmasining reaksiyon kamerasi:

1 – mato; 2 – reshokali konveyer; 3 – kamera gardishi; 4 – markaziy baraban;  
5 – gidrozatvor.

konveyer oralig‘ida joylashib. pishitish eritmasida ishlov oladi. Bug‘lash qismida bug‘ning kerakli namligi vanna-ning bug‘lanishi hisobiga ta’milanadi. Matoning kameraga kirish va chiqish qismlarida gidrozatvor o‘rnatilgani kameradan bug‘ning tashqariga chiqishining oldini oladi.

Mato tayyorlash agregatlari o‘lchamlari har xil bo‘lgan xuddi shunday kamera bilan jihozlanishi mumkin. Unga muvofiq kameradagi mato uzunligi 3000 dan 8000 metrgacha bo‘lishi mumkin. Agregatda matoning 1, 2 yoki 3 bosqichli tayyorlash jarayonini amalga oshirish mumkin. Agregat qismlari yurituvchisi mashinalar tezligini o‘zaro moslash imkoniyatiga ega. Mato yoyilgan holda bug‘ bilan bevosita ishlanishi va uning buklanib qolmasligi, tortilish kuchining kamligi, qaynatish eritmasida erkin holda ishlov berilishi uning yuqori sifatli bo‘lishini ta’minlaydi. Ayni mana shu jihatlari bilan bu kamera boshqa firmalarning reaksiyon kameralaridan farq qiladi. Kamera ishga tushishi bilanoq, markaziy baraban tarkibiga kiruvchi plita matoning to‘planishi va uning suyuqlik ichiga harakatlanishini ta’minlaydi. Kamera mato bilan to‘lgandan so‘ng, bu plita to‘xtab turadi. Avval bug‘ bilan, so‘ng esa qaynatish eritmasida ishlov berilgani bois, mato tolalarining kesimida uning markaziy qismigacha eritma bilan ishlov oladi.

#### *Takrorlash uchun savollar:*

1. “L – “Box Super” aggregati bug‘lash kamerasi to‘g‘risida gapirib bering.
2. “L – “Box Super” aggregati bug‘lash kamerasida mato konveyerga qanday taxlanadi?

3. Ikki yarusli bug'lash kamerasingning ishslash prinsipini tushuntiring.

4. "Ramish Kleynevesfers" firmasi tomonidan ishlab chiqarilgan bug'lash-qaynatish kamerasingning tuzilishi to'g'risida gapirib bering.

5. "Ramish Kleynevesfers" bug'lash-qaynatish kamerasi qanday ishlov berish zonalariga ega?

6. "Moenus" firmasining bug'lash-qaynatish kamerasi nimasid bilan boshqa kameralardan farqlanishini tushuntiring.

7. "Moenus" firmasining bug'lash-qaynatish kamerasingning qaysi ishchi organi matoni harakatlantiradi?

8. Qaysi bug'lash-qaynatish kameralarida mato ham bug'lanadi, ham eritmada ishlov oladi?

9. "Sandii" firmasining bug'lash kamerasidagi mato harakatini tushuntirib bering

10. "Star-trans" bug'lash-qaynatish kamerasingning ishslash prinsipini gapirib bering

11. "Hi – Cellent" bug'lash kamerasingning afzalligi nimada?

## 2- §. Tolali materiallarni yuvish jarayoni

### 1. Yuvish jarayonining umumiy xarakteristikasi

To'qimachilik materiallarini pardozlash texnologiyasida yuvish jarayoni ko'p marta qaytariladigan jarayonlardan hisoblanadi, ammo, shu bilan birga, u texnologiyaning eng zaif joyi hamdir. Bu jarayon ko'p energiya talab qilishi bilan boshqa jarayonlardan ajralib turadi. Masalan, yuvish

uchun pardozlashdagi issiqlik enegiyasining 15 – 20% i, elektroenegiyaning 40% i sarflanadi. Shuning uchun suv sarfini kamaytirish, ishlatalgan suvni tozalash va suv ishlatalishning berk sistemasiga o'tish muhim vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. Buning uchun o'xshashlik nazariyasi va o'lchamlar tahlili asosida yuvish jarayonining mukammal nazariyasini yaratish talab qilinadi. Nazariy va amaliy izlanishlar natijalari yuvish jarayoni va uni amalga oshiradigan jihozlarning muhandislik hisob-kitoblarini bajarishga yaroqli nisbatlarni olish imkonini yaratadi.

Pardozlash jarayonida yuvish orqali matodan xilma-xil moddalar chiqarib tashlanadi. O'zlarining fizika-kimyoviy xossalari jihatidan ular quyidagi guruhlarga ajratilishlari mumkin:

1. Suvda to'liq yoki qisman eruvchan organik va noorganik moddalar.

2. Suvda eruvchan organik birikmalar, shu jumladan, emulgirlovchi birikmalar (moylar, yog'lar, smolalar va boshqalar).

3. Suvda erimaydigan noorganik moddalar (mexanik iflosliklar qoldiqlari, chang va boshqalar).

Matolarni pardozlashda birinchi guruhi iflosliklari bilan eng ko'p to'qnash kelinadi. Bular: ishqorlar, kislotalar, oksidlovchilar, to'qimachilik yordamchi moddalari (TYoM), bo'yovchi moddalar, oxorlovchi moddalar, gul bosish bo'yog'ining quyuqlovchilari.

Ikkinci va uchinchi guruhi iflosliklari kamroq uchraydi.

Yuvishdagi massa uzatish jarayonida diffuziya jarayoni muhim o'rinni tutadi, shuning uchun ifloslikning fizika-

kimyoviy xossalari yuvish jarayoni kinetikasiga katta ta'sir ko'rsatadi. Yuvish jarayonini jadallashtirishning hamma usullari yuvish muhiti gidrodinamikasining o'zgarishi bilan bog'liq.

Yuvish jarayoni – bu iflosliklarni erituvchi yordamida yoki ekstraksiya yo'li bilan chiqarishning geterogen fizika-kimyoviy jarayonidir. Ko'pincha suv erituvchi rolini bajradi. Shu munosabat bilan, ba'zi bir korelatsiyalar kiritish orqali massa almashuv jarayonlar nazariyasi va hisob-kitob usullaridan yuvish jarayoni hamda tipovoy (namunaviy) yuvish mashinalarining muhandislik hisob-kitoblarini ishlab chiqishda foydalanish mumkin. Bunda nafaqat mato strukturasi xossalari, balki uning tolasini tashkil qiluvchi polimer xossalari ham inobatga olish zarur bo'ladi.

Ho'l matolarda iflosliklar erigan va tola yuzasiga sorblangan holatlarda bo'ladi. Erigan ifloslikni chiqarib tashlash uchun mato shimigan eritmani toza suvgaga almashtirish kifoya. Tola yuzasiga sorblangan ifloslikni chiqarib tashlash iflosliklarni tola yuzasidan desorbsiyalash va konsentratsiya gradiyenti ta'sirida tola hamda yuvish suyuqligi orasidagi fazalarning ajralish yuzasiga diffuziya qilish orqali amalga oshiriladi. Yuvishtining bu bosqichi juda sekin kechadi, shuning uchun uning tezligi yuvishning umumiy tezligini belgilaydi.

Ifloslikning fazalar ajralish yuzasiga diffuziya tezligi nafaqat tola strukturasi g'ovaklari o'lchamiga, balki ifloslik bosib o'tadigan yo'l uzunligiga, ya'ni tola qalinligiga ham bog'liq. Ifloslik diffuziya jarayonining ikkinchi bosqichi massa uzatish bo'lib, uni tola-eritma ajralish yuzasidan dif-

fuzion chegara qatlam orqali oqim yadrosiga o'tkazishdan iborat. Bu qatlamning qalinligi suyuqlik oqishining gidrodinamikasiga, tebranishlarga va muhitga bo'lgan boshqa ta'sirlarga bog'liq.

## 2. Yuvish jarayonining matematik ifodasi

Muhandislik hisob-kitoblarida yuvish jarayonini harakatlantiruvchi kuch sifatida ifloslikning ma'lum muhitdagi (tola yoki yuvish suvidagi) shu vaqtdagi konsentratsiyasi bilan uning muvozanat konsentratsiyasi o'rta sidagi farq qabul qilinadi. Ifloslikning muvozanat konsentratsiyasi tajriba izlanishlari yordamida aniqlanadi. Muvozanatning eng oddiy tenglamasi bu quyidagi ko'rinishdagi chiziqli tenglamadir:

$$C^1 = K^1 C \quad (1).$$

Bu yerda:  $C^1$  – ifloslikning matodagi muvozanat konsentratsiyasi;  $C$  – ifloslikning eritmadagi konsentratsiyasi;  $K^1$  – muvozanat konstantasi.

Bu tenglama Genrining chiziqli qonuniga bo'ysunuvchi mato-eritma tizimidagi muvozanatni aniqlaydi. Shuning uchun bu konstanta Genri konstantasi deb ham yuritiladi. Bu qonunga ip-gazlama o'yuvchi natriyning suvli eritmasi sistemasidagi ishqor konsentratsiyasi ham bo'ysunadi. Yuvish jarayoni fizika-kimyoviy sorbsiya jarayoniga o'xshash bo'lib, faqat unga teskari yo'nalishdagi desorption jarayondir.

Shunday qilib, bo'yovchi moddaning tolaga sorbsiyasiiga o'xshab ifloslikni yuvish jarayonini quyidagicha tasav-

vur qilish mumkin: ifloslikning tola ichidan uning yuzasiga diffuziyasi, ifloslikning eritmaga desorbsiyasi va oxirgisi – bu ifloslikning eritmada tarqalishi. Tenglama (1) shmidtirish jarayoni uchun haqiqiy. Bu tenglama yuvish jarayoni uchun quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:

$$C^1_r = K^1_r C + d.$$

Bu yerda:  $d$  – ozod had bo'lib, u eritma konsentratsiyasi nolga teng bo'lganda matoda ifloslik konsentratsiyasining oxirgi miqdori  $d$  ga teng bo'lishini ko'rsatadi.

Uzluksiz ishlaydigan yuvish mashinalari uchun tarqalgan modda (ifloslik) bo'yicha material balans tenglama-sini quyidagi differensial tenglama ko'rinishida ifodalash mumkin:

$$b V M \frac{dC^1}{dt} = L \frac{dC}{dt} \quad (2).$$

Bu yerda:  $b$  – mato kengligi;  $V$  – mato tezligi;  $M$  – ma-toning yuzaviy zichligi;  $L$  – yuvish eritmasining hajmiy sarfi.

Tenglama (2)ni integrallab quyidagini olamiz:

$$b V M (C^1_n - C_k) = L (C_k - C) \quad (3).$$

Bu yerda:  $C^1_n$  – matodagi ifloslikning boshlang'ich konsentratsiyasi;  $C_k$  – eritmadagi ifloslikning provard konsentratsiyasi.

Tenglama (3) orqali eritmadagi ifloslik konsentratsiyasini matodagi ifloslik konsentratsiyasining funksiyasi sifatida ifodalash mumkin.

$$C = (C_k - \frac{bVM}{LC_k}) + \frac{bVM}{LC^1} = R^1 + SC^1 \quad (4).$$

$$\text{Bu yerda: } R^1 = C_k - \frac{bVM}{LC}; \quad S = \frac{bVM}{L}; \quad \text{Tenglama (4)}$$

yuvish jarayonining ishchi chizig'i tenglamasi deb yuritiladi. Matoga yoyilgan holatda ishlov beruvchi mashinalarda kechayotgan yuvish jarayonining hisob-kitobi uchun massa uzatish kinetikasining quyidagi tenglamasidan foydalaniш mumkin:

$$-MV \frac{dC^1}{dt} = \beta_r (C^1 - C_p^1) \quad (5)$$

Bu yerda:  $\tau$  – yuvishning hozirda kechayotgan davomiyligi;  $\beta_r$  – matoning birlik yuzasiga nisbatan olingan massa uzatish koeffitsiyenti;  $C^1$  – ifloslikning matodagi muvozonat konsentratsiyasi.

Yuvish mashinalarini hisob-kitob qilishda ikkita masala yechiladi:

1. Yuvish mashinasi yoki agregatini loyihalashda matodagi ifloslik konsentratsiyasining berilgan provard konsentratsiya  $C_k^1$  gacha kamayishini ta'minlovchi mato zapravkasi uzunligini aniqlash. Bu masalani yechishdan ko'zlangan maqsad – shu konstruksiyadagi yuvish mashinalari sonini aniqlash.

2. Mavjud yuvish mashinalarini ekspluatatsiya qilishda matodagi ifloslikning provard konsentratsiyasiga aniqlik kiritish yoki matodagi ifloslikning berilgan provard konsentratsiyasini ta'minlovchi mato tezligini aniqlash. Bu masalani yechishdan ko'zlangan maqsad, bir artikuldan ikkinchi artikulga o'tilganda, yuvish linayasidagi yuvish jarayoni parametrlarini aniqlashdir.

Umumiy masalalarni yechish uchun tenglama (5)ni ma'lum chegara shartlarini hisobga olgan holda integral-lash lozim:


$$L_{zapr} = MV / \beta, \int dc' / (C' - C_r) \quad (6).$$

Yuvish jarayonini o'rghanish uchun kriterial tenglamalar dan ham foydalanish mumkin.

Kriterial bog'liqliklarni keltirib chiqarish uchun rolikli mashina sxemasidan foydalanamiz.

O'zgarmas haroratda amalga oshiriladigan yuvish jarayoni hisob-kitobining vazifasi matodan yuvilishi lozim bo'lган moddaning provard konsentratsiyasi ( $C'_{k}$ )ga erishish uchun zarur bo'lган yuvish vaqtiga ( $\tau_k$ )ni aniqlashdan iborat.

Buning uchun beriladigan ma'lumot: matodan yuvila-yotgan moddaning boshlang'ich konsentratsiyasi –  $C'_n$ ;



52- rasm Rolikli yuvish mashinasining texnologik sxemasi

mato tezligi –  $V$ ; eritmadiagi ifloslik konsentratsiyasi –  $U$ ; mato qalinligi –  $P_v$ ; mato zichligi –  $\rho'$ ; eritma zichligi –  $\rho$ ; diffuziya koefitsiyentlari –  $D'$ ,  $D$ ; va massa uzatish koefitsiyenti  $D_t$ .

### Jarayonning kriterial ifodasi

Biz ko‘rayotgan jarayon uchun adabiyotda kriterial ifodalarning keltirib chiqarilgan varianti bor. Ammo biz bu ifodalarni keltirib chiqarishsiz, tayyorini yozamiz. Masa-lan, yuvishning samarasi ( $\eta$ ) uchun:

$$\eta = \frac{C_p' - C_s'}{C_s'} . \text{Nusselt kriteriysi } Nu = f(Re_w, Pr, K_m)$$

Bu yerda:  $Re_w$  – keltirilgan Reynolds kriteriysi;  $Re_w = \frac{Ww}{v}$ ;  $K_m$  – matoning zichligi va qalinligi orqali uning massastrukturna xossalalarini ifodalovchi kompleks. Bu kompleks tajriba natijalaridan aniqlanadi;  $W$  – yuvish mashinasi turiga qarab bu matoni suyuqlik siypab o‘tish yoki filtratsiya tezligi.

U holda:  $\eta = (1 - C_p' / C_s') f(Re_w, Pr, K_m, Fo)$ .

Bu yerda:  $f(Re_w, Pr, K_m, Fo) = 1 - \exp[-2Fo f(Re_w, Pr, K_m)]$ .

Shunday qilib, quyidagi ifoda yordamida kriterial bog‘liqlikdan foydalanib, yuvish jarayoni davomiyligini hisoblash mumkin.

$$\tau_\kappa = Hoh/U.$$

Bu yerda:  $Hoh$  – gomoxronlik kriteriysi.

Yuvish jarayonining keltirilgan tahlili shuni ko‘rsatadiki, bu jarayonda uchta ketma-ket bosqichni ajratish mum-

kin: birinchi bosqich jarayonni belgilovchi bo'lib, unda mato yuzasidagi va iplararo kenglikdagi iflos eritmaning mexanik usulda yangi, toza eritma bilan alamashuvi xizmat qiladi. Ikkinci bosqichni belgilovchi jarayon bo'lib ipler va tolalar bo'shilqlaridagi ifloslikni chiqarish tezligi kamayib boradigan konvektiv-diffuzion jarayon xizmat qiladi. Uchinchi – oxirgi bosqichda ifloslikning matodan chiqishi muvozanat konsentratsiyasiga yaqin bo'lishigacha davom etadi. Sanoat agregatlarida yuvish jarayoni ikkinchi bosqich bilan tugaydi.

### **3. Yuvish jarayonini belgilovchi omillar**


Aprior ma'lumotni zanjirlash usuli yordamida yuvish jara-yonini belgilovchi quyidagi omillar o'rnatilgan: yuvish davomiyligi, yuvish eritmasining harorati, mato tezligi, ifloslikning turi va konsentratsiyasi, matoning yuzaviy va strukturaviy zichligi, yuvish eritmasining sarfi. Yuqorida sanab o'tilgan omillarni uch guruhgaga ajratish mumkin: yuvish obyekti sifatida matoni xarakterlovchi; iflosliklarni fizika-kimyoviy va boshqa xossalalarini hisobga oluvchi va jarayondagi gidrodinamik holatni baholovchi omillar. Birinchi va ikkinchi guruh omillari mato qalinligida ifloslikni diffuzion uzatish jarayonini aniqlaydi. Uchinchi guruh omillari esa, asosan, mato yuzasidan massa uzatish jadaligini aniqlaydi. Bu keltirilgan guruhlar o'rtasida chambarchas o'zaro bog'liqlik mavjud.

Mato tayyorlangan tola tabiatni, uning strukturasi va matoni pardozlash turi uning muhim xarakteristikalarini hisob-

lanadi. Izlanuvchilar matoning filtrlash va sorplash qobiliyatlari ham muhim ekanligini ta'kidlaydilar.

Yuvish jarayonini jadallashtirishning hamma usullari yuvish muhiti gidrodinamikasining o'zgarishi bilan bog'liq. Yuvish mashinalarining prinsipial konstruksiyalari va ularning klassifikatsiyasi bilan tanishmay turib, yuvishni jadallashtirish usullarini baholab bo'lmaydi.

Sanoatda yuvish mashinalarining yuzlab turlari ekspluatatsiya qilinadi. Matoning o'tish prinsipi bo'yicha bu mashinalarni uch guruhga ajratish mumkin: rolikli, barabanli va relaksatsion (konveyerli) mashinalar. 53- rasmida mshinalardan mato o'tishining texnologik sxemalari keltirilgan.



53- rasm. Yuvish mashinalaridan mato o'tishining texnologik sxemalari

53- I rasmda rolikli mashinadan matoning o'tish sxemasi keltirilgan: a – vertikal zapravka; b – gorizontal zapravka; d – vertikal-gorizontal zapravka; e – qiyshiqko'p yarusli zapravka. Bu mashinalardagi diametri 0,08 – 0,15 m va oralaridagi masofa 0,5 – 1,5 m bo'lган roliklardan matoning birin-ketin o'tishi ularning o'ziga xosligini tashkil qiladi. Pardozlashda bu mashinalar keng assortmentdagi matolarni yuvish uchun ishlatiladi.

Keltirilgan sxemalardan ko'rinish turibdiki, bu mashinalarda mato vertikal, gorizontal, qiyshiq va kombinatsion, ya'ni vertikal-gorizontal ko'rinishdagi qatorlar bo'lib o'tadi.

53- II rasmda ikkinchi guruh mashinalaridagi matoning zapravkasi keltirilgan: f – bosim farqi ta'sirida suyuqlik bosib chiqariladi; g – soploli yoki purkagichli bir baraban bilan; j – soploli yoki purkagichli bir nechta barabanli. Bu mashnalar barabanlarining diametri 0,3 – 0,8 metr bo'lib, ularning yuzasi matoning asosiy qismini tutib turadi. Bu mashinalar strukturasi oson deformatsiyalanadigan matolarni va trikotaj polotnolarini yuvish uchun tavsiya qilinadi. Bu guruhga kiruvchi mashinalarda suyuqlik mato qallinligida ikki usul bilan harakatlantiriladi: birinchi usulda baraban tashqarisi va ichkarisidagi bosim farqi hisobiga; ikkinchi usulda esa suyuqlik mato yuzasiga soplolar va purkagichlar orqali yo'naltiriladi.


Uchinchi guruh (53- III rasm) mashinalarning ishchi organi konveyer bo'lib, unga mato yoki trikotaj polotnosi ozod holda taxlanadi va uzoq vaqt ishlov oladi. Konveyer shakli har xil ko'rinishda bo'lishi mumkin: gorizontal,

dumaloq, etiksimon va hokazo. Bu mashinalarda yuvish jarayonidan tashqari, relaksatsiya jarayoni ham kechadi. Yuvish liniyalari tarkibiga yuqorida keltirilgan mashina guruhlariga oid mashinalar kirishi mumkin.

#### 4. Matoni yuvishning mavjud mexanizmlari

Mashina turiga qarab, yuvish suyuqligining matoga ta'sir etishining quyidagi to'rt mexanizmi namoyon bo'lishi mumkin. Bu mexanizmlarni ifodalovchi sxemalar 54- rasmda keltirilgan.

- a) atroflab oqib o'tish – mato suyuqlikka nisbata ma'lum tezlik bilan harakatlanadi;
- b) filtratsiya – bosim farqi  $\Delta R$  ta'sirida suyuqlik ma'lum tezlikda harakatlanayotgan matodan filtrlanadi;
- c) ma'lum vaqt yotmoq – matoning ishlov berish suyuqligiga nisbatan tezligi nolga yaqin;
- e) soplidan ishlov berish – matoga uni ikki tarafida



54- rasm. Yuvish suvining to'qimachilik materiali bilan o'zaro ta'sir mexanizmlari

o'rnatilgan soplo yoki purkagichlardan yo'naltirilayotgan suyuqlik bilan ishlov beriladi.

Yuvish mashinalar ishining tahlili shuni ko'rsatdiki, yuvish suyuqligining mato bilan ta'siri bir vaqtning o'zida bir necha mexanizm asosida bo'lishi mumkin, ammo har bir mashina uchun bir mexanizm hukmron bo'ladi. Masalan, mato vertikal o'tadigan rolikli mashinada suyuqlikning matoni atroflab o'tish mexanizmi ustivor bo'ladi, minorali va barabanli mashinalarda esa filtratsiya mexanizmi ustivor bo'ladi. Yuvish jarayonini jadallashtirish usuli yuvish suyuqligining matoga ta'sirining ustivor mexanizmini hisobga olgan holda tanlanishi lozim. Masalan, vertikal zapravka uchun matoni sirtmoq-sirtmoq tarzida o'tkazish mato oqimining girdoblanishini hosil qiladi, bu, o'z navbatida, suyuqlikning matoga kirishini osonlashtiradi.

#### *Takrorlash uchun savollar:*

1. Matoda mavjud bo'ladigan iflosliklar to'g'risida gapirib bering.
2. Yuvish jarayonini ifodalovchi tenglamani sharhlab bering.
3. Yuvish mashinalarida matoning o'tish prinsipi bo'yicha ularning turlarini gapirib bering.
4. Yuvish jarayonining mavjud mexanizmlarini tushuntirib bering.

### 3- §. Yuvish mashinalari va jarayonni jadallashtirish usullari


Respublikamizdagi ip-gazlama ishlab chiqarish korxonalarining pardozlash fabrikalarida Rossiyaning "Ivtek-mash" firmasi yaratgan MM – 200 – 6 material yuvish mashinalari ekspluatatsiya qilinmoqda. Bu turdagи mashinalarda mato jguti tarang tortilgan holda ishlov olishi va uning ishslash prinsipi yuqorida ko'rib o'tilgan edi.

Amerikaning "Xanter" firmasining "Tenzitrol" rusumidagi mato jgutini material eritmalar bilan shimdirish va yuvish mashinalaridan chet elda keng foydalaniladi. Bu mashinada matoning zapravka qilinishi va uning ishslash prinsipi ham yuqorida ko'rib o'tilgan edi.

Yuvish jarayonida massa uzatish bo'yicha yaxshi natijaga matoni shimdirish va yuvishga mo'ljallangan MVPJ – 1 mashinasida erishiladi. Uning sxemasi 55- rasmida keltirilgan.

55- rasm. MVPJ – 1 mashinasining texnologik sxemasi:

1 – mato jguti; 2 – yo'naltiruvchi rolik; 3 – ichi bo'sh val; 4 – podshipnik; 5 – yurituvchi shkiv; 6 – ko'popastli vint; 7 – silindriq kamera; 8 – konfuzor; 9 – difuzor; 10 – yo'naltiruvchi rolik; 11 – mato chiqaruvchi roliklar justligi; 12 – vanna.




Ishlash prinsipi va tuzilishi: mashina vannasi (12)ga uning hamma harakatlanuvchi elementlari mahkamlanadi. Harakatsiz markaziy truba (3) orqali mato jguti (1) mashinaga beriladi. Tashqi yurituvchi trubaga yurituvchi shkiv (5) va ko'plopastli vint (6) mahkamlangan. Lopastli vint aylanib, suyuqlikni konfuzor (8) va diffuzor (9) orqali harakatlantirishi tufayli matoga jadal defarmatsion ta'sir ko'rsatiladi va bu massa uzatish va ishchi eritmaning filtratsiyasi jadallahshuvini oshiradi. Buning natijasida esa unumdorlik ikki marta oshadi, mashina egallagan maydon miqdori to'rt marta kamayadi.

Mashina MS – 260 – 1 yuza zichligi 150 – 480 g/m<sup>2</sup> bo'lgan mato jgutini shimdirish va yuvish vazifasini bajaradi.

Urgich rolik (3) mato jgutining pastki valga o'ralishining oldini oladi. Jgut ajratgich jgutlarning chalkashib ketishlaridan saqlaydi. Vannada yangi suvni jgutga beruvchi purkash trubalari, ortiqcha yuvish eritmasining oshib tu shish teshigi, ishlab bo'lgan eritmani chiqarish klapani va suyuqlikni isituvchi ochiq va berk bug' beruvchi trubalari joylashgan.

Mato tezligi pog'anali o'zgartiriladi va quyidagi miqdorlarga ega: 40, 63, 80, 100, 125 va 140 m/min. Mashina o'zi alohida ishlashi yoki LJO – 1L, LJO – 1 L3 agregatlari tarkibiga kirishi mumkin. Mashina jarayon parametrlarini avtomatik ravishda moslash elementlari bilan ta'minlangan. Yuza zichligi 200 – 1000 g/m<sup>2</sup> bo'lgan jun matolarni yuvishga mo'ljallangan MPJ – Sh – 2 mashinasini ham shunday konstruksiyaga ega.



56- rasm. MS – 260 – 1 mashinasining texnologik sxemasi:

1 – mato jguti; 2 – pastki val; 3 – urgich val; 4 – jgut ajratuvchi taroq  
5 – yo'naltiruvchi rolik; 6 – o'rtanchi val; 7 – yuqoridagi val; 8 – yo'naltiruvchi  
rolik; 9 – tortib oluvchi baraban; 10 – purkagich.

Bu mashinada mato jguti ozod holda ishlov oladi, buning uchun mato ozod holda pastki va o'rta vallar orasiga zapravka qilinadi. Yuvish jadalligini oshirish maqsadida mashina konstruksiyasida kuchli purkagichlar o'rnatilgan. ular orqali tserkulatsion nasos yordamida ishchi eritma ishlov olayotgan mato jgutiga beriladi. Bu mashinaning siqish vallari tagiga iflos suvni toplash va chiqarish uchun xizmat qiladigan tog'ara o'rnatilgan. Mashina vannasining oldingi qismida ochiq bug' bilan isitiladigan bo'lim bor, unda mato oshib o'tadigan truba, ishlab bo'lgan eritma chiqariladigan klapan va ishchi eritmani doim tozalab turadigan filtr bor. Vannaning orqa devoriga uning kengligi bo'yicha toza suvni beruvchi truba o'rnatilgan. Mashina ishchi eritmalar, va suv dozatorlari hamda harorat regu-

latori bilan ta'minlangan. Bu mashina davriy ishlaydi va mato tezligi pog'anali o'zgartiriladi, uning miqdori quyidagi miqdorlarga ega bo'ladi: 63, 94 va 125 m/min.

Yuvish jarayonida jun matolarni pardozlashda qo'llaniladigan kimyoviy moddalar qoldiqlari chiqarib tashlanish kerak. Ular quydagilar: tabiiy yog', moylovchi moddalar, oxorlovchi moddalar, kislota va boshqalar. Bu jarayonda mato yengil grif va oz miqdorda kirishish olishi kerak. Mashinalarni uzluksiz ishlaydigan agregatga bir-lashtirish mumkin. Tig'izlash-yuvish mashinalarida ham mato yuviladi.

Matolarni jgut holatida yuvishning kamchiligi bu matoda buklangan joylarining va kertma belgilarning hosil bo'lishidir. Bu nuqsonlar bo'yash jarayonida matoda yo'il-yo'il izlar hosil bo'lishiga olib keladi, shu bilan birga, mato kengligi bo'yicha noteks ishlov oladi va jgutda qattiq buralish paydo bo'lishi mumkin. Tortish kuchlariga barqaror bo'lgan matolarni yoyilgan holda yuvish keng tarqalgan.


Yuvish mashinalari jarayonni tez, kam energiya, kam suv, kam sirt aktiv moddalar sarf etib amalga oshirilishini ta'minlashi lozim, shu bilan birga. ularni o'rnatish uchun kam maydon talab qilinishi kerak. Shu talablarga javob beradigan yuvish mashinalarini yaratishda firmalar o'rtasida qizg'in raqobat mavjud. Firmalar taklif qilayotgan yuvish mashinalarning tuzilishi va ishslash prinsipi bilan tanishib chiqamiz.

Eng oddiy yuvish mashinasini bu rolikli mashina bo'lib, uning tarkibiga yuvish vannasi, uni ichida matoni o'tishini ta'minlovchi roliklar va vannaning ikki tarafiga o'rnatilgan

siqish vallari kiradi. Shunday oddiy yuvish mashinasining sxemasi 57- rasmda keltirilgan.

Mato (1) siqish vallari (2) orqali oldingi mashinadan yoki mato o'ralgan rolikdan tortib olinadi. Siqish vallari (4) esa matoni vanna roliklaridan o'tkazadi. Bu vaqtida mato vannadagi yuvish eritmasida yuviladi. Taranglash roligi (6)dan olingan signal asosida mato kirishidagi siqish vallari (2)ning tezligi mato chiqishidagi siqish vallari (4) ning tezligiga moslashtiriladi. Buning uchun siqish vallari yurituvchisi doimiy tokda ishlovchi elektrodvigatellar bilan jihozlanadi.

"Menzel" firmasi bunday yuvish mashinasida jarayonni jadallashtirish uchun yuvish vannasiga havo oqimini yubo-




57- rasm. Rolikli oddiy yuvish mashinasining sxemasi:

1 – mato; 2 – mato kirishidagi siqish vallari; 3 – vanna; 4 – mato vannadan chiqishidagi siqish vallari; 5 – pnevmomexanizm; 6 – taranglash roligi – tezlik datchigi.

rishni taklif etgan. Havo oqimi vannadagi suvni jadal aralashtiradi, natijada yuvish tezligi oshadi. Yuvish jarayonida suv molekulalarining mato yuzasiga tortilish kuchlari hisobiga mato yuzasida yupqa suv plyonkasi hosil bo'ladi. Bu plyonka iflos suvning tola yuzasidan vannadagi suvga o'tishiga, toza suvning esa tola yuzasiga sorbsiya bo'lishiga qarshilik qiladi. Yuvish jarayonini jadallashtirishning barcha usullari mato yuzasidagi harakatsiz suv plyonkasini barbod etishga qaratilgan.

Oddiy rolikli yuvish mashinasining vannasidagi suv yuqoridagi va pastdagи roliklarga zapravka qilingan mato harakatlanganda chayqaladi, bu ham yuvish jarayonini jadallashtiradi. Bunda suvda eruvchi iflosliklar tez yuviladi, masalan, ishqor va kislota eritmalar 15 – 20 soniya davomida ularning matodagi 80 – 90% i yuvish suviga o'tadi. Ammo suvda yomon eriydigan (suspenziyalar, kraxmal) va suvda erimaydigan moddalarni yuvishda chayqash katta samara bermaydi.

Mato siqish vallari orasidan o'tayotganda hosil bo'ladi dan va mato yo'nali shiga teskari harakatlanadigan suv oqimi tomonidan mato yuzasida hosil bo'lgan suv plyonkasining barbod qilinishi yuvish jarayonini jadallashtirishning keng tarqalgan va samarali usuli hisoblanadi. O'z navbatida, bu oqim matoning ichki qismidagi iflosliklarni uning yuzasiga siqib chiqaradi, shundan so'ng mato gubkaga o'xshab toza suvni o'z ichiga shimish imkoniga ega bo'ladi. 58- rasmida yuvish jarayonini jadallashtirish uchun siqish vallaridan foydalanilgan yuvish mashinasining texnologik sxemasi keltirilgan.




58- rasm. Siqish vallari bor yuvish mashinasi:

1 – mato; 2 – mato kirishidagi siqish vallari; 3 – vanna: 4 – mato vannadan chiqishidagi siqish vallari; 5 – pnevmomexanizm; 6 – taranglash roligi – tezlik datchigi; 7 – siqish vali.

Siqish vallari orasidan mato o'tayotganda va u yo'nalitiruvchi val yuzasiga siqilib o'tganda, undan suvning chiqish sxemasi 58- rasmda keltirilgan.

Mato vannadagi yuvish eritmasidan chiqqanda, har safar siqish vallari orasidan o'tadi va yana yuvish eritmasiga tushadi. Ammo siqish vallaridan chiqqan mato to'qimasi




59- rasm. Siqish jarayonida qarshi suv oqimining hosil bo'lishi:

1 – mato; 2 – pastdag'i val; 3 – yuqoridagi val; 4 – siqish vali; 5 – qarshi suv oqimi.

hajmiga havo so'riladi, nati-jada vannaga tushgan mato qalinligiga yuvish eritmasining kirishi qiyinlashadi. Shuning uchun suv ostida matoni siqish imkonи bor yuvish mashinasi taklif qilingan. Bunday mashina-ning texnologik sxemasi 60-rasmida keltirilgan.


Mato yuvish vannasida-gi vallar orasidan siqilib o'tadi. Siqish jarayonida hosil bo'ladigan qarshi suv oqimi suvni jadal aralashtiradi, siqish chizig'idan chiqqan mato esa suvni tez shimiysi, natijada suvning tez almashuvi ta'minlanadi, bu esa yuvish tezligini oshiradi. Keyingi yillarda yuvish jarayonini jadallashtirish uchun vannada matoni "sirtmoq-sirtmoq" usulida zapravka qiliш keng qo'llanilmoqda. Vannasida mato shunday usulda zapravka qilinadigan mashina sxemasi 61- rasmida keltirilgan.

Keltirilgan sxemadan ko'rinish turibdiki, vannaga tushayotgan mato (1) pastki



60- rasm. Suv osti siqish valli yuvish mashinasi:

1 – vanna gardishi; 2 – mato; 3 – yuqoridagi, yurutuvchiga ulangan val; 4 – suv osti vallari.



61- rasm. Matoni "sirtmoq-sirtmoq" usulida zapravkali yuvish mashinasi:

1 – mato; 2 – vanna gardishi; 3 – yuqoridagi val; 4 – siqvchi val; 5 – pastki val; 6 – yuqoridagi yordamchi val; 7 – pastdag'i yordamchi val.

val (5) dan aylanib o'tib, yuqoridagi yordamchi val (6)ning yuzasiga boradi, undan o'tib, pastdagi yordamchi val (7)ga keladi. Pastdagi valdan o'tgan mato yuqordagi yurituvchisi bor val (3)ga boradi, undan o'tib yana pastdagi va val (5) yuzasiga keladi. Shunday qilib, bir-biriga yaqin masofada yo'naladigan mato tarmoqlari hosil qilinadi. Natijada harakatlanayotgan mato tarmoqlari orasidagi yuvish eritmasi turbulent harakat qiladi.


Ma'lumki, suyuqlik oqimining harakati turbulent tusida bo'lganda, truba devori (biz ko'rayotgan misolda mato yuzasida) – mahalliy quyunlar (uyulma) hosil bo'ladi va u mato yuzasidagi suv plyonkasini buzadi, bu, o'z navbatida, matoda suv almashuv tezligini oshiradi, ya'ni yuvish jarayoni jadallahshadi. Bundan tashqari, bunday zapravka vannadagi mato zaxirasini oshiradi, bu matoning yuvish eritmasi bilan ishlov olish vaqtini oshiradi natijada yuvish sifati oshadi.

Yuvish jarayonini jadallashtirishning mexanik usullari keng qo'llaniladi. Bu usullar xilma-xil bo'lib, ularning yuqori samara beradigan usullarini ko'rib chiqamiz.

Yuvish vannasi pastida joylashtirilgan mato yo'naltiruvchi val yuzasi tishli qilib tayyorlanadi. Shunday valning matoga ta'sirini izohlovchi sxema 62- rasmda keltirilgan. Val (3) aylanadi va vannadagi suvni jadal aralashtiradi. Bundan tashqari, val tishlari orasidagi suv miqdori markazdan qochma kuch ta'sirida mato qalinligidan majburan o'tadi va o'zi bilan mato ichkarisidagi iflosliklarni vannaga olib o'tadi. Bu usul konstruksiya jihatdan oddiy, ammo yaxshi samara beradi.


Purkagichlardan foydalananish. Yuwilayotgan mato yuziga har xil burchak ostida yuvish suyuqligining mayda oqimlari bosim ostida yuboriladi, natijada ular mato yuzasidagi suv plyonkasini buzib o'tib, mato qalinligidan o'tadi. Shu tariqa suv almashuvi jadallashtiriladi va mato iflosliklardan tez tozalanadi. Purkagichlarning ikki turi mavjud. ular 63-rasmida keltirilgan.

Purkagichlar nasosdan bosim ostida kelayotgan suvli trubaga flaneslar yordamida biriktiraladi. Teshiklar (3)dan va tirqish (4)dan suv oqimi katta tezlikda otilib chiqadi va mato yuzasiga yo'naltiriladi. Bu mayda suv oqimchali matoga urilganda, uning yuzasidagi suv plyonkasi barbod bo'lib, toza suv mato strukturasiga kiradi va o'zi bilan iflosliklarni olib chiqib ketadi. Shuning uchun pur-



62- rasm. Tishli valning ta'sir sxemasi:

1 – mato; 2 – yuvuvchi suyuqlik; 3 – val; 4 – val yuzasidagi tishlar.




63- rasm. Purkagichlar:

a – trubali; b – tirqishli. 1 – truba; 2 – flanes; 3 – teshiklar; 4 – tirqish.

kagichlardan yuvish mashinalarining elementlari sifatida keng qo'llaniladi. 64- rasmda purkagichning yuvish vannasi ichiga o'rnatilgan sxemasi keltirilgan.

Mato (7) mashinaga siqish vallari (6) yordamida beriladi, yuvish vannasidan esa siqish vallari (5) tortib o'tkazadi. Mato qatorlari orasiga o'rnatilgan plitasimon purkagich (3) teshiklaridan chiqayotgan suv oqimchalari mato yuzasiga yo'naltiriladi.

Bir qator afzallikkleri tufayli biz yuqorida tuzilishi va ishslash prinsipini ko'rib chiqqan rolikli yuvish mashinalari pardozlash jarayonida keng qo'llaniladi. Ularning afzallikkleri quyidagilardan iborat: konstruksiyasi oddiy, shuning uchun ularni ekspluatatsiya qilish qimmatga tushmaydi; har xil qo'shimcha uskunalardan foydalanib, yuvish jarayonini jadallashtirish imkonи bor. Bunday jadallashtirish usullari qatoriga purkagichlar, yuzasi noteks yo'naltiruvchi roliklar, matoni "sirtmoq-sirtmoq" usulida zapravka qilish orqali yuvish eritmasini vannada girdobsimon harakatlan-




64- rasm. Purkagichdan yuvish vannasida foydalanish:

1 – vanna gardishi; 2 – pastki rolik; 3 – purkagich; 4 – suv uzatish trubasi; 5 – siqish vallari; 7 – mato.

tirish (turbulizatsiya qilish), siqish effekti va boshqalar kirdi. Bunday yuvish mashinalarida ko'p hollarda yuvish muhiti harakatlanmasdan, mato harakatlanadi.

Kamchiliklari: yuvish muhitinining matoga ta'sir ko'r-satishi oz vaqtida bo'ladi. mato ko'p vaqt ifloslangan eritma bilan kontaktda bo'ladi. Shuning natijasida birin-ketin bir necha yuvish mashinalar o'matilgandagina matoni toza yuvishga erishish mumkin, yuvish haroratini esa  $85 - 90^{\circ}\text{C}$  dan oshirib bo'lmaydi.

Germaniyaning "Beninger" firmasi xodimlari hozirgacha ma'lum bo'lgan rolikli yuvish mashinalarining konstruktiv tuzilishi, o'ziga xos xsusiyatlarini o'rganib chiqib, ularning kamchiliklaridan xolos bo'lgan "Injekta" yuvish mashinasi konstruksiyasini ishlab chiqdilar va uni matoni tayyorlash agregatlari tarkibiga kiritdilar. 65- rasmda shu mashinaning texnologik sxemasi keltirilgan.



65- rasm. "Injekta" yuvish mashinasining texnologik sxemasi:

1 – mato; 2 – vanna; 3 – shaxta; 4 – yo'naltiruvchi roliklar; 5 – yuqoridagi rolik; 6 – tortib oluvchi rolik; 7 – kamera; 8 – turbulent oqim.

Bu mashina tarkibida siquvchi vallar yo'qligi bilan boshqa yuvish mashinalaridan ajralib turadi. Taklif etila-yotgan "Injekta" yuvish mashinasи esa yuqorida keltirilgan rolikli mashinalar kamchiliklaridan xoli bo'lib, eritmaning girdobsimon harakatiga, matoning ifloslangan suv bilan kam vaqt kontaktlanishiga va yuvish haroratining 100°C dan yuqori bo'lishiga ham erishiladi.

Ishlash prinsipi. Mato (1) aniq ikkiga bo'lingan shaxta (3) ichidan o'tkaziladi. Shaxta ichida mato yuqori turbulent oqim va 100°C dan yuqori harorat ta'sirida bo'ladi. Talabga muvofiq suv bug'i yoki suv matoning ikki tarafidan berilishi mumkin. Buning uchun bug' va suv truba orqali kamera (7)ga beriladi. Kamera teshiklaridan bug', suv chiqib, mato yuzasiga katta tezlikda uriladi, shaxta tirqishi tor bo'lgani tufayli yuvuvchi oqim girdobsimon tarzda bo'ladi. Shuning uchun mato yuzasida yuvish jarayonini sekinlashtiruvchi suv plyonkasi barbod bo'ladi. Yuvish jarayonida mato shixtaning butun uzunligi bo'ylab yuvish muhiti ta'sirida bo'ladi. Matoni ifoslantiruvchi moddalar bir necha soniyalar ichida erib, matodan yuvilib chiqib ketadi. Matoning yaxshi yuvilishi tufayli ham mazkur mashinani ishlov jarayonida juda ifloslangan matolarni yuvishga ishlatish tavsiya etiladi, masalan, matolarni quyultmalarдан, oxorlovchilardan tozalash jarayonida.

"Injekta" yuvish mashinasining foydali tomonlari: kimyoviy yuvish vositalaridan foydalanmasdan, matoning yuqori tozaligiga erishish imkonini berishi, shaxtaning yuqori qismida joylashgan yurituvchisi bor rolik yordamida mato tarangligini boshqarish imkonini borligi.


soniyalar ichida iflosliklarning erib ketishi, matoning ifloslangan yuvish suvi bilan qayta ifloslanmasligi, mashinani o'rnatish uchun kam maydon talab qilishi (rolikli mashina egallaydigan maydonning yarmi talab qilinadi). Suvda erimaydigan krammal, vosk va moy moddalarning 90% i matodan tez chiqarib tashlanadi, natijada bitta "Injekta" yuvish mashinasini bir nechta rolikli yuvish mashinalarining o'rnini bosa oladi.

"Injekta" yuvish mashinasining konstruktiv elementlari 66- rasmda keltirilgan.


"Beninger" firmasi "Injekta" yuvish mashinasining ishlash prinsipini rivojlantirib, tor tirqishdan matoning o'tishida yuvadigan mashinani taklif etgan. Bunday mashinaning ishlash prinsipini 66- rasmda keltirilgan sxema namoyon etib turibdi.

Tor tirqishdan o'tayotgan mato yuzasida hosil bo'lgan girdobsimon oqimchalar mato yuzasidagi iflosliklarni matodan jadal ajratadi va vannaga tushiradi. Tozalangan mato ifloslangan yuvish suvi bilan uchrashmaydi.

Bunday prinsipda ishlaydigan yuvish mashinasini quyidagi bir nechta afzalliliklarga ega: mato yuzasidagi iflosliklarni yuqori samarada tozalaydi; yuvish oqimining matoga qarama-qarshi harakatlanishi suv sarfini kamaytiradi; mato yo'naltiruvchi roliklar orasidagi masofa kichik, bu yuvish mashinasini o'lchamlarini ka-



66- rasmi. "Injekta" yuvish mashinasini konstruktiv elementlari




67- rasm. Matoni tor tirkishdan o'tishda yuvish sxemasi:

1 – mato; 2 – vanna; 3 – pastki rolik; 4 – yuqorida joylashgan rolik; 5 – girdobsimon suv oqimchalari.

mashinasini taqdim qilgan. Mashinaning ishlash prinsipini namoyon qiluvchi sxema 68- rasmda keltirilgan.

Ishlash prinsipi: qarama-qarshi prinsipda ishlovchi bu mashinada mato (1) mashinaga pastki qismdan kiritiladi va roliklardan o'tib, tepe tarafga ko'tariladi. Bu harakatni



maytirish imkonini bergen, suv sarfini kamayganligi va ishlab bo'lgan kir suvda iflos konsentratsiyasini yuqoriligi. Bu, o'z navbatida, oqova suvlarning hajmini kamaytirish imkonini yaratadi.

Taranglikka ta'sirchan matolar va trikotaj polotnolari ko'proq jgut ko'rinishida yuviladi. Bu maqsadlar uchun "Menzel" (Germaniya) firmasi "Silander" sistemasidagi yuvish


68- rasm. "Menzel" firmasining mato jgutini yuvish mashinasi.

1 – mato; 2 – mashina korpusi; 3 – tortib oluvchi vallar; 4 – yo'naltiruvchi rolik; 5 – yuvish eritmasining kirish shtutseri; 6 – iflos suvning chiqish shtutseri.

siqish vallari (3) ta'minlaydi. Toza yuvish eritmasi mashinaning yuqori qismidan beriladi va pastga mato harakat yo'nalishiga qarshi tushadi. Toza yuvish eritmasi ochiq bug' bilan isitiladi va pastga tushgan sari ifloslikka to'yinib boradi va chiqish teshigi (6) orqali kanalizatsiyaga yoki uning issiqlik energiyasigini utilizatsiya qilish uskunasiga yuboriladi.

Firma prospektida mashinaning quyidagi afzallikkleri ta'kidlanadi: kam energiya va suv sarfi; kichik maydon egallashi; mijoz talabiga ko'ra mashinada ishlov olayotgan mato uzunligini oshirish imkonи borligi. Buning uchun mashinaning ishchi organi bo'lган trubalar soni ko'paytiriladi. Mashina yurituvchisi mato tezligini bir tekisda o'zgartirish imkonini beradi. Firma tarkibida ikkita yuvish mashinasи bo'lган agregatni tavsiya etadi. Uning texnologik sxemasi 69- rasmda keltirilgan.

Ammo tortilishga ta'sirchan va trikotaj polotnolariga ho'l ishlov berishda ularning ozod holatda bo'lislhlari mahsulotning sifatli ishlov olishini ta'minlaydi. "Vakayama"




69- rasm. "Menzel" yuvish agregati:

1 – kirish mato roligi; 2 – birinchi yuvish mashinasи; 3 – rolikli tezlik datchigi;  
4 – ikkinchi yuvish mashinasи; 5 – tortib olish vallari; 6 – toza mato roligi.

firmasi shu maqsadlar uchun "Hi – Lax" yuvish mashinasini taqdim qilgan, uning ishlash prinsipini izohlovchi sxema 70- rasmda keltirilgan.

Ishlash prinsipi: yurituvchi bilan bog'langan ishchi organlar (5) ichki va tashqi konveyerlarni uzluksiz harakatlantiradi. Nasos (9) yuvish vannasidan suvni filtr orqali tortib olib, mato uzatuvchi mexanizm (7)ga yuboradi. Mashinaga kelayotgan mato (14) ikki tomonidan suv oqimi bilan ho'llanib, o'z og'irligi bilan ichki konveyer to'sig'i (13) yuzasiga taxlanadi. Ichki konveyer taxlangan matoning yuvish suyuqligiga cho'kkан holda harakatlanishini ta'minlaydi. Tashqi konveyer (2) esa mato taxlamini buzilib ketishdan saqlab turadi. Yuvish eritmasining sirkulatsiya sistemasi uning tozalanib turishini va matoning bir me'yorda mashinaga berilishini ta'minlab turadi. Purkagich (11) orqali toza suv mashinaga beriladi va sistemada kerakli suv miqdori ushlab turiladi. Ichiga bug'




70-rasm. "Hi – Lax" yuvish mashinasining texnologik sxemasi:

- 1 – U ko'rinishdagi vanna;
- 2 – tashqi konveyer;
- 3 – ichki konveyer;
- 4 – maxsus tebranadigan mexanizm;
- 5 – konveyerni yurituvchi ishchi organ;
- 6 – xavfsizlik qoplamasi;
- 7 – mato uzatuvchi mexanizm;
- 8 – filtr;
- 9 – sirkulatsion nasos;
- 10 – bug' bilan isitish trubasi;
- 11 – suv purkagich trubasi;
- 12 – bug' bilan isitish trubasi;
- 13 – to'siqlar;
- 14 – mato.

berilayotgan trubalar (10 va 12) vannada yuvish haroratini yaratib beradi.

Bu yuvish mashinasi xaridorlar talabi inobatga olingan holda yaratilgan bo'lib, unda firma xodimlari energiya, suv sarfini kamaytirish, mashina egallaydigan maydonni kichraytirish va ekspluatatsiya oson bo'lishiga erishish vazifalarini hal qilishni o'z oldilariga qo'ygan edilar. Ular ning bunga erishganliklarini quyida keltirilgan ma'lumotlar tasdiqlab turibdi.

71- rasmda bir vannali "Hi – Lax" yuvish mashinali agregatdan mato o'tish sxemasi keltirilgan



71- rasm "Hi – Lax" yuvish mashinali agregatdan mato o'tish sxemasi:

1 – mato; 2 – kirish siqish mashinasi; 3 – rolikli tezlik datchigi; 4 – yuvish mashinasi; 5 – matoni yuvish mashinasidan tortib oluvchi siqish vallari; 6 – matoni agregatdan chiqarish vallari.

## Yuvish mashinalarining solishtirma ko'rsatkichlari


Yuvish mashinalari	Mato tezligi, m/ min	Suv sarfi, kg/kg mato	El.energiya sarfi, Vatt/kg mato
"Hi – Lax"	150 gacha	2,3	18
rolikli	90 gacha	19,3	25

Agregat mashinalari tezligini o'zaro moslash va mato tarangligining vaqt birligida bir xilligini ta'minlash uchun mashinalar orasiga tezlik datchiklari (3) o'rnatilgan. Mato tarangligining o'zgarishi datchik roligi holatini o'zgartiradi va bu datchikdan olingan signal oldingi mashina tezligini o'zgartirishga signal vazifasini o'taydi.

Agregatning maksimal tezligi – 150 m/min: bitta yuvish mashinasidagi mato miqdori – 250 – 300 m; undagi yuvish suvini miqdori – 2 – 4 m<sup>3</sup>; yuvish suvining sirkulatsiya hajmi – 6 m<sup>3</sup>/soat; yuvish vannasining maksimal harorati – 95°C.

"Ramisch Kleynevafers" ("Ramisch Rlenewefers" hozirda "Beninger" firmasi tarkibiga kirgan) firmasi trikotaj polotnosti va taranglikka ta'sirchan to'qima matolarni kam taranglikda yuvish uchun "Trikofleks – 2000" mashinasini ishlab chiqdi. Firma bu mashinaning har xil turlarini jahon bozoriga chiqargan. Trikotaj polotnosti va to'qima matolarni yuvishga mo'ljallangan turi 72- rasmda keltirilgan.

Oddiy to'qimalarni yuvishda vannaning rolikli qismi va yuvish barabanidan foydalilanildi, trikotaj polotnosini yuvishda esa faqat yuvish barabanidan foydalanish tavsiya etiladi. Bu polotnoning tortilish kuchi minimal darajada



72- rasm. "Trikofleks – 2000" yuvish mashinasining sxemasi:

1 – mato; 2 – rolikli vanna qismi; 3 – yuvish barabani; 4 – vanna; 5 – yo-naltiruvchi rolik; 6 – nasos; 7 – sirkulatsiya sistemasi; 8 – siqish vallari.


bo‘lishini ta’minlaydi. Mashinaning rolikli qismi tuzilishi va ishlash prinsipi oldin ko‘rib o’tilgan rolikli yuvish mashinasidan farq qilmaydi. Firmaning g‘oyasi barabanli yuvish qismi konstruksiyasida amalga oshirilgan. Baraban tuzilishini ko‘rishdan oldin mashinaning umumiy ishslash prinsipini ko‘rib o’tamiz.

Ishlash prinsipi: mato (1) vanna roliklaridan o’tadi va yuzasida ariqchasi bor baraban (3) yuzasiga yotadi. Vannada yuvish suyuqligi sirkulatsiya bo‘lib turganligi tufayli mato tozalanadi, ammo tarangsiz holda asosiy yuvilish baraban (3) yuzasida bo‘ladi. Baraban yuzasida ozod holda yotgan polotno yoki matoga purkagichlardan yuvish suyuqligi beriladi. Vannaning yuqori qator roliklari va baraban yurtuvchiga egaligi tufayli mato mashinadan minimal taranglikda o’tadi. Mashinaning diametri 620 va 1200 mm li barabanli turlari mavjud bo‘lib, ulardag‘i purkagichlar soni ham 5 tadan 12 gacha bo‘lishi mumkin, yuvilayotgan mato-

ning ifloslik darajasiga qarab ishlovda bo'lgan purkagichlar sonini o'zgartirish mumkin. "Trikofleks – 2000" yuvish mashinasi diametri 1200 mm li baraban bilan jihozlangan bo'lib, sirkulatsiya sistemasida unumdarligi  $120 \text{ m}^3/\text{soat}$  bo'lgan nasos o'rnatilgan. Matoni tayyorlash agregatlarida barabani diametri 620 mm bo'lgan mashina matoni ishchi eritma bilan shimdirish uchun ishlataladi. Yuvish mashinasining yuragi bu yuzasida ariqchalari bor barabandir. Uning yuzasining sxemasi 73- rasmda keltirilgan.

Barabanning yuzasi ariqchali bo'lib, uning ustiga setka (3) yotqizilgan, natijada baraban polotnoni ushlab turuvchi va uni harakatlantiruvchi element vazifasini bajaradi. Purkagichdan yo'naltirilgan suv oqimchalari mato strukturasidan iflosliklarni olib o'tadi va ariqchadan baraban eni bo'yicha harakat qiladi. Mato yuzasida hosil bo'lgan tashqi va ichki suv qatlami ariqchalardagi oqimi bilan matoning yaxshi tozalanishiga ko'maklashadi.

74- rasmda yuvish mashinasining tashqi ko'rinishi keltirilgan.



73- rasm. Yuvish barabanining yuzasi:

- 1 – baraban korpusi; 2 – yuzadagi ariqcha; 3 – setka; 4 – polotno; 5 – yuvish eritmasining tashqi qatlami; 6 – purkagichli truba.



74- rasm. "Trikofleks – 2000" yuvish mashinasining tashqi ko'rinishi:


- 1 – mashina korpusi; 2 – baraban; 3 – boshqaruv pulti.

“Menzel” firmasi baxmal, tukli duxoba, vilvet matolarini yuvish va bir vaqtning o‘zida ular yuzasini tuklardan tozalash mashinasini taklif qilgan. Shunday mashinanining texnologik sxemasi 75- rasmda keltirilgan.

Mato (1) vannadagi (4) roliklar va vanna yuqorisida joylashgan roliklar (2)dan o‘tib yuviladi. Shu bilan bir vaqtدا, mato yuqoridagi rolikdan egilib o‘tayotganda, cho‘tkalar (5) bilan mato yuzasi tuklardan tozalanadi. Cho‘tkalar o‘zining yurituvchisiga ega bo‘lib, ular mato yo‘nalishida yoki unga qarshi yo‘nalishda aylanishi mumkin.


“Vakayama” firmasi ko‘p oqimli “Poly-Stream” yuvish mashinasi konstruksiyasini ishlab chiqqan va uni mijozlariga taklif qilmoqda. Bu mashina minorali mashinalar turiga kiradi va, firmanın ta’kidlashicha, yuqori tezlikda ishlab, yaxshi yuvish samarasini beradi. Mashinanining texnologik sxemasi 76- rasmda keltirilgan.

Mato (16)ni siqish vallari (17) mato o‘ramidan yoki aravachadan tortib oladi. Mashina ishchi organlari bo‘lgan katta va kichik yurituvchili (10 va 11) roliklar matoning kam taranglikda o‘tishini ta’minlaydi. Mato vanna (5)dagi suvda yuvilib, so‘ng qator ustma-ust o‘matilgan roliklarga sirtmoq-sirtmoq tarzida zapravka qilinadi.



75- rasm. “Menzel” firmasining yuvish-tozalash mashinasidan mato o‘tish sxemasi:


- 1 – mato;
- 2 – yuqoridagi rolik;
- 3 – vana;
- 4 – yo‘naltiruvchi rolik;
- 5 – cho‘tka.



76- rasm. PS – 4 turidagi "Poly-Stream" yuvish mashinasining texnologik sxemasi:

1 – vanna; 2 – suv sidiruvchi to'siq; 3 – sterjen; 4 – suvni kesuvchi to'siq; 5 – suvli vanna; 6 – nasos; 7 – bosim trubasi; 8 – issiq suv berish trubasi; 9 – eshik; 10 – katta diametrli boshlovchi rolik; 11 – kichik boshlovchi rolik; 12 – siqish vallari; 13 – bug' berish trubasi; 14 – gidrozavtor; 15 – rolikli tezlik datchigi; 16 – mato; 17 – mato kirituvchi siqish vallari.

Toza issiq suv yuqoridan truba (8) orqali berilib, mato unga qarama-qarshi harakatlanadi, natijada vanna (5)da ifloslangan suv yig'iladi, bug' bilan isitish trubasi yordamida isitiladi va uni nasos (6) oldingi yuvish mashinasiga yuboradi. Rolikli tezlik datchigi (15) ketma-ket o'rnatilgan yuvish mashinalar tezligini moslash signalini beradi. 77-rasmda uchta ketma-ket o'rnatilgan yuvish mashinalarda issiq suv harakati yo'nalishi keltirilgan.



77- rasm. 3 ta "Poly-Stream" yuvish mashinasidan iborat agregatda issiq suv harakati sxemasi:

1 – mato yo'nalishi; 2 – toza issiq suv kirishi; 3 – mashinaning yuqori vannasi; 4 – nasos.

Sxemadan ko'rinish turibdiki, mato va suv yo'nalishi qarama-qarshi. Natijada mato tozaligi vannadan vannaga ortib boradi, nasoslar esa keyingi mashinadan ishlagan suvni oldingi mashinaga uzatib beradi.

7- jadvalda "Poly-Stream" yuvish mashinasining ba'zi texnik ko'rsatkichlari keltirilgan.


#### 7- jadval

##### "Poly-Stream" yuvish mashinasining ba'zi ko'rsatkichlari

Yuvish mashinasining turi	PS - 4
Mashina bir oqimidagi mato miqdori	30 metr
Yurituvchili roliklarning diametri	kattasi – 150 mm, kichigi – 100 mm.
Yuvish oqimi	4 ta
Oddiy rolikli yuvish mashinasiga nisbatan yuvish effekti	4 – 5 marta yuqori
Mato tezligi (standart mashinada)	150 m/min gacha
Mashina tezligi (maxsus buyurtma)	200 m/min gacha

Ba'zi bo'yovchi moddalar bilan bo'yalgan yoki gul bosilgan matolar puxta yuvishni talab qiladi. Bunda sintetik tolalardan va ularning tabiiy tolalar bilan aralashmasidan tayyorlangan matolarni yuvish davomida relaksatsiyalanishini ta'manlash lozim bo'ladi. "Beninger" firmasi buning uchun sxemasi 78- rasmda keltirilgan agregatni va uning keng turlarini taqdim qilgan.

Firma agregat tarkibiga kiritiladigan relaksatsiyalash kamerasining ikki turini: LU – 250 va LU – 500 larni taklif qilgan. Ishlash prinsipi bir xil bo'lgan bu kameralar mato taxlamini harakatga keltiruvchi mexanizm turi bilan farqla-




78- rasm. Tarkibida LU turidagi relaksatsiya kamerasi bor yuvish agregati:

1 – mato; 2 – yuvish vannasi; 3 – LU turidagi relaksatsiya kamerasi; 4 – siqish vallari.

nadi. LU – 250 turi konveyer va markaziy barabanli bo'lsa. LU – 500 esa ikkita konveyerga ega.

79- rasmda agregat tarkibiga kiruvchi relaksatsiya kamerasining konstruksiyasi keltirilgan.

Kameraga kirayotgan mato (1)ni taxlagich (5) markaziy baraban (4) va konveyer (3) orasidagi bo'shliqqa ozod holda taxlaydi. Konveyer va barabanning tezligi o'zaro moslashtiriladi. Taxlangan mato relaksatsiya suyuqligiga botgan holda ishlov gladi.



79- rasm. LU – 250 turidagi relaksatsiya kamerasi.

1 – mato; 2 – kamera korpusi; 3 – konveyer; 4 – markaziy baraban; 5 – taxlagich.

8- jadvalda relaksatsiya kameralarining bazi ko'rsat-kichlari keltirilgan.

Tarkibiga biz yuqorida ko'rib o'tgan bug'lash-qaynatish va yuvish mashinalari kiruvchi matoni tayyorlash agregatlariga misollar ko'rib chiqamiz.


### *8- jadval.*

#### Relaksatsiya kamerasining ko'rsatkichlari

Mato og'irligi	150 g/m <sup>2</sup>	200 g/m <sup>2</sup>	250 g/m <sup>2</sup>	300 g/m <sup>2</sup>
LU – 250. mato miqdori. m	300	250	200	150
LU – 500. mato miqdori. m	600	500	400	300
LU – 250				
Kengligi. mm	1600	1800	2000	2200
Suyuqlik hajmi. l	1250	1370	1490	1610
LU – 500				
Kengligi. mm	1600	1800	2000	2200
Suyuqlik hajmi. l	2500	2756	3015	3270

#### *Takrorlash uchun savollar:*

1. MVPJ – 1 mashinasida mato jguti qanday o'tishini gapirib bering.
2. MS – 260 – 1 mashinasining vazifasini va ishlash principini tushuntiring.
3. Oddiy rolikli yuvish mashinasi sxemasini chizing va ishlash principini gapirib bering.




78- rasm. Tarkibida LU turidagi relaksatsiya kamerasi bor yuvish agregati:  
1 – mato; 2 – yuvish vannasi; 3 – LU turidagi relaksatsiya kamerasi; 4 – siqish vallari.

nadi. LU – 250 turi konveyer va markaziy barabanli bo'lsa. LU – 500 esa ikkita konveyerga ega.

79- rasmida agregat tarkibiga kiruvchi relaksatsiya kamerasining konstruksiyasi keltirilgan.

Kameraga kirayotgan mato (1)ni taxlagich (5) markaziy baraban (4) va konveyer (3) orasidagi bo'shliqqa ozod holda taxlaydi. Konveyer va barabanning tezligi o'zaro moslashtiriladi. Taxlangan mato relaksatsiya suyuqligiga botgan holda ishlov cladi.



79- rasm. LU – 250 turidagi relaksatsiya kamerasi.  
1 – mato; 2 – kamera korpusi; 3 – konveyer; 4 – markaziy baraban; 5 – taxlagich.

## 8- jadvalda relaksatsiya kameralarining bazi ko'rsatkichlari keltirilgan.

Tarkibiga biz yuqorida ko'rib o'tgan bug'lash-qaynatish va yuvish mashinalari kiruvchi matoni tayyorlash agregatlariga misollar ko'rib chiqamiz.

*8-jadval.*

### Relaksatsiya kamerasining ko'rsatkichlari

Mato og'irligi	150 g/m <sup>2</sup>	200 g/m <sup>2</sup>	250 g/m <sup>2</sup>	300 g/m <sup>2</sup>
LU – 250. mato miqdori, m	300	250	200	150
LU – 500. mato miqdori, m	600	500	400	300
LU – 250				
Kengligi. mm	1600	1800	2000	2200
Suyuqlik hajmi, l	1250	1370	1490	1610
LU – 500				
Kengligi. mm	1600	1800	2000	2200
Suyuqlik hajmi, l	2500	2756	3015	3270

### *Takrorlash uchun savollar:*

1. MVPJ – 1 mashinasida mato jguti qanday o'tishini gapirib bering.
2. MS – 260 – 1 mashinasining vazifasini va ishslash prinsipini tushuntiring.
3. Oddiy rolikli yuvish mashinasi sxemasini chizing va ishslash prinsipini gapirib bering.

4. Matoni siqish jarayonida suvning qarshi oqimi hosil bo'lishini tushuntirib bering.
5. Nima sababdan suv ostida siqish mato yuvish jarayonini jadallashtirishini gapirib bering.
6. Yuvish vannasida matoni "sirtmoq-sirtmoq" qilib zapravka qilish afzalligini tushuntirib bering.
7. Yuvish jarayonini jadallashtirishning mexanik usullarini sanab bering.
8. Purkagichlar tuzulishini tushuntirib bering.
9. "Injekta" mashinasidan mato o'tish sxemasini gapirib bering.
10. "Hi – Lax" yuvish mashinasida kechadigan jarayonni gapirib bering.
11. "Trikofleks – 2000" mashinasida jarayon nima hisobiga jadallashtirilishini gapirib bering.

#### **4- §. Matoni bo'yashga va gul bosishgatayyorlash agregatlari**


##### **1. Yarim uzlusiz ishlaydigan mato oqartirish agregatlari**

Bu agregatlarning bir necha turlari mavjud bo'lib, biz matoni ishlovdan so'ng rulonga qaynoq holda o'rash kamerali ("Pedrol") va matoni ishlovdan so'ng sovuq holda rulonga o'rovchi kamerali aggregatlarni ko'rib chiqamiz. Mato tayyorlashning "Pedrol" usuli tarkibiga mato kiritish uskunasi, shimdirish mashinasi, infraqizil nur bilan qizdirish kamerasi va harakatlana oladigan bug'lash ka-

merasidan iborat agregatda amalga oshiriladi. Shunday agregatning sxemasi 80-rasmida keltirilgan.


Harakatlana oladigan kamera ichida to'yingan bug' muhiti yaratiladi. Kamera ichidagi valyanga 600 – 800 kilogramgacha mato o'raladi va rulon diametri pishang (5)

bilan nazorat qilinadi. Shundan so'ng kamera sexning alohida joyiga ko'chiriladi va 2 – 4 soatga qoldiriladi. Shu vaqt ichida rulon sekin aylantirib turiladi, aks holda, matoda eritma oqimlari hosil bo'lishi mumkin. Belgilangan vaqt tugagach, kamera yuvish aggregatiga olib kelinadi va mato puxta yuviladi. Sovuq holatda moto oqartirish usulini amalga oshirish aggregati tarkibiga kuydirish mashinasi, shimdirish mashinasi va rulonga o'rash mashinasi kiradi. Bunday aggregatning sxemasi 81- rasmida keltirilgan.



80- rasm. "Pedrol" usulida mato oqartirish aggregati:

1 – mato kirish uskunasi; 2 – shimdirish mashinasi 3 – qizdirish kamerasi; 4 – bug'lash kemerasi; 5 – pishang.



81- rasm. Matoni sovuq holatda oqartirish aggregati:


1 – mato ruloni; 2 – kuydirish mashinasi; 3 – shimdirish mashinasi; 4 – mato ruloni; 5 – yuzasiga plynoka o'ralgan mato ruloni; 6 – yuvish aggregati.

Yuzasi tozalanib eritma bilan shimdirlilgan mato ruloni yuzasiga polietilen pylonkasi o'ralib, bir sutkaga tindirish uchun qoldiriladi. Shundan so'ng yuvish agregatida tozalab yuviladi.

## 2. Uzluksiz ishlaydigan tayyorlash agregatlari

"Beninger" firmasining uzluksiz ishlaydigan mato tayyorlash aggregatining sxemasi 82- rasmida keltirilgan.

Mato gazli kuydirish mashinasidan so'ng, oxor moddalarini parchalash uchun ishqor eritmasi bilan shimdirliladi. Keyin "Injekta" va rolikli yuvish mashinalarida iflosliklaridan hamda kuydirish qoldiqlaridan yaxshilab tozalanadi. Toza matoga shimdirlish mashinasi (6)da yuqori konsentratsiyali ishqor eritmasi shimdirliladi. Bundan ko'zlangan maqsad tolani tashkil qiluvchi sellulozaning yo'ldoshlarini




82- rasm. "Ben-Bleach" sistemasi: kuydirish, oxordan tozalash, oqartirish mashinalari:

1 – mato kirgizish mexanizmlari; 2 – gazli kuydirish mashinasi; 3 – shimdirlish mashinasi; 4 – "Injekta" yuvish mashinasi; 5 – "sirtmoq – sirtmoq" zapravkali yuvish mashinasi; 6 – shimdirlish mashinasi; 7 – bug'lash kamerasi; 8 – siqish vallari; 9 – yuvish mashinalari; 10 – quritish mashinasi; 11 – tayyor mato o'rami.

parchalash va hosil bo'lgan suvda eruvchi moddalarni yuvish orqali tozalashdir. Selluloza yo'ldoshlari bug'lash kamerasi (7)da ketadigan reaksiya natijasida suvda eriydigan moddalarga parchalanadi. Bu kamerada mato 15 – 20 daqiqaga davomida bug'lanadi, so'ng siqish vallarida yaxshilab siqiladi va yuvish mashinalari (9)da yuvib tozalanadi. Tozalangan mato barabanli quritish mashinasi (10)da quritilib, rolikka o'raladi.


83- rasmda Germaniyaning "Goller" firmasida ishlab chiqarilgan matoni oxordan tozalash bug'lash-qaynatish agregatining sxemasi keltirilgan.

Agregat universal xususiyatga ega bo'lib, unda matoni tayyorlashning hamma jarayonlari amalga oshiriladi. Bundan tashqari, bo'yagan va gul bosilgan matolarni obdon yuvib tozalash uchun ham ishlatish tavsiya etiladi. Agregatning ba'zi texnik ko'rsatkichlari 9- jadvalda keltirilgan.



83- rasm. "Goller" firmasining matoni tayyorlash agregati:

1 – mato kiritish mexanizmlari; 2 – yuvish mashinalari; 3 – qaynatish-bug'lash kamerasi; 4 – yuvish mashinalari; 5 – tayyor mato o'rami.



84- rasm. Rolikli yuvish mashinasi:

1 – mato; 2 – vanna; 3 – pastdag'i roliklar; 4 – yuqoridagi roliklar; 5 – siqivchi rolik; 6 – purkagich trubusi; 7 – tortib oluvchi, siquvchi valla; 8 – rolikli tezlik datchigi.

“Goller” firmasi matoni oxordan tozalash bug’lash-qaynatish agregatining ba’zi texnik ko’rsatkichlari

Mato kengigi, L mm	Vallar kengligi, mm	Yurituvchili roliklar diametri, mm	Kontakt roliklar diametri, mm	Siqish vallari diametri, mm	Mato tezligi, m/min
800 – 3400	L+ 200	120, 150, 180, 200	125 va 150	250 dan 330 gacha	160 gacha

Bu agregat tarkibiga kiruvchi oddiy rolikli yuvish mashinasining o’ziga xosligi uning vannasi ichida siqish vallaridan tashqari, purkagichlar o’rnatilganligidir, vannadagi matoning har bir qatori purkagich ta’sirida bo‘ladi. Bu yerda shu vanna sxemasini keltirish o‘rinli.

*Takrorlash uchun savollar:*

1. Yarim uzluksiz usulda ishlaydigan tayyorlash agregatining tarkibini gapirib bering.
2. Uzluksiz ishlaydigan tayyorlash agregati tarkibiga kiruvchi mashinalarni nomlab bering.
3. “Goller” firmasi tayyorlash agregati tarkibiga kiruvchi rolikli yuvish mashinasi boshqa shunday mashinalardan nimasи bilan farq qiladi?

## 5- §. Matolarni merserlash jihozlari

### 1. Zanjirli va janjirsiz (valli) merserlash agregatlari

Merserlash jarayoni ip-gazlama va paxta-poliefir aralashma matolarga ipaksimon yaltiroqlik beradi, ularning

bo'yaluvchanlik qobiliyatini va mato zichligini oshiradi. Bu xossalardan merserlash agregatlarida tarang holatdagi to'qimachilik mahsulotlariga konsentrangan (225 – 300 g/l) o'yuvchi natriy eritmasida 15 – 120 soniya davomida ishlov berish bilan erishiladi. Yaqingacha bu jarayon 15 – 18°C haroratda olib borilar edi. Shuning uchun agregat tarkibiga kiruvchi mashinalarda merserlovchi eritma sovitilib turilar edi, chunki matoga ishqor bilan ishlov berish ekzotermik jarayondir. Ammo "Beninger" firmasi matoni qaynoq holdan merserlash jarayonini ishlab chiqdi va uni amalga oshiradigan agregat turlarini mijozlarga taqdim qilmoqda. Avval matoni sovuq holatda merserlovchi agregatlarning ishslash prinsipini ko'rib chiqamiz.

Merserlash agregatlari ikki turga – zanjirli va valli (zanjirsiz) turlarga ajratiladi. Mato ho'l yoki quruq holda merserlashga yuboriladi. Shunga qarab, agregatlar tarkibiga matoni qattiq siquvchi vallar va quritish barabanlari kiritilishi mumkin. Matoni yuvish jarayonini jadallashtirish va uni ishqor eritmasi qoldig'idan tozalash uchun mato kirish va chiqishida gidrozatvorli, matoga bug' va purkagichlar bilan ishlov beradigan tepasi yopiq vannali yuvish mashinasini agregat tarkibiga kiritiladi. Umuman olganda, agregatning aniq tarkibi uning texnologik jarayonda tutgan o'rniga bog'liq. Masalan, oqartirilgan tayyor mato chiqarishda kimyoviy reaktivlar qoldig'i qolishining oldini olish uchun agregat kuchaytirilgan yuvish qismiga ega bo'lishi shart.

Yuvishda hosil bo'ladigan ishqoriy suvlarni utilizatsiya qilish va ularning konsentratsiyasini 50 – 60 g/l ga yetka-

zish uchun merserlash agregatlari eritmani qarama-qarshi harakatlantiruvchi sistema, katta hajmli yig'ish apparatlar va sirkulatsiyalash nasoslari bilan jihozlanadi. Bundan tashqari, ularning tarkibiga sovitgichlar kiritiladi, shimirish plusovkalarining vannalari sovitish ko'yaklariga ega bo'ladi.


Merserlash agregatlarini taniqli firmalar: "Vakayama", "Kioto", "Sando" (Yaponiya), "Goller" (Germaniya), "Beninger" (Shveytsariya), "Ivtmekmash" (Rossiya) va boshqalar jahon bozoriga taqdim qilmoqdalar. Shu firmalar agregatlaridan ba'zi birlari bilan tanishib chiqamiz.

Merserlash texnologyasi shimirish, yuvish, siqish jarayonlarini o'z ichiga oladi va matoga sifatli ishlov berish uchun ko'p vaqt talab qilinadi. Shuning uchun aggregat unumdorligini ta'minlash uning uzunligini oshirishni talab qiladi. Hozirda ko'p firmalar, shu jumladan, "Kioto mashineri Co. LTD", "Sando Iron Co. LTD", "Cibi teks. S. R. L.", "Vakayama Iron works LTD" va boshqalar zanjirli merserlash agregatini taklif etishmoqda. Buning sababi merserlash davomida mato eni bo'yicha kengligini ta'minlash imkonи borligidadir. Bu aggregatlardagi o'zgarishlarni "Vakayama" firmasining aggregati misolida ko'ramiz. Mijozlarga aggregatning 3 modifikatsiyasi taqdim etilmoqda. Ular o'zaro tarkibidagi mashinalar soni bilan farqlanadi, natijada aggregatdan matoning o'tish tezligi ham har xil. Masalan: 1- variant aggregatining umumiylig - 48 m, mato o'tishining maksimal tezligi - 80 m/min; 2- variant aggregatining umumiylig - 57 m, matoning maksimal tezligi 120 m/min bo'lsa; 3- variant aggregati-

ning umumiy uzunligi – 69 m va matoning maksimal o‘tish tezligi – 150 m/min ni tashkil etadi.

85- rasmda merserlash aggregatining uchinchi varianti texnologik sxemasi keltirilgan.

Agregatning rasmida keltirilgan uchinchi varianti boshqa variantlardan va boshqa firmalarning aggregatlaridan farqi birinchi ishqor bilan shimdirish mashinasini oldiga qo‘sishimcha to‘rt valli shimdirish mashinasining o‘rnataliganligidir. Bizningcha, bu shimdirish mashinasida matoga suv bilan ishlov berilib, uning shimish qobiliyatini oshiriladi, natijada mato tezligini oshirish imkonini tug‘iladi. Birin-ketin o‘rnatalgan shimdirish vannalarida mato uzunligi ko‘paytirilib, ishlov berish vaqtining ortishi ta‘minlanadi. Shimdirish mashinalari oralig‘iga va ikkinchi




85- rasm. Zanjirli merserlash aggregatining texnologik sxemasi:

1 – mato; 2 – mato kiritish elementlari; 3 – kichik vannali to‘rt valli shimdirish mashinasи; 4 – birinchi shimdirish mashinasи; 5 – 11 ta barabandan iborat birinchi barabanlar majmuasi; 6 – ikkinchi shimdirish mashinasи; 7 – besh barabandan iborat ikkinchi barabanlar majmuasi; 8 – zanjirli mashina; 9 – tortib oluvchi vallar; 10 – uchta “minora”li yuvish mashinasи (turi “Poly-Stream”); 11 – rolikli yuvish mashinasи; 12 – ikkita “minora”li yuvish mashinasи (turi “Poly-Stream”); 13 – o‘ttizta barabandan iborat uch kolonnali quritish mashinasи.

shimdirish mashinasi bilan zanjirli kengaytirish mashinasi oralig'iga o'rnatilgan barabanlar matoga ishqor eritmasining ta'sir etish vaqtini uzaytirishga xizmat qiladi.

#### 86- rasmda merserlash agregatini ikkinchi variantining umumiy ko'rinishi keltirilgan

Firmaning ta'kidlashicha, matoga ishqor eritmasini shimdirish mashinalarining gardishi po'latdan quyma usulda tayyorlangan bo'lib, mashina yuqori tezlikda ishlaganda ham uning mustahkamligini ta'minlaydi. Mashina vallari qoplamasining konstruksiyasi val ichiga ishqor kirishidan saqlaydi va natijada ularning xizmat davrini uzaytiradi. Ishqor ta'siri vaqtini belgilaydigan barabanlar dan o'tayotgan mato tarangligini nazorat qilish imkoniyatining borligi uni uzaytirish va bir xilda ushlab turishni ta'minlaydi. Zanjirli kengaytirish mashinasidan o'tish davomida matoga toza suv purkalib, yuqori yuvish effektiqa erishiladi. Mato qirg'og'ini ushlab turuvchi klupplar va zanjirning roliklari kimyoviy mustahkam rezina bilan qoplanganligi bu elementlarni korroziyadan saqlash imkonini beradi.



86- rasm. Zanjirli merserlash agregatining umumiy ko'rinishi:

1 – mato; 2 – stabilatsiya barabnları; 3 – zanjirli maydon; 4 – ishqor qoldig'ini chiqarish vannasi; 5 – yuvish vannalari; 6 – quritish barabnları.

Yuqori yuvish effekti suvni sirkulatsiya qilish sistemasi orqali ta'minlanadi. Yuvish vannalaridan matoning o'tish sxemasi, matoning burilish burchaklari optimalligi, vannadagi suv harakati tezligining minimalligi mato tarangligi past bo'lishi imkonini beradi. Bundan tashqari, yuvish vannalarining ikki tarafida ham eshiklarning borligi xizmat ko'rsatish vaqtini tejaydi.

"Kioto" firmasi zanjirli merserlash agregatinning yetta modifikatsiyasini taklif etmoqda. Quyida shu agregatlar ning texnik tavsifi keltirilgan.

#### *10-jadval*


Zanjirli merserlash mashinalarining tavsifnomasi

Mashina turi	M - 40	M - 60	M - 80	M - 100	M1 - 20	M1 - 50	M - 200
I	2	3	4	5	6	7	8
1. Taranglash silindrlari (lxn)	760x3	760x4	760x7	760x13	760x16	760x21	760x36
2. Zanjirli mashina uzunligi, m	12	15,2	18,2	18,3	21,3	24	27
3. Birinchi shimdirish mashinasidan purkagichgacha mato uzunligi, m	24	40	47	60	67	80	113
4. 40 soniyali shimdirish vaqtini ta'minlovchi mato tezligi, m/min	36	60	70	90	100	120	170
5. Mashinaning maksimal tezligi, m/min	40	60	80	100	120	150	200
6. Purkagichlar soni	2	3	4	4	5	5	6

7. Klupp turi	k-55						
8. Stabillash barabani (diam. x soni)	760x3 300x4						
9. Yuvisht mashinalarining soni	2	3	4	4	5	5	6

Zanjirli mato kengaytirish agregatlari yuqori zichlikka ega matolarni merserlash uchun tavsiya etilishi mumkin. chunki zanjirli kengaytirish mashinasining klupplari mato chekkasini mahkam ushlaydi va matoning kerakli kenglikda stabilizatsiya bo'lishini ta'minlaydi. Bunday aggregat larning kamchiligi: mato chekkasi shikastlanishi mumkin va faqat bitta polotno zapravka qilinadi. xolos.

Zanjirsiz, ya'ni valli merserlash aggregatini ishlash principi yuqorida ko'rib o'tilgan aggregatlardan farq qiladi. Uning tarkibiga plusovkalar, stabillash barabnlari va zanjirli kengaytirish mashinasi o'rniga ikki qator vallar bilan jihozlangan uzun vannalar kiritilgan va ularda mato ishqor eritmasida ishlov oladi, stabilizatsiyalanadi, ketma-ket siqiladi. Vanna vallari matoni harakatlantiradi. Pastki qator metall yuzali vallar siqish vallari yurituvchisidan harakat oladi, ularning ustida erkin holda yotgan yuqori qator yuzasiga rezina qoplangan vallar esa ulardan harakat oladi. Mato vallar orasidan o'tkazilib zapravka qilinadi. Har bir vannadan so'ng matoni kuchli siquvchi siqish vallar juftligi o'rnatilgan. 87- rasmda "Vakayama" firmasining hozirgi zamон zanjirsiz aggregatining sxemasi keltirilgan.



87- rasm. "Vakayama" firmasining zanjirsiz merserlash agregati sxemasi:

1 – mato; 2 – mato kiritish mexanizmlari; 3 – merserlash vannalari; 4 – stabillash vannasi; 5 – ishqorni ajratish vannalari; 6 – yuvish vannalari.

Bu agregatda bir vaqtning o‘zida ikkita mato yonma-yon yoki bir-birining ustiga yotqizilgan holatda ishlov olishi mumkin. Shuning uchun mato kiritish muxanizmlari (2) ikkita taranglash, kengaytirish (bukilgan joylari to‘g‘rilash) va mato yo‘naltirish elementlari bilan jihozlanadi. Kiritish mexanizmlaridan o‘tgan matolar merserlash vannasi (3)ga kiritiladi.

Merserlash vannasida matolar val orasidan o‘tadi, bu jarayonda ishqor eritmasi bilan shimdiriladi hamda bir necha bor siqiladiki, mato doimo roliklar yuzasiga yopishib turadi. Bu vannada ishqor eritmasi taranglangan matoga sorblanadi. Shimdirish jarayoni tugallangandan so‘ng, ortiqcha ishqor eritmasi esa pnevmomexanizmli siqish vallaridan chiqarib tashlanadi. Pnevmomexanizmga berila-yotgan havo bosimini moslash orqali talab qilingan siqish darajasi ta‘minlanadi. Vannadagi ishqor eritmasi filtrda tozalanib, sovitilib, so‘ng nasos yordamida sirkulatsiya qilib turiladi.

Matoning kengligi bo'yicha kirishishining oldini olish uchun uni stabillash vannasi (4)dan o'tkazish o'ta muhimdir. Bu vanna konstruksiyasi, undan matoning o'tish sxe-masi oldingi merserlash vannasidagi kabidir.

Po'lat listdan tayyorlangan yuvish vannasi pastki roliklar tagida joylashgan va uchta bo'limga ajratilgan. Yuvish jarayoni qarama-qarshi harakat prinsipida tashkil qilingan bo'lib, suv kameradan filtrlanib, nasos yordamida purkagichdan mato yuzasiga sepiladi. Ishqorli suv vanna tagidagi tog'arada to'planadi va kuchsiz ishqorni toplash apparatiga yuboriladi. Shundan so'ng o'lchamlari stabillashgan mato ishqor qoldig'idan tozalovchi bug'lash kamerasi (5)da ishlov oladi. Bu kamera zanglamaydigan po'lat listlardan va uchburchak profillardan tayyorlangan bo'lib, yuqori qismiga ochiq bug' beriladi; kamera pastidagi roliklar yusasi yuvish suviga cho'kib turadi. Matoning suv va bug' muhitidan bir necha bor birin-ketin o'tishi uni ishqor qoldiqlaridan yaxshilab tozalaydi. Kameradan so'ng o'rnatilgan ikki valli siqish vallari matoni kameradan tortib oladi. Shundan so'ng matoda qolgan ishqorni neytrallash uchun mato kislota eritmasi solingan yuvish mashinasidan o'tkaziladi va birin-ketin o'rnatilgan yuvish mashinalarida yuvish tugatiladi.

Agar mato xom holatda merserlashga yuborilgan bo'lsa va undan keyin oqartiriladigan bo'lsa, u holda matoni ishqor qoldig'idan tozalash mashinasidan so'ng yuvish va neytrali-zatsiyalash zaruriyati yo'q. Agregat oxirida har qaysi matoni alohida taxlaydigan mato taxlash mexanizmi o'rnatilgan. Firma agregat tarkibidagi mashinalar sonini

o'zgartirish orqali agregatning uch xilini taqdim etadi. Ularning ba'zi texnik ko'rsatkichlari 11-jadvalda keltirilgan

### *11-jadval*


"Vakayama" firmasi merserlash agregatlarining ko'rsatkichlari

Agre-gat turi	Mato tezligi, m/min	Merser-lash vannasi soni	Stabillash vannasi soni	Ishqor qoldig'idan tozalash vannasi soni	Neytral-lash vannasi soni	Yuvish mashinalari soni
1	20 – 60	1	1	1	1	2
2	30 – 90	2	1	2	2	4
3	50 – 150	3	1	2	2	4

Zanjirsiz merserlash mashinalari mato strukturasiga ziyon yetkazmaydi, chetlari yirtilmaydi, kengligi bo'yicha matoning zinchligi bir xil bo'ladi. agregatni ta'mirlash osonlashadi. Ammo erishiladigan mato yaltiroqligi zanjirli aggregatdagiga nisbatan pastroq, lekin zanjirsiz aggregatning unumдорлиги yuqori.

## **2. "Beninger" firmasining "Dimenza" ("Dimensa") merserlash agregatlari**

Bu firmada paxta tolasining ishqor eritmasida bo'kish jarrayoni kinetikasini o'rganish ustida chuqur izlanishlar olib borildi. Izlanishlar natijasi to'qimachilik materiallarini mer-



88- rasm. Paxta tolesi bo'kish darajasining ishqor haroratiga bog'liqligi.

serlash jaryoni to'g'risidagi mavjud nazariy va amaliy ma'lumotlarni yana bir bor tahlil qilish lozimligini ko'rsatdi. Izlanishlar natijalari 88- rasmdagi grafikda keltirilgan.

Keltirilgan grafikdan ko'rinish turibdiki, tolanning bo'kish kinetikasi ishqor haroratining oshishi bilan o'zgarib bormoqda. ayniqsa, ishqor harorati  $30^{\circ}\text{C}$  dan oshgandan so'ng, tolanning


bo'kish darjasini qisqa vaqt davomida yuqori miqdorga yetadi. Bunga sabab, vanna haroratining oshishi bilan ishqor eritmasining almashuv tezligi oshadi, natijada ishqorning tolaga kirish tezligi ham oshadi va yaxshilanadi. Shu tufayli bir necha soniya davomida matoga ishqor eritmasi to'liq shimaladi, shuning uchun agregatning shimdirish qismi qisqa bo'ladi. Endi "Dimenza" agregatining tuzilishini va ishslash prinsipini ko'rib chiqamiz.

Merserlash aggregati og'ir va yengil matolarni merserlash imkoniga ega. Firma sistemaning bir qator afzalliklarini sanab o'tgan. Ularning asosiyllari: 1) ishlov uchun ishqor, suv va bug' miqdorining kamayishi; 2) agregatning to'xtab turish va uni zapravka qilish vaqtining kamaygani; 3) matoni merserlashdan oldin va keyin kengligi bo'yicha kengaytirishning talab qilinmasligi; 4) agregatni o'rnatish

uchun kam maydon talab qilinishi; 5) mahsulot sifatining yuqoriligi va boshqalar.

89- rasmda yengil va o'rta og'irlikdagi matolarni merserlash va 90- rasmda og'ir matolarni merserlash agregatlarining texnologik sxemalari keltirilgan. Agregatlarning konstruktiv tarkibi bir xil.

89- rasmda keltirilgan aggregatning ishlash prinsipi quyidagicha: mato kirituvchi siqish vallari (1) orqali ho'l mato zanjirsiz prinsipda ishlovchi valli vanna (2)ga kiritiladi. Bu vannada mato qaynoq ishqor eritmasi bilan shimdiriladi. Ta'kidlanishicha, shimdirish vannasining qaynoq bo'lishi ishqor eritmasining tola strukturasiga bir tekisda va tezda shimilishini ta'minlaydi. 3-, 5- vannalarda va zanjirli rama (6)ning boshlang'ich qismida mato ishqorda ishlov oladi; aggregatning bu qismi reaksiyon zona deb yuritiladi.




89- rasm. Yengil va o'rta og'irlikdagi matolarni merserlash agregatining texnologik sxemasi:

A – shimdirish zonasi; B – saqlash zonasi; D – stabillash zonasi; E – yuvish va neytrallash zonasi;

1 – mato kirituvchi siqish vallari; 2, 3 va 5 – zanjirsiz prinsipda ishlovchi valli vannalar; 4 – uzatuvchi siqish vallari; 6 – zanjirli rama; 7 – zanjirsiz prinsipda ishlovchi valli vannalar; 8 – uzatuvchi siqish vallari; 9 – yuvish vannalari; 10 – neytrallash vannasi.

Zanjirli rama (6)ning keyingi qismida va (7) vannada mato o'lchamlari stabillanadi. Ikkita yuvish vannalari (9)da mato ishqordan tozalanadi va (10) neytrallash vannasida ishqor qoldig'i suyuq kislota eritmasi bilan neytrallanadi.

90- rasmda keltirilgan agregatning ishlash prinsipi: mato kirituvchi siqish vallari (1) orqali ho'l mato zanjirsiz prinsipda ishlovchi valli vanna (2)ga, undan so'ng keyingi vanna (3)ga uzatiladi. Bu ikki vannada matoga qaynoq ishqor eritmasi shimdiriladi. Natijada og'ir matoga ham yengil matoga ishlov berish tezligida ishlov berish imkonini tugiladi. Zanjirli ramada va vannada (5, 7) mato o'lchami stabillanadi. Yengil va o'rta og'irlikdagi matoga ishlov berishda bo'lganidek, og'ir mato ikkita yuvish vannalari (9)da ishqordan tozalanadi va neytrallash vannasi (10)da ishqor qoldig'i suyuq kislota eritmasi bilan neytrallanadi.



90- rasm. Og'ir matolarni merserlash aggregatining texnologik sxemasi:

A – ikki marta shimdirish zonası; B – stabillash zonası; D – yuvish va neytrallash zonası;

1 – mato kirituvchi siqish vallari; 2, 3 va 5 – zanjirsiz prinsipda ishlovchi valli vannalar; 4 – uzatuvchi siqish vallari; 6 – zanjirli rama; 7 – zanjirsiz prinsipda ishlovchi valli vannalar; 8 – uzatuvchi siqish vallari; 9 – yuvish vannalari; 10 – neytrallash vannasi.

89- va 90- rasmlarda keltirilgan sxemalardan ko'rinish turibdiki, bu agregatlar tarkibiga zanjirsiz va zanjirli merserlash agregatlarining elementlari kiritilgan, natijada bu agregatlar zanjirli va zanjirsiz merserlash agregatlarining ijobiy xususiyatlarini o'zida mujassamlashtirgan.

Firma taklif etayotgan yangiliklardan biri – matoga qaynoq ishqor eritmasini shimdirishdir. Ishqor eritmasining matoga tez va bir tekisda shamilishi mato tolalarining kesimi bo'yicha bir xilda bo'kishini ta'minlaydi. Shimdirish va reaksiya davomida matoning doimo tortilgan holatda bo'lishi matoning kengligi bo'yicha imkon darajasida kam kirishishini ta'minlaydi. Taklif qilinayotgan agregatda merserlash jarayonining davomiyligi 25 – 30 soniyani tashkil etadi va bu sovuq holatda merserlash jarayoni davomiyligidan (45 – 50 soniya) qariyb ikki marta qisqa.

### *12-jadval*

Relaksatsiya kamerasining ko'rsatkichlari

Mato og'irligi	150 g/m <sup>2</sup>	200 g/m <sup>2</sup>	250 g/m <sup>2</sup>
LU – 250, mato miqdori, m	300	250	200
LU – 500, mato miqdori, m	600	500	400
LU – 250			
Kengligi, mm	1600	1800	2000
Suyuqlik hajmi, l	1250	1370	1490
LU – 500			
Kengligi, mm	1600	1800	2000
Suyuqlik hajmi, l	2500	2756	3015
			3270
			3526
			3780
			4035

Matoni intensiv shimdirish zonasiga uning sovitish zonasasi ulanadi. Bu zonada mato zanjirsiz (valli) ishlov berish vallaridan o'tadi. Ishlov berishning ikkala sxemasida ham matoni yakuniy stabillash zanjirsiz ishlov berish vannasida amalga oshiriladi.

Yengil matolarga ishqor eritmasini shimdirish matoning qisqa uzunlikdagi qismida eritmaning yuqori almashuvida olib borilishi ta'minlanadi. Og'ir matolarni merserlashda esa ishqor konsentratsiyasi bir xil bo'lsada, matoga oshiq-cha ishqor eritmasi purkagich trubasi orqali vannadagi o'zaro siqiluvchi vallar yuzasiga beriladi. Bu vallarda matoning siqilishi faqat vallarning og'irligi hisobigagina bo'ladi.


Firmanın klassik konsepsiyasiga muvofiq, zanjirli rama-ning o'rtaidan boshlab ishqorning suyuq eritmasi purkagich truba orqali purkalib ishqorsizlantirish jarayoni amalga oshiriladi. Og'ir matolarni merserlashda esa bu jarayon vanna (5)da boshlanadi, shuning uchun ishqorning suyuq eritmasi purkagich truba orqali vallar yuzasiga purkaladi. Shu usul bilan yengil va og'ir matolarning zanjirli ramadan chiqishida bir xil ishqorsizlanishiga erishiladi. Dunyo tajribasida merserlash jarayoni matoning ho'l holatida o'tkaziladi, bu esa merserlash agregati konstruksiya-siga qo'shimcha talablar qo'yadi.

Agregatning shimdirish vannalari qisqa vaqt ichida eritma bilan to'ldirilishi yoki bo'shatilishi mumkin. Shuning natijasida matoni shimdirishning optimal sharoiti yaratiladi: yengil matolar bitta vannada, og'ir matolar esa ikkita vannada shimdiriladi, natijada har xil og'irlikdagi mato-

larga bir xil tezlikda ishlov berish mumkin bo‘ladi. 91-rasmida shimdirish zonasida ishqor eritmasining aylanish sxemasi keltirilgan.

Agregat qismining afzalliklari: merserlash oldidan sovitish zaruriyati yo‘q; o‘lchamlari boshqa agregatlarga nisbatan kichik, montaj uchun kam maydon talab qiladi; mato kirishidagi siqish vallarida maksimal effektga erishiladi; ishlov olgan mato bir tekis bo‘yalish qobiliyatiga ega. O‘tkazilgan tajribalar natijalari ishqor konsentratsiyasi 215 – 240 g/l bo‘lganda, matoning optimal merserlanishiga erishishni ko‘rsatgan.

Shimdirish vannasining hajmi kichik bo‘lganligi tufayli ishqor konsentratsiyasini regulirovka qilish oson va shuning uchun mashinaga ishqor saqlash uchun bitta bak montaj qilingan. Jaryon davomida ishqor doimo sirkulatsiya bo‘lib turadi va uning harorati, konsentratsiyasi nazorat



91- rasm. Shimdirish zonasida ishqor eritmasining aylanish sxemasi:

1 – eritmani zonaga uzatish; 2 – shimdirish vannasi; 3 – eritma harorati va konsentratsiyasi regulirovka qilinadigan birlamchi vanna.

qilib turiladi. Eritma ko'rsatkichlarining avtomatik ravishda regulirovka qilinishi yangi ishqor eritmasini, suvni yoki bug'latilgan ishqorni rekuperatsiya bo'limidan qo'shib turish imkonini beradi. Ishqorni aralashtirish jarayonida ajraladigan issiqlik issiq merserizatsiya o'tkazish uchun ishlatiladi. Issiq merserlashda matoni siqish darajasi ishqor miqdorining kam bo'lishini ta'minlaydi, bu esa, o'z navbatida, ishqorsizlantirishda ishqor sarfini kamaytiradi.

Merserlash jarayonining ho'l matoda o'tkazilishi ishqor almashuvini oshiradi, bu oddiy merserlashga nisbatan shimdirish zonasini qisqartirish imkonini yaratadi.

"Ben-Dimentza" sistemasida matoda xohlagan merserlash natijasini olish mumkin. Bunga jarayonning quyidagi parametrlarini o'zgartirish orqali erishiladi: ishqor harorati; ishqor konsentratsiyasi; ishqorning matoga ta'siri davomiyligi; matoning bo'yli va eni bo'yicha tarangligi.

Ishqor vannasi hajmining kichikligi uning konsentratsiyasini tez o'zgartirish imkonini beradi, natijada mashina ishida uzilish qisqa bo'ladi. Bu sistemadan foydalanilganda, xom paxta tolasidan tayyorlangan matolarni merserlashda konsentratsiyasi past ishqordan foydalanish mumkin. Matoni ishqorsizlantirish uchun zanjirli rama o'rtaida matoga past konsentratsiyali qaynoq ishqor purkaladi, bu matodagi kirishtiruvchi kuchlar qiymatini kamaytiradi. Zanjirli ramada bu holatda matoning kerakli kengligini ta'minlash uchun kam kuch ta'sirida tortish mumkin. Bundan tashqari, rama klupplariga mato tezligini oshirib berish orqali, unga uzunligi bo'yicha hisoblangan kirishishni berish mumkin.

Mato qolgan ishqor qoldig‘idan yuvish vannalarida tozalanadi. Yuvish vannalariga berilayotgan suv miqdori, stabilizatsiya zonasiga kirishi oldidan, matoga berilayotgan ishqor konsentratsiyasini o‘lhash natijasi asosida regulirovka qilinadi. Bu suvning tejalishini ta’minlaydi. Agregat yuvish vannalarining yuqorisida joylashgan vallarining yurituvchisi va ularga siqilib turuvchi vallar matoning uzunasiga cho‘zilishiga hamda kengligi bo‘yicha kirishishiga yo‘l qo‘ymaydi. Neytrallash jarayonining to‘liq bo‘lishi matodagi suv rN ini avtomatik regulirovka qilish orqali nazorat qilinadi.


Zanjirli ramada ishqorsizlantirish matoni yuvish jarayonida kirishishdan saqlash uchun yetarli emas. Shuning uchun yuvish vannalariga kirish oldidan, matoni ishqorsizlantirish uchun mato majburiy yo‘naltiradigan valli vannadan o‘tkaziladi. Natijada stabilizatsiya jarayonining oxirida matodagi ishqor miqdori shunchalik kamayadiki, u mato o‘lchamlarining o‘zgarishiga ta’sir ko‘rsata olmaydi va bu holat tola qurilishi morfologiyasida “saqlanib” qoladi. Natijada matoga keyingi beriladigan pardozlash jarayonlarida uning o‘lchamlari o‘zgarmaydi.

Merserlash natijasida sellulozaning kristallik zonalari tarkiblanadi, tolalar strukturasining bir xil emasligi yo‘qoladi, mikrobo‘shliqlar soni oshadi va ular o‘lchamlarining bir xilligi oshadi. Bularning natijasida mato mustahkamligi oshadi, yaltiroqligi paydo bo‘ladi, yaxshi grif hosil bo‘ladi va matoning bo‘yalish qobiliyati oshadi.

Firma taklif qilayotgan agregatda trikotaj polotnosini ham muvaffaqiyatli merserlash mumkin. Buning uchun

trikotajni agregatdan tarangsiz o'tkazishni ishchi organlar yurituvchisi ta'minlaydi; har bir ishchi organ tezligini boshqalariga nisbatan 20% chegarasida o'zgartirish mumkin. Ishlov berish 15 – 20 m/min tezlikda olib boriladi.

Jaryonni boshqarish to'liq avtomatlashtirilgan. 92-rasmda shimdirish vannasidagi ishqor konsentratsiyasini avtomatik rejimda regulirovka qilish sxemasi keltirilgan.



92- rasm. Shimdirish vannasidagi jaryonni boshqarish sxemasi:

A – protsessor; B – shimdirish vannasi;  
D – tayyorlash rezervuari; E – isitish elementi;  
F – konsentratsiyani o'lchagich;  
G – harorat datchigi; H – sath datchigi.

1 – yangi ishqor berish oqimi (yangi tayyorlangan eritma yoki bug'lash uskunasidan olingan ishqor); 2 – suyultiruvchi oqimi (suv yoki past konsentratsiyali ishqor); 3 – jarayon ishqorining oqimlari;  
4 – ishqor konsentratsiyasini regulirovka qilish sikli; 5 – ishqor miqdorini regulirovka qilish sikli; 6 – ishqor haroratini regulirovka qilish sikli.

Mato tarangligi valli datchiklar yoki logometrik sxema yordamida, trikotaj polotnosi tarangligi esa faqat logometrik sxema yordamida regulirovka qilinadi. Agregatda jarayon avtomatik rejimda boshqarilganligi tufayli mahsulot ko'rsatkichlari har doim jarayon qaytarilganda bir xil bo'lishiga erishiladi.

Firma bunday merserlash aggregatining 4 xil turini taklif qiladi:

1. "Ben-Dimenza MS4" – zanjirsiz va zanjirli mashinalar kombinatsiyasi matoni merserlash uchun yaratilgan, mato tezligi – 20 – 100 м/min;
2. "Ben-Dimenza ML3" – zanjirsiz sistema, mato va trikotaj uchun, mato tezligi 20 – 150 м/min;
3. "Ben-Dimenza MS1" – zanjirsiz va zanjirli mashinalar kombinatsiyasi matoni merserlash uchun, mato tezligi – 20 – 100 м/min, yuvish va neytrallash qismi yo'q;
4. "Ben-Dimenza KNIT" – trikotaj uchun kichik mashina (zanjirli mashina va zanjirsiz bitta vanna), mato tezligi – 2 – 20 м/min.

Agregat o'lchamlari: ishchi kengligi – 1600 – 3400 mm (qadami – 200 mm); maksimal balandligi (matoni kiritish qismi bilan) – 3000 mm.

## **6- §. Jun matolarni bo'yashga tayyorlash jihozlari**

### **1. Matolarni pishitish va yuvish mashinalari**

Jun matolarni tayyorlash prinsiplari yuqorida ko'rib o'tilgan jarayonlardan deyarli farq qilmasa-da, o'ziga xos tomonlari ham mavjud. Masalan, jun matolarning ho'l holatda mexanik mustahkamligini yo'qotishi, taranglikka ta'sirchanligi va boshqalar. Bunday matolarga ishlov beruvchi jihozlar shu xsusiyatlarni hisobga olgan holda yaratilishi lozim.


Jun matolarini jgut holatida yoki yoyilgan holatda, davriy va uzlusiz ishlaydigan jihozlarda yuvish mumkin.

Masalan, 93- rasmida Rossiyada ishlab chiqarilgan PJ – 220 – Sh mashinasida matoning o'tish sxemasi keltirilgan.

Sxemadan ko'rinish turibdiki, mashinada yuvish uchun mato halqasimon va spiral zapravka qilinishi mumkin. Matoning harakat tezligi – 60 – 90 m/min.

Halqasimon zapravkada mato jgutlari alohida zapravka qilinib, har birining uchi va oxiri o'zaro tikib mahkamlab qo'yiladi. Spiral zapravkada esa birinchi jgut boshlanishi ga oxirgi jgutning oxiri tikib mahkamlab qo'yiladi. Mato jgutining yuzasiga rezina qoplangan siquvchi vallar juftligi (1 va 2) harakatlantiradi. Jgutlarning suv to'ldirilgan mashina vannasida katta tezlikda (60 – 90 m/min) harakatlanishi yuvish jarayonini jadallashtiradi.

Rolik (3) mato jgutining vallarga o'ralib ketishining oldini oladi. Undan o'tgan mato vannaning suyri devoridan sirpanib, uning tubiga tushadi. Ajratuvchi taroq (4) va yo'naltiruvchi rolik (5) mato jgutining alohida bo'lishini




93- rasm. PJ – 220 – Sh mashinasida mato zapravkasi sxemasi:

a) halqasimon zapravka; b) spiral zapravka.

1, 2 – siqish vallari; 3 – rolik; 4 – ajratuvchi taroq; 5 – yo'naltiruvchi rolik.

ta'minlaydi va mato ulardan o'tib, yana vallarni siqish zonasiga kiradi. Yuvisht jarayonini jadallashtirishga mashinaga o'rnatilgan purkagich ham xizmat qiladi. Mato siqilganda, undan ajraladigan ifloslangan suvni toplash uchun siqish vallari tagiga tog'ara o'rnatilgan. Ishlov olgan mato jguti tortib oluvchi baraban yordamida mashinadan chiqariladi. Bu mashinalarni birin-ketin o'rnatib, uzluksiz ishlaydigan yuvisht agregatini hosil qilish mumkin. Bunday agregatda mato spiral holatda zapravka qilinadi. 94- rasmida matoni jgut holatda ivitish va yuvisht uchun mo'ljallangan LPJ – 1 – Sh aggregatining texnologik sxemasi keltirilgan.



94- rasm. LPJ – 1 – Sh aggregatining texnologik sxemasi:

1, 2, 3 – mato kiritish mexanizmlari. 4 – uch valli plusovka; 5 – uchta MPJ – Sh mashinasi; 6 – yo'naltiruchi rolik; 7 – ajratuvchi taroq; 8 – purkagich; 9 – siquvchi vallar; 10 – tortib oluvchi baraban; 11 – suyri tarmov; 12 – kompensator; 13 – halqa; 14 – uchta MPJ – Sh – 1 mashinasi; 15 – siqish vallari; 16 – burovni yozish mexanizm; 17 – tarmovsimon kompensator; 18 – jgutni yoyish mexanizmi; 19 – mato taxlagich.

Matoning aregat mashinalarida uzliksiz ishlov olishi uchun mashinalar bir-biriga nisbatan 180 darajaga burilgan holatda o'rnatilgan. Matoning mashinadan mashinaga o'tishini osonlashtirish uchun suyri tarnovlar (11) o'rnatilgan bo'lib, ular orqali mato keyingi mashinaga erkin holda sirpanib tushadi. Yuvish mashinasining van-nasi tarnovsimon shaxta tuzilishida tayyorlangan bo'lib. matoning tarangsiz bir mashinadan ikkinchisiga o'tishiga ko'maklashadi.

Mato yoyilgan tarzda agregatning kiritish mexanizmlari-da rostlanib, mashina markazidan yo'nalishi ta'minlangan holatda plusovka (4)ga beriladi va unda yuvish eritmasiga shimdiriladi. Shundan so'ng tarnovsimon kompensator (12)ga taxlanadi va jgut holatida halqa (13)dan o'tkazilib, birinchi yuvish mashinasiga beriladi. Bu mashinada mato jguti spiral shaklda zapravkalanib, yo'naltiruvchi rolik (6), ajratuvchi taroq (7), purkagich (8) o'tib siqish vallari (9) dan o'tgandan so'ng tortib oluvchi baraban (10) yordamida tortib olinadi. Mato suyri tarnovdan keyingi mashina van-nasiga sirpanib tushadi. Shu yo'sinda mato jguti qolgan mashinalardan ham o'tadi. Ishlov provardida mato jguti siqish vallari (15)da siqilib, ikkinchi tarnovsimon kompen-sator (17) orqali burovni yozish mexanizmi (16)ga keladi va jgutni yoyish mexanizmi (18)da jgut yoyiladi hamda uni mato taxlagich (19) aravachaga taxlaydi.

Mato yuvish mashinalarining ishchi kengligi – 2200 mm, agregat uzunligi 24,7 metrni tashkil qiladi va mato tezligi 16 – 63 m/min oralig'ida o'zgartirilishi mumkin. Agregat yurituvchisi tarkibiga kiritilgan doimiy tokda ishlovchi

elktrodvigatellar mato tezligini bir me'yorda o'zgartirish imkonini beradi. Agregat tarkibidagi mashina vannalari yuvish eritmasi sathini, haroratini moslashning avtomatik sitemasi bilan ta'minlangan va agregatni boshqarish avtomlashtirilganligi ishlov berishning yuqori unumdarligini kafolatlaydi.


Kamvol matolarini yoyilgan holda uzlusiz yuvish jarayonini jadallashtirishning har xil mexanizmlari bilan jihozlangan yashik tusidagi yuvish mashinalari tavsiya etiladi. Bu mashinalarda nafaqat yuvish, balki matoni pishitish (zavarka) jarayoni ham amalga oshiriladi. Masalan LZP – 180 – Sh liniyasida bu jarayonlar muvaffaqiyatliligi amalga oshiriladi. Liniya tarkibiga uch valli plusovka, novli kompensator va mato taxlagichli, sakkizta yashikli yuvish apparati kiradi. Plusovkaga kirish oldidan, mato cho'tkalar yordamida yuvish eritmasi bilan tozalanadi. Bu liniyada kengligi 1600 mm gacha va og'irligi 1000 g/m<sup>2</sup> gacha bo'lган matolar yuvilishi yoki og'irligi 500 g/m<sup>2</sup> gacha bo'lганlari pishitilishi mumkin. Pishitish uchun matoga plusovkada oxordan tushirish eritmasi shimdirlilib, 15 daqiqa kompensatorda saqlanadi, shundan so'ng boshlang'ich ikki vannada 95 – 96°C li suvda yuviladi. Qolgan vannalarda shu haroratda pishitiladi, ammo oxirgi vannada mato sovuq suvda yuviladi. Liniya uzunligi 18,6 metrni tashkil qiladi va matoga 10 – 30 m/min tezlikda ishlov berish mumkin.

Korxonalarda movut matolarni pishitish uchun rolikli ZR – 6 – 186 – Sh mashinasidan ham foydalaniladi. Bu mashina to'rtburchak uzun vannaga ega bo'lib, u ikkita

bo'limga ajratilgan. Birinchi bo'limda mato undagi qaynoq suvga cho'ktirilgan roliklarga birin-ketin o'raladi va shu davrda ishlov oladi. Ikkinci bo'limda esa mato sovuq suvda purkagichlar yordamida chayqaladi, shundan so'ng siqish vallarida siqilib, mashinadan taxlagich yordamida tortib olinadi yoki rulonga o'raladi. Bu mashinada mato pishitish 40 daqiqagacha uzaytirilib, unga sifatli ishlov berishga erishilsa ham, u hozirgi zamon talablariga javob bermaydi, shuning uchun u ishlab chiqarilmaydi.

Hozirgi zamon talabiga javob beruvchi mashinalar qatoriga Germaniyaning "Monfors" firmasining pishirish, pishitish va stabillash jarayonlarini birga qo'shib olib borish imkonini beruvchi mashinasini qo'yish mumkin. Uning ishlash prinsipini tushuntiruvchi sxema 95- rasmida keltirilgan.

Mato (4) plusovka (5)da issiq suv bilash shimdiriladi, vallarda siqiladi va markaziy baraban (1) yuzasi bilan yuzasi rezinalangan poliefir cheksiz polotnosi (2) oralig'iga beriladi. Undan chiqqan mato sovuq suvda sovitilib siqladi va taxlanadi. Mato baraban yuzasida bo'lган vaqtida,



95- rasm. "Monfors" firmasi mashinasining sxemasi.

1 – markaziy silindr; 2 – poliefir polotnosi; 3 – kichik silindr; 4 – mato; 5 – plusovka; 6 – cho'tka; 7 – rolik; 8 – to'g'rilovchi rolik; 9 – cho'tka.

uning yuzasi qizdirilganligi tufayli 100°C haroratda ishlov oladi. Baraban yuzasiga tortilgan rezinalangan cheksiz mato o'zidan bug'ni o'tkazmaganligi tufayli bug'li ishlov jadallahshadi. Cheksiz polotno kichik baraban (3) yordamida quriladi va harakati davomida yo'naltiruvchi rolik (7) va to'g'rilovchi rolik (8)lar yordamida yoyilgan holda bir tekis o'tishi ta'minlanadi.

Mashinaning ishchi kengligi – 1600 mm, mato tezligi – 10 – 25 m/min oralig'ida. Shunday prinsipda ishlovchi mashinani "Xemmen" (Germaniya) firmasi ham taklif etgan. Uning barabani diametri 2600 mm bo'lib, mato o'tish tezligi 5 – 25 m/min ni tashkil qiladip; bu esa mato pishitish va fiksatsiyalash vaqtini 30 – 100 soniya oralig'ida o'zgartirish imkonini beradi.


## 2. Movut matosini tig'izlash mashinalari

Jun matolarni tig'izlash kislotali yoki kuchsiz ishqoriy muhitda, ho'l holatda va 38 – 45°C haroratda olib boriladi. Bu jarayonda mato tanda va arqoq iplari bo'yicha davriy ravishda siqiladi. Namlik tolalarning uzayishini osonlashtiradi, ular orasidagi ishqalanish kuchini kamaytiradi. Harorat esa iplarning cho'zilish kuchini kamaytiradi. Matoning davriy siqilishi iplarning bir-biriga nisbatan siljishiga ko'maklashadi, natijada ularning o'zaro ilashuvchanligi oshadi.

Tig'izlash uchun ikki xil mashinalardan foydalanish mumkin: boltali va silindrik. Boltali mashinada taxlangan mato bo'laklari mashina boltasi bilan uriladi, natijada mato

kirishadi, ammo bu kirishish stixiyali ravishda nazorat-siz kechadi. Bunday jarayonda standartlangan natija olib bo'lmaydi, bundan tashqari, mashinaning unumdorligi o'ta past.

Silindrik mashina esa takomillashgan va uning unumdorligi yuqori. Bunday mashinaning ishlash prinsipini 96-rasmda keltirilgan sxemadan tushunsa bo'ladi.



96-rasm. Silindrik movut tig'izlash mashinasining sxemasi:

1 – vallar; 2 – quti; 3 – pishangli sistema; 4 – vanna; 5 – yo'naltiruvchi rolik; 6 – ajratuvchi taroq; 7 – vertikal rolik; 8 – yon yuza.

tolalari bosim ta'siridan ozod bo'lib, rostlanishga intiladi. oz bo'lsa-da, cho'ziladi va bu ularning o'zaro ilashishlari ga ko'maklashadi. Mato jguti yo'naltiruvchi roliklar (5) ajratuvchi taroq elementlari va kengligi bo'yicha siquvchi yon yuza (8) orasidan o'tadi. Shundan so'ng mato yana siquvchi vallar orasiga kiradi. Bir necha soat davom etuvchi bunday siqish va ozod bo'lish jarayoni matoning uzunligi va kengligi bo'yicha kirishishini ta'minlaydi. Matoning


vannada erkin holda harakatlanishi va ularning rolik (5) yuzasi bilan to'qnashishi jgutning ochilishiga ko'maklashadi. bu esa matoning bukilgan joylarining siljishiga olib keladi. natijada ularning fiksatsiyalanishidan saqlaydi.

Mashinaning siqish vallari cho'yandan quyilib, yuzasiga rezina qoplanadi. Yuqoridagi val pastki valga o'z og'irligi bilan siqilib turadi, ammo uning siqilish darajasini mexanik yoki pnevmo usulda moslash mumkin. Vanna zanglamaydigan po'lat listlardan tayyorlanadi (yoki daraxtdan tayyorlanib, yuzasi viniplast bilan qoplanadi) va issiqlik sarfini kamaytarish uchun hamma tarafi izolatsiyalanadi. Mato tig'izlash mashinasiga kiritilishidan oldin, yoyilgan holda unga tig'izlash eritmasi shimdiriladi, siqiladi va yuzasi cho'tka bilan tozalanadi.

Rossiyada ishlab chiqarilgan hamda ishchi kengligi 300 va 500 mm bo'lgan SV – 300 – Sh va SV – 500 – Sh grebenkali tig'izlash mashinalari movut matolarni tig'izlashga mo'ljallangan. Mashina qutisi qopqog'iga bo'lgan bosim 600 – 800 N ni tashkil qiladi, mato tezligi esa 120, 160 va 225 m/minut. Qo'pol movut matolarni tig'izlash uchun matoning har bir bo'lagi o'tishi uchun alohida klapani bor mashinalar qo'llaniladi. Shunday qilib, har bir bo'lak matoning uzunligi bo'yicha krishishi regulirovka qilinadi.

Yuqorida ishlash prinsipi keltirilgan mashinalarda tig'izlash vannasining miqdori kam bo'lsa, ya'ni uning sarfi mato og'irligining 120 – 140% ini tashkil qilsa. bunday mashinalar "quruq" tig'izlash mashinalari deb yuritiladi. Keyingi vaqtda klapanlarining konstruksiyasi takomillashtirilgan, vannasining hajmi kattalashtirilgan va undagi

eritmani isitadigan moslamasi bor tig'izlash-yuvish mashinalari taklif qilinmoqda. 97- rasmida "Xammer" (Germaniya) firmasi tig'izlash-yuvish mashinasining "Kombi II" modeli sxemasi keltirilgan.



97- rasm. Tig'izlash-yuvish mashinasining sxemasi:

1 – barka; 2 – zaslonka; 3 – siqish vallari; 4 – purkagich; 5 – qopqoq; 6 – ekssentrikli val; 7 – kanal.

Kanalida bo'ladi. Matoning uzunligi va kengligi bo'yicha kirishishiga val (6)ning aylanishi va klapan (5)ning siqilish kuchi imkon yaratadi. Bu mashinada matoni kirishishi 20% ga yetadi, tig'izlash jarayoni esa 30 – 50% ga jadallashadi. Firmalar uzluksiz ishlovchi tig'izlash mashinalarini taklif qilayotganliklari to'g'risida ma'lumot bor, ammo adabiyotda ularning sxemalari va texnik ko'rsatkichlari keltirilgani yo'q.

Ikkita zaslonka 2) mato jutini siqish vallariga yo'naltirishga xizmat qiladi. Tig'izlash kamerasi konstruksiyasi o'ziga xos bo'lib, uning yurituvchidan harakat oluvchi eksentrikli vali (6) pnevmomexanizmli siqish mexanizmiga ega klapanqopqoq (5)ni hosil qiladi. Matoning asosiy siqilishi vallar orasida va val (6) bilan klapanqopqoq (5) hosil qilgan kirishish tor


### 3. Karbonlash agregatlari

Ma'lumki, jun tolalarni yoki matolarni o'simlik qoldiqlaridan kimyoviy yo'l bilan tozalash karbonlash deylidi va u bir necha operatsiyalarni o'z ichiga oladi. Asosiy

operatsiyalar quyidagilardan iborat: konsentratsiyasi 50 g/l bo‘lgan sulfat kislotasini tolaga yaxshilab shmdirish; bir tekisda uni siqish (60 – 70%); 65 – 95°C haroratda quritish va 105 – 110°C haroratda termoishlov berish. Termoishlov davomida o‘simlik qoldiqlari gidrolizga uchrab parchalani va gidroselluloza mexanik usulda toladan chiqariladi, shundan so‘ng tola yuviladi, neytrallanadi va yana quritiladi. 98- rasmda matoni karbonlash aggregatining sxemasi keltirilgan.

Mato (6)ga birin-ketin o‘rnatilgan shmdirish mashinalari (1)da kislota eritmasi obdon shmdiriladi. Mashinalar orasida matoni siqish bu jarayonning mukammal bo‘lishiga xizmat qiladi. Mato cheti uni neytralash mexanizmining valiklari yuzasiga tegib aylantiradi. Valiklar yarmigacha vannachadagi soda eritmasiga cho‘kib turadi, natijada mato chetiga valik yuzasidan soda eritmasi o‘tadi va kislotani neytrallaydi. Shundan so‘ng mato olti seksiyali quritish mashinasiga kiradi. Quritish mashinasi seksiyalarida harorat shunday sekin-asta ko‘tariladiki, to‘rtinchi seksiyada mato quriydi, keyingi ikki kuydirish seksiyalarida esa harorat 105 – 110°C gacha ko‘tariladi.

Uzluksiz ishlaydigan jun tolasini karbonlash aggregatida (masalan, Angliyaning “Petrik” va “Mak-Naut” firmasi-



98-rasm. Matoni karbonlash agregati:

1 – uchta shmdirish mashinasi; 2 – siqish mashinasi; 3 – kompensator; 4 – mato chetini neytralash mexanizmi; 5 – quritish mashinasi; 6 – mato.

ning agregati) tolaga ikkita barkada kislota eritmasi shimidiriladi. Bu barkalarda tola panskashali mexanizm yordamida eritmaga cho'ktirilib, oldinga harakatlartiriladi. Ikkinchi barkadan chiqayotgan tola siqiladi va quritish uchun yuzasi setkasimon barabanli mashinaga beriladi. Quritish mashinasining oxirgi seksiyasida havo harorati 110°C ga yetka-ziladi. Bu sharoitda selluloza tabiatli aralashmalar kuyadi. Shundan so'ng tola urgichli mexanizmdan o'tkazilib tozalanadi, yuvish mashinasida yuvilib, so'ng quritiladi.

*Takrorlash uchun savollar:*

1. Zanjirli merserlash agregati tarkibini gapirib bering.
2. Zanjirli merserlash aggregatining afzalliklari va kamchiliqi nimada?
3. Zanjirsiz (valli) merserlash agregati tarkibiga kiruvchi mashinalar to'g'risida gapirib bering.
4. "Beninger" firmasining "Dimenza" sistemali merserlash aggregatining o'ziga xosligini tushuntirib bering.
5. "Dimenza" sistemali merserlash aggregatining boshqa merserlash aggregatlaridan nimasi bilan farqlanishini gapirib bering.
6. Issiq usulda matoni merserlash nima uchun zarur bo'lib qolganini tushuntirib bering.
7. PJ – 220 – Sh mashinasida matoning qanday zapravka qilinishi to'g'risida gapirib bering.
8. "Monforst" firmasi mashinasidan matoning qanday o'tishi va qanday ishlov olishini tushuntirib bering.
9. Tig'izlash mashinasini to'g'risida gapirib bering.
10. Jun matosini karbonlash aggregatining ishslash prinsipi va uning tarkibi to'g'risida gapirib bering.

## **III B O B. MATO YUZASIGA ISHLOV BERUVCHI VA UNI ENIGA KENGAYTIRUVCHI JIHOZLAR**

### **1- §. To‘qilgan mato va trikotaj polotnolarini vorsovkalash (paxmoqlash) jihozlari**

Qishki kiyim-boshga mo‘ljallangan mato va trikotaj polotnolarida yuqori issiqlik izolatsiya xossalari bo‘lish talab etiladi. Bunday xossalarga ularning yuzalariga mexanik ishlov berish jarayoni – paxmoqlash natijasida erishiladi. Paxmoqlash jarayonida mato yoki trikotaj polotnosi yuzasida material strukturasini qoplab turuvchi, asosan, arqoq iplar tolalarining uzilishi hisobiga yoki trikotaj polotnosi iplari sirtmoqlaridan yumshoq tola qoplamasini hosil qilinadi. Paxmoqlash natijasida material g‘ovaklarida havo miqdorining oshishi hisobiga uning issiqlikni o‘tkazish qobiliyati pasayadi. Ma‘lumki, havo issiqlikni yomon o‘tkazuvchi muhitdir. Masalan, paxmoqlangan jun matosi yoki trikotaj polotnosi hajmining 4/5 qismini havo tashkil qiladi. To‘qimachilik materiali yuzasidagi tolachalar uchlaridan yoki tola sirtmoqlaridan iborat qatlam unga chiroyligi tashqi ko‘rinish, kishi ushlaganda mayinlik sezgisini namoyon qiladi, shu bilan birga, matoning tovush yutish qobiliyatini ham oshiradi va uning drapirovkalanishini yaxshilaydi.

Paxmoqlash natijasida materialning yemirilishga bo'l-gan qarshiligi oshishini alohida ko'rsatib o'tish lozim. Shuning uchun paxmoqlangan mato va trikotaj polotnosi nafaqat ichki va tashqi kiyim-kechak tayyorlashda, balki texnika sohasida ham keng qo'llaniladi. Matoning tanlangan vazifasidan kelib chiqilgan holda, uning yuzasidagi tolachalar qatlami mato asosiga nisbatan to'g'ri burchak ostida, bir teks qalinlikda yoki fason holida bo'lishi mumkin. Material xom, oqartirilgan, bo'yalgan va gul bosilgan holda paxmoqlash jarayonidan o'tishi mumkin.

Paxmoqlash mashinalari konstruksiyasiga, unda ishlatilgan garnituraga va hosil qilinadigan tolachalar qatlamiga qarab tavsiflanadi. Mashina konstruksiyasiga va unda ishlatilgan garnituraga qarab, paxmoqlash mashinalari uch turga, ya'ni ignali, shishkali va kombinatsiyalangan paxmoqlash mashinalariga ajratiladi.

## **1. Igna garniturali paxmoqlash mashinasining tuzilishi va ishlash prinsipi**

Bu turdagи paxmoqlash mashinalari ip-gazlamalar, ipak, jun matolari va trikotaj polotnolarini paxmoqlashda keng qo'llaniladi. Ishlab chiqarishda ular shishkali mashinalarni siqib chiqarishga ulgurdi.

Igna garniturali mashinalarda matoga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy element paxmoqlash vallari ignalari hisoblanadi. Garnitura ignalari mato strukturasiga sanchilib, ip uchlarini uning yuzasiga olib chiqishini yuqorida ta'kidlagan edik. Buning uchun ignalar ipning qarshiligi – ishqalanish kuchi

€ ni yengib o'tishlari lozim. € kuchi ipning buramalar soni K va jismlarning ishqalanish yuzasi S, ya'ni ignalar uchlari bilan tolalarning ishqalanish yuzalari ko'paytmasiga proporsional bo'lishi lozim:


$$F = f KS.$$

Bu yerda: f – proporsionallik koeffitsiyenti.

Bu kuch qanchalik kata bo'lsa, matoni paxmoqlash shunchalik qiyin kechadi. Uni kamaytirish maqsadida iplarning burama sonini kamaytirish, tolalarni "moylash" tavsiya etiladi. Shu maqsadda jun matolari namlanadi, oqartirilgan ip-gazlamalarga esa parafin-stearin emulsiyasi shimdiriladi yoki xom holatda paxmoqlanadi, chunki xom mato tolalari ularni yetarlicha "moylovchi" vosksimon moddalarga ega.

Ip-gazlama ishlab chiqarishda 24, 30, 36 va 40 ta paxmoqlovchi vallarga ega bo'lgan mashinalar ishlatsa, jun matolarini ishlab chiqarishda esa 24 va 36 ta valli mashinalar keng qo'llaniladi. Bu mashinalarning ishlash prinsiplari bir xil bo'lib, ularning konstruksiyalari, asosan, yurituvchilarining tarkibi bilan farqlanadi. 99- rasmda 36 valli V – 180 mashinasining ishlash prinsipini izohlovchi sxema keltirilgan.

Yurituvchidan harakat oluvchi markaziy baraban (1) mashina gardishiga podshipniklar yordamida o'rnatilgan. Bu barabanning chap va o'ng tarafidagi planshaybalarga paxmoqlash (11) va qarshi paxmoqlash vallari (12)ning podshipnik korpuslari o'rnatiladi. Mashina gardishiga mahkamlanuvchi balkalar (17)ga matoni mashinaga kirituvchi




99- rasm. Igna garniturali paxmoqlash mashinasi sxemasi:

1 – yo'naltiruvchi rolik; 2 – paxmoqlash barabani; 3 – quritish barabani; 4 – bremza; 5 – tormozlovchi valik; 6 – oldingi transportirlovchi val; 7 – tozalovchi cho'tka; 8 – so'rish kamerasi; 9 – orqa tarafdag'i transportirlovchi val; 10 – silovchi val; 11 – paxmoqlovchi valik; 12 – qarshi paxmoqlovchi valik; 13 – transportirlovchi val; 14 – mato ag'daruvchi roliklar; 15 – tortib oluchi vallar juftligi; 16 – mato taxlagich; 17 – balka.

va uni tortib oluvchi elementlar o'rnataladi. Mashina konstruksiyasining pastki qismiga mato qurituvchi baraban (3), matoni paxmoqlash zonasiga kirituvchi transportirlovchi val (6) va chiqarib oluvchi transportirovchi val (9)lar o'rnatilgan. Paxmoqlash va qarshi paxmoqlash valalarini tozalashda hosil bo'lувchi iflosliklarni so'rib olish kamerasi (8) cho'tkalar tagiga mahkamlanadi.

Igna garniturali paxmoqlash mashinasining ishlash principini 100- rasmida keltirilgan V – 180 – Sh mashinasining texnologik sxemasi asosida ko'rib chiqamiz.

Markaziy baraban (1) yurituvchi bilan bog'langan va soat strelkasi bo'yicha harakatlanadi. Mato (3) barabanga o'rnatilgan paxmoqlovchi va qarshi paxmoqlovchi valiklar, ignali garniturasiga tekkan holda, baraban yo'nalishida



100- rasm. V – 180 – Sh  
mashinasining texnologik sxemasi:

1 – markaziy baraban; 2 – paxmoqlash valiklari; 3 – mato yoki trikotaj polotnosi; 4 – qarshi paxmoqlash valiklari; 5 – odingi transportirlovchi val; 6 – tozalash cho'tkalari; 7 – orqa tarafdagи transportirlovchi val.



oldindagi (5) va orqadagi transportirlovchi vallar (7) yordamida ma'lum taranglikda harakatlanadi. 24 ta valdan 12 tasi paxmoqlovchi, qolgan 12 tasi esa qarshi paxmoqlovchi vallar hisoblanadi. Paxmoqlash val kard lentasi ignalarining o'tkir uchlari mato harakati yo'nalishi tarafiga mos egilgan. qarshi paxmoqlovchi vallarda esa ignalar uchi mato yoki polotno yo'nalishiga qarshi tomonga egilgan. Mashina barabani yuzasida paxmoqlovchi va qarshi paxmoqlovchi vallar o'zaro almashib keladi. Shunday qilib, mashinada paxmoqlovchi va qarshi paxmoqlovchi vallar guruhlari mavjud.

Jarayon boshlanishida qarshi paxmoqlovchi vallar yuzasidagi ignalar matoga katta burchak ostida keladi; ignalar asosining deformatsiyalanishi natijasida bu burchak oshib boradi va ignalarining mato bilan o'zaro ta'siri natijasida ular mato yuzasiga tolalarni tortib olib chiqishda davom etadi. Bu vallar ignalarining matoga kirish va undan chiqish yo'li davomida mato bilan o'zaro ta'sirda bo'ladi. Paxmoqlovchi vallar ignalari polotnoga kichik burchak

ostida keladi va uning yuzasida taralgan tolachalar uchidan iborat yungga (momiqqa) kiradi, ularni taraydi va tik qiladi. Ignalarning egilish yo'nalishi bilan mato harakati yo'nalishi bir-biriga mosligi tufayli, bu ignalar mato yuzasiga tolachalar uchlarini to'laqonli ravishda chiqarib ushlab tura olmaydi. Shuning uchun bu mashinalarda mato yuzasida hosil qilingan qatlamdag'i tolachalar kalta bo'lib, o'zaro chalkashgan holda bo'ladi. Paxmoqlovchi vallar matoning arqoq iplariga ta'sir o'tkazib, ularni baraban aylanishi yo'nalishi bo'yicha uzib, ip uchini tortib, mato yuzasiga chiqaradi, qarshi paxmoqlash vallari esa qarama-qarshi ta'sir ko'rsatadi.

Mashinaning har bir ishchi organi harakat yo'nalishi ko'rsatilgan 101- va 102- rasmlarda keltirilgan sxemalar yordamida mato yoki polotno bilan vallarning o'zaro ta'sirini ko'rib chiqamiz.

1. Baraban (1) doimiy tezlik bilan soat strelkasi yo'nalishida aylanadi, qolgan elementlar: paxmoqlash vallari (2), mato (3) va qarshi paxmoqlash vallari (4) esa



*101- rasm. Paxmoqlash va qarshi paxmoqlash vallari va matoning harakatsiz holatida mashina ishchi organlarining o'zaro ta'siri:*

1 – markaziy baraban; 2 – paxmoqlash vallari; 3 – mato; 4 – qarshi paxmoqlash vallari.

*102- rasm. Markaziy baraban va matoning harakatsiz holatida mashina ishchi organlarining o'zaro ta'siri:*

harakatsiz. Bunday holatda qarshi paxmoqlash vallari matoga hech qanday ta'sir o'tkazmaydi, chunki uning ignalari baraban harakati yo'nalishiga teskari tomonga bukilgan. Paxmoqlash valiklarining ignalari esa baraban yo'nalishi bo'yicha bukilgan. Shuning uchun ular matoga ta'sir qilib, uning strukturasini buzadi.

2. Baraban (1) va polotno (3) harakatsiz. Paxmaqlovchi va qarshi paxmoqlovchi vallar mashinaning normal ishchi holatidagidek, ya'ni baraban aylanishiga qarshi tarafga aylanadi. Bu holatda qarshi paxmoqlovchi vallar ignalari mato yuzasini paxmoqlaydi, paxmoqlovchi vallarning ignalari polotno yuzasidan sirpanib o'tadi.

3. Mashinadagi mato harakatsiz, qolgan ishchi organlar harakatda, ya'ni baraban soat strelkasi yo'nalishida aylanadi, paxmoqlovchi va qarshi paxmoqlovchi vallar esa unga qarshi yo'nalishda o'z o'qlari atrofida va baraban bilan birga aylanadi. Bu holatda qarshi paxmoqlovchi vallar tegib turgan mato uchastkalarini jadal paxmoqlaydi. Paxmoqlovchi vallar ignalari baraban harakati bilan harakatsiz mato ichiga sanchiladi va uni taraydi, ammo o'z o'qlari atrofida baraban harakati yo'nalishiga qarama-qarshi tarafga aylanishi tufayli matodan chiqadi.

O'tkazilgan tahlil shuni ko'rsatadiki, agar qarshi paxmoqlovchi vallarning o'z o'qi atrofida aylanish tezligi barabanning aylanish tezligidan katta bo'lsa, ular matoni jadal paxmoqlaydi, ya'ni  $V_{qpv} > V_b$ . Paxmoqlash vallarining o'z o'qlari atrofidagi tezligi barabanning aylanish tezligidan kichik bo'lganda, ya'ni  $V_{qpv} < V_b$ , tengsizligi ta'minlanganda, matoni jadal paxmoqlaydi.

Bu ikkala holatda ham ishchi vallar harakati baraban harakati yo'nalishiga qarama-qarshi yo'nalishda bo'lishi lozim. Shunday sharoitda ikkala guruh valiklar ignalari mato strukturasiga kiradi va undan sekin-astalik bilan chiqib. uzilgan iplar tolalari uchini mato yuzasiga olib chiqadi. Ammo biz shartli ravishda mato harakatsiz deb qabul qilganimiz tufayli, mato yuzasidagi tolachalar qatlami valarning matoga ta'sir qilgan yuzasida hosil bo'ladi, xolos.

## 2. Mashina ishchi organlari tezligini hisoblash

100- rasmda ko'rsatilganidek, mashinaning paxmoqlovchi va qarshi paxmoqlovchi vallari o'rnatilgan markaziy baraban soat strelkasi yo'nalishi bo'yicha aylanadi. Paxmoqlovchi va qarshi paxmoqlovchi vallar o'z o'qlari atrofida baraban harakati yo'nalishiga qarshi tomonga, ya'ni soat strelkasi harakatiga qarshi tomonga aylanadi, mato harakati esa baraban harakati yo'nalishiga mos tushadi. Bunday sharoitda paxmoqlovchi va qarshi paxmoqlovchi vallar tezligi baraban tezligi hamda ularning o'z o'qlari atrofidagi aylanish tezliklaridan iborat bo'ladi. Ularni ko'rib chiqamiz.

1. Vallarning matoga tegib turgan yuzasining baraban bilan birgalikdagi harakati natijasidagi ko'chma aylanma tezligi:

$$V = \pi Dn \text{ (m/min);}$$

Bu yerda: D – ignali valni tashqi nuqtasini harakat trayektoriyasining diametri, M; n – barabanning bir daqiqadagi aylanish soni (ayl/min)

2. Vallarning o'z o'qlari atrofida aylanishi natijasida-gi nisbiy tezligi ikki harakat tezligi yig'indisidan iborat bo'ladi:

– valikka o'rnatilgan shkivning tasmaga sirpanishi natijasidagi valikning o'z o'qi atrofida aylanishidagi doimiy tezlik  $V_1$ , ni beradi.

– yurituvchi tasmaning harakati natijasida paxmoqlov-chi vallar o'zgaruvchan tezlik  $V_2$ , ga, qarshi paxmoqlovchi valiklar esa o'zgaruvchan tezlik  $V_3$ , ga ega bo'ladi.

Agar paxmoqlovchi vallarning nisbiy tezligini  $V_{pv}$  va qarshi paxmoqlovchi valiklar tezligini  $V_{qpv}$  deb belgilasak, u holda

$$V_{pv} = \pi d \sqrt{(n_1 + n_2)} \quad (2) \text{ bo'ladi.}$$

Bu yerda:  $d$  – ignali lentani hisobga olingandagi paxmoqlash valining diametri, m;  $n_1$  – val shkivining tasmaga sirpanishi natijasida valik oladigan doimiy aylanish tezligi;  $n_2$  – tasmaning harakati natijasida val oladigan doimiy aylanish tezligi.

Xuddi shunday iborani qarshi paxmoqlash vali uchun ham yozish mumkin:

$$V_{qpv} = \pi d P V (n_{11} + n_{112}) \quad (3).$$

Paxmoqlovchi va qarshi paxmoqlovchi vallar yuzasining absolut tezligi  $V_{pabs}$  va  $V_{qpvabs}$  deb belgilansa. u holda:

$$V_{pabs} = V_1 - V_{pv} \quad (4);$$

$$V_{qpvabs} = V_1 - V_{qpv} \quad (5) \text{ deb yozish mumkin}$$

Paxmoqlashning effektiv tezligi deb, vallar ignalarining mato yoki polotnoga nisbatan harakat tezligiga aytildi. Bu tezlik vallarning nisbiy tezligiga va mato tezligiga bog'liq. Paxmoqlash vallari uchun effektiv paxmoqlash tezligi deganda, vallar ko'chma tezligi va mato tezligi yig'indisining vallar nisbiy tezligidan farqi tushuniladi, ya'ni:

$$-V_{ef\_{pv}} = V_{pv} - V_i + V_{mato} \quad (6).$$

Effektiv tezlikning ishorasi mato vallarning ignali yuzasidan orqada qolishi yoki undan o'zishini ko'rsatadi. Ishora manfiy bo'lganda, vallarning ignali yuzasi matodan o'zadi. Paxmoqlash vallarining paxmoqlash sharoiti uchun Vef.pv manfiy bo'lishi kerak. Paxmoqlash vallari ishlashining boshlang'ich sharti:

$$V_i - (V_{pv} + V_{mato}) = 0. \quad (7).$$

Shunday qilib, tenglama (7)dan ko'rinish turibdiki, paxmoqlash vallarining effektiv ishlash sharti bo'lib ularning o'z o'qi atrofida aylanish tezligining kamayishi xizmat qiladi. Shunday tenglamani qarshi paxmoqlash vallari uchun ham yozishimiz mumkin:

$$V_{ef\_{qpv}} = V_{qpv} - (V_i + V_{mato}) \quad (8).$$

Bu sistema valiklar uchun effektiv tezlik musbat qiymatga ega bo'lishi kerak va ularning ishlashining boshlang'ich sharti bo'lib  $V_{ef\_{qpv}} - (V_i + V_{mato}) = 0$  xizmat qiladi.

### 3. Mashina asosiy qismlarining tuzilishi


Ignali paxmoqlash mashinasining asosiy konstruktiv elementlari quyidagilardan iborat: gardish; paxmoqlash va

qarshi paxmoqlash vallari o'rnatilgan bosh baraban; matoni zapravka qilish elementlari; matoni qabul qilib olish mexanizmi; vallarni tozalash cho'tkalari; mashina yurituvchisi; mato taxlagich.

Mashina gardishi quyma bo'lib, uning alohida qismlari o'zaro ko'ngdalang bog'lar bilan mahkamlangan. Bosh baraban val (2)ga mahkamlangan ikkita planshayba (1) dan iborat (102- rasmga qarang). Planshaybaga aylanasi bo'yicha paxmoqlovchi va qarshi paxmoqlovchi vallar o'rnatilgan podshipnik korpuslari mahkamlangan.

Barabanning bir tarafida paxmoqlovchi vallarga o'rnatilgan shkivlar bo'lsa, ikkinchi tarafida qarshi paxmoqlovchi vallar shkivi joylashgan. Bu shkivlar orqali vallar aylanma harakat oladi. Mashina gardishidagi podshipniklardga bosh val (2) o'rnatiladi. Bosh val vtulkasiga ponasimon tasmalar ushlagichi bor tishli g'ildirak (3) ozod holda o'tkazilgan va u bir tizimdagi vallarni harakatlantiradi, boshqa tizimdagi vallar esa qarama-qarshi tarafda joylashgan xuddi shunday mexanizmdan harakat oladi. Mashinaga matoni uzatuvchi va undan matoni tortib oluvchi vallar va mato taxlagich yurituvchilar ham bor. Markazlashtirilgan moylash sistemasi maslenka va podshipniklarga moy yetkazadigan naychalardan iborat.

Mashinaga matoni zapravka qilish uskunasi materialning talab qilingan taranglikda, bukilgan joylarisiz, bir tekisda berilishini ta'minlashi lozim. Shuning uchun bu uskuna tarkibiga aylanuvchi roliklar, rolikli kompensator, yo'naltiruvchi roliklar, mato rostlovchi valik va oldingi transportlash vali kiradi.




103- rasm. Markaziy baraban kesimi:

1 – planshayba; 2 – bosh val;  
3 – shesternya; 4 – ushlagich;  
5 – maslenka; 6 – naycha; 7 –  
zichlagich; 8 – qopqoq.

Normal holatda mato bosh barabanning aylanasi chegarasida paxmoqllovchi vallar yuzasiga tegib turishi lozim. Ishlov olgan matoni qabul qilib olish mexanizmi tarkibiga mato taxlagich, tozalovchi vallar (cho'tkasi bilan) va rolikli transportyor kiradi. Tozalovchi cho'tkalar paxmoqllovchi va qarshi paxmoqllovchi vallar ignalarini tozalaydi. Mato mashina yuqorisida joylashgan yo'naltiruvchi vallar orqali mato taxlagichga uzatilishi yoki mato yana paxmoqlash jarayoniga qaytaruvchi rolikli transportyorga berilishi mumkin.

Paxmoqllovchi va qarshi paxmoqllovchi vallarning podshipniklari markazlashtirilgan yog'lash sistemasi yordamida moylanib turiladi. Yurituvchidan mashinaning bosh vali harakatlanadi, qolgan elementlar esa undan harakat oladi. Ignalarni tozalash uchun har bir guruh vallari o'z cho'tkasiga ega. Cho'tka vali aylanganda o'rta sidagi bo'shliqdan o'tadi. Cho'tkani tozalovchi plastinkalari paxmoqlash vali garniturasining 1 – 1,5 mm chuqurligiga kiradi. Cho'tka valiga yirtilgan mato o'ralishi natijasida sinish holatining oldini olish uchun mashina yurituvchisini a'riya holatida to'xtatish sistemasi mavjud.




104- rasm. Namat qatlamlari ignali tasma

1 – besh qatlamlari sarja; 2 – namat; 3 – po'lat skoba.

**Ignali tasma.** Ignali tasma quyidagi ikki elementdan iborat: asos va unga ma'lum tartibda mahkamlangan, simdan yasalgan skoba. Tasma asosi o'zaro yelimlangan besh qavat ip-gazlama va uning ustiga yelimlangan namat yoki rezina qatlamidan iborat. Ignali tasmaning yuqori sifatli ingichka jundan tayyorlangan namat va rezina qatlami qayishqoq amartizator vazifasini bajaradi hamda skobalarga ta'sir etuvchi kuchlar ta'siri to'xtagandan so'ng, ularning boshlang'ich holatga qaytishiga imkon yaratadi.

Skobalar silindrsimon kesimga ega kard simidan tayyorlanadi va ular P simon shaklga ega. Sim diametri  $0,22 - 0,40$  mm bo'lib, igna uchi charxlanadi.



105- rasm. Razina qatlamlari ignali tasma.

1 – besh qatlamlari sarja; 2 – rezina; 3 – po'lat skoba.

13- jadvalda Rossiyada ishlab chiqarilgan ignali paxmoqlash mashinalarining texnik ko'rsatkichlari keltirilgan.


*13- jadval*

Paxmoqlash mashinalarining ba'zi texnik ko'rsatkichlari

Ko'rsatkichlar	VI – 186	VIM – 186 – 1	VI – 180 – Sh	VIA – 186
Ishchi kengligi, mm	1860	1860	1800	1860
Mato tezligi, m min	6,9 – 20,7	8,13 – 21,2	8 – 20	11,8 – 30,8
Vallar soni	36	36	24	36
Ignalar uchi bo'yicha vallar diametri, mm	82	82	82	82
Planshayba diametri (vallar markazi bo'yicha), mm	1080	1080	720	1080
Baraban tezligi, ayl/min	85	85	90	85
Ignali tasmaga bo'lgan umumiy talab, m	630 – 645	630 – 645	418 – 420	(630 – 445)2
Transportlovchi vallar diametri, m	160	160	160	160
Elektrodvigatel quvvati, kWt	7	7	7	7
Taxminiy og'irligi, kg	5500	6765	5830	10100
Gabarit o'chovlari, mm	4335	3600	4045	7245
Uzunligi	3964	3935	3450	3935
Kengligi, balandligi	2340	2295	2460	2360

## V – 180 – Sh mashinasi va uning yurituvchisi kinemati-kasining tahlili

Rossiyaning Presnya mashinasozlik zavodida ishlab chiqarilgan bu mashina 24 ta ishchi vallarga ega hamda u jun matolarini, trikotaj polotnolarini paxmoqlashga mo‘ljallangan. Vallar tezligi tezlik variatori yordamida o‘zgartiriladi va bu uning boshqa mashinalardan ustunligi hisoblanadi. Variator kirish valining tezligi – 820 – ayl/min, chiqish valining tezligi esa 335 – 2010 ayl/minga teng bo‘la oladi. Mato tezligi esa 8 – 20 m/min oralig‘ida pog‘anali o‘zgartiriladi. Mashinaning ishchi kengligi – 1800 mm, gabarit o‘lchamlari – 4045 x 3750 x 2460 mm. Mashina yurituvchisi tarkibida ikkita elektrosvigatel bo‘lib, ular barabanni va matoni transportirlovchi vallarni harakatga keltiradi. Mashina yurituvchisining kinematik



106- rasm V – 180 – Sh mashinasi yurituvchisining kinematik sxemasi:

1 va 2 – variatorlar; 3 va 5 – transportirlovchi valiklar; 4 va 6 – tezlik korobkalar; 7 va 9 – tozalovchi cho‘tkalar; 10 – mato taxlagich vali; 11 – paxmoqlash vallari; 12 – qarshi paxmoqlash vallari; 13 – mato taxlagichning old tomonda joylashgan yuqoridagi joylashgan vali; 14 – val; 15 – orqa tomonda joylashgan yuqoridagi transportirlovchi val.

sxemasi 106- rasmida keltirilgan. Yurituvchining kinematik sxemasidan ko‘rinib turibdiki, bosh valga harakat elektrosvigateldan ponasimon tasmali uzatma orqali beriladi. Mashinaning tezlik rejimini aniqlash uchun yurituvchi elementlarining ko‘rsatkichlari 14- jadvalda keltirilgan.

Mashina yurituvchisining kinematik hisob-kitobining ketma-ketligi quyida keltirilgan.

### 1. Baraban bosh valining aylanish tezligi:

$$n_b = n_e \frac{D_1 Z_1 (1 - \ell)}{D_2 Z_2} \text{ (ayl/min).}$$

Bu yerda: ne – elektrosvigatel valining aylanish tezligi;  $D_1$  – ponasimon tasmali harakat uzatgich yetaklovchi shkivining diametri;  $D_2$  – ponasimon tasmali harakat uzatgich yetaklanuvchi shkivining diametri;  $Z_1$  – yetaklovchi tishli g‘ildirakning tishlari soni;  $Z_2$  – bosh valda o‘rnatilgan yetaklanuvchi tishli g‘ildirakning tishlari soni;  $\ell$  – tasmani sirpanish koeffitsiyenti ( $\ell = 0,2$ );

Yuqoridagilarning son miqdorlarini qo‘yib, quyidagini olamiz:

$$n_b = \frac{950 \cdot 125 \cdot 39 \cdot 0,98}{415 \cdot 117} = 93,47 \text{ ayl/min}$$

2. Baraban aylanganda, mato bilan uchrashuvchi paxmoqlash vallari yuzasining aylanma tezligi (barabanning aylanma tezligi):

$$V_b = 2\pi R n_b \text{ (m/min).}$$

Bu yerda: R – vallar yuzasining baraban o‘qiga nisbatan aylanish radiusi (R – 0,401 m).

$$V_b = 2 \cdot 3,14 \cdot 0,401 \cdot 93,47 = 235,38 \text{ m/min.}$$

Yurituvchining kinematik sxemasi elementlarining xarakteristikasi

106-rasm-dagi belgi-lar	Tish-lar soni	106-rasm-dagi belgilar	Tish-lar soni	106-rasm-dagi belgi-lar	Tish-lar soni	106-rasm-dagi belgi-lar	Diametr mm
Z <sub>1</sub>	39	Z <sub>16</sub>	40	Z <sub>31</sub>	17	D <sub>1</sub>	125
Z <sub>2</sub>	117	Z <sub>17</sub>	24	Z <sub>32</sub>	17	D <sub>2</sub>	415
Z <sub>3</sub>	26	Z <sub>18</sub>	182	Z <sub>33</sub>	15	D <sub>3</sub>	125
Z <sub>4</sub>	32	Z <sub>19</sub>	24	Z <sub>34</sub>	17	D <sub>4</sub>	140
Z <sub>5</sub>	25;33; 39; 43	Z <sub>20</sub>	32	Z <sub>35</sub>	22	D <sub>5</sub>	242
Z <sub>6</sub>	42;46; 52;56	Z <sub>21</sub>	24	Z <sub>36</sub>	56	D <sub>6</sub>	242
Z <sub>7</sub>	22	Z <sub>22</sub>	182	Z <sub>37</sub>	23	D <sub>7</sub>	125
Z <sub>8</sub>	42	Z <sub>23</sub>	23	Z <sub>38</sub>	23	D <sub>8</sub>	340
Z <sub>9</sub>	30	Z <sub>24</sub>	23	Z <sub>39</sub>	56	D <sub>9</sub>	100
Z <sub>10</sub>	30	Z <sub>25</sub>	76	Z <sub>40</sub>	56		
Z <sub>11</sub>	71;72 72 ;73	Z <sub>26</sub>	55	Z <sub>41</sub>	23		
Z <sub>12</sub>	71;72 72 ;73	Z <sub>27</sub>	38	Z <sub>42</sub>	23		
Z <sub>13</sub>	20	Z <sub>28</sub>	52	Z <sub>43</sub>	40		
Z <sub>14</sub>	54	Z <sub>29</sub>	52	Z <sub>44</sub>	15		
Z <sub>15</sub>	28	Z <sub>30</sub>	17	--			

## 3. Orqadagi transportirlash vali (3)ning aylanish soni

$$n_3 = \frac{n_4 Z_1 Z_2 Z_7}{Z_4 Z_6 Z_8} = \frac{93,47 \cdot 26 \cdot 22}{32 \cdot Z_6 \cdot 42} = 39,78 \frac{Z_1}{Z_6} \text{ ayl/min}$$

Bu yerda: Z<sub>1</sub> va Z<sub>4</sub> – bosh valdan tezlik korobkasiga harakat uzatuvchi zanjirli uzatmaning yetaklovchi va yetaklanuvchi yulduzchalarining tishlari soni; Z<sub>5</sub> va Z<sub>6</sub> – tezlik

korobka-sidagi almashtiriluvchi tishli g'ildiraklarning tishlari soni;  $Z_7$  va  $Z_8$  – tezlik korobkasidan harakatni orqadagi transportirlash vali (3)ga uzatuvchi zanjirli uzatma yulduzchalarning tishlari soni.

#### 4. Orqadagi transportlash vali (3)ning aylanma tezligi:

$$V = \pi D, n = 3,14 \cdot 0,16 \cdot 39,78 \frac{Z_4}{Z_6} = 19,98 \frac{Z_4}{Z_6} \text{ (m/min)}.$$

$D$  – orqadagi transportirlash valining diametri.

5. Orqadagi transportirlash valining aylanish soni va tezligining tezlik korobkasidagi almashtiriladigan tishli g'ildiraklar tishlari soniga bog'liqligi 15- jadvalda keltirilgan.

#### 15-jadval

Orqadagi transportirlash valining aylanish soni va tezligining tezlik korobkasidagi almashtiriladigan tishli g'ildiraklar tishlari soniga bog'liqligi

$\frac{Z_4}{Z_6}$ tishli g'ildiraklar tishlari soni	Valni aylanishlar soni $n$ , ayl/min	Aylanma tezlik $V$ , m/min
25/60	16,575	8,325
33/52	25,245	12,680
39/46	33,720	16,940
43/42	40,720	20,450

#### 6. Oldingi transportirlash vali (5)ning aylanishlar soni:

$$n_5 = \frac{n_1 Z_9 Z_{11}}{Z_{10} Z_{12}} = \frac{39,78 \cdot Z_6 \cdot 30 \cdot Z_{11}}{Z_6 \cdot 30 \cdot Z_{12}} = \frac{39,78 \cdot Z_6 Z_{11}}{Z_6 Z_{12}}$$

Bu yerda:  $Z_9$  va  $Z_{10}$  – orqadagi transportirlovchi valdan oldindagi transportirlovchi valga harakat uzatuvchi zanjirli

uzatma yulduzchalar tishlari soni;  $Z_{11}$  va  $Z_{12}$  – tezlik korobkasi (6)ning tishli g'ildiraklari tishlari soni.

7. Olddagi transportlash vali (5)ning aylanma tezligi:

$$V = \pi D_5 n = 3.14 \cdot 0.16 \cdot 39.78 \frac{Z_{11}}{Z_{12}} = 19.98 \frac{Z_{11}}{Z_{12}} (\text{m/min}).$$

Bu yerda:  $D_5$  – oldingi transportirlash vali (5)ning diametri.

8. Olddagi transportlash vali (5)ning aylanishlar soni va tezligining tezlik korobkasi shesternyalari tishlari soniga bog'liqligi 16- jadvalda keltirilgan.

#### 16- jadval

Olddagi transportirlash vali (5)ning aylanishlar soni va tezligining tezlik korobkasi shesternyalari tishlari soniga bog'liqligi

$\frac{Z_1}{Z_2}$ tishli g'ildiraklar tishlari soni	Tezlik korobkasidagi $Z_{11}/Z_{12}$ tishli g'ildiraklar tishlari soni					
	72/72		71/73		73/71	
	Aylanish soni, ayl/min	Aylanish tezligi, m/min	Aylanish soni, ayl/min	Aylanish tezligi, m/min	Aylanish soni, ayl/min	Aylanish tezligi, m/min
25/60	16,575	8,325	16,240	8,158	17,04	8,55
33/52	25,245	12,680	24,74	12,42	25,95	13,03
39/46	33,720	16,940	32,40	16,60	33,99	17,41
43/42	40,720	20,450	39,90	20,04	41,86	21,02

Keltirilgan jadvaldagagi sonlardan ko'rinish turibdiki, tezlik korobkasi (6)dagi almashuv shesternyasining tishlari soni 72 ta bo'lganda, olddagi mato beruvchi va orqadagi mato tortib oluvchi transportirlovchi vallardagi mato tezligi bir xil. Agar bu tishlar soni 71 va 73 ta bo'lsa, mashinaga uzatilayotgan mato tezligi chiqayotganiga nisbatan bi-

roz katta bo'ladi. Agar bu shesternyalar tishlari soni 73 va 71 ta bo'lsa, mato barabandan tortilish bilan o'tadi. Tezlik korobkasi (4)dan foydalanib, paxmoqlash mashinasidan matoni 8,325 dan to 20,45 m/min oralig'ida to'rt xil tezlik bilan o'tkazish mumkin. Orqadagi mato transportirlovchi valning tezligi tezlik korobkasi (4)ning ruchkasi holatini o'zgartirish orqali o'zgartiriladi.

9. Matoning chiziqli tezligi orqadagi transportirlovchi val tezligining matoning shu valik yuzasida sirpanish koefitsiyentiga ko'paytmasiga teng. Shuning uchun mato tezligi ko'p faktorlarga bog'liq, masalan, matoning tortilganlik darajasiga, transportirlovchi val yuzasi holatiga, uning yuzasi materialiga va hokazo. Tajriba shuni ko'rsatdiki, matoning val yuzasida sirpanishi 4 – 6% ni tashkil qiladi. Bu sirpanish 4 % deb qabul qilinganda, mato tezligi orqadagi transportirlovchi val tezligiga quyidagicha bog'liq bo'ladi:

- orqadagi transportirlovchi val aylanma tezligi: 8,325; 12,68; 16,94; 20,45 m/min;
- matoning chiziqli harakat tezligi: 7,99; 12,17; 15,77; 19,63 m/min.

10. Paxmoqlovchi va qarshi paxmoqlovchi vallar tezligini aniqlash. Ikkala guruh paxmoqlash vallari ularga o'rnatilgan shkivlarning ularga tortilgan barabanning ponasimon kesimga ega tasmasiga ishqalanib aylanishi natijasida aylanma harakat oladi. Bu tasmaning ichki diametri 845 mm ni tashkil qiladi. Barabanning aylanishi natijasida vallar quyidagi aylanma harakatga ega bo'ladi:

$$n = \frac{n_0 D_0 (1 - \zeta)}{D_3} = \frac{93\cdot47 \cdot 845 \cdot 0,98}{125} = 619,22 \text{ ayl/min.}$$

Bu yerda:  $D_o$  – barabanning vallar shkivlarini o'rabi turuvchi ponasimon kesimga ega tasmasining diametri;  $D_s$  – paxmoqlash vallariga o'rnatilgan shkiv diametri;  $\zeta$  – barabanning ponasimon kesimga ega tasmasining sirpanish koeffitsiyenti.

11. Barabanning ponasimon kesimga ega tasmasining aylanishi variatorlar yordamida paxmoqlash va qarshi paxmoqlash valiklari uchun alohida regulirovka qilinadi. Paxmoqlash vallarining qo'shimcha aylanishlar soni quyidagi cha aniqlanadi:

$$n_{11} = \frac{n_e D_4 i_1 Z_{13} Z_{15} Z_{17} D_7 (1 - \zeta)}{D_4 Z_{14} Z_{16} Z_{18} D_7} \quad (14)$$

Bu yerda:  $n_e$  – elektrodvigatel valining aylanish soni;  $D_4$  va  $D_s$  – yurituvchi tarkibidagi tasmalni uzatma shkivlari diametri;  $i$  – paxmoqlash uchun o'rnatilgan variator (1)ning uzatish soni;  $Z_{13}$  va  $Z_{14}$  – variator (1)dan harakat uzatuvchi zanjirli uzatkich g'ildiraklarining tishlari soni;  $Z_{15}$  va  $Z_{16}$  – zanjirli uzatgich g'ildiraklarining tishlari soni;  $Z_{17}$  – katta g'ildirakka harakat beruvchi g'ildirkning tishlari soni;  $Z_{18}$  – baraban valida ozod o'tiruvchi katta g'ildirakning tishlari soni;  $D_7$  – paxmoqlash vali shkiviining diametri.

Yuqoridagi formulaga son qiymatlarini qo'yib, quyidagi ega bo'lamiz:

$$n_{11} = \frac{1450 \cdot 140 \cdot i_1 20 \cdot 28 \cdot 845 \cdot 0,98}{242 \cdot 54 \cdot 40 \cdot 182 \cdot 125} = 189,9 i_1 \text{ ayl/min} \quad (14).$$

12. Qarshi paxmoqlash vallarining qo'shimcha aylanishlar soni quyidagicha aniqlanadi:

$$n_{12} = \frac{n_1 D_{41} Z_{19} Z_{21} D_a (1-\zeta)}{D_6 Z_{20} Z_{22} D_3} = \frac{1450 \cdot 140 \cdot i_2 \cdot 24 \cdot 24 \cdot 845 \cdot 0,98}{242 \cdot 32 \cdot 182 \cdot 125} = 549,61,$$

ayl/min (15).

Shkivlarning baraban tasmasiga sirpanishi natijasida ik-kala guruhi vallari ham doimiy aylanish soniga ega bo'ladi. Ularning aylanishlar soni tasmaning majburiy harakatlan-tirilishi natijasida o'zgartiriladi. Shuning uchun vallarning aylanma tezligi quyidagicha aniqlanadi:

Paxmoqlash vallari uchun:

$$\omega = \pi d_v (n + n_{11}).$$

Qarshi paxmoqlash vallari uchun:

$$\omega_p = \pi d_p (n + n_{12}).$$

Bu mashinaning tezlik rejimi shunday hisoblanganki, paxmoqlash vallarining eng yuqori effektiv tezligi 40 m/min ga teng; bu qarshi paxmoqlash vallari effektiv tezligi nolga tengligiga to'g'ri keladi. Quyidagi formulalardan foydalanib, bu rejimga mos keluvchi  $n_{11}$  va  $n_{12}$  larni aniqlash mumkin:

$$v_7 = v_1 - v_8 - \pi d_v (n + n_{11}) \quad v_9 = v_1 - v_8 - \pi d_p (n + n_{12}).$$

Masalan, mato tezligi 12,68 m/min bo'lganda, bu formulalardan olingan qiymatlar paxmoqlash vallari uchun eng kam miqdor – 90,3 va qarshi paxmoqlash vallari uchun 245,7 aylanish soniga teng bo'ladi. Bu sonlarni 14- va 15-formulalarga qo'yib variator (1)ning eng kichik va eng kata uzatishlar sonining 0,475 va 1, 229 ga teng ekanligini aniqlaymiz.

13. Paxmoqlash va qarshi paxmoqlash vallarining umumiyligi aylanishlar soni doimiy va qo'shimcha aylanishlar

sonidan iborat. 17- jadvalda ikkala guruh vallarining hisoblangan tezliklari keltirilgan

*17-jadval*

Vallarning hisoblangan tezliklari

Bir daqiqadagi aylanishlar soni avl/min		Aylanma tezlik, m/min		Mato tezligi m/min bo'lganda, paxmoqlashning effektiv tezligi, m/min			
Qo'shim-cha	Umu-miy	Ko'chir-ma	Nisbiy	8,32	12,68	16,94	20,45
Paxmoqlovchi valiklar							
2,45	864,9	235,38	222,7	4,36	0	-4,26	-7,77
230,1	849,3	235,38	218,7	8,36	4	-0,26	-3,77
214,6	833,8	235,38	214,7	12,36	8	3,74	0,23
199,1	818,3	235,38	210,7	16,36	12	7,44	4,23
183,5	802,7	235,38	206,7	20,36	16	11,74	8,23
168,0	782,7	235,38	202,7	24,36	20	15,74	12,23
152,5	771,7	235,38	198,7	28,36	24	19,74	16,23
137,0	756,2	235,38	194,7	32,36	28	23,74	20,23
121,5	740,7	235,38	190,7	36,36	32	27,74	24,23
105,9	725,1	235,38	186,7	40,36	36	31,74	28,23
90,3	709,5	235,38	182,7	44,36	40	35,74	32,23
Qarshi paxmoqlovchi valiklar							
401,0	1020,2	235,38	262,7	35,64	40	44,26	47,77
385,5	1004,7	235,38	258,7	31,64	36	40,26	44,77
370,0	989,2	235,38	254,7	27,64	32	36,26	40,77
354,4	973,6	235,38	250,7	23,64	28	32,26	36,77
338,9	958,1	235,38	246,7	19,64	24	28,26	32,77
323,3	942,5	235,38	242,7	15,64	20	24,26	28,77
307,8	927,0	235,38	238,7	11,64	16	20,26	24,77
292,3	911,5	235,38	234,7	7,64	12	16,26	20,77
276,8	896,0	235,38	230,7	3,64	8	12,26	16,77
261,3	880,5	235,38	226,7	-0,36	4	8,26	12,77
245,7	864,9	235,38	222,7	-4,36	0	4,26	8,77

Javalda eltirilgan manfiy qiymatlar guruh vallarining effektsiz ishlashini ko'rsatadi. Keltirilgan natijalar effektiv tezliklarning qo'shimcha aylanishlar soniga bog'liqligini ko'rsatib turibdi. Qo'shimcha aylanish sonining kamayishi paxmoqlash vallari effektiv tezligini oshiradi. qarshi paxmoqlash vallari esa effektiv paxmoqlash tezligini kamayiradi. Mashina boshqaruva panelida bu vallarning qo'shimcha aylanish sonlarini ko'rsatuvchi taxometrlar o'rnatilgan.

14. Quyidagi formuladan topiladigan paxmoqlash vallarining umumiyligi aylanishlari soni maksimal bo'lganda, paxmoqlash vallari mato yuzasini paxmoqlamaydi, balki uning yuzasi bo'yicha dumalaydi:

$$n_{v_{maks}} = (v_1 - v_v) : \pi d_v.$$

Bu tenglikni yechib, paxmoqlash vallarining dumalash shartini topamiz:

$$V_8 = V_1 - \pi d_v n_{v_{maks}}$$

Son miqdorlar qo'yilsa:

$$V_8 = 235,38 - 314 \cdot 0,082 \cdot 864,9 = 12,68.$$

Buni tenglama ham tasdiqlaydi:  $V_7 = 12,68 - 12,68 = 0$ .

Agar paxmoqlovchi vallarning minimal aylanish tezligi qarshi paxmoqlash vallarining maksimal aylanish tezligiga teng bo'lsa, qarshi paxmoqlash vallari paxmoqlamaydi, bu sharoitda ular mato yuzasida dumalaydi. Bu guruh vallar uchun paxmoqlashning boshlang'ich sharti quyidagicha:

$$n_8 = v_1 - \pi d_v n_{p_{v,min}}$$

Bu tenglikka oldin topilgan qiymatlarni qo'ysak:

$$V = 235,38 - 314 \cdot 0,082 \cdot 864,9 = 12,68; V_9 = 12,68 - 12,68.$$

ya'ni mato tezligi va valiklarning absolut tezligi farqi nolga teng. Bu sharoitda qarshi paxmoqlash vallari paxmoqlamay, mato yuzasida dumalaydi.

15. Matoning taranglik darajasi:

$$C = \frac{V_{\text{ortr.v}} - V_{\text{oldtr.v}}}{V_{\text{oldtr.v}}} = \frac{V_{\text{ortr.v}}}{V_{\text{oldtr.v}}} - 1$$

Bu yerda:  $V_{\text{ortr.v}}$  – orqadagi transportirlash valining tezligi, m/min;  $V_{\text{oldtr.v}}$  – oldindagi transportirlash valining tezligi, m/min.

Matoni mashinaga uzatish tezligi uni mashinadan chiqarish tezligidan katta bo'lgandagi matoning bo'shashish darajasi:

$$C_o = \frac{V_{\text{oldtr.v}} - V_{\text{ortr.v}}}{V_{\text{ortr.v}}} = \frac{V_{\text{oldtr.v}}}{V_{\text{ortr.v}}} - 1.$$

16 va 17- jadvallarda keltirilgan tezliklar miqdorini bu tenglamaga qo'yib, matoning bo'shashish darajasini aniqlaymiz. Hisoblangan miqdor 18- jadvalda keltirilgan.

### 18-jadval

Matoning tortilish va salqish darajasi

Z <sub>u</sub> /Z <sub>12</sub> shestenvalar tishlari soni	Matoning tortilish darajasi	Mato tortilishi foizda	Matoning salqish darajasi	Mato salqishi foizda
72/72	0,0	0,0	0,0	0
71/73	0,02	2,0	–	–
73/71	–	–	0,027	2,7

## 16. Tozalash cho'tkalarining tezligi:

$$n_{7-8} = \frac{n_1 D_1 Z_{11} Z_{21} Z_{31} D_4 (1 - \zeta)}{D_2 Z_{22} Z_{32}} \text{ (ayl/min).}$$

Bu yerda:  $\zeta$  – tasmani sirpanish koeffitsiyenti ( $\zeta = 0,02$ ).

Son miqdorlarda quyidagini olamiz:

$$n_{7-8} = \frac{950 \cdot 125 \cdot 76 \cdot 52 \cdot 0.98}{415 \cdot 38 \cdot 52} = 560,82 \text{ (ayl/min).}$$

## 17. Tekislovchi cho'tkalar tezligi: ayl/min.

## 18. Zapravka mexanizmi valining aylanishlar soni:

$$n_{11} = \frac{n_4 Z_1 Z_2 Z_3 Z_{21} Z_{31} Z_{41} Z_{42}}{Z_4 Z_5 Z_6 Z_{22} Z_{32} Z_{41} Z_{32}} = \frac{93,47 \cdot 26 \cdot Z_1 \cdot 22 \cdot 23 \cdot 17 \cdot 17 \cdot 23 \cdot 56}{32 \cdot Z_4 \cdot 42 \cdot 23 \cdot 17 \cdot 15 \cdot 56} = 39,78 \frac{Z_3}{Z_1} \text{ (ayl/min).}$$

## 19. Mato taxlagich mayatnigining aylanishlar soni:

$$n_{10} = \frac{n_2 Z_1 Z_2 Z_3 Z_{21} Z_{31} Z_{41}}{Z_4 Z_5 Z_6 Z_{22} Z_{32} Z_{33} Z_{43}} = \frac{93,47 \cdot 26 \cdot Z_1 \cdot 22 \cdot 23 \cdot 17 \cdot 17 \cdot 22}{32 \cdot Z_4 \cdot 42 \cdot 23 \cdot 17 \cdot 15 \cdot 56} = 17,71 \frac{Z_3}{Z_1} \text{ (ayl/min).}$$


Krivoship bir marta aylanganda, mayatnik ikki marta tebranadi, shuning uchun bir daqiqadagi tebranishlar soni:

$$2 \cdot 17,71 \frac{Z_3}{Z_1} = 35,42 \frac{Z_3}{Z_1}.$$

## 2- §. Qirqish mashinasining sxemasi va ishlash prinsipi

Qirqish mashinasi mato va trikotaj polotnosti yuzasini to'qish jarayonidan qolgan hamda mato yuzasiga chiqib turgan tolalar, tugunchalar, tola sirtmoqlaridan tozalashga va paxmoqlangan mato yuzasidagi tola qatlami balandligini tekislashga xizmat qiladi. 107- rasmida mashinaning pastdan va yuqoridan qirqish apparatlari sxemalari keltirilgan.

Matoga nisbatan qirqish apparatining joylashishiga qarab, qirqish mashinalari quyidagi turlarga ajratiladi: past-



107- rasm. Qirqish apparatlarining sxemalari:

a – pastdan qirqish apparati; b – universal qirqish apparati; c, d, e – yuqoridan qirqish apparati.  
 1 – qirqish silindri; 2 – harakatsiz pichoq; 3 – rolik; 4 – stol; 5 – tirkak; 6 – moyga bo'ktirilgan namat.

dan qirqish mashinalari (107- a rasm), qirquvchi pichoqlar gorizontal yo'nalishda harakatlanayotgan mato tagida joylashadi; yuqoridan qirqish mashinalari (107- d, e rasm), qirquvchi pichoqlar gorizontal yo'nalishda harakatlanayotgan mato ustida joylashadi va, nihoyat, universal qirqish mashinalari (106- b rasm), qirqish apparatlari vertikal harakatlanayotgan matoning ikki tarafida joylashadi. Bulardan tashqari, mato chekkasi, yuzasini tozalovchi jilvirlash-qirqish mashinasida, mato yuzasi yaxshi tozalanadi. Shuningdek, qirqish mashinalarining maxsus konstruksiyalari ham mavjud.

Pastdan qirqish mashinalari yengil ip-gazlamalar uchun qo'llaniladi, yuqoridan qirqish mashinalari esa og'ir ip-gazlamalarni va jun matolarni tozalash uchun tavsiya etiladi. Universal qirqish mashinalari hamma mavjud matolarga ikki tomonlama ishlov berish uchun qo'llaniladi.


Tarixchilarining ta'kidlashlaricha, XVI asr boshlariida Leonardo da Vinci mato yuzasini silindr ustida joylashgan spiral shakldagi pichoqlar yordamida "ko'ndalang kesish"

yo·li bilan tozalashni taklif qilgan. Faqatgina 1758- yilda Leonardo Da Vinchining bu kashfiyotini ingliz fuqorosi E. Viltshir amalga oshirib, birinchi qirqish mashinasini yaratdiki, shundan beri bu mashinasining ishlash prinsipi o‘zgarganicha yo·q. Qirqish mashinasining asosiy ishchi organi harakatlanuvchi spiral pichoqli silindr va harakatsiz yassi pichoqdan iborat qirqish apparatidir. Bu pichoqlar ish davrida qaychi harakatini eslatuvchi harakati tufayli mato yuzasidagi tola va tuklarni kesadi.

Ishlash prinsipi: qirqish apparatining asosiy ishchi organlari tekis pichoq va ushbu pichoq yaqinida aylanuvchi spiral pichoqli silindrdir. Silindrga spiral shaklidagi pichoqlar mahkamlanadi. Mato yuzasidagi tolachalarni, tola sirtmoqlarini tekis pichoq ko·taradi va u bilan harakatdagi silindr pichoqlari orasiga tushadi, natijada kesiladi.

Universal qirqish mashinalarida kesish apparatlari vertikal holatda o‘rnatilgan bo·lib, bir vaqtning o‘zida mato ning ikki yuzasini ham tozalash (kesish) imkonini beradi. 108- rasmda universal kesish mashinasining texnologik sxemasi keltirilgan.

Universal qirqish mashinalari zig·ir va jun (kamvol) tolalaridan tayyorlangan matolar yuzidagi tuk va tolalarmi qirqish uchun juda qo·l keladi. Mashinadagi qirqish apparatlarining soni 2 – 6 ta va undan ham ko·proq bo·lishi mumkin Mashina konstruksiyasining asosiy ko·rsatkichlari: mato tezligi (mashina turiga qarab 7 – 84 m/min bo·lishi mumkin); bitta silindirdagi qirqish soni (0,19 – 1.4 qr/sm); qirqish silindrining aylanish soni (500 – 2500 ayl/min). Qirqish jarayonining son jihatdan ko·rsatkichi bu qirqish



108- rasm. USD universal qirqish mashinasining texnologik sxemasi:

1 – mato; 2 – mato yo'naltiruvchi; 3 – tozalash cho'tkalar; 4 – qirqish apparatlari; 5 – tortib oluvchi roliklar juftligi; 6 – mato taxlagich.

darajasidir va u S bilan belgilanib, bir qirqish apparati uchun matoning 1 sm uzunligiga to'g'ri keladigan qirqishlar soni bilan ifodalanadi:


$$C = \frac{n \cdot m}{V \cdot 100} .$$

Bu yerda: n – qirqish silindrining burchak tezligi, ayl/min; m – bitta qirqish apparatidagi pichoqlar soni; V – mato tezligi, m/min.

Keltirilgan ifodadan ko'rinish turibdiki, qirqishning sifat ko'rsatkichi qirqish apparatlarining soni, ularning holati va matoning mashinadan o'tish tezligiga bog'liq. Pastdan qirqish apparatli mashinalar yuqori unumdorlikka ega, ammo qirqish darajasi past. Mashinaning asosiy kinematik ko'rsatkichlari bo'lib qirqish silindralarining aylanish tezligi, matoning mashinadan o'tish tezligi xizmat qiladi va ular qirqish sifati va mashina unumdorligini belgilaydi.

## 1. Qirqish apparatlarining konstruksiyasi

109- rasmida harakatsiz va harakatlanuvchi spiralsimon pichoqlarning konstruksiyalari keltirilgan.



109- rasm. Harakatsiz va spiral pichoqlar konstruksiyasi:

1 – silindr; 2 – spiral pichoq; 3 – harakatsiz pichoq.

Harakatsiz pichoq 85X markali legirlangan po'latdan tayyorlangan ensiz list shaklida bo'lib, uning charxlangan uchi toblangan. Bu pichoq mashina gardishiga vintlar yordamida mahkamlanadi, ammo uning harakatdagi spiral pichoqqa nisbatan holatini o'zgartirib moslash mumkin. Qirqish silindri diametri 60 – 80 mm li val bo'lib, po'latning "Stal – 50" markasidan tayyorlangan. Bu valga asbosozlik po'latning U 9 yoki U10 markalaridan tayyorlangan spiral pichoqlar mahkamlanadi. Matoning paxmoqlangan yuzasidagi qalin tolalarmi o'lchangan balandligida qirqish uchun spiral pichoqning qirqadigan tarafi tekis-silliq qilinadi, yuzasi tekis matolarni tozalash uchun esa pichoq yuzasida chekmalar qilinadi. Bu tolachalarni ko'tarishga, natijada toza qirqishga imkon yaratadi.


Spiral shaklidagi pichoqlar silindr yuzasiga flaneslar yordamida mahkamlanadi yoki silindr yuzasida hosil qilingan spiral shaklidagi kanalga kiritilib, aluminiy yoki po'latning yumshoq markasidan tayyorlangan polosa bilan chekanka yordamida mahkamlanadi. Flanes yordamida mahkamlash usuli silindr yuzasida ko'p pichoq o'rnatish imkonini bermaydi, masalan, diametri 80 mm bo'lgan silin-

drda maksimum 16 ta pichoq o'rnatish mumkin. Ikkinci usuldan foydalanilganda esa 24 ta pichoq o'rnatish imkonini tug'iladi, bu qirqish tezligi va sifatini oshiradi. 110- rasmida ko'rsatilganidek, spiral shakldagi qirqish pichoqlarini o'rnatish uchun silindr yuzasida hosil qilingan kanal chuqurligi 7 mm ni tashkil qiladi.

Yuqoridan qirqish mashinalarining qirqish apparatlari silindrining diametri pastdan qirqish mashinasi apparatlari silindrining diametridan katta. Ammo ularning aylanish tezligi past.

Aylanayotgan spiral pichoqlar va harakatsiz pichoq ochilib yopilayotgan qaychini eslatadi. Mashinadan o'tayotgan mato mashina stoli va yo'naltiruvchi roliklar yordamida qirqish apparatiga siqilib turadi. Harakatsiz tekis pichoq mato yuzasidagi tola uchlari va tola sirtmoqlarini ko'taradi, harakatlanayotgan spiral pichoqlar esa ularni qirqadi.

Matoning mashinadan bir tekisda o'tishi uchun mashinada o'ng va chap spiral pichoqli qirqish apparatlari birin ketin o'rnatiladi. Qirqish jarayonida hosil bo'ladiqan chang va tolachalarni so'rib olish uchun qirqish apparati ventilatsiya sistemasiga ega. Pichoqlarni moylash va puxdan tozalash uchun har bir qirqish apparati moy shimdirilgan




110- rasm. Silindr kesimi

fetr bilan ta'minlangan. Yuqoridan qirqish apparatli mashina qirqish silindri ostiga o'rnatilgan qo'shimcha lotokka ega, unga ventilatsiya so'rib olaolmaydigan og'ir zarralar to'planadi.

Qirqish apparatidan o'tish payitida mato ulangan joyi – chokining qirqilib ketmasligi uchun choc qirqish apparatiga yaqinlashganda, pichoqlar bir-biridan uzoqlashishlari yoki mato qirqish zonasidan uzoqlashishi kerak. Matoni qirqish apparatidan uzoqlashtirish mexanizmini ishga tushirish uchun mashinada choc datchigi o'rnatilgan bo'lishi kerak. 111- rasmda ekssentrik rusumidagi choc datchigi sxemasi keltirilgan.

Bu datchikning asosiy elementlarini rolik (2) va o'qi ekssentrsitet masofada o'rnatilgan valik (3) tashkil qiladi. Rolik (2) va valik (3) orasida mato qalinligidan kengroq ammo choc qalinligidan tor bo'lган tirqish (zazor) mavjud. Mashinaning normal ish holatida mato valik (3)ga tegmas-



111- rasm. Chok datchigi:

1 – mato; 2 – rolik; 3 – ekssentrik;  
4 – kontaktlar.

dan o'tadi, ammo choc datchigidan o'tayotganda, valik (3) o'z o'qi atrofida aylanadi va kontakt (4)ni ulaydi hamda datchikdan choc o'tganligi to'g'risida elektrosignal hosil bo'ladi. Bu elektrosignal qirqish apparatining ko'tarish mexanizmini boshqarish uchun xizmat qiladi. Chok o'tgandan so'ng, valik (3)

o'zining oldingi holatiga qaytadi va kontakt (4) uziladi, natijada signal yo'qoladi hamda qirqish apparati avvalgi holatiga qaytadi.


### **3- §. Matoni eniga kengaytirish va arqoq iplar qiyshiqligini tuzatish mexanizmlari**

Matolar pardozlash jarayonlaridan o'tishda, ayniqsa, nam holatidagi ishlovlarda, uzunasiga tortiladi va eniga qisqaradi, natijada arqoq iplari bo'yicha zichligi kamayib, tanda iplari bo'yicha esa zichligi oshadi. Bundan tashqari, arqoq iplarning diagonal bo'yicha qiyshiq joylashishi paydo bo'ladi. Aslida, arqoq iplari tanda iplariga perpendikular joylashgan bo'lishi kerak. Ma'lumki, pardozlash korxonasidan matoni standart talabiga javob beradigan kenglikda va zichlikda chiqarish talab etiladi. Yuqorida keltirilgan kamchiliklarni matolarni eniga kengaytirish mashinalaridan o'tkazish orqali bartaraf etish mumkin. Ammo ishlab chiqarishda kengaytirish jarayoni va arqoq iplar holatini rostlashni uni quritish bilan birga olib borib, erishilgan kenglikning fiksatsiya bo'lishi ta'minlanadi. Bu jarayonlarni amalga oshirish jihozlari keyingi boblarda ko'rildi. Hozir esa e'tiborimizni faqat matoni kengaytirib va arqoq iplarning diagonal qiyshiqligini rostlash uchun ishlatiladigan mashinaga qaratamiz: Chunki gul bosishdan oldin matolar, albatta, shunday mashinalardan o'tkazilishi lozim. Shu yo'l bilan matoga tushiriladigan naqshlar buzilishining oldi olinadi.

Zanjirli mato kengaytirish mashinasida mato chetini mahkamlovchi elementi – klupplar konstruksiyasi uch xil bo‘lishi mumkin: pichoqli, ignali va kombinirlangan. Matoni kengaytirish jarayonida klupplar mato chetini mahkam ushlaydi. 112- rasmda zanjirli mato kengaytirish mashinasining sxemasi keltirilgan.

Har bir klupp tortuvchi zanjirning bir zvenosiga mahkamlanadi va tozalash-ta‘mirlash uchun olinishi mumkin. Kengaytirish mashinasi ikki tarafda joylashgan yo‘naltiruvchi ramalarda harakatlanuvchi cheksiz zanjirlar (4)ga ega va ular yetaklovchi yulduzchalar (8)dan harakat oladi, yulduzchalar (10) esa yetaklanuvchi bo‘lib, zanjirdan harkatlanadi. Mato chetlari zanjir maydoniga kirishdan, oldin, vintli rostlovchi (6) yordamida tekislab to‘g‘rulanadi va ularning holatini datchik (5) kuzatib boradi.

Agar mato cheti zanjirdan chiqadigan bo‘lsa, chap yoki o‘ng tomondagi elektrodvigatel ishga tushadi. Bu dvigatel-



112- rasm. Zanjirli mato kengaytirish mashinasining sxemasi:

1 – differensial reduktor; 2 – reversli elektrodvigatel; 3 – arqoq iplar holatini baholovchi datchik; 4 – klupplar zanjiri; 5 – mato chetini aniqlovchi – datchik; 6 – mato chatini rostlovchi vint; 7 – zanjir ramalari orasidagi masofani o‘zgartirish mexanizmi; 8 – yetaklovchi yulduzchalar; 9 – elektrodviga – tel; 10 – yetaklanuvchi yulduzchalar.

lar ular bilan bog'liq bo'lган zanjirni, yo'naltiruvchi ramanı shunday tarafga siljitudiki. mato cheti klupplar bilan ushlanadi. Mashinaning zanjirli maydoni uch texnologik qismga, ya'ni mato kiritish, uni stabillash va chiqarish uchastkalariga bo'linadi. Mato kiritish uchastkasi boshlanishida zanjirlar bir-biriga yaqinlashadi va ular orasidagi masofa kirayotgan mato kengligidan qisqa bo'ladi, natijada mato chetini klupplar ushlashiga imkon yaratiladi. Shundan so'ng zanjirlar orasidagi masofa kengaya boshlaydi va uning oxirida stabilizatsiyalash uchastkasi boshlanadi. Bu uchastka davomida zanjirlar orasidagi masofa o'zgartirilmaydi, ya'ni zanjirlar parallel ravishda harakatlanadi va erishilgan mato kengligi fiksatsiyalanadi. Chiqarish uchastkasida oxiriga qarab yana zanjirlar yaqinlashadi va mato cheti klupplardan yirtimasdan chiqadi. Zanjirni yo'naltiruvchi rama orasidagi masofa mato kengligidan kelib chiqqan holda maxsus mexanizm (7) yordamida o'zgartirilishi mumkin.


Differensial mexanizm yordamida dvigatel (2) zanjirlar dan biriga (keltirilgan mashinada chap zanjirga) chervyakli reduktor orqali qo'shimcha harakat uzatadi. Bu qo'shimcha harakat arqoq ip holatini baholovchi datchik (3)dan olinadigan signalga asosan amalga oshiriladi. Agar arqoq iplari tanda iplariga perpendikular bo'lsa, datchik (3)dan signal kelmaydi, ularning oldinga ketishi yoki orqada qolishiga qarab signal o'zgaradi, natijada zanjir harakati o'ng tarafdagи zanjirga nisbatan tezlashadi yoki sekinlashadi. Datchikdan kelayotgan signal yo'qolishi bilanoq, zanjirlar tezligi oshadi.

Agar quruq matoga ishlov beriladigan bo'lsa, bu mashina oldiga matoni namlovchi kamerali mashina o'rnatilishi lozim (mato namligi kamida 15% bo'lishi kerak) yoki stabillash uchastkasida matoga pastdan ochiq bug' berilishi kerak bo'ladi.

Mashinanig mato chetini mahkam ushlab, uning tortilishini ta'minlovchi elementi bu klupplardir. Firmalar ularning turli xil konstruksiyalarini tavsiya etishadi, lekin yuqorida ta'kidlaganimizdek, ularni uch guruhga ajratish mumkin. Mato kengaytirish mashinalari konstruksiyasi oddiy bo'lgan pichoqli klupplar bilan jihozlanadi.

Pichoqli klupp. Uning tuzilishini va ishlash prinsipini izohlovchi sxema 113- rasmda keltirilgan.

Mato chetini pichoqli klupp ushlab olishi uchun mato cheti (3) klupp gardishiga biriktirilgan stol (4)ga beriladi. Buning uchun kiritish mexanizmi tarkibiga kiruvchi itaruvchi element klapanni (uning uchiga pichoq deb ataluvchi po'lat plastinka mahkamlangan) klupp ichkarisiga itaradi, natijada mato cheti qarshiliksiz stol (4) ustiga tu shadi. Shundan so'ng klapani roligi (5) mato cheti ustiga




113- rasm. Pichoqli klupp sxemasi:

A – matocheti rolik tagiga kirgan holati; B – mato cheti rolik ostidan chiqib pichoq tig'i va stol orasida qisilgan holati

1 – gardish; 2 – klapani; 3 – mato cheti; 4 – stol; 5 – rolik.

tushadi. Zanjirni yo'naltiruvchi ramalar orasidagi masofa kengayishi bilan, mato cheti rolik ostidan chiqadi va rolik ochilib, qolgani stoldagi tirqish ichiga tushadi. Natijada pichoq mato chetini stolga siqib qoladi; mato cheti tortilgan sari, uning pichoq bilan stol orasida siqilishi ortadi. Matoni mashinadan chiqarishda esa itaruvchi element klappni ko'taradi va mato cheti siqilishdan ozod qilinadi. Klupp gardishi va klapan bolg'alanuvchi cho'yandan yasaladi, stol va pichoq esa zanglamaydigan po'lat markasidan tayyorlanadi. 114- rasmida tarkibiga pichoqli klupplar bilan jihozlangan ShS – 120 mashinasi kirgan agregatning texnologik sxemasi keltirilgan.

Aravachada keltirilgan mato (1) taranglovchi bruslar va bremza orqali zapravka qilinib, mato yo'naltiruvchi (2) uning mashina markazidan o'tishini ta'minlaydi. Namlovchi kamera (3)da suv tomchilari matoni namlaydi, shundan so'ng mato chetini rostlovchi (4) buralib, qolgan chetlarni rostlaydi va mato zanjir maydoni (6)ga kiritiladi. Mato chetini aniqlovchi datchik (5)dan olingan signal yordamida



114- rasm. Tarkibida SHS – 120 mashinasi bo'lgan agregatning texnologik sxemasi;

A – kirish zonası; B – stabillash zonası va D – chiqarish zonası.

1 – mato; 2 – mato yo'naltiruvchi; 3 – namlash kamerasi; 4 – mato chetini rostlovchi; 5 – mato chetini aniqlovchi datchik; 6 – zanjirli maydon; 7 – bug'lovchi uskuna; 8 – tayyor matoni o'rash mexanizmi.

zanjirni yo'naltiruvchi rama mato chetiga mos holda siljib, uning chetini klupplarga bir tekisda siqilish imkonini beradi. Bug'lovchi uskuna (7)dan chiqayotgan ochiq bug'matoni kengligi bo'yicha bug'laydi. Bu matoning kengayishini osonlashtiradi, chunki bug'langan mato tolalari oson deformatsiyalanadi. Bu mashinada kengaytirish bilan bir qatorda, arqoq iplar holati rostlanadi. Ishlov berish tezligi 127 m/min gacha yetadi. Bu kengaytirish mashinasi boshqa mashinalar (kesish, momiqdan tozalash, shimdirish mashinalari) bilan agregatlanishi mumkin.

Klupplarning boshqa konstruksiyalarini quritish-kengaytirish va quritish-kengaytirish-stabillash mashinalari konstruksiyalari bilan tanishganimizda ko'rib chiqamiz.

#### *Takrorlash uchun savollar:*

1. Ignali garniturali paxmoqlash mashinasining asosiy qismlari nomlarini aytib bering.
2. Mashinada o'matilgan paxmoqlash va qarshi paxmoqlash vallarini qanday ajratish mumkin?
3. Ignali garniturali paxmoqlash mashinasidan mato o'tish sxemasini tushuntirib bering.
4. Ignali tasma tuzilishini izohlab bering.
5. Effektiv paxmoqlash tezligi deganda nimani tushunasiz?
6. Qirqish mashinasining vazifasini gapirib bering.
7. Qirqish mashinasining harakatdagi pichog'i tuzilishini gapirib be-ring.
8. Zanjirli mato kengaytirish mashinasi elementlari nomlarini aytib bering.

## **IV BOB. TO<sup>\*</sup>QIMACHILIK MAHSULOTLARINI BO<sup>\*</sup>YASH JIHOZLARI**

### **1- §. Tola va to<sup>\*</sup>qimachilik yarim mahsulotlarini bo<sup>\*</sup>yash jihozlari**

Tolali materiallarni pardozlash XIX asrda va XX asrning birinchi yarmida inson faoliyatining kosibchilik turiga kiruvchi jarayon hisoblangan bolsa, hozirda yuqori texnologiyaga asoslangan jarayondir. Yuqori sifatli bo<sup>\*</sup>yalgan yoki gul bosilgan matolarni komputerlashgan, hozirgi zamon texnologiyasi asosida yaratilgan jihozlarda-gina yuqori unumdorlikda olish mumkin.

Pardozlash texnologiyasining asosiy bo<sup>\*</sup>limi bo<sup>\*</sup>lgan bo<sup>\*</sup>yash jarayoni davriy, yarim uzluksiz va uzluksiz usularda amalga oshiriladi. Qo<sup>\*</sup>llanilayotgan usuldan qat'i nazar, bo<sup>\*</sup>yash jarayoni ikki bosqichli texnologiya asosi-da amalga oshiriladi. Ularga muvofiq, bo<sup>\*</sup>yovchi modda mexanikaviy yoki diffuzion-sorbsion jarayonlar ta'sirida tolaning tashqi yuzasiga o'tiradi, so<sup>\*</sup>ng jarayonning ikkin-chi bosqichida u elementar tola ichkarisiga diffuziyalanadi.

Tolali materiallarni davriy bo<sup>\*</sup>yash usulida bo<sup>\*</sup>yovchi modda elementar tola tashqi yuzasiga suyuq muhitdan unga moyilligi va konsentratsiya gradienti ta'sirida o'tiradi. Bu usulda jarayonning ikkala bosqichi bir vaqtda, bir apparatda kechadi.

Yarim uzluksiz va uzluksiz bo<sup>\*</sup>yash usullarida bo<sup>\*</sup>yovchi modda elementar tola tashqi yuzasiga shimdirish va siqish

natijasida singdiriladi. Bu jarayonda ham mexanik kuchlar, ham diffuzion-sorbsion jarayon ishtirok etadi. Bu usullarda jarayonning ikkinchi bosqichi birinchi bosqichdan so'ng alohida jihozda amalga oshiriladi. Har bir bo'yash usuli o'ziga xos jihoz qo'llanishini talab qiladi.

To'qimachilik mahsulotlarini bo'yashda murakkab fizika-kimyoviy jarayonlar sodir bo'lganligi va bu jarayonlar me-xanizmi bo'yalayotgan tola va ishlatilayotgan bo'yovchi moddalar tabiatiga bog'liqligi tufayli bu jarayonni amalga oshiruvchi uskunalarga bo'lgan talablar ham xilma-xildir. Hozirgi zamon bo'yash jihozlari korroziyaga chidamli metall qotishmalari va keng assortimentdagи polymerlar asosida olingan konstruksion materiallardan tayyorlanadi. Bu jihozlarda qo'l mexnatini kamaytirishga, jihozni boshqarishni avtomatlashtirish va jarayonning texnologik

### Bo'yash jihozlarining tavsifnomasi



parametrlarini komputerlar yordamida boshqarishni tashkil etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bo'yash jarayoni ko'p omilli bo'lib, uni boshqarish uchun eng muhimlarini ajratib olish jarayonni komputerlashning asosiy omili hi-

soblanadi. Bo'yash jihozlarining tuzilishi, ularning ishlash prinsipi va ekspluatatsiya qilish qoidalarini o'rganish uchun, bo'yash usullaridan kelib chiqqan holda, jihozlarning quyida keltirilgan tavsifnomasidan foydalananamiz.

To'qimachilik yarim mahsulotlariga tola, taralgan lenta, lentalash mashinasidan olingen pilik va ip kiradi. Bu mahsulotlar, asosan, davriy ishlaydigan jihozlarda bo'yaladi. Kichik va o'rta quvvatga ega korxonalarining rivojlanishi davriy ishlaydigan bo'yash jihozlariga bo'lган talabning oshishiga olib keldi. Buning quyidagi afzalliklari mavjud: mahsulotning kichik partiyalariga ishlov berish, bir rangdan ikkinchisiga tezda o'tish imkonи borligi, talab qilin-gan bo'yash vaqtini to'liq ta'minlash mumkinligi. Bunday mahsulotlarni uzlusiz bo'yaydigan agregatlar yuqori unum-dorlikka ega bo'lганliklari uchun ularga quvvati katta bo'lган korxonalarga xaridor bo'lishlari mumkin. Ammo bozor iqtisodi sharoitida bunday korxonalarini boshqarish va ularning bozor talablari asosida mahsulot assortimentini qisqa vaqt ichida o'zgartirishlari katta muammo.


Tola va to'qimachilik materiallarini bo'yovchi jihozlar universal bo'lib, ularning mahsulot tutqichlarini almashtirish orqali turli ko'rinishdagi mahsulotlarni bo'yash mumkin.

Tolani bo'yash bir xil tusdagи mahsulotning kata partiyasini olish imkonini bersada, undagi iflosliklar va keyingi ip olish jarayonida chiqib ketadigan kalta tolalarning ham bo'yalishi tufayli bo'yovchi modda hamda bo'yash jarayonida qatnashadigan boshqa kimyoiy moddalar sarfi yuqori bo'ladi. Bundan tashqari, bo'yalgan tolani

to'qimachilik mashinalarida qayta ishlash qiyinlashadi va ularni ifloslantiradi, shu tufayli mahsulotning bir rangdan ikkinchisiga o'tishi qo'shimcha mablag' talab qiladi.

Endi to'qimachilik yarim mahsulotlarini bo'yash jihozlari tuzilishini va ularning ishlash prinsiplarini ko'rib chiqamiz.

Rossiyada ishlab chiqarilgan universal UKB – 100 apparatining sxemasi 115- rasmda keltirilgan. Bu universal bo'yash apparati tola va to'qimachilik yarim mahsulotlarini 130°C haroratda, bosim ostida bo'yash uchun mo'ljallangan (apparat kesimida tola va bobinalar tutqichi ko'rsatilganiga e'tibor qarating). U, SKB – 100 quritgichi bilan bir kompleksda ishlaydi.



115- rasm. Universal UKB – 100 apparatining sxemasi:

- 1 – demfer;
- 2 – avtoklav – bo'yash apparati;
- 3 – eritma tayyorlash baki;
- 4 – pnevmotsilindr;
- 5 – bobina ushlagich;
- 6 – issiqliq almashtirgich;
- 7 – nasos;
- 8 – sirkulyatsiya sistemasi;
- 9 – suyuqlik yo'nalishini o'zgartirish uzeli;
- 10 – pnevmo yurituvchi;
- 11 – sirkulyatsion nasos.

Apparat mnimosxema bilan jihozlanganligi texnologik jarayon kechishini kuzatish imkonini berali. Avtoklav qopqog'i uning silindrik qismi – obechaykasiga boltsiz jipslashtiriladi, natijada apparatni germetik ravishda yopish uchun 15 s vaqt sarf bo'ldi, xolos. Hozirda hamma firmalarning bo'yash apparatlari shunday jipslash uzeliga ega. Bunday uzelning konstruktiv tuzilishini alohida ko'rib chiqamiz.

Avtoklav hajmi 1500 l bo'lib, uning qopqog'i pnevmosilindr (4) yordamida ko'tariladi va tushiriladi. Apparat ekspluatatsiyasi xavfsizligini ta'minlash uchun qopqoq avtoblokirovkaga egaki, u apparat ichida bosim bo'lsa, qopqoqning ochilishiga yoki, u jips yopilmagan holatda, apparat ichiga siqilgan havo yuborishga imkonи bermaydi.

Jaryonning zarur haroratini ta'minlash uchun apparat tubiga issiqlik almashtirgich (6) o'rnatilgan, unga bug' yoki sovuq suv yuborish mumkin. Uning ustiga "yolg'on" tub yopilgan, issiqliq almashtirgichning markazida mahsulot tutqichning tub plitasi o'rnatilishi uchun uya qoldirilgan. Bobina ushlagichning 43 ta sterjenining har biriga 5 tadan bobina kiygizilib, ularning orasiga rezina prokladka qo'yiladi va yuqorida shayba va gayka bilan mahkamlanadi. Hammasi bo'lib 215 ta bobina ushlagichga kiygiziladi, ipning og'irligi 100 – 150 kg ni tashkil qiladi. Dempfer (1) orqali avtoklavga siqilgan havo berish bilan unda 250 – 300 kN/m<sup>2</sup> bosim hosil qilinadi; bu bachok apparatga bo'yash davomida zarur bo'lgan kimyoviy va bo'yovchi moddalarni ham kiritishga xizmat qiladi. Nasos (11) bak (3)dagi eritma:ni sirkulatsiya qiladi va uni bo'yash avtokla-


viga uzatadi. Suyuqlik yo‘nalishini bobina ichidan tashqariga va tashqaridan bobina ichiga mexanizm (9) amalga oshiradi, buning uchun pnevmomexanizm zolotnikni oldinga yoki orqaga suradi. Bo‘yalgan iplar yuviladi; keyin siqilgan havo yordamida namligi 70 – 80 % gacha kamaytiriladi, shundan so‘ng bobinalar apparatdan olinib, quritishga o‘tkaziladi.

Rossiyada shu apparatga tuzilishi va ishlash prinsipi o‘xshash UKA – 1, AKD – 2 va AKD – 6 appatarlari ishlab chiqarilgan.

To‘qimachilik yarim mahsulotlarini bo‘yovchi davriy universal agregatlar ko‘p firmalar tomonidan. masalan, Yaponianing “Fong”, Germaniyaning “Tiss”, Ispaniyaning “Atus” va boshqa firmalari tomonidan jahon bozoriga taklif etilmoqda. Bu agregatlarning texnik rivojida quyidagi tendensiyalar kuzatilmoxda:

1. Jarayon uchun kam energiya sarf etishni ta‘minlash.
2. Texnologik jarayonning komputer bilan boshqarilishi ni ta‘minlash, jarayon nazoratini to‘liq avtomatlashtirish.
3. Mahsulotni apparatga yuklashga tayyorlash va bo‘yalgan tayyor mahsulotni chiqarish kabi qo‘l kuchi tabab qiladigan ishlarni robrotexnikaga yuklash.
4. Jahon bozoriga mahsulot yuklash hajmi 15 kg dan to 900 – 1000 kg gacha bo‘lgan xilma-xil agregatlarni taklif etish va natijada mijozlarni hamma talablarini qondirish.

Bunday universal agregatning tarkibi, ishlash prinsipi va tuzilishini Yaponianing “Fong” firmasi agregati misolida ko‘rib chiqamiz. Agregatning tarkibini va ishlash prinsipi ni ko‘rsatuvchi sxema 116- rasmda keltirilgan.



116- rasm. "Fong" firmasining universal bo'yash aggregatining sxemasi:

1 – avtoklav; 2 – toshib chiqish yo'lidagi kran; 3 – avtoklav qopqog'i; 4 – qaytish oqimidagi kran; 5 – bug' yo'lidagi kran; 6 – oqim berish yo'lidagi kran; 7 – kengaytirish bachogi; 8 – sovitish suvi nazorati krani; 9 – xavszizlik chiqish yo'lini bog'lash krani; 10 – tashqi sovitgich; 11 – chiqarish krani; 12 – sovitish suvini chiqarish krani; 13 – bug' ushlagich; 14 – bug' berish yo'lidagi kran; 15 – sovuq suv berish yo'lidagi kran; 16 – birkirtirish krani; 17 – injekzion nasos; 18 – sirkulatsion nasos; 19 – bo'shatish yo'lidagi kran; 20 – yuqori haroratli bo'shatish yo'lidagi kran; 21 – sovuq suv berish yo'lidagi kran; 22 – qaytish oqimi yo'lidagi kran; 23 – sirkulatsiyani o'zgartirish krani; 24 – isitish-sovitish "zmeyevigi"; 25 – mahsulot tutqich.

Agregatning ishlash prinsipi. Mahsulot tutqichga tola yoki to'qimachilik yarim mahsulotlari apparat tashqarisida yuklanib, apparatning qopqog'i ochilib, uning ichiga joyланади. Albatta, aggregat davriy ravishda ishlaganligi tufayli, mahsulot yuklashdan oldin, bo'yash apparati yuvilib, jarayonga tayyorланади. Masulot yuklangandan so'ng, apparat qopqog'i yopilib, jipsланади. Shundan so'ng bo'yash jarayoni komputerga kiritilgan programma asosida olib boriladi. Kerakli konsentratsiyali bo'yash eritmasi bak (7)da tayyorланади, so'ng bo'yash apparatiga o'tkaziladi. Keyin nasos (18) yordamida eritma bo'yash apparatida sirkulatsiya qilib turiladi. Eritmani bak (7)dan bo'yash apparatiga

uzatish davrida uni sovitish uchun tashqi sovitgich (10)dan ham foydalaniladi. Sirkulatsiya yo'nalishini o'zgartirish klapan (23) holatini o'zgartirish bilan erishiladi. Bo'yash harorati esa apparat tubiga o'rnatilgan zmeyevik – isitgich (24) orqali ta'minlanadi. Shu apparatning ichida bo'yash jarayoni tugagach, mahsulot yuviladi, so'ng apparat qopqog'i ochilib, mahsulot olinadi va quritish apparatiga uzatiladi. Bu agregatda jarayon bosim ostida bajariladi va qo'shimcha nasos (17) orqali kerakli bo'yash eritmasi komponentlari berilishi mumkin.

Yuqorida keltirilgan agregatning to'rtinchi seriyasini to'qqiz tipdagi (har bir tip bir vaqtida bo'yalayotgan mahsulot massasi bilan farq qiladi) 18 kg dan 900 kg gacha mahsulotning yuklanishiga mo'ljallangan apparat tashkil etsa, beshinchi seriyasiga esa yetti tipdagi apparatlar kiradi va mahsulot yuklamasi 14 kg dan 270 kg gachani tashkil etadi. Shunday qilib, bu firma ishlab chiqarish quvvati har xil bo'lган korxonalarining jihozlarga bo'lган talabini qondiradigan zarur agregat taklif qilish imkoniyatiga ega.

Agregat universal bo'lib, mahsulot tutqichning har xil turlarini ishlatish natijasida keng turdag'i to'qimachilik yarim mahsulotlarini bo'yash mumkin. Masalan, konus tipidagi bobinadagi ipga, o'ramdagi kalavaga, tola massasiga, to'qima stanogi validagi (navoy) ipga va boshqalarga.

Nasoslarning uzliksiz ishlashi suyuqlik yo'nalishini o'zgartirish jarayoni vaqtini tejaydi, natijada elektroenergiya sarfini kamaytiradi va ularning ish davrini uzaytiradi.

Bo'yalayotgan mahsulot miqdorini (900 kg gacha) oshirilishi hozirda standart hisoblangan apparatlarga nisbatan

hajmni 20% ga oshiradi, natijada bo'yash moduli 1 : 6,5 bo'lishi suv, bug' va bo'yovchi modda sarfini kamaytiradi. Bulardan tashqari, agregatning eritma bilan to'qnashadigan qismlari muhitga chidamli, zanglamaydigan po'lat markalaridan tayyorlanishi uning uzoq muddat xizmat qilishini kafolatlaydi. Agregat o'z komputeriga ega bo'lib, u tanlangan texnologik jarayonning to'liq bajarilishini avtomatlashtiradi.

Ushbu bo'yash aggregatining ba'zi texnik ko'rsatkichlari quyidagilardan iborat:

- maksimal ishchi harorat – 140°C;
- avtoklavdagi maksimal ishchi bosim –  $6.08 \cdot 10^5$  Pa (6,2 kg/sm<sup>2</sup>);
- foydalanaladigan bug' bosimi –  $6.67 \cdot 10^5$  Pa (7 kg/sm<sup>2</sup>);
- sovitadigan suvning kirishdagi harorati – 20°C.

Avtoklav qopqog'i apparat obechaykasiga boltsiz jipslashtiriladi.


117- rasmda bo'yash aggregatining umumiy ko'rinishi keltirilgan.

117- rasm. Universal bo'yash aggregatining tashqi ko'rinishi:

1 – avtoklav; 2 – avtoklav qopqog'i;  
3 – qopqoq og'irligini muvozanatlovchi  
yuk; 4 – kengaytirish bachogi; 5 – sir-  
kulyatsiya yo'nalishini boqaruvchi kran  
dvigateli.



Ispaniyaning "Atus" va Germaniyaning "Tiss" firmalari universal bo'yash aggregatining avtoklavni gorizontal joylashgan turini ishlab chiqishgan. Shunday aggregatning umumiy ko'rinishi 118- rasmida keltirilgan.




118- rasm. Ispaniyaning "Atus" firmasi universal bo'yash aggregati:  
1 – avtoklav; 2 – mahsulot tutqich; 3 – avtoklav qopqog'i; 4 – aravacha.

Boshqa firmalar apparatlari kabi bu firmanın bo'yash aggregatining elementlari korroziyaga chidamli po'lat markalaridan tayyorlangan. Agregat tarkibiga kiruvchi, unumdorligi 45 l/min bo'lган nasos eritmanın yaxshi sirkulatsiya bo'lishini ta'minlaydi.

Firma bu aggregatning mahsulot yuklanishi 50 kg dan to 1000 kg gacha bo'lган 13 turini ishlab chiqargan.

119- rasmida to'qimachilik yarim mahsulotlarini bo'yash va quritish apparatlariga yuklash va transportirlash uchun xizmat qiladigan tutqichlar konstruksiyasi keltirilgan.

A – tutqichning pastki tarelkasi (1) teshiklariga bobinalar kiygilgan sterjenlar o'rnatiladi, bobinalar yaxlit



119- rasm To'qimachilik yarim mahsulotlari uchun tutqichlar

A – bobinadagi ip uchun: 1 – pastki tarelka; 2 – sterjen; 3 – martkaziy silindr; 4 – halqa. B – taralgan tasma uchun: 1 – pastki tarelka; 2 – sterjen; 3 – silindr; 4 – silindrning ochiladigan tubi; 5 – halqa. D – tola uchun: 1 – silindr; 2 – qopqoq; 3 – halqa. E – pliklash mashinasidan olingan lenta uchun: 1 – silindr; 2 – sterjen; 3 – gayka; 4 – lenta.

devorlari teshik silindr hosil qiladi. Bobinalar orasidan suyuqlik chiqmasligi uchun rezina zichlagich qo'yildi. Yuqoridagi bobinalar ustidan tarelka o'rnatilib, sterjenlar mahkamlanadi va halqa (4) yordamida tutqich ko'tarilib, kerakli joyga o'rnatiladi.

B – taralgan tasma solingan silindr (3) pastki tarelka (1) ga o'rnatiladi, har bir silindr o'z qopqog'iga ega. Silindrlar ustidan sterjen (2)ga mahkamlanuvchi tarelka o'rnatiladi. Halqa (4) yordamida har bir silindr alohida ko'tarib olinishi mumkin.

Tutgichni o'zini silindrlar bilan birga ko'tarish uchun sterjen (2)ning tepe qismiga halqa o'rnatiladi.

D – devorlari teshikli silindr ichiga tola solinadi va tepasidan qopqoq (2) bilan mahkamlanadi, halqa (3) tutqichni ko'tarish uchun xizmat qiladi.

E – lenta o'rami (4) sterjen (2)ga kiygiladi va gayka (3) bilan mahkamlanadi.

Hamma tutqichlarning pastki tarelkasini ichi bo'sh, unga suyuqlik beriladi va u bobinalar ichidan ko'tarilib ip qatlamidan tashqariga, apparat ichiga o'tadi. Sirkulyatsiya tashqaridan ichkariga bo'lganda esa, suyuqlik bosim ostida avtoklav ichiga beriladi va ip qatlamidan bobina ichiga o'tib pastki tarelkaning chiqarish teshigidan chiqadi.


120- rasmda ip o'ralgan bobinalar o'rnatilgan tutqichning tashqi ko'rinishi keltirilgan. Rasmdan ko'rinib turibdiki, tutqich apparat ichiga ozod holda tushiriladi va o'z og'irligi bilan apparat tubiga o'rnatilgan vtulkaga o'rashadi.

Bo'yash aggregatini ekspluatatsiya qilishda qo'l kuchi ishlatalishini minimumga olib kelishga jihoz ishlab chiqaruvchi firmalar alohida e'tibor berishmoqda. 121- rasmda "Tiss" firmasi tomonidan yaratilgan mahsulotni tutqichga yuklash robot tomonidan bajariluvchi uchastkasi keltiril-




120- rasm. Avtoklavga tushirilayotgan bobinalar o'rnatilgan tutqich:

1 – avtoklav; 2 – tutqichning pastki tarelkasi; 3 – ip o'ralgan bobina; 4 – bobinalar o'rtasidagi zichlagich; 5 – sterjen.



121- rasm. Bobinani tutgichga yuklash va bo'shatish robotlashtirilgan uskunaning sxemasi:

1 – robot; 2 – bobinalar o'rnatiladigan sterjen; 3 – bobinalar yuklangan tutqich.



122- rasm. Bo'yash va quritish apparatlaridan iborat agregatida yarim mahsulotlarni transportirlash:


1 – aravachada keltirilgan bobinalar; 2 – ishchi; 3 – bobina tutqich; 4 – bobinalarni mahkamlash; 5 – transpotir vositasi; 6 – bo'yash apparati; 7 – quritish apparati; 8 – bobinalarni tutqichdan olish; 9 – ishchilar; 10 – aravachadagi tayyor bo'yalgan bobinalar.

gan. Robot bobinalarni sterjenlarga joylab mahkamlaydi, so'ng tutqich bo'yash avtoklaviga jo'natiladi. Rasmdan ko'rinib turibdiki, hamma ishlar, ya'ni bobinalarni tutqichga yuklash, tutqichni bo'yash apparati tomoniga harakatlantirish va uni apparatga yuklash kabi ishlar robot tomonidan amalga oshiriladi.

Ishlab chiqarish korxonasida universal bo'yash apparati quritish apparati bilan agregat qilib ekspluatatsiya qilinadi. Bunda mahsulot tutqich harakatini mexanizatsiyalash muhim o'rinni tutadi. Quyida Ispaniyaning "Atus" firmasi taklif qilgan agregatda tutqichning transportirlash harakatini ifodalovchi sxema keltirilgan.

Ishchilar ip o'ralgan bobinalarni aravachadan olib, tutqich sterjenlariga kiygizadi. Ular orasiga, albatta, zichlovchi rezina proklatkalar qo'yiladi. Sterjenlarni mahkamlash mexanizmi sterjen gaykalarini mahkamlaydi va tutqich transport vositasi (5) yordamida ko'tarilib, bo'yash apparatiga tushiriladi. Apparat qopqog'i yopilib, bo'yash

va yuvish jarayonlari amalga oshiriladi. Shundan so'ng bo'yalgan ipli tutqich bobinalarni quritish apparatiga tushiradi va iplar quritiladi. Tayyor iplar tutqichdan olinib, aravachaga joylanadi. Bu firma tola bo'yash agregatida ishchi mehnatini mexanizatsiyalash sistemasini ham taklif qilgan. Bu agregatda tola tutqichning harakat sxemasi 123-rasmida keltirilgan.




123- rasm. Tola bo'yash va quritish aggregatida tolani transportirlash sxemasi:

1 – xomashyo; 2 – tolani bo'shatish va tutqich silindriga yuklash; 3 – bo'yash; 4 – tutqichdan tola solingan silindrni olish; 5 – namlikni kamaytirish; 6 – silindrni toladan bo'shatish.

Ishchilar kelgan tola o'ramini bo'shatib, tutqichga o'rnatilgan silindrarga joylaydilar va presslash zonasiga (2)da tola presslanadi. Tayyor yuklangan tola tutqichda bo'yash apparatiga tushirilib bo'yaladi va yuviladi. Shundan so'ng sentrifugada nami kamaytirilib, tutqich toladan bo'shatiladi.

Ishlab chiqarish quvvati katta kombinatlarda uzlusiz ishlovchi tola bo'yash aggregatlaridan keng foydalilanadi.

124- rasmida “Fleysner” firmasining uzlucksiz ishlaydigan agregati sxemasi keltirilgan.



124- rasm. “Fleysner” firmasining tola bo‘yovchi uzlucksiz ishlaydigan agregati sxemasi:

1 – ta'minlovchi; 2 – tutqich; 3 – plusovka; 4 – bug'lash kamerasi; 5 – ho'l tola ta'minlovchisi; 6 – yuvish mashinasi; 7 – tutqich; 8 – barabanli quritgich; 9 – tay-yor tola aravachasi.

Bu agregatda tola plusovkalash-bug'lash usulida bo'yaladi. Xomashyo – quruq tola yashiksimon ta'minlovchiga yuklanadi va undan bir tekis qalinlikda tutqich (2)ga beriladi. Tutqichda hosil qilingan tola qatlami plusovka (3)da purkagichlardan berilayotgan bo'yash eritmasi bilan shimdirliladi. Siqilib, plastinkali transportyor yordamida bug'lash kamerasi (4)ga uzatiladi. Bu kamera tubiga o'rnatilgan keng vannadagi qaynayotgan suv kamereda to'yingan bug' muhitini hosil qiladi. Bo'yalgan tolani ta'minlovchi (5) yuvish mashinasi (6)ga uzatadi. Yuvish mashinasi 4 ta vannadan iborat bo'lib, har birida vakuum baraban o'rnatilgan, ularda baraban yuzasidagi

tola qatlamidan yuvish eritmasi so'riladi. Yuvilgan tola tutqich (7)dan o'tib, ishchi organi yuzasi teshikchalardan iborat quritish barabanlarida quritiladi. Bu barabanlar bir vaqtning o'zida tolani transportirovka ham qiladi. Bu agregatda tabiiy tolalar va kimyoviy shtapel tolalarni bo'yash mumkin.

*Takrorlash uchun savollar:*

1. Bo'yash jihozlari tasnifini tushuntiring.
2. UKB – 100 bo'yash apparatida qay shakldagi mahsulot bo'yaladi?
3. UKB – 100 bo'yash apparatining ishlash prinsipini tu-shuntiring
4. "Fong" firmasining universal bo'yash apparati tarkibini gapirib bering.
5. "Fong" firmasining universal agregati ishlash prinsipini tu-shuntirib bering.
6. UKB – 100 va "Fong" firmasining universal agregatilari o'rtasida mavjud farqni tushuntiring
7. Ispaniyaning "Atus" firmasi universal bo'yash agregati haqida gapirib bering.
8. Bo'yash aggregatining mahsulot tutqichlari konstruksiyalari haqida gapirib bering.
9. Bo'yash va quritish apparatlaridan iborat agregatda mahsulotlar harakati to'g'risida gapirib bering.
10. Tola bo'yash va quritish aggregatida tolani transportirlash sxemasini tushuntiring.

## **2- §. To‘qilgan mato va trikotaj polotnolarini davriy bo‘yaydigan jihozlar**


### **1. Barka va ejektor mashinalar**

To‘qilgan mato va trikotaj polotnolarini davriy usulda bo‘yash mahsulotda to‘q ranglar olish, matoga ko‘p bo‘yovchi modda kiritish imkonini beradi, shu bilan birga, oson deformatsiyalanadigan strukturaga ega mahsulotlarni ham bo‘yash mumkin. Albatta, bu usulni amalga oshirish imkoniga ega jihozlar unumdoorligi uzlusiz ishlaydigan bo‘yash agregatlari unumdoorligiga nisbatan past, ammo bu jarayon oson programmalashtirilishi natijasida texnologik jarayonning komputer boshqaruvini joriy qilish imkonini katta.

Mato va trikotaj polotnolarining jgut, ya‘ni to‘plangan va yoyilgan holatida davriy bo‘yash usuli bo‘yash barkalarida, ejektor mashinalarida va jigger bo‘yash mashinasida amalga oshiriladi. 125- rasmida Rossiyada ishlab chiqarilgan MKP – 1 barkasining texnologik sxemasi keltirilgan.

Mato jguti kiritish mexanizmidan o‘tib, ellips kesimli skelet barabanga halqasimon yoki spiral shaklida zapravka qilinadi. Spiral shaklida zapravka qilish kam vaqt talaq qiladi va barkalarni birin-ketin o‘rnatib, uzlusiz ishlaydigan agregat tarzida ishlatish mumkin.

Barka vannasi  $3,5 \text{ m}^3$  hajmga ega va u yolg‘on devor (teshikli to‘siq) bilan ikki qismga bo‘lingan. Kichik bo‘lim suv, bo‘yash eritmasi va bug‘ berish uchun xizmat qiladi. Shu bo‘limda ishlab bo‘lgan eritmani chiqarish klapani



125- rasm. MKP – bo'yash-yuvish mashinasi:


1 – mato yuklash va chiqarish mexanizmi; 2 – halqa; 3 – yo'naltiruvchi blok; 4 – ellips kesimli sklet baraban; 5 – spiral zapravkalash roligi; 6 – vanna; 7 – sirkula – sion nasos; 8 – ajratish panjarasi; 9 – qabul qilib olish roligi; 10 – tortib olish barabani.

ham joylashgan. Vannaning yuqorisidagi orqa tarafida ikkiga bo'lingan cho'ntak mavjud bo'lib, uning biriga barkani yuvish suvi berilsa, ikkinchisiga sirkulatsion nasos vannadan so·rib yuborayotgan bo'yash eritmasi tushadi. Eritmaning jarayon davomida bunday uzluksiz sirkulatsiyasi vannaning butun hajmida haroratni va kimyoviy moddalar konsentratsiyasini bir xil bo'lislarni ta'minlaydi. Ellips kesimli skelet baraban mato jgutini  $52 - 78,7 \text{ m/min}$  tezlikda harakatlantiradi. Bu barabanning kesimi ellips shakldaligi matoning doim chayqalishiga, natijada unda buklanishlarni muhrlanib qolishiga yo'l qo'ymaydi.

Mashinaning mato kiritish va uni chiqarib olish mexanizmi tarkibidagi siqish vallari bu jarayonni osonlashtiradi. Mashinaga bir vaqtning o'zida 14 ta mato halqasi

zapravka qilinadi. Mato qalinligiga qarab, uning uzunligi 1000 metrgacha va yuza og'irligi esa  $300 \text{ g/m}^2$  gacha yetishi mumkin. Mashina minimal 20 bo'yash modulini ta'minlaydi. Ishlov berish davomida mato jgutlari vannaga cho'kkan holda harakatlanadi va uning alohida halqalari o'zaro chalkashib ketmasligi uchun ajratish panjarasidan o'tadi. Barkada matoni pishirish, oqartirish jarayonlarini ham amalga oshirish mumkin. Hozirda barkalarni rekonstruksiya qilinayotgan, yangi qurilayotgan pardozlash korxonalaridan ejektor bo'yash mashinalari siqib chiqarildi. Buning bir necha sabablari bor, shulardan asosiyilari: ejektor mashinasida mato yoki trikotaj polotnosi yuqori naroratda, kichik modulda bo'yaliishi ta'minlanadi, mashina germetik jipslanishi uning ekologik tozaligini kafolatlaydi, ishlov olayotgan mato partiyasining hajmi nisbatan katta.

Keyingi 10 – 15 yil ichida to'qimachilik mashinalar ishlab chiqaruvchi jahoning yetakchi mashinasozlik firmalari ejektor bo'yash mashinalarining yangi turlarini yaratish ustida ish olib borishlari natijasida jahon bozoriga xilma-xil ejektor mashinalarini taklif qilish imkoniga ega bo'lmoqdalar. Xozirda bunday mashinalarni ishlab chiqarishda Germaniyaning "Tiss", "Then Maschinen GmbH", Italiyaning "Aci mit", Turkiyaning "Beneks" va boshqa firmalari yetakchilik qilmoqdalar. Bu turdagи bo'yash mashinalarining tuzilishi va ularning ishlash prinsipini Germaniyaning "Tiss" firmasining "Eco Master" jihizi turiga kiruvchi MCD (Multi Contact Dying) mashinasi misolida ko'rib chiqamiz. 126- rasmda shu mashinaning texnologik sxemasi keltirilgan.



126- rasm. MCD ejektor bo'yash mashinasinig sxemasi:

1 – avtoklav korpusi; 2 – mato to'plagich; 3 – mato jguti 4 – baraban;  
5 – saplo; 6 – nasos; 7 – issiqlik almashtirgich; 8 – bak; 9 – nasos; 10 – filtr.


Tuzilishi va ishlash prinsipi: avtoklav (1) po'latning zanglamaydigan markasidan tayyorlangan silindr bo'lib, uning ichiga devorlari teshik qilib ishlangan mato to'plagich (2) o'rnatilgan. Avtoklavning yuqori bo'rtib chiqqan qismiga yurituvchidan harakat oluvchi baraban (4) va saplo (5) montaj qilingan. Agregat tarkibiga eritma tayyorlash baki (8), issiqlik almashtirgich (7) va nasoslar (6; 9)lar kiradi.

Bak (8)da tayyorlangan bo'yash eritmasi nasos (6 va 9) yordamida avtoklavga beriladi. Mato (3) ham jgut holatida mashinaga yuklanadi va yuklash lyuki germetik ravishda mahkamlanadi, shundan so'ng nasos (6) eritma sirkulatsiyasini boshlaydi. Eritma haroratini  $95^{\circ}\text{C}$  dan to  $140^{\circ}\text{C}$  chegarasida bo'lishini issiqlik almashtirshich (7) jarayon programmasi asosida ta'minlaydi. Eritma sirkulatsiyasi davomida uni filtr (10) tozalab turadi. Bo'yash

jarayonida zarur kimyoviy moddalar, to'qimachilik yordamchi moddalari nasos (9) orqali bak (8)dan sistemaga kiritiladi. Matoning 40 – 400 m/min tezlikdagi harakatini yurituvchiga ega baraban (4) ta'minlaydi. Saplo (5)ga berilayotgan eritma oqimi mato jgutini mato to'plagichga uzatadi, bu jarayonda mato jguti eritma bilan jadal ishlov oladi. Mashinada minimal bo'yash modulining 1: 6 nisbati ta'minlanadi.

Mato jgutining baraban (4)dan va saplo (5)dan o'tish sxemasi 127- rasmda keltirilgan.

Nasos (6) uzatayotgan eritma issiqqlik almashtirgich (7) da kerakli haroratga erishib, truba (11) orqali saplo (5)ga keladi. Saploning markaziy teshigidan kelayotgan mato jgutini eritma oqimi, pastga yo'naltiruvchi tarnov orqali mato to'plagichga tushiradi. Firma mato to'plagich konstruksiyasini shunday ishlaganki, uning kengligini regu-



127- rasm. Mato jgutining baraban va saplodan o'tish sxemasi:

2 – mato to'plagich; 3 – mato jguti; 4 – baraban; 5 – saplo; 11 – eritma uzatish trubasi; 12 – yo'naltiruvchi tarnov.


lirovkalab, hajmini o'zgartirish imkonini yaratilgan. Bir vaqtni o'zida mashinada 1 tadan to 8 tagacha mato jguti bo'yalishi mumkin. Shunga qarab, mato to'plagichlar soni 1 tadan 8 tagacha bo'ladi. Bo'yash avtoklavi mato hajmi 100, 180, 250 kg bo'lgan to'plagichlar blan jihozlanishi mumkin, shunga asosan agregatning har xil hajmdagi avtoklavli turlari ishlab chiqilgan. Umuman olganda, firma yuklanadigan mato miqdori 100 kg dan to 3000 kg gacha bo'lgan agregatlarni ishlab chiqaradi. Bu har qanday mijochning ham talabini qondiruvchi agregatni tanlab olish imkonini beradi.

**128-** rasmda matoni to'plagichga yo'naltirish sxemalari keltirilgan.

Mato taxlagichdan foydalaniulganda mato jguti mato to'plagich kengligi bo'yicha bir me'yorda taqsimlanadi.

**129-** rasmda saploning sxemasi keltirilgan.

Shtutser (2) orqali saploga kirayotgan eritma konussi-




**128-** rasm. Matoni to'plagichga yo'naltirish usullari:

A – taxlagichsiz; B – taxlagichli.

1 – mato jguti; 2 – baraban; 3 – saplo; 4 – taxlagich.

129- rasm. Saplo sxemasi:


1 – mato jguti; 2 – etitma berish shtutseri; 3 – eritma oqish konussimon teshigi.



mon tirqish teshigidan pastga oqadi, konusning diametri kichrayib borayotgani tufayli, oqim tezligi oshib boradi va o'zi bilan mato jgutini tortadi. Konus uzunligi yarmidan kengaya boshlaydi va oqim tezligi shunga mos ravishda kamayib boradi.

Germanianing "Maschinen GmbH" firmasi matoni suyuqlik oqimida harakatlantiradigan traditsion korstruksiyali ejektor bo'yash mashinasidan tashqari, matoni havo yoki bug' aralashmasi oqimida harakatlantiradigan ejektor mashinalar konstruksiyasini va ularda har xil klassga mansub bo'yovchi moddalar bilan keng assortimentdag'i tola va to'qimachilik yarim mahsulotlarini bo'yash texnologiyasini ishlab chiqqan. 130- rasmida shu firmanın "Then Airflow. AFE" modeli texnologik sxemasi keltirilgan.

Tuzilishi va ishlash prinsipi: konstruksiya asosini avtoklav (2) tashkil qiladi. Uning ichida devori teshikli teflondan tayyorlangan sirpanish tubi (3) o'rnatilgan. Mato jgutining tanlangan tezlikda harakatlanishini ta'minlovchi baraban (7) va oqim trubasi (12) avtoklav tashqarisiga o'rnatilgan. Boshqa konstruksiyalardan farqi shundaki, uning tarkibiga havo filtri (10) havo haydagich (13) va uni saplo bilan tutashtiruvchi truba kiradi. Ishlash prinsipidagi boshqa ejektor mashinalardan farqi mato jgutining oqim




130-rasm. "Then Airflow, AFE" ejektor bo'yash mashinasining texnologik sxemasi

1 – mato jguti; 2 – avtoklav; 3 – teflondan tayyorlangan sirpanish tubi; 4 – sirkulyatsiya sistemasi; 5 – issiqlik almashtirgich; 6 – bo'yash vannasi nasosi; 7 – yurituvchili baraban; 8 – qo'shimcha bachok; 9 – bo'yash vannasi filtri; 10 – havo filtri; 11 – saplo; 12 – oqim trubasi; 13 – havo haydagich.

trubasi (12)da havoning bo'yovchi modda tomchilari aralashmasida harakatlanishidir. Firma havo o'mniga bug' oqimidan foydalanish usulini va mashina konstruksiyasini ham ishlab chiqqan. Qolganida bo'yash texnologiyasi va mashinaning ishlash prinsipi boshqa mashinalarnikidan farqlanmaydi. 131-rasmda shunday mashinaning konstruksiyasi keltirilgan.

Italiyaning "Acimit" to'qimachilik mashinasozligi firmasi mato harakat vannasi uzun trubadan iborat "Soft Flow SF - 100" markali mato va trikotaj polotnosini davriy




131-rasm. "Then Airflow, AFE" ejektor bo'yash mashinasining kesimi:

1 – avtoklav; 2 – mato "jguti"; 3 – yurituvchili baraban; 4 – saplo; 5 – bo'yovchi moda eritmasining trubasi; 6 – havo oqimi trubasi; 7 – havo filtri; 8 – eritma filtri; 9 – eritma tayyorlash baki; 10 – boshqaruv pulti.

bo'yash agregatini ishlab chiqqan. Uning texnologik sxemasi 132- rasmida keltirilgan.

Ishlash prinsipi: bo'yash apparatiga bir necha mato (trikotaj polotnosi) halqasi yuklanadi. Har bir mato halqasi o'z trubasi (2)da harakatlanadi, ammo bo'yash vannasi (5) mato halqalari uchun umumiy. Saplo (1)ga truba (8) orqali nasos bo'yash vannasini yuborishi natijasida, mato saploga so'rildi va u trubada suyuqlik oqimida harakatlanib, yo'naltiruvchi "yolg'on tubli" tarnov (4)ga kelib tushadi. Tarnovda mato bo'yash vannasiga cho'kkан holda transportirlovchi blok tomon harakatlanadi. Yurituvchisi bor transportirlovchi blok (7) ajratish panjarasi (6)dan o'tib ke layotgan mato jgutlarini kam taranglikda tortib olib, saploga uzatadi. Mato suyuqlik oqimida harakatlanligi, suyuqlik miqdorini regulirovka qilish imkonli borligi matoni ishqalanishsiz, kam taranglikda bo'yash imkonini beradi.

Trasportirlovchi blok (7)ning tezligi regulirovka qilinadi, natijada matoning kerakli tezligi o'rmatiladi. Bu mashinada minimal bo'yash moduli 1:6 ta'minlanadi. Apparat



132- rasm. SF 100 bo'yash apparatining sxemasi:


1 – saplo; 2 – truba; 3 – chig'anoq; 4 – yo'naltiruvchi tarnov; 5 – vanna; 6 – ajratish parjarsi; 7 – transportirlovchi blok; 8 – eritma berish trubasi; 9 – yuklash yuzki; 10 – apparat qopqog'i; 11 – fundament – asos.

korpusi uning ichida kechayotgan jarayonni kuzatish uchun oynali kuzatish teshiklariga ega.

SF – 100 bo'yash apparatining tashqi ko'rinishi 133-rasmda keltirilgan.


Firma mashinaning bir-biridan yuklanayotgan mahsulot og'irligi va agregat o'lchamlari bilan farqlanuvchi 13 xil modifikatsiyasini taklif qiladi (1S – 18, 1S – 28, 1S – 44, 1S – 54, 2S – 54, 3S – 54, 4S – 54; 1N – 18, 1N – 34, 1N – 44, 1N – 54, 2N – 54, 3N – 54 modellari). Ularda minimal mato miqdori 20 kg, maksimal miqdori esa 600 kg ni tashkil qiladi.

Bo'yash barkasi va ejektor bo'yash mashinalari universal jihozlar bo'lib, ularda mahsulotni bo'yashdan tashqari, qaynatish-pishirish, oqartirish va yuvish jarayonlari amalga oshiriladi.



133- rasm. SF – 100 bo'yash apparatining tashqi ko'rinishi:

1 – apparat korpusi; 2 – mato; 3 – qopqoq; 4 – issiqlik almashtirgich.



134- rasm. 100% paxta tolasidan tayyorlangan matoga ishlov berish texnologiyasi parametrlarining o'zaro bog'liqligi:

1 – mahsulotni apparatga yuklash; 2 – mahsulotni apparatdan chiqarish.  
A – oqartirish; B – bo'yash; D – siqish; E – sovunli ishlov; F – yumshatish.


Quyidagi grafikda 100% paxta ipidan tayyorlangan matoni oqartirish, faol bo'yovchi moda bilan bo'yash, siqish, sovunli eritmada yuvish, yumshatish jarayonlaridan iborat ishlov berish texnologiyasi harorat parametrining vaqtga bog'liqligi keltirilgan.

Har bir assortimentga ishlov berish texnologiyasini amalga oshirishning shunday grafigi komputer xotirasiga kiritilgan va jihozda ishlov texnologiyasi necha marta qaytirilmasin, uning bir xilligi ta'minlanadi, shu bilan mahsulotning alohida partiyalarining ko'rsatkichlari bir xilligi kafolatlanadi.

Bo'yash barkasida yoki ejektor mashinalarida ishlov olib siqilgan matoni keyingi ishlovlarga tayyorlash uchun

uni yoyilgan holatga, trikotaj polotnosi jgutining kengligi bo'yicha yoyilgan va uzunasiga kesilgan holatga keltirish talab etiladi. Buning uchun jgutni rostlash, kesish va siqish mashinasidan foydalaniladi. Bu mashinalar ikki modifikatsiyada chiqariladi: 1) to'qilgan matolar uchun; 2) to'qilgan matolar va trikotaj polotnilari uchun. 135- rasmida mashina ikkinchi turining sxemasi keltirilgan.

Ishlash prinsipi: aylanuvchi stolga o'rnatilgan sentrifuga barabani ichidagi mato jguti (10) tortib olish mexanizmi (2) tomonidan tortib olinadi va u yo'naltiruvchi rolikdan o'tib, uning qarshi aylantirish mexanizmi (3)ga boradi. Mashinaning bu qismidagi harakatini tortuvchi blok (4) ta'minlaydi. Agar mashinada mato jguti yoyilayotgan




135- rasm. Mahsulotni yoyish, kesish va siqish mashinasining sxemasi:

1 – aylanuvchi stol; 2 – matoni siqib tortish mexanizmi; 3 – jgutni qarshi aylantirish mexanizmi; 4 – tortuvchi blok; 5 – uzunasiga kesish mexanizmi; 6 – urgich (matolar uchun); 7 – matoni mashina markaziga moslash mexanizmi; 8 – fulyar; 9 – mato taxlagich.

bo'lsa, u urgich (6) orqali mato o'qini mashina o'qi bilan moslash mexanizmi (7)ga uzatadi. Agar trikotaj polotnosi jguti zapravka qilingan bo'lsa, u blok (4)dan uzunasiga kesish mexanizmi (5)ga o'tadi va polotno trubasi ochiladi. Shundan keyingi polotnoning harakati mato harakat yo'nalishi bilan bir xil bo'ladi, ya'ni markazlash mexanizmi (7) fulyar (8)dan o'tib taxlash mexanizmi (9)ga keladi va aravachaga taxlanadi.

## 2. Jiggerlar

Bu jihoz yoyilgan holatdagi matolarga ho'l ishlovlar: yuvish, oqartirish, bo'yash uchun ishlataladigan davriy rejimda ishlovchi rolikli bo'yash mashinalaridir. Bunda mato



136- rasm. Jigger mashinasining sxemasi:


1 – mato; 2 – valyan; 3 – yo'naltiruvchi rolik; 4 – vanna; 5 – matoni kengligi bo'yicha rostlovchi; 6 – mato o'rami; 7 – siqish vali.

buklanishsiz, tekis holda ishlov oladi, shu jihatni bilan bu mashinalar ipak va aralash tolalardan tayyorlangan matolarni pardozlashda keng qo'llaniladi.

Matoga ishlov berish davrida u bir valyandan ikkinchi-siga o'raladi, bunda ularning aylanishlari o'zgarib turadi. Bunday o'rashlarda mato vannadagi eritmada o'tadi; har doim mato rostlovchi (5) matoni kengligi bo'yicha rostlab, buklanishlar hosil bo'lishiga yo'l qo'ymaydi. Matoning bir tarafga o'ralishi o'tish deb ataladi va qabul qilingan texnologik rejimga muvofiq bunday o'tishlar soni 4 tadan 25 tagacha yetishi mumkin. Mato mashinaga konsol balkaga o'rnatilgan o'rami (6)dan kiritiladi, mashinadan chiqisha esa mato rolik yordamida siqiladi (7), bu uning yuzasida bo'yash eritmasining oqimlari hosil bo'lishidan saqlaydi.

Mato o'ralayotgan valyan yetaklovchi bo'ladi, ikkinchi-si esa mato tarangligining bir xil bo'lishi uchun tormozlan-tirilib turiladi. Mato o'ralayotgan valyan aylanish tezligini o'zgartirib moslab turish orqali, mato o'rami diametrining oshishiga qaramay, matoning mashinadan o'tish tezligining doimiyligi ta'minlanadi. Buning uchun mashina yuri-tuvchisi tarkibiga maxsus mexanizm kiritiladi.

Jiggerda mato regulirovka qilinadigan kam taranglikda ishlov oladi, masalan, taranglik kuchi 10 – 200 N – sintetik tolalardan tayyorlangan matolar uchun; 100 – 300 N – shtapel va yengil, o'rta og'irlikdagi ip-gazlamalar uchun va 200 – 500 N – og'ir ip gazlamalar uchun. Ishlov berish davrida mato eritmada bir necha soniyagina bo'ladi, asosiy jarayon mato rulonida kechadi, shuning uchun ajralib chiquvchi zararli moddalardan saqlash uchun mashina yo-



137-rasm. Jigger rulonli bo'yash mashinasining tashqi ko'riginishi:

1 – mashina gardishi; 2 – mashina qopqog'i; 3 – kiritilayotgan mato o'ramni.

piladigan qopqoqlarga ega. 137- rasmda jiggerga tashqaridagi mato o'ramidan matoning kiritilishi tasvirlangan.

Jigger bo'yash mashinalarini ishlab chiqarishda yetakchi o'rin egallagan Italiyaning "Mezzera" firmasi ishlab chiqargan mashinalarning ba'zi texnik ko'rsatkichlari 19-jadvalda keltirilgan.

#### *19-jadval*

"Mezzera" firmasi jiggerlarining ba'zi texnik ko'rsatkichlari

Rolik kengligi, (A) mm	2000 – 4000
Ishchi kengligi, mm	1800 – 3600
Vanna hajmi (min/maks), l	200/655
Mato tezligi, m/min	30 – 150
Mato tarangligi, kg	5 – 50
Rolikning maksimal diametri, mm	1400

Gabarit o'lchamlari: uzunligi. mm kengligi. mm balandligi. mm	A+235 2700 2770
---	-----------------------

20- jadvalda rolik kengligi har xil bo'lgan jiggerda bo'yaladigan matolar ko'rsatkichlari keltirilgan


20- jadval

Jiggerda ishlov olayotgan mato ko'rsatkichlari

Mato turi	Qalinligi, mm	Og'irliyi, g/m <sup>2</sup>	Matoning maks. yuklash og'irligi, kg (rolik kengligi mm bo'lganda)		
			2000	2800	3600
Viskoza	0.23	133	1396	1951	2551
Ip-gazlama	0.3	120	1050	1467	1916
Paxta/likra	0.4	160	1050	1467	1918
Valvet (ipdan)	0.6	295	1290	1803	2358
Polief/paxta	0.65	310	1252	1749	2287

138- rasmida jigger mashinasining tashqi ko'rinishi keltirilgan.

Keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinishib turibdiki, har bir mato assortimenti uchun har qaysi mashina o'zining yuklash parametrlariga ega. Bu ma'lumotlardan talaba xulosa chiqarishi va bitiruv ishida, magistrlik dissertatsiyasida foydalanishi mumkin.




138- rasm. "Mezzera" firmasi jiggerlarining tashqi ko'rinishi:  
1 – gardish; 2 – mato o'ralgan rolik; 3 – eritma tayyorlash baki.

Bunday jiggerlarda mato suv qaynashi haroratiga yaqin haroratda bo'yaladi. Yuqori haroratda bo'yash jaroyonini amalga oshiish uchun jigger mashinasi avtoklav ichiga joylashtiriladi. Ammo bu mashina konstruksiyasini va uni ekspluatatsiya qilishni biroz murakkablashtiradi.

Donalab tayyorlanadigan trikotaj mahsulotlar (poluverlar, koftochkalar, qo'lqoplar, paypoq va kolgotkalar), asosan, bo'yalmagan ipdan to'qiladi. Bo'yangan ipning trikotaj to'qish mashinasi detallariga ishqalanish koeffitsiyentining bo'yalmagan ipga nisbatan yuqoriligi ipning texnologik jarayon davomida uzilishlar sonining oshishiga olib keladi. Bu, o'z navbatida, mashina unumdarligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Rossiyada ishlab chiqarilgan trikotaj mahsulotlarini bo'yash barabani KB – 50 – 1 ning sxemasi 139- rasmida keltirilgan.



139- rasm. KB – 50 – 1 bo'yash barabanining sxemasi:

1 – baraban; 2 – bo'yash vannasining korpusi; 3 – elektrodigatel; 4 – gardish; 5 – to'lib-toshish cho'ntag'i; 6 – reduktor; 7 – vanna qopqog'i; 8 – bo'shatish krani; 9 – bug' berish trubasi.

Tuzilishi va ishlash prinsipi: gardish (4)ga bo'yash vannasi va uning ichki qismida joylashgan devorlari teshik baraban (1) o'rnatilgan. Baraban kengligi bo'yicha radial uchta seksiyaga teshikli ("yolg'on") devorlar bilan ajratilgan bo'lib, har bir seksiya alohida qopqoqqa ega. Baraban tarkibiga elektrosvigatel (3) va chervyakli reduktor (6) kirovchi yurituvchidan 4 ayl/min tezlikda aylanma harakat oladi. Barabanning har bir seksiyasiga bir xil assortimentdagi mahsulot solinadi.

Ishchi mahsulotlarni baraban seksiyalariga joylashtirib, uning qopqog'ini va vanna qopqog'i (7)ni yopib mahkamlaydi, shundan so'ng vannaga qo'shimcha apparatda tayyorlangan bo'yash vannasini to'ldiradi va barabanni harakatga keltirdi. Barabanning aylanishi vanna ichidagi bo'yash eritmasining yaxshi aralashib turishini ta'minlaydi. Shu apparatning o'zida bo'yash jarayoni tugagach, mahsulot yuviladi, buning uchun ishlab bo'lgan bo'yash erit-

masi bo'shatish krani (8) orqali tushiriladi va vannaga suv beriladi. Bo'yash haroratiga truba (9) orqali ochiq bug' berish bilan erishiladi va bu harorat ish davomida avtomatik ravishda ushlab turiladi. Bo'yash vannanisining hajmi – 1,1 m<sup>3</sup>, barabanga 50 kg gacha mahsulot solinadi, bo'yash moduli – 1: 20.

Bu bo'yash mashinasidan tashqari, xuddi shunday konstruksiyaga ega, ammo bir vaqtda 100 kg mahsulot bo'yaladigan KT – 100 bo'yash mashinasi ham ishlab chiqarilgan. Bu mashinaning barabani radial to'siqlardan tashqari, ko'ndalang to'siqlar bilan ham seksiyalarga ajratilgan, natijada bir vaqtda bo'yaladigan assortimentlar sonini ko'paytirish imkonи bor.

*Takrorlash uchun savollar:*

1. MKP bo'yash barkasining ishslash prinsipini gapirib bering.
2. MKP bo'yash barkasining asosiy ishchi organi konstruksiyasini tushuntiring.
3. MKP bo'yash barkasida mato jguti harakatini ko'rsating
4. MSD ejektor bo'yash mashinasida mato "zapravkasini" tushuntiring.
5. MSD ejektor bo'yash mashinasida konstruktiv elementlari vazifasini gapirib bering.
6. Ejektor bo'yash mashinasi afzallikkлari nimada?
7. Mato jgutining ejektor mashinasi barabani va saplosidan o'tish sxemasini tushuntiring.
8. Ejektori mashinasi mato to'plagichining vazifasi nimanidan iborat?

9. "Then Airflow" ejektor bo'yash mashinasining tex-nologik sxemasini tushuntiring.

10. "Then Airflow" ejektor bo'yash mashinasining boshqa ejektori mashinalaridan farqi nimada?

11. "SF – 100" bo'yash apparatida matoning o'tish sxemasini gapirib bering


12. Jigger bo'yash mashinasining tuzilishini va ishslash prinsipini gapirib bering.

13. Barabanli bo'yash mashinasida qanday mahsulot bo'yaladi va mashinan tuzulishini gapirib bering.

### **3- §. Matolarni yoyilgan holatda bo'yash jihozlari**

#### **1. Yarim uzluksiz ishlaydigan agregatlar**

Yarim uzluksiz va uzluksiz ishlaydigan bo'yash agregatlar davriy ishlaydigan bo'yash apparatlari va mashinalari ga nisbatan yuqori ununim dorlikka ega. Shuning uchun ip-gazlamalar, tabiiy va kimyoviy tolalar aralashmalaridan tayyorlangan matolarni va ipak matolarini bo'yash-par-dozlashda keng qo'llaniladi. Yarim uzluksiz ishlaydigan bo'yash agregatlarida sovuq va qaynoq bo'yash usullari amalga oshirilishi mumkin. Bu agregatlar talab qilin-gan hajmdagi matolarni bo'yashlari bilan bir qatorda, bir rangdan ikkinchisiga kam xarajatli o'tish imkonini beradi. Shuning uchun quvvati kichik va o'rta bo'lган korxonalari bunday agregatlar bilan jihozlanishlari mumkin. 140-rasmda "Ramish Kleynevefers" firmasining plusovkalash-



140- rasm. "Ramish Kleynevefers" firmasining yarim uzliksiz bo'yash agregatining sxemasi:

1 – mato; 2 – bo'yash vannasi; 3 – shmidtirish mashinasining siquvchi vallari; 4 – mato o'rami; 5 – isitgich; 6 – mato o'raluvchini silindri harakatga keltiruvchi rolik; 7 – sovuq suv liniyasi; 8 – issiq suv liniyasi.

o'rash sovuq usulida ishlaydigan yarim uzliksiz bo'yash agregatining sxemasi keltirilgan.

Bu agregat ip-gazlamalar, trikotaj polotnolari, paxmoqlangan matolar selluloza qismini faol va substantiv bo'yovchi moddalar bilan bo'yash uchun ishlab chiqarilgan. Unda bo'yash jarayonidan tashqari, mahsulotni sovuq usulda vodorod peroksidi eritmasida oqartirish jarayoni ham amalga oshirilishi mumkin.

Ishlash prinsipi va tuzilishi: mato (1) taxlangan aravachadan yoki o'ramdan mashinaga kiritish mexanizmlari

orqali shimdirlish mashinasining vannasi (2)ga beriladi. Mexanizmning vallari diametri kattalashtirilganligi materialni kam taranglikda vannaga berish imkonini beradi. Kichik bo'yash modulli bu vanna V shaklga ega va unda 20 – 30°C da bo'yash eritmasi shimdirlilgan mato siqish vallari (3)da siqilib, so'ng devori teshikli silindrga (navoy) o'raladi.

Vannaning devorlari ikki qavatli qilib ishlangan, eritmani sovitish uchun suv devorlar orasiga kiritiladi. Vanna pastga tushirish mexanizmiga ega, bu uni tozalash va ta'mirlash uchun qulay sharoit yaratadi. Plusovka vallari vertikal shaklda o'rnatilgan, ularning yuzasiga yumshoq rezina qoplangan. Pastki val doimiy tokda ishlovchi elektrodvigatelli yurituvchiga ega. Mato o'rash mexanizmi doimiy tokda ishlovchi yurituvchidan harakatlanadigan kontakt rolikka ega. Bu rolikka mato o'raladigan, devorlari teshikli navoy kerakli kuch bilan siqilib turadi. O'ram diametri oshishi bilan, navoy markazi kontakt roligidan uzoqlashib boradi, ammo matoni o'rash tezligi doimiyligi cha qoladi. Mato o'ralgan navoy aravachada sexning ajratilgan joyiga olib borilib, gidronasosga ulanadi, natijada u bir me'yorda, talab qilingan vaqt davomida aylanib turadi. Mato yuzasi qurub qolmasligi uchun mato o'rami polietilen plyonkaga o'rab qo'yiladi. Bo'yash jarayoni tuga-gandan so'ng, matoni yuvish uchun firma alohida uskuna taklif etadi. Uning tarkibiga truboprovodlar, isitgich va uni boshqaruvchi armatura kiradi. Bu uskuna sexning alohida joyiga o'rnatiladi. Texnologiya bo'yicha talab qilingan vaqt o'tgandan so'ng, avval mato o'ralgan silindr ichiga sovuq


suv, so'ng, isitilgan suv yuborilib, mato yuviladi. Shu bilan bo'yash jarayoni tugallanadi.

Bu usulda to'qilgan mato va trikotaj polotnolarini bo'yashning barkalarda va ejektor mashinalarida bajarili shidan quyidagi afzalliklarini firma shunday ta'kidlaydi:

- mato yoyilgan holda, kam taranglikda ishlov oladi;
- bu uskuna kichik, o'rta va katta hajmda mahsulot ishlab chiqaradigan korxonalarga ma'qul keladi, chunki mato o'ralib, so'ng ishlov beriladigan roliklar sonini ko'paytirib, kerakli unumdorlikka erishish mumkin;
- bo'yovchi eritmani shimdirish vaqtি kamligi tufayli matoga yumshoq ta'sir ko'rsatiladi;
- bo'yovchi moddaning matoga singishining yuqori darajasi ta'minlanadi;
- suv, issiqlik, bug' va kimyoviy moddalar sarfining tejamkorligiga erishiladi.

Agregatning texnik tasnifi:

- 1) ishlov oladigan mato kengligi – 1200 – 3000 mm;
- 2) matoga ishlov berish maksimal tezligi – 80 m/min;
- 3) bo'yash vannasining hajmi, – 36 l;
- 4) mato o'raladigan val (navoy)ning diametri:
  - mato kengligi 2000 mm gacha bo'lganda – 404 mm;
  - mato kengligi 2000 mm dan yuqori bo'lganda – 500 mm;
- 5) mato o'ramining diametri – 1300 mm;
- 6) eritma shimdirilgan mato o'ramining saqlanishi – 2 – 24 soat;
- 7) yuvish vaqtি – 3 – 5 soat;
- 8) suv sarfi – 15 – 25 kg/kg mato.



141- rasm. "Pedroll" usulida bo'yovchi yarim uzluksiz ishlaydigan agregat sxemasi:

1 – mato kiritish mexanizmi; 2 – mato; 3 – plusovka; 4 – infraqizil nurlar bilan qizdirish kamerasi; 5 – ko'chiriladigan bug'lash kamerasi; 6 – nazorat richagi.

9) o'rnatilgan elektrodvigatellar quvvati – 25 kWt.

Matoni "Pedroll" usulida bo'yaydigan yarim uzluksiz ishlovchi agregat sxemasi 141- rasmda keltirilgan.

Plusovka (3)da bo'yash eritmasi bilan shimdirligani mato (2) infraqizil nurlari bilan qizdirish kamerasi (4)da qisqa vaqt ichida yuqori haroratgacha qizdiriladi va aravachaga o'rnatilgan bug'lash kamerasi roligiga o'raladi. Roligi matoga to'lgan bug'lash kamerasi sexning boshqa joyiga ko'chiriladi va roligi aylangan holatda kerakli vaqt davomida turadi. Shundan so'ng agregatning yuvish qismida mato yuviladi. Bunday agregat selluloza asosidagi matolarni faol bo'yovchi moddalar bilan bo'yashda keng qo'llaniladi.

## 2. Uzluksiz ishlaydigan bo'yash agregatlari

Ishlab chiqarish quvvati katta bo'lgan pardozlash korxonalarini uzluksiz ishlaydigan yuqori unumli bo'yash agregatlari


lari bilan jihozlanishlari zarur. Bunday agregatlar tarkibiga tipovoy mashina va uskunalar kiradi va mahsulot sifatini ta'minlash bilan bir qatorda, ba'zi talablarni qondirishlari kerak. Ularni qisqacha sanab o'tamiz:

- uzliksiz ishlaydigan agregatlar ishlab chiqariladigan tayyor mahsulot sifatiga bo'lgan talabga mos kelishi lozim.

- agregatni tejamkorligi, ya'ni boshqa agregatlarga nisbatan mahsulotni aniq miqdori uchun kam energiya, suv sarf qilishi; boshqarishning, unga xizmat ko'rsatishning kam xarajatliligi.

142- rasmida Rossiyada ishlab chiqarilgan bo'yash-bug'-lash LKZ – 120 agregatinig sxemasi keltirilgan.

Mato (6) plusovka (1)da bo'yash eritmasi bilan shimidiriladi va siqiladi, shundan so'ng bug'lash kamerasi (2) ga kiritiladi hamda 100 – 102°C haroratda unga ishlov beriladi. Bug'lash jarayonini o'tagan mato yuvish mashinasida yuviladi. Qo'llanilayotgan bo'yovchi modda va qabul qilingan bo'yash texnologiyasiga muvofiq (kub va oltingugurtli bo'yovchi moddalar qo'llanilganda) mato yuvish mashinasining birinchi vannasida oksidlovchi modda eritmasida ishlov oladi. Shundan so'ng mato (6) kuchay-



142- rasm. LKZ – 120 bo'yash aggregatining sxemasi:

1 – plusovka; 2 – bug'lash kamerasi; 3 – yuvish mashinasi; 4 – kuchaytirilgan siqish mashinasi; 5 – barabanli quritish mashinasi; 6 – mato; 7 – mato taxlash mexanizmi.

tirilgan siqish vallari juftligi (4)dan o'tkaziladi va quritish barabanlari (5)da quritiladi hamda taxlash mexanizmi (7) uni aravachaga taxlaydi.

Bu agregat va Rossiyada chiqarilgan LKK – 120, UKL – 120 hamda boshqa agregatlar ma'naviy jihatdar eskirgan. Bundan tashqari, bu agregatlar tor kenglikdagi (90 sm ga-cha) matolarga ishlov bera oladi. Hozirda to'qimachilik sanoatida keng matolar ishlab chiqarishga intilish tendensiysi hukm surmoqda. Shuning uchun jahonga mashhur ko'p chet el to'qimachilik mashinasozligi firmalari jahon bozoriga kengligi 3000 mm va undan ortiq bo'lgan matolarni pardozlovchi agregatlarni ko'plab taqdim etishmoqda. Mutaxassisning vazifasi shularning ichidan, o'z korxonasi ishlab chiqaradigan assortimentlarga bozor talabini inobatga olib, eng ma'qul agregatni sotib olishni tavsiya etishdir.

Endi chet el firmalari ishlab chiqargan uzliksiz ishlaydigan bo'yash agregatlarining ba'zilari bilan tanishamiz.

143- rasmda "Ramisch Kleinelefers" firmasining



143- rasm. "Ramisch Kleinelefers" firmasining "Ped- Steam" bo'yash usulida uzluksiz ishlovchi bo'yash agregati:

1 – mato; 2 – tortib oluvchi vallar juftligi; 3 – tezlik datchigi; 4 – lotokli kompensator; 5 – mato yo'naltiruvchi; 6 – plusovka; 7 – havo zrelnigi; 8 – plusovka; 9 – bug'lash kamerasi; 10 – gidroqulf; 11 – siqish-tortish vallari juftligi; 12 – 7 ta vannadan iborat yuvish mashinasi; 13 – tayyor mato o'rami; 14 – lotokli kompensator.

“Ped-Steam” bo'yash usulida uzlusx ishlovchi bo'yash agregatining sxemasi keltirilgan. Bu agregat universal bo'lib, tabiiy tolalar va ularning kimyoviy tolalar bilan aralashmasidan tayyorlangan keng assortimentdagi matolarni har xil klassga mansub bo'yovchi moddalar bilan bo'yashga mo'ljallangan. Masalan, bu agregatda kub, faol oltingugurtli bo'yovchi moddalar bilan bo'yash va naftol bilan rangni chiqarish texnologiyasini firma misol tariqasida taqdim etadi. Bunday ishlovlardagi matoning taklif qilinayotgan tezligi mato va ishlov turiga qarab 20 – 80 м/мин орасида bo'lishi katta aniqlik bilan ta'minlanadi.

Agregat alohida elementlarining vazifasi:

1. Matoni mashinaga uzatish mexanizmi. Uning tarkibiga mato tortib oluvchi vallar juftligi (2), tezlik datchigi (3), lotokli kompensator (4) va mato yo'naltiruvchi (5) kiradi. Bu mexanizmning vazifasi matoni talab qilingan taranglikda, mashina markaziga mos ravishda plusovka (6) ga yetkazib berishdan iborat. Kirish mexanizmiga lotokli kompensator kirgizilganligi agregatni to'xtatmasdan yangi mato o'ramini almashtirish imkonini yaratadi. Tezlik datchigi (3) esa mato tortib oluvchi vallar juftligi (2) ning tezligini, mato lotokli kompensator orqali zapravka qilinmaganda, plusovka (6) tezligi bilan moslashga xizmat qiladi.

2. Plusovkada mato bo'yash vannasiga shimdiriladi va ortiqcha eritma siqiladi hamda material havo zrelnigi (7) ga uzatiladi. Zrelnik, ayniqsa, ho'l matoga bo'yovchi mod-danining diffuziya bo'lishi uchun yetarli vaqt ni ta'minlashga xizmat qiladi.


3. Bu agregatning boshqa agregatlardan farqi materialning teskari yuzasiga kimyoviy moddalar eritmasini surkaydigan, vali yuzasida "ming tochka"li nasechkalar qilingan plusovka (8) borligidir. Buning natijasida matoning teskari yuzasida kimyoviy moddaning plyonkasi hosil qilinadi. Mashina vannasiga val yuzasi cho'ktirlangan holatda aylanadi va uning yuzasiga matoning teskari yuzasi tegib turadi.

4. Bug'lash kamerasi (9)da mato  $100 - 102^{\circ}\text{C}$  dagi to'yigan bug' muhitida ishlov oladi. Bunday sharoitda tola ichkarisiga diffuziyalangan bo'yovchi modda uning strukturasida fiksatsiyalanadi. Ko'rinish turganidek, kamera uch texnologik bo'limga ega, har bir bo'limning mato zapravka qilingan roliklari o'zining yurituvchisiga ega. Bu seksiyalardagi roliklar tezligini o'zaro moslash va shu yo'il bilan mato tarangligini minimal sathda ushlab turishga erishiladi. Buning uchun kerakli signal bo'limlar o'rtasiga o'rnatilgan rolikli tezlik datchigidan olinadi. Mato tarangligi ortsa, datchik roligi tepaga ko'tariladi, agar mato tarangligi pasaysa, rolik pastga harakatlanadi, natijada mato tarangligi berilgan sathda bo'ladi. Rolikning harakatidan olingan signal tezlik datchigining old tarafidagi roliklar tezligini o'zgartirishga xizmat qiladi.

5. Yuvisht mashinasi (12) tarkibiga kiruvchi vanna roliklariga mato "sirtmoq-sirtmoq" qilib zapravka qilinadi. Ma'lumki, bu usuldagagi mato zapravkasi yuvisht jarayonini jadallashtiradi. Bu mashinada yuvishdan tashqari, matoni sovunlash va kimyoviy moddalar qoldig'idan tozalash uchun neytrallash jarayonlari ham amalga oshirilishi mumkin, bu agregatda bajarilayotgan bo'yash usuliga bog'liq.

6. Yuvib tozalangan ho'l mato qabul qilib olish mexanizmida rolikka o'ralishi yoki kompensator (14) orqali keyingi mashinaga uzatilishi mumkin.

144- rasmda "Kyoto Maschinery Co. LTD" firmasining "Ped-Steam" bo'yash usulida uzlusiz ishlovchi bo'yash agregati sxemasi keltirilgan. Uning tarkibi plusovka, bug'lash kamerasi, havo zrelnigi, yuvish mashinasi (unda oksidlash vasovunlash vannalari mavjud) va barabanli quritgich kabi tipovoy mashinalardan iborat. Plusovka vallari mato kengligi bo'yicha bir tekisda siqilishini ta'minlaydi va bu konstruksiya patent bilan himoyalangan. Bug'lash kamerasi bir bo'limdan iborat va uning yuqoridagi roliklari yurituvchining elektrodvigatelidan to'g'ridan-to'g'ri yoki tasmali uzatma orqali harakat oladi. Kamerada to'yingan bug' muhitining harorati  $100 - 108^{\circ}\text{C}$  chegarasida o'rnatilishi mumkin. Agregat tarkibiga kiritilgan rolikli va minorali yuvish mashinalari yuqori yuvish effektini olish imkonini beradi. Rolikli yuvish mashinasi (5)ning bir vannasidan matoga sovun eritmasi bilan ishlov berish uchun foydalilanildi. Bu mashina konstruksiyasiga ham patent olingan. Keltirilgan agregat sxemasidan va




144- rasm. "Kyoto Maschachinery Co. LTD" firmasining "Ped-Steam" bo'yash usulida uzlusiz ishlovchi bo'yash agregati:

1 – mato kiritish mexanizmi; 2 – plusovka; 3 – bug'lash kamerasi; 4 – havo zrelnigi; 5 – 5 vannali yuvish mashinasi; 6 – minorali yuvish mashinasi; 7 – quritish mashinasi.

uning ishlash prinsipidan ko'rinish turibdiki, bu tipovoy agregat, boshqa firmalarning shunday agregatlardan katta farqqa ega emas, faqat yuvish bo'limi tarkibiga minorali yuvish mashinasi kiritilib, bu jarayonni jadallashtirishga erishilgan. Mijozning talabiga muvofiq, agregat gorizontal joylashgan valli plusovka bilan jihozlanishi mumkin.

145- rasmda "Sando" firmasining "Ped-Steam" bo'yash usulida uzlusiz ishlovchi bo'yash aggregatining sxemasi keltirilgan.


Bu agregat tarkibi biz yuqorida ko'rib o'tgan aggregatlar tarkibidan tubdan farq qilmaydi va uning tarkibiga plusovka, bug'lash kamerasi, havo zrelnigi, yuvish mashinasi, quritish mashinasi va mato taxlagich kiradi. Agregat matoni 30 – 150 m/min tezlikda bo'yash imkoniyatiga



145- rasm. "Sando" firmasining "Ped-Steam" bo'yash usulida uzlusiz ishlovchi bo'yash aggregati:

1 – mato; 2 – mato kiritish mexanizma; 3 – plusovka; 4 – bug'lash kamerasi;  
5 – havo zrelnigi; 6 – to'trta rolikli yuvish mashinasi; 7 – uchta minorali yuvish mashinasi; 8 – quritish mashinasi.

ega. Uning boshqa shu tipdagi agregatlardan farqi – uning bug'lash kamerasi konstruksiyasida. Bug'lash kamerasi baland bo'lib, tomi uchburchak shaklda yasalgan. Bunday shakl tom ichkarisida matoni bug'lashda hosil bo'ladigan suv tomchilarining matoga tushmasdan, tom devoridan ikki tarafga oqib tushishini ta'minlaydi (146- rasmga qarang). Natijada kondensat hosil bo'lmasligi uchun yassi tomi isitiladigan tipovoy bug'lash kamerasiga nisbatan bug' sarfi kam bo'ladi.



146- rasm.

A – bug'lash kamerasi sxemasi: 1 – mato; 2 – kamera gardishi; 3 – bug' bilan qizdiriladigan trubalar; 4 – yuqoridagi roliklar; 5 – pastdag'i roliklar; 6 – bug' berish trubasi; 7 – gidrozatvor; 8 – ventilator.

B – kamera roligining podshipnik korpusi: 1 – rolik vali; 2 – kamera devori; 3 – mustahkamlash devori; 4 – podshipnik korpusi; 5 – podshipnik.


Kameraga mato kirish tirqishidan tashqariga ifoslangan havo chiqmasligi uchun rolikli zatvor va bug' bilan qizdiriluvchi trubalar (3) o'rnatilgan bo'lib, zatvordagi bug'-havo aralashmasini ventilator (8) tashqi muhidga chiqarib tashlaydi. Kamera ichiga o'rnatilgan truba (6)dan bug' berilib, talab qilingan harorat va namlik ta'minlanadi. Mato chiqishida suvli zatvor (gidrozatvor) o'rnatilgan. 146- B rasmda ko'rsatilganidek, kamera roligining podshipnik korpusi kamera devoriga boltlar yordamida mahkamlanadi.

Podshipnik korpusining kamera tashqarisiga mahkamlanishi podshipnikni moylash va uni ta'mirlash ishlarini osonlashtiradi.

Kamera roliklarining diametri – 125 mm, pastdagи va yuqoridagi roliklar qatori orasidagi masofa – 1200 mm. Bu o'chamlar kamerada mato yuzasida buklanishlar hosil bo'lmasdan, kam taranglikda harakatlanishini ta'minlaydi.

147- rasmda "Vakayama" firmasining "Ped-Steam" bo'yash usulida uzlusiz ishlovchi bo'yash agregati keltirilgan.

Agregat boshqa firmalarning shu usulda ishlovchi agregatlaridan tarkibi bilan deyarli farq qilmaydi. Uning



147- rasm. "Vakayama" firmasining bo'yash usulida uzlusiz ishlovchi bo'yash agregati:


1 – mato kiritish mexanizmi; 2 – plusovka; 3 – bug'lash kamerasi; 4 – rolikli yuvish mashinasi; 5 – "Poly-stream" rusumidagi 5 vannali yuvish mashinasi; 6 – ikki vannali rolikli yuvish mashinasi; 7 – quritish mashinasi; 8 – mato qabul qilish mexanizmi.

tarkibiga mato kiritish mexanizmi, vallari qiyshiq joylashgan plusovka (vallari vertikal, gorizontal joylashgan plusovka ham kiritilishi mumkin), bug'lash kamerasi, rolikli yuvish mashinalari, "Poly-stream" rusumidagi yuvish mashinalari, barabanli quritish mashinasi va mato taxlagich kiradi. Bu agregat tabiiy tolalardan va ularning aralashmalaridan tayyorlangan matolarni bo'yash uchun ishlatiladi. Bug'lash kamerasining tomi uchburchak yoki yassi shaklda bo'lishi mumkin. Keltirilgan sxemadan ko'rinish turibdiki, bu agregat kuchaytirilgan yuvish qismiga ega, shuning uchun yuvilishi qiyin bo'yovchi moddalar ishlatilganida juda qo'l kelishi mumkin.

148- rasmda "Sando" firmasining termozol usulida bo'yash agregati sxemasi keltirilgan.

Bu agregat poliefir va paxta tolalari aralashmasidan tay-yorlangan matolarni va, shuningdek, shu firmanın bug'lash kamerasi bilan agregatlanganda, sellulozali matolarni uzluksiz usulda bo'yash uchun ishlatiladi. Bu mashinalar tizimi tarkibiga quyidagi jihozlar kiradi: plusovka, infraqizil nurlari bilan qizdirish kamerasi, yuqori haroratli havo bilan quritgich va termofiksatsion mashina.

Uzluksiz bo'yash usulida matolarni bo'yovchi modda bilan bir tekisda shimdirimishga erishish muhim masalalar dan hisoblanadi. Shuning uchun "Sando" bo'yash agregati tarkibiga "suzuvchi" valli plusovka kiritilgan. Bunday vallar juftligi mato kengligi bo'yicha siqish darajasining bir xil bo'lishini ta'minlaydi. Bunday vallar kalandrlarda ham keng qo'llanilganligi tufayli ularning konstruktiv tuzilishi ni keyingi bobda ko'rib chiqamiz. Firmanın bu turdag'i



148- rasm. "Sando" firmasining Termozol bo'yash usulida uzluksz ishlovchi bo'yash agregati

A – agregat sxemasi: 1 – mato; 2 – mato kiritish mexanizmi; 3 – plusovka; 4 – infraqizil nuri bilan qizdirish kamerasi; 5 – quritish kamerasi; 6 – tortib olish vallar juftligi; 7 – termofiksсиya kamerasi; 8 – tortib olish vallari; 9 – mato taxlagich.

B – termofiksatsiya kamerasingin kesimi: 1 – mato; 2 – yuqoridagi rolik; 3 – pastdagt rolik; 4 – ventilyator; 5 – kalorifer; 6 – elektrodvigatel.

ikki valli plusovkasining bittasi yoki ikkalasi ham "suzuvchi" konstruksiyaga ega bo'lishi mumkin. Plusovka, mato turiga qarab, siqish darajasi 54 kg/sm bo'lguncha siqish darajasini val kengligi bo'yicha nazorat qilib turadigan uskuna bilan jihozlangan. Plusovka vannasini ko'tarib-tushiradigan mexanizm bilan jihozlanganligi va undagi eritma sathini nazorat qilish uskunasi borligi plusovkani ekspluatatsiya qilishni osonlashtiradi va arzonlashtiradi. Diametri 200 va 250 mm bo'lgan "suzuvchi" vallardan foydalaniladi.

Infraqizil nurlar bilan qizdirish kamerasida qisqa vaqt ichida mato qoldiq namligi 30% bo'lguncha quritiladi. Bu kameraning ikki, uch va to'rt qavat infraqizil nur tarqatuvchi lampali modifikatsiyasi mavjud.

Quritish kamerasida mato kengligi bo'yicha yuqori haroratli havo oqimida ishlov oladi. Havo bilan matoni qurituvchi bu quritgich katta kenglikdagi kamera bo'lib, issiq havo oqimining mato kengligi bo'yicha bir xilda ta'siri natijasida har xil turdag'i matolarning bir tekisda qurishini ta'minlaydi. Issiq havo kamera yuqorisiga va pastki qismiga o'rnatilgan o'qsimon ventilator yordamida sirkulatsiya qilinadi. Issiq havo oqimi to'siqning teshiklaridan bir me'yorda chiqib, matoga yo'naladi. U mato yo'naltiruvchi rolik markaziy o'qiga yo'naltiriladi, natijada mato tebranmaydi; bu esa mato yuzasida g'ijimlangan yoki ezilgan joylari bo'lmasligini ta'minlaydi. Sodir bo'lishi mumkin bo'lgan bo'yovchi modda migratsiyasining oldini olish uchun havo haroratini sekin-astalik bilan pog'onama-pog'ona ko'tarish lozim. Bu quritgich ikki yoki uch bo'limdan iborat bo'lib, 30 yoki 35 metr matoni sig'diradi va issiq havo tezligi quritish sharoitiga qarab tanlanadi. 148- B rasmda quritish (termofiksatsiya) kamerasining kesimi keltirilgan.

Mato kam tortilgan holda quritiladi. Bunga yo'naltiruvchi roliklar yurituvchisi tarkibiga moment dvigatellari kiritish bilan erishilgan. Ushbu doimiy tokda ishlovchi elektrodivigatel tezligi tok kuchlanishini o'zgartirish bilan o'zgartish orqali matoning kerakli tezlikda kameradan o'tilishiga erishiladi.

## Quritgichining ba'zi bir texnik ko'rsatkichlari

Mato miqdori	30 m	35 m
Ta'minlovchi roliklar (yuqori va pastdagi)	har biri 10 dona	har biri 12 dona
Yuqoridagi va pastdagi roliklar orasidagi masofa	1300 mm	1300 mm
Yurituvchi turi	5 kg/sm momentli elektrodvigatel, 10 dona	5 kg/sm momentli elektrodvigatel, 10 dona
Isituvchi bug': maksimal bosim, maksimal temperatura	4 kg/sm <sup>2</sup> 130 °C	4 kg/sm <sup>2</sup> 130 °C
Havo sirkulatsiya ventilatori	350 m <sup>3</sup> /soat (7,5 kvt)	350 m <sup>3</sup> /soat (7,5 kvt)
Bug'lash qobiliyati	350 kg/soat (150 sm keng. matoda)	300 kg/soat (150 sm keng. matoda)
Kamera o'lchamlari, mm	L x H 2870 x 4325	L x H 3370 x 4325

Termofiksatsiya mashinasi. Termokameradagi mato o'tkazuvchi roliklar yuzasiga yaxshi ishlov berilgan, mustahkam trubalardan tayyorlanganligi va ularning yurituvchisi tarkibiga moment elektrodvigatellarining kiritilganligi matoning kam tortilishi va bukilgan, g'ijimlangan joylari bo'lmasdan yuqori temperaturada ishlov olishini ta'minlaydi.

Issiq havo chiqadigan teshiklar uning yo'nalishini o'zgartirish imkoniyatiga ega. bu esa havo oqimi sirku-


latsiyasi va temperaturasini avtomatik ravishda nazorat qilish imkonini yaratadi. havoni qizdirish imkonii sifatida to'g'ridan-to'g'ri yondiriladigan gaz, qizdirilgan moyda ishlovchi isitgich yoki termomoy sistemasi taklif qilinadi. Mijoz talabiga muvofiq termokamera ko'rsatilgan sistemalardan biri bilan jihozlanadi.

22-jadval

Termofiksatsiya mashinasining ko'rsatkichlari

Mato miqdori, m	60	90	120	150
Ta'minlovchi roliklar soni	18	27	18 x 2	18 x 2
Yuqoridagi	19	28	19 x 2	24 x 2
Pastdagi	150		2 ta ka- mera	2 ta kamera
Yuqoridagi va past- dagi roliklar orasidagi masofa (sm)		150	150	150
Roliklar yurituvchisi- ning dvigateli	5 kg.sm	5 kg.sm	5 kg.sm	5 kg.sm
Isitish kollaroriyasi (kkal soat)	187,5	230 4	360 3,5	400 4
Sirkulatsion ventilator, kVt	3,5	L x H	L x H	L x H
Kamera o'lchamlari (m)	4,9 x 3,9	6,1 x 3,9	8,4 x 3,9	10,4 x 3,9

149- rasmda "Vakayama" firmasining "Peddry" bo'yash usulida uzluksiz ishlovchi bo'yash agregati keltirilgan.



149- rasm. "Vakayama" firmsining "Peddry" bo'yash usulida uzlusiz ishlovchi bo'yash agregatasi:

1 – mato; 2 – mato kiritish mexanizmi; 3 – plusovka; 4 – infraqizil nurlar bilan qizdirish mashinasi; 5 – "CHI" issiq oqimli quritgich.

To'qimachilik sanoatining hozirgi rivojlanish tendensiysi yuqori sifatlari mahsulotlarning turli xillarini, uzliksiz va kichik partiyalarda bozor talabini hisobga olgan holda ishlab chiqarishni talab qilmoqda. Shularni hisobga olgan holda, bu firma o'zining to'plagan tajribasiga tayanib, kam ishchi kuchini talab qiladigan "Peddry" (shimdirish-quritish) bo'yash usulida uzlusiz ishlovchi bo'yash aggregatini yaratgan. Bu aggregatda matolarni faol, dispers va pigiyent bo'yovchi moddalar bilan bo'yash mumkin. Faol va dispers bo'yovchi moddalar bilan bo'yalgan matolar alohida o'rnatilgan yuvish aggregatida yuviladi, chunki bu aggregat tarkibiga yuvish mashinalari kiritilmagan.

Mato (1) kiritish mexanizmi (2)da kerakli taranglikniolib, mashina markaziy o'qiga mos ravishda plusovka (3)ga kiritiladi. Bo'yash eritmasi bilan shimdirilib, siqilgan mato infraqizil nurlar bilan qizdirish mashinasi (4)da qisqa vaqt ichida qizdiriladi va quritish-termofiksatsiya mashinasi (5)ga uzatiladi. Bu mashina ikki kamerali bo'lib, har

bir kamera ikkitadan sirkulatsion ventilatoriga va havo isitish caloriferlariga ega, bundan tashqari, har bir kamera o'zining ishlagan havoni tashqariga chiqarib tashlovchi ventilatoriga ham ega.

Yuqorida ko'rib o'tilgan bo'yash agregatlarining asosiy mashinalardan biri bu shimdirish mashinasi – plusovkadir.

150- rasmda plusovkalarning sxemalari keltirilgan


FA modeli – ikki valli siqish mexanizmi: vallari vertikal joylashgan; umumiy siqish kuchi – 12 000 kg.

FB modeli – gorizontal joylashgan ikki valli siqish mexanizmi, umumiy siqish kuchi – 6000 va 12 000 kg. Bu model bo'yash jarayoni uchun mo'ljallangan.

FC modeli – siqish vallari fazoda qiyshiq chiziq bo'yicha joylashgan bo'lib, umumiy siqish kuchi – 6000 va 12 000 kg. Bo'yash va shimdirish jarayonlariga mo'ljallangan.

FD modeli – ikkita gorizontal o'rnatilgan siqish vallari: mahkam o'rnatilgan uchburchak bilan, vallarning umumiy siqish kuchi – 6000 kg. Suyuqlik miqdori juda oz.

FS modeli – uchta siqish vallari qiyshiq joylashgan. Umumiy siqilish kuchi 12 000 kg. Asosan, pardozlash



150- rasm. Shimdirish mashinalari plusovkalarning sxemalari:

1 – mato; 2 – siqish vallari; 3 – vanna; 4 – siqib chiqaruvchi element.

agregatlarida qo'llashga mo'ljallangan. Eritma beruvchi qo'shimcha uskunasi bor.

FV modeli – uch valli siqish mexanizmi: umumiyligi kuchi – 6000 kg. Ikkita mato cho'ktirish vannasi bor. Asosan, bo'yash jarayoniga mo'ljallangan.


FN modeli – uch valli siqish mexanizmi: umumiyligi kuchi – 1200 kg. Ikkita cho'ktirish bilan, birinchisi – vannada va ikkinchisi uchburchakda. Bu bo'yash plusovkasi og'ir matolarga ham mo'ljallangan.

FF modeli – uchta valli siqish mexanizmi; umumiyligi kuchi – 6000 kg. Ikkita cho'ktirish bilan: birinchisi – uchburchakda va ikkinchisi – vannada.

FX modeli – yuqori effektli siqish kalandri. Suvsizlantirish uchun maxsus yaratilgan. Mato yoyilgan holda ishlov oladi.

Misol tariqasida FV modeliga mansub uch valli shimidirish mashinasini ko'rib o'tamiz. Uning texnologik sxemasi 151- rasmida keltirilgan.

Sxemadan ko'rinish turibdiki, ikki val o'zaro qiyshiq o'qda joydashgan bo'lsa, keyingi siqish juftligi o'zaro gorizontal joylashgan. Natijada mashina ikkala sxema afzalliklarini o'z ichiga olgan. O'rtada joylashgan valning yurituvchisi bor, qolgan ikkita val esa unga siqilib turadi. Bo'yash haroratini ta'minlash uchun vanna devorlarida "ko'ylagi" bor. Vallar o'zaro pnevmomexanizm yordamida siqiladi. Vannalar ko'tarilish va tushish uchun pnevmomexanizmiga ega. Shu mexanizmlar tufayli mashinaning har bir qismiga borish oson, natijada uni ta'mirlash yengilashtirilgan.



*151-rasm.* Plyusovka mashinasining FV modeli sxemasi:

1 – mato; 2 – yo'naltiruvchi rolik; 3 – bo'yash vannasi; 4 – cho'ktiruvchi rolik; 5 – siqish vallari; 6 – ikkinchi bo'yash vannasi; 7 – kengaytirish roligi.

### *Takrorlash uchun savollar:*

1. Yarim uzluksiz ishlaydigan bo'yash aggregatining ishlash prinsipini gapirib bering.
2. Yarim uzluksiz ishlaydigan bo'yash agregati tarkibiga kiruvchi alohida jihozlarning vazifasini tushuntiring.
3. "Pedroll" usulida bo'yaydigan agregat tarkibiga kiruvchi jihozzlarni sanab bering.
4. "Pedroll" usulida bo'yaydigan aggregatning ishlash prinsipini tushuntiring.
5. "Ped-Stim" bo'yash usulini amalga oshiradigan uzluksiz ishlaydigan agregat tarkibiga kiruvchi tipovoy mashinalarni sanab bering.
6. "Ped-Stim" bo'yash usulini amalga oshiruvchi uzluksiz ishlaydigan aggregatning ishlash prinsipini tushuntiring.
7. Plusovkalar turlari to'g'risida gapirib bering.
8. Termozol usulida bo'yashni amalga oshiradigan aggregat tarkibini gapirib bering.

## **V B O B. TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARINI QURITISH JIHOZLARI**

Quritgichlarda, bug'lash va pishitish kameralarida to'qimachilik materiallari tarkibi har xil bo'lgan bug'-havo muhitida ishlov oladi. Bu jihozlardagi muhit tarkibida suv bug'inining miqdori 99,8 % gacha yetishi mumkin. Yuqoridagi ishlovlarda murakkab fizika-kimyoviy jaryonlar kechadiki, natijada issiqlik va massa almashuvi tufayli material quriydi yoki termoishlov oladi. Muhitning parametrlari: bug' va havo arlashmasining tarkibi, bosimi va harorati ishlov olayotgan material sifatini belgilaydi va jihoz konstruksiyasining o'ziga xos jihatlarini belgilaydigan ma'lumot manbayi bo'lib xizmat qiladi.

Bug'-havo muhiti quruq gaz (havo) bilan suv bug'i aralashmasidan iborat. Quruq gaz ideal gaz qonuniga bo'ysunadi. Havoning issiqlik sig'imi 0,24 kkal/kg grad (yoki 1 kdj/kg °C)ga teng. Toza suv bug'inining issiqlik sig'imi 0,48 kkal/kg grad. ga teng bo'lib, uning holatini bosimi, harorati belgilaydi. Ichki qismi tashqi muhit bilan tutash kameralarda bug'-havo muhitining bosimi barometrik bosim – Rb ga teng bo'ladi deb qabul qilinadi va uning miqdori, odatda, 745 mm sim. ust. ni tashkil qiladi. Kameralagi umumiyl bosim bug' va havo portsial bosimlari

yig' indisiga teng, ya'ni  $R = R_p + R_v$ . Bug'-havo muhitining tarkibi quruq ( $t_q$ ) va ho'l ( $t_h$ ) termometrlar ko'rsatuvidan aniqdanishi mumkin

## 1- §. Quritish jarayoni tahlili

### 1. Bug'-havo muhitining xarakteristikasi

Tolali meteriallar kimyoviy texnologiyasida suvdan asosiy erituvchi va yuvish jarayoni muhiti sifatida foy-dalaniladi. Suv molekulalari materialda ozod holda va kimyoviy bog'langan holda bo'ladi, bundan tashqari, sorblangan suv ham mavjud. Materialdan ozod holdagi suv vallarda siqish, sentrifugallash va vakuum so'rish usullari yordamida chiqariladi. Bug'langan va sorblangan suv esa faqat quritish orqali chiqariladi. Tolali material tola va mahsulot turiga qarab o'zida 350% gacha namlikni ushlab turishi mumkin. Bunday materialni quritishdan oldin, mexanik usulda qisman suvsizlantirish muhim iqtisodiy ahamiyatga ega, chunki mexanik usulda suvsizlantirish quritishga qaraganda 40 barobargacha arzonga tushadi.

Sanoat miqyosida quritishning quyidagi usullari qo'llaniladi: kontaktli, konvektiv, radiatsion, dielektrik va sublimatsion. To'qimachilik sanoatida kontaktli, konvektiv usullar keng qo'llaniladi va ularda havo issiqlik va namlik tashuvchi vazifasini o'taydi. Polimer meteriallarni quritishda inert gazlar muhitidan keng qo'llanishi ma'lum, chunki bunday muhitda ularning oksidlanishi oldi olinadi.

Ammo to'qimachilik mahsulotlarini quritishda keng tarqalgan muhit havo bo'lganligi uchun havo holatini belgilovchi parametrlarni ko'rib o'tamiz.

1. Absolut namlik  $\rho_{abs}$  – 1 m<sup>3</sup> nam havo hajmidagi suv bug'i miqdori (N/m<sup>3</sup>).

2. Nisbiy namlik  $\varphi$  – havo absolut namligining, to'yinish payitidagi absolut namlikka nisbati:

$$\varphi = \frac{\rho_h}{\rho_i}.$$

Bu yerda:  $\rho$  – to'yingan suv bug'ining zichligi, kg/m<sup>3</sup>;  
 $\rho_i$  – suv bug'ining zichligi, kg/m<sup>3</sup>;

3. Shudring nuqtasi. Havoning o'zgarmas nam saqlash parametrida sovishi, uning suv bug'lari bilan butunlay to'yinishi natijasida havo yoki gaz tarkibidagi suv bug'larining kondensatsiyalanishi ro'y beradi. Ushbu harorat shudring nuqtasi deb nomlanadi.

4. Bug'-havo muhiti nam saqlash d g/kg bilan ifodalanadi va u 1 kg quruq havoga to'g'ri keluvchi grammlarda hisoblangan bug' miqdori bilan aniqlanadi va havodagi bug'ning portsial bosimi Rp bilan quyidagi bog'liqlik bilan bog'langan:

$$d = 622 \frac{P_h}{P_b - P_n} \text{ g/kg.}$$

$R_b = 745$  mm sim. ust. sharoitida tarkibida 1 kg quruq havo bo'lgan nam havo hajmi:

$$V_w = 4,65 \cdot 10^{-6} (622 + d)(273 + t) \text{ m}^3/\text{kg.}$$

1 kg nam havoga hisoblagandagi solishtirma hajm:

$$V = \frac{1000P}{1000 + d} \text{ m}^3/\text{kg}.$$

$$\text{Nam havo zichligi: } \gamma = \frac{1}{V} = 0,289 \cdot \frac{P}{273 + t} \cdot \frac{1000 + d}{622 + d} \text{ kg/m}^3.$$

$$R_b = 745 \text{ mm sim. ust. bo'lganda: } \gamma = \frac{215}{273 + d} \cdot \frac{1000 + d}{622 + d} \text{ kg/m}^3.$$

Tarkibida 1 kg quruq havo bo'lgan nam havoning issiqlik sig'imi quyidagicha hisoblanadi:

$$S_{v1v} = 0,24 + 0,47 \cdot \frac{d}{1000} \text{ kkal/kg } ^\circ\text{C}.$$

Odatda, bug'lash kameralaridagi bug'-havo tarkibi a ko'rsatkich bilan ifodalanadi. U o'zida 1 kg bug' tutgan to'yingan havodagi havo miqdorining grammlardagi miqdoridir. Agar bug' yoki havoning portsial bosimi ma'lum bo'lsa, a quyidagi ifodadan aniqlanadi:

$$a = \frac{\gamma}{V} \cdot 1000 \text{ g/kg}.$$

Nam havo tarkibidagi havo va bug' o'rtaсидаги bog'liqlik quyidagi ifoda bilan belgilanadi:

$$a = 106 \cdot d^{-1}.$$

Bug'-havo tarkibidagi kislorod miqdori esa  $a_1 = \frac{\gamma}{V} \cdot 0,232 \cdot 1000 \text{ g/kg}$  ifodasi bilan aniqlanadi.

Quritish jarayonining tezligi va bug' yoki bug'-havo muhitidagi matoning provard namligi muhitning to'inishiga, boshqacha aytganda, muhitni тү solishtirma namligiga bog'liq:

$$\phi = \frac{P}{P_1} \cdot 100 \text{ \%}.$$

Bu yerda:  $P_1$  – bug'-havo muhitidagi bug'ning portsial bosimi;  $P_1$  – muhit harorati tm dagi to'yingan bug'ning bosimi.

## Nam havoning issiqlik tutishi

Nam havoning entalpiyasi quruq havo bilan shu nam havoda bo'lgan suv bug'inining entalpiyalari yig'indisiga teng. Tarkibida 1 kg quruq havo tutgan va namlik miqdori d g/kg bo'lgan nam havoning entalpiyasi quyidagi bog'liqlikdan topiladi:

$$J = C_{ph} \cdot t + \frac{d}{1000} \cdot i_p \quad \text{kDj/kg};$$

Bu yerda:  $S_{ph}$  – quruq havoning issiqlik sig'imi; t – havo harorati;  $i_p$  – qizdirilgan bug' entalpiyasi.

$$I_p = r + S_p t; r = \text{bug' entalpiyasi, } 2493 \text{ kdj/kg.}$$

## 2. Mato parametrlari

Mato quyidagi uchta parametr bilan ifodalanadi: 1 m<sup>2</sup> maydonining og'irligi, harorati, namligi va, albatta, qaysi toladan ishlanganligi ko'rsatiladi. Uning namligi asosiy teplofizik va texnologik parametri hisoblanadi. Oldin ta'kidlab o'tganimizdek, bog'langan namlik fizika-kimyoviy bog'lar bilan ushlab turiladi. Tabiiy polimerlar asosidagi materiallarda bu miqdor 20% gacha yetadi. To'yingan nam havoda yoki to'yingan bug'da mato namlikni uzliksiz yutadi. Namlik oshishi bilan, namlikni yutilish tezligi sekinlashadi. Yutilishning tugatilish chegarasini aniq o'rnatishning imkoniyati yo'q, chunki namlikni yutilishi bilan material geometriyasi o'zgaradi, bu bug' sorbsiyasini osonlashtiradi. Bunda osmos tufayli namlik material g'ovaklaridan uning ichki yacheykalariga harakatlanadi. Bu effektlar ta'sirida to'yingan bug'dan namlikning materialga sorbsi-

yasi sekin-asta davom etaveradi. To'yangan bug' sorbsiyasi hisobiga erishilgan namlik maksimal gigroskopik namlik deyiladi. Gigroskopik namlik deyilganda, materialning shunday namligi tushuniladiki, bu holatda to'yangan bug' yutilishi shunchalik sekinki, uni tugagan deb qabul qilish mumkin. Tabiiy polimerlar asosidagi tolalar uchun maksimal gigroskopik namlik 25 – 35%, ni, sintetik tolalar uchun 2 – 10 % ni tashkil etadi.

Material namligi deb absolut quruq material massa birligi G<sub>c</sub> ga to'g'ri keladigan namlik massasi W ga aytildi:

$$\omega = \frac{W}{G_c} \cdot 100 \text{ \%}.$$

Suv va bug'ning muvozanat holati uning bosimi va harorati bilan belgilanadi. Materialdag'i namlik va uning atrofidagi bug' o'rta sidagi molekular-dinamik muvozanat nafaqat bug'ning harorati va bosimi bilan, balki material molekulari bilan namlik o'rta sidagi qo'shimcha bog'lanish kuchlari, kapillar kuchlar va kimyoviy sorbsiya kuchlari bilan belgilanadi. Shuning uchun nam material ustidagi bug' bosimi toza suv ustidagi bosimdan kichik, material gigroskopik namlik miqdoridan ortiq namlanganda, ular tenglashadi.

Materialning gigroskopik namlikdan kam bo'lган namligi ma'lum haroratli va bosimli bug' bilan muvozanat holatiga to'g'ri keladi. Bu harorat va bosimga nisbatan muvozanat namlik deb ataladi. Bu degani, agar quruq yoki ho'l material bug' harorati va bosimi ma'lum bug'-havo yoki bug' muhitiga joylashtirilsa, biron vaqt dan so'ng material namligi shu muhit uchun muvozanat holatiga keladi.

Bu muvozanatga erishish vaqt shu muhit harorati, namligi va tezligiga bog'liq. Bo'z ip-gazlamasi  $\varphi = 75\%$  va harorati  $20^\circ\text{C}$  bo'lgan harakatsiz havoda 50 soatdan so'ng muvozanatga erishadi.  $106^\circ\text{C}$  haroratda  $\varphi = 81\%$  ga ega bo'lgan atmosfera bosimidagi havoda esa muvozanatga 5 daqiqada erishadi. To'yinish darajasi  $\varphi = 100\%$  va harorati  $20^\circ\text{C}$  bo'lgan havoda namlanish 300 soatda tugaydi; bunda ip-gazlamaning namligi  $28 - 29,5\%$  ni tashkil qiladi. Toza bug'da  $\varphi = 100\%$  ( $100^\circ\text{C}$ ) sharoitida muvozanat tugal-langanligini aniqlab bo'lmaydi. Muvozanat namligini  $\varphi$  va harorat bo'yicha foizda quyidagi formulalar yordamida aniqlash mumkin:

Oqartirilgan ip-gazlama uchun:

$$\omega_p = (7,4 - 0,01r) \sqrt{\frac{\varphi}{110 - \varphi}}.$$

Viskoza matosi uchun:

$$\omega_p = (12 + 0,05r) \sqrt{\frac{\varphi}{100 - \varphi}}.$$

Jun matosi uchun:

$$\omega_p = (16 - 0,08r) \sqrt{\frac{\varphi}{130 - \varphi}}.$$

Tabiiy matosi uchun:

$$\omega_p = (8 - 0,05r) \sqrt{\frac{\varphi}{100 - \varphi}}.$$

Bu formulalar yordamida  $\omega_p$  ning yaqinlashgan miqdorini hisoblash mumkin. Matoning har bir partiyasi va ishllov turi uchun esa uning aniq miqdorini faqat tajriba orqali aniqlash imkonli bor.

Xonadagi muhit parametrlaridagi havo bilan  $\phi = 60 - 65\%$ ,  $t = 20^{\circ}$  muvozanatda turgan mato havoda qu-ruq deb yuritiladi, uning namligi esa konditsion namlik deyiladi. Quyida har xil matolarning konditsion namligi foizda keltirilgan: ip-gazlama – 6,5 – 8,5; tabiiy ipak matosi – 8,0 – 9,0; viskoza matosi – 11,5 – 13,5; atsetat matosi – 5,7 – 6,5; jun matosi – 13,0 – 18,0; lavsan mato-si – 0,4 – 0,5; kapron matosi – 3,5 – 4,5.

Davlat standarti – GOSTlarda konditsion namlik  $\omega_*$  sharoitida matoning  $1 \text{ m}^2$  maydonining og'irligi V keltiriladi. Quyida foizlarda ba'zi matolar uchun  $\omega_*$  miqdori keltirilgan:

Ip-gazlama – 7; mayin jun matosi – 18; tabiiy ipak matosi – 8,5; qo'pol jun matosi – 16; vikoza matosi – 11.

$1 \text{ m}^2$  absolut quruq mato massasi V, quyidagi formuladan aniqlanishi mumkin:

$$V = V_* \frac{100}{100 + \omega_*} .$$

Shimdirilib, so'ng suvi oqib tushgan matoning namligi 250 – 300% ni, siqish jarayonidan so'ng bu miqdor 80 – 100% gacha kamayadi (sintetik toladan tayyorlangan matolar uchun 30 – 50 % gacha). Bu qoldiq namlik faqat quritish orqali chiqariladi. Quritilgan matoning namligi matoni tashkil qiluvchi polimerning konditsion namligiga teng bo'lishi kerak.

Boshlang'ich massasi  $G^1$  va namligi  $\omega_1$  bo'lgan matoning  $\omega_2$  namligidagi massasi  $G^2$  quyidagi formuladan aniqlanadi:

$$G_2 = G_1 \frac{100 + \omega_2}{100 + \omega_1} \text{ kg.}$$

Matoning issiqlik sig'imi: Sellyuloza asosidagi absolut quruq matoning issiqlik sig'imi –  $C_{\text{is}} = 0,30 \text{ kkal/kg grad.}$ ; sintetik toladan va jundan tayyorlangan matolar uchun bu ko'rsatkich  $0,36 \text{ kkal/kg grad.}$ ; shisha tolsi uchun  $0,2 \text{ kkal/kg grad.}$  ga teng. Tarkibida  $1 \text{ kg}$  absolut quruq tola bo'lgan ho'l matoning issiqlik sig'imi –  $C_{\text{nam}} = C_{\text{m}} + 0,01$   $\omega$   $1 \text{ kg}$  ho'l matoning issiqlik sig'imi –  $C_{\text{m}} = \frac{C_{\text{is}} + 0,01\omega}{1+0,01\omega}$ ; texnik hisoblarda Sm ni  $0,33 \text{ kkal/kg grad.}$  ga teng deb qabul qilish mumkin.

Materialni siqish darajasi: Matoning "namligi" va "siqish darajasi" tushunchalari aynan bir xil emas. Matoni siqish darajasi deganda, siqilgan mato og'irligi orttirma-sining matoning siqilgandan keyingi og'irligiga nisbati tushiniladi:

$$V_{\text{m}} = \frac{G_{\text{s}, \text{gacha}} - G_{\text{s}, \text{maz}}}{{G}_{\text{s}, \text{maz}}} \cdot 100\%$$

Agar quruq matoning namligi siqilguncha  $\omega_1$  bo'lsa, Vsiq siqish darajasigacha siqilgandan keyingi namligi  $\omega_2$  quyidagiga teng bo'ladi:

$$\omega_2 = V_{\text{m}} \left( 1 + \frac{\omega_1}{100} \right) + \omega_1 .$$

Shimdirish oldidan mato namligi uning konditsion namligiga yaqin.

Pardozlash jarayonida matoga tarkibida kimyoviy birikmalar bor ishchi eritmalar shimdiriladi. Shu tufayli doimiy og'irligacha quritilgan mato namunalarida quruq kimyoviy moddalar bo'ladi. Shuning uchun siqish darajasi ko'rsatkichiga kimyoviy moddalar og'irligi ham kiradi. Agar matoning boshlang'ich va provard namligi ma'lum

bo'lsa, u holda siqish darajasi quyidagi formuladan aniqlanadi:

$$V_{\text{сн}} = \frac{(\omega_1 - \omega_0)(1-C)}{a(100 - C\omega_1)} \cdot 100\% .$$

Bu yerda  $a = 1 + \frac{\omega_0}{100}$ ;  $S = \frac{G_{\text{сп}}}{G_{\infty}}$  – eritmadagi kimyoviy moddalarning massasi.

Agar matoni siqish darajasi va boshlang'ich namligi ma'lum bo'lsa, u holda matoning siqilgandan keyingi namligi quyidagi formula asosida aniqlanadi:

$$\omega_1 = \frac{V_{\text{сп}} \cdot a + \omega_0(1+C)}{CV_{\text{сп}} + 100(1+C)} \cdot 100\% .$$

Teplofizik hisoblar uchun matoning yagona parametri bo'lib uning absolut quruq qismi birligiga to'g'ri keluvchi suv massasi sifatida aniqlanuvchi namligi xizmat qiladi. Odatda, material namligi quyida keltirilgan foizlarga teng:

- so'rish mashinasidan so'ng – 100 – 120;
- plusovkadan so'ng – 80 – 100;
- kalandrdan so'ng – 60 – 70.

Mato parametrlarining bug'-havo muhitida o'zgarishi: Muvozanat holatida, mato bug'-havo muhitidagi  $\varphi$  va tmga munosib muvozanat harorati va namlikka ega bo'ladi. Ammo muvozanat holati ma'lum vaqtidan so'ng paydo bo'ladi. Matoning bug'-havo muhitiga kirishidan oldingi parametrlarini  $t_0$ ,  $\omega_0$  deb belgilaymiz. Agar mato harorati shudring tochkasidan kam bo'lsa, u holda mato yuzasida suv bug'i kondensatsiyalanadi. Kondensatsiya issiqligi hisobiga mato harorati shudring tochkasigacha tez ko'tariladi; bu holda uning namligi  $\omega_1$  gacha oshadi.

$$\omega_1 = \frac{C_{\text{нн}}(t_r - t_0)}{r} \cdot 100 + \omega_0 \quad \%,$$

Bu yerda:  $S_{\text{нн}} = 0,33 + 0,01 \omega_0$  – ho'l matoning 1 kg absolut quruq matoga nisbatan hisoblangan issiqlik sig'imi;  $t_r$  – shudring tochka harorati  $^{\circ}\text{C}$ ;  $t_0$  – matoning boshlang'ich harorati;  $r$  – 1 kg. namlikga hisoblangan sorbsiya issiqligi.

Sorbsiya issiqligi kondensatsiya issiqligi va namligi materialning quruq qismi bilan bog'lanish issiqligi yig'indisidan hosil bo'ladi. Matoning gigroskopik namlikdan yuqori namlikka ega bo'lishi issiqlik ajrashi bilan bog'liq bo'lmay, balki kapillar bo'shliqlarning suv bilan mexanik to'lishi hisobiga sodir bo'ladi. O'ta quritilgan va sex sharoitida oz vaqt ushlab turilgan mato namligi 2 – 3% ga teng bo'ladi. Bunday matoning namlanishida namlikning uning quruq qismi bilan bog'lanish issiqligi matoning 1 kg quruq qismi hisobiga 6 – 7 kkal yoki 1 kg yutilgan namlik hisobiga 40 kkal issiqlik to'g'ri keladi.  $100^{\circ}\text{C}$  da kondensatsiya issiqligi 539 kkal/kg ni tashkil qiladi. Agar mato namligi 1 – 3% bo'lsa, bog'lanish issiqligi hisobga olganda quruq matoning namlanishidagi sorbsiyaning umumiy issiqligini 560 kkal/kg ga teng deb qabul qilish mumkin.

Ho'l mato isitilganda, kondensatsiya hisobiga 540 kkal/kg issiqlik ajraladi. Mato boshlang'ich namlik  $\omega_0$  dan muvozanat namligi  $\omega_p$ , gacha namlanganda, matoning 1 kg quruq qismi hisobiga ajraladigan issiqlik  $Q$  quyidagi formuladan aniqlanadi:


$$Q = 0.01 (\omega_p - \omega_0) r - (0.33 + 0.01 \omega_0)(t_1 - t_0).$$

## **2- §. Quritish jihozlari**

### **1. Materialdan namlikni mexanik usulda chiqaruvchi jihozlar**

Ho'l ishlov olgan to'qilgan matodan, trikotaj polotnosidan, uzlusiz tola va lentadan namlikni chiqarish uchun davriy va uzlusiz ishlovchi jihozlardan foydalilanildi. Sentrifuga davriy ishlaydigan jihoz bo'lib, unda mahsulot markazdan qochma kuch ta'sirida suvsizlantiriladi. Uzlusiz ishlaydigan jihozlar qatoriga siqish vallari, vakuum ostida namlikni so'ravchi va siqilgan havo yordamida namlikni chiqaruvchi mashinalar kiradi. Vallar orasida siqish usuli mashina konstruksiyasining uncha murakkab emasligi va uzlusiz ishlashi tufayli ishlab chiqarishda keng tarqalgan. Bunday mashinalar ishlab chiqarishda "suv yoki siqish kalandrlari" nomini olgan. Ular tarkibida ikkita, uchta hatto beshta ishchi vallar bo'lishi mumkin; vallar soni oshishi bilan, namlikni chiqarish mato kengligi bo'yicha bir tekisligi oshadi, ammo siqish darajasi oshmasligi mumkin. Rossiyada ishchi kengligi 1200, 1800 va 2200 mm bo'lган KV markali ikki valli siqish mashinasi ishlab chiqarilgan, uning texnologik sxemasi 152- rasmda keltirilgan.

Ishlash prinsipi: mato jguti urgich (1), mato rostlovchi (2), va mato yo'naltiruchilardan o'tish davomida yoyilgan holatga keltiriladi. Uning bu mexanizmlardan o'tishini tortuvchi valyan (5) ta'minlaydi. Kengligi bo'yicha yoyilgan va valyan (5)dan o'tgan mato issiq suv quyilgan vanna (6)



152- rasm. KV – 120 siqish mashinasining sxemasi:


1 – urgich; 2 – mato rostlovchi;  
3 – ma-to yo'naltiruvchi; 4 – jgut ushlovchi; 5 – valyan (val);  
6 – vanna; 7 – vintsimon mato rostlovchi; 8 – yurituvchili val;  
9 – siquvchi val.

yoki agregat tarkibida ishlashi mumkin. Mashina vannadagi suv haroratini moslovchi va nazorat qiluvchi, vallarning siqilish darajasini moslovchi sistemalar bilan jihozlangan. Mashinadan matoning o'tish tezligi 100 – 180 m/min ni tashkil qiladi.

153- rasmda "Goller" (Germaniya) firmasining "Goller FXT" siqish mashinasi sxemasi keltirilgan.

Mashinaga matoni kiritish mexanizmi roliklarining diametri 150 mm bo'lib, bu mexanizm matoning yoyilgan holda, mashina markaziga mos berilishini ta'minlaydi. Mato yo'naltiruvchi (2)ning roliklarining holati va ishlashi

ga o'rnatilgan roliklardan suvga cho'kkан holda o'tib chayqaladi. So'ng bukilgan joyi bo'lsa, mato rostlovchi (7)da rostlanib, gorizontal o'rnatilgan siqish vallari (8 va 9) orasiga kiradi va siqiladi. Val (8)ning podshipnik korpusi mashina gardishiga mahkamlangan bo'lib, u yurituvchidan harakat oladi; uning yuzasiga misdan tayyorlangan qoplama kiygizilgan. Val (9)ni esa val (8)ga siqish mexanizmi siqib turadi va uning yuzasi elastik qoplamaga ega. Tarkibida 70 – 90% namlik bo'lgan siqilgan mato aravachaga taxlanadi. Bu mashina individual




153- rasm. "Goller" firmasi siqish mashinasining texnologik sxemasi:

1 – mato kiritish mexanizmlari; 2 – mato yo'naltiruvchi; 3 – vanna; 4 – siqish vallari; 5 – mashina gardishi; 6 – rolikli kompensator; 7 – mato taxlagich; 8 – mato o'rami.

elektron boshqaruvga ega. Vanna (3) bevosida va bilvosi-ta isitish sistemasiga ega va undagi suvning sathi hamda harorati avtomatik ravishda nazorat qilinadi. Yurituvchi bilan bog'langan, markazda joylashgan valning diametri 300 mm bo'lib, u qattiq yuzaga ega. Unga yuqori va pastki diametri 320 mm bo'lgan elastik yuzaga ega vallar siqilib turadi. Vallarning o'zaro siqilib turishini ta'minlovchi pnevmomexanizm mashinaning 2000 mm kengligida 50 kg/sm siqish darajasini ta'minlaydi. Siqilib o'tgan mato o'rash mexanizmi yordamida rulon tarzida o'ralishi yoki mato taxlovchi mexanizm yordamida aravachaga taxlani-shi mumkin. Bu mashina quritish mashinasini bilan agregat-langan holda ham ishlashi mumkin. "Goller" firmasi ning shunday agregati sxemasi 154- rasmida keltiril-gan.

Ho'l mato kiritish mex-anizmlaridan o'tib, siqish mashinasining yuqoridagi va o'rtadagi vallari orasi-




154- rasm Quritish aggregatining sxemasi:

1 – mato; 2 – siqish mashinasi; 3 – quritish mashinasini

ga kiritiladi; namlikdan siqilgan mato, quritish mashinasi-ning barabanlari yuzasiga tekkan holda, yuqoridan pastga harakatlanadi. Ikkinchı kolonna barabanlarida esa pastdan yuqoriga qarab harakatlanib, yuqoridagi baraban yuzasini rolikli kompensator orqali tark etadi.

## Sentrifuga

Tola, mato va trikotaj mahsulotlarini suvsizlantirish uchun markasi va o'lchamlari har xil bo'lgan sentrifugalar- dan keng foydalaniladi. Sentrifugada mahsulotni suvsizlan- tirish uning ho'l mato (tola) solingan korzinasining aylani- shi natijasida hosil bo'ladigan markazdan qochma kuchdan foydalanishga asoslangan. Sentrifuganing asosiy konstruk- tiv elementi bu uning korzinasidir. U olinadigan yoki valga mahkam o'rnatilgan bo'lishi mumkin. Olinadigan korzinali sentrifugalarning ish unumi yuqoriroq, chunki unga mate- rialni yuklash va siqilgan materialni olish mashina tashqa- risida bajarilishi mumkin. Unda mashina bir necha korzina bilan ta'minlangan bo'lishi lozim. Bunday korzinaga ma- terialni yuklash va olishda mexanizmlardan foydalanib, ish unumini oshirish imkonibor. Sentrifuga markazdan qoch- ma kuch ta'sirida ishlovchi mashina bo'lganligi tufayli, unga materialni korzina aylanasi bo'yicha bir tekisda yuk- lash o'ta muhimdir. Bundan tashqari, yuklanayotgan ma- terial miqdori mashina pasportida ko'rsatilgan miqdordan oshmasligi lozim, aks holda, avariya holati vujudga kelishi mumkin. Sentrifuganing tuzilishi va ishlash prinsipini 155- rasmda keltirilgan sxema asosida ko'rib chiqamiz.



155- rasm. FMK – 1529 K – 1 markali sentrifuga sxemasi:

1 – plita; 2 – vertikal tirkak; 3 – elektrovdvigatel; 4 – bufer mehanizm; 5 – tirkak; 6 – asosiy val; 7 – qopqoq; 8 – qo'ng'iroq shakldagi konus; 9 – korzina; 10 – gardish; 11 – shtanga; 12 – stanina; 13 – tormozlovchi shkiv; 14 – yurituvchi shkiv.

**Tuzilishi va ishlash prinsipi:** Bu sentrifuga tabiiy va kimyoviy tolalarни suvsizlantirishga mo'ljallangan. Sentrifuga o'zining uchta vertikal tirkaklari (2) bilan anker boltlari yordamida fundamentga mahkamlangan plita (1) ga o'rnatiladi. Har bir vertikal tirkak ichidagi shtanga (11) ga stanina (12) osib qo'yilgan. Stanina, o'z navbatida, tirkak (5)ni ushlab turadi. Tirkak ichiga sharokopodshipniklar yordamida asosiy val (6) o'rnatiladi va uning yuqori qismiga qo'ng'iroq shakldagi konus (8) mahkamlanadi hamda u, o'z navbatida, sentrifuga korzinasi (9)ni ushlab turadi. Korzina silindr shaklida bo'lib, uning devori teshiklarga ega. Qopqoq (7) bilan yopiluvchi sentrifuga korpusi (10) ham staninaga o'rnatilgan. Qopqoqning oson ochilib-yopilishi uchun bufer mehanizm (4) xizmat qiladi. Mashinani qopqog'i ochiqligida ishga tushirishdan yoki ishlayotgan holatda qopqoqning ochilishidan saqlovchi elektrome-

xanik blokiratorga ega. Asosiy val (6)ning pastki qismiga tormozlovchi (13) va yurituvchi (14) shkivlar mahkamlangan. 17 kWt quvvatga ega elektrodvigatel tasmali uzatma orqali korzinani 650 ayl/min tezlikda harakatlantiradi. Mashina elektrodvigatelia to'xtash komandasini berilgan dan so'ng, elektromagnit bilan ta'minlangan tormozlovchi shkiv mashina korzinasini aylanishdan to'xtatadi.


Suvsizlantirilishi lozim bo'lgan material mashina korzinasi yukanadi (1100 kg gacha) va qopqoq berkitiladi. Korzinaning aylanishi natijasida material siqiladi va ajralib chiqqan suv stanicining pastki qismidan patrubok orqali mashinadan chiqariladi. Korzinaning aylanishi natijasida markazdan qochma kuch miqdori 500 – 1000 kN ni tashkil qiladi, natijada material korzina devorlariga siqiladi va undan suv ajralib chiqadi. Ta'sir etuvchi kuch miqdori F ni quyidagi formula orqali hisoblash mumkin:

$$F = \frac{mv^2}{r} = \frac{4m\pi^2 r^2 n^2}{3600r} = \frac{mrn}{91,3}$$

Bu yerda: m – kg da material massasi; v – korzinaning aylanma tezligi, m/sek; r – korzina radiusi, m; n – korzinaning aylanish tezligi, ayl/min.

Ko'rinish turibdiki, markazdan qochma kuch miqdori ko'proq korzinaning aylanish tezligiga bog'liq.

Korzinasi olinmaydigan sentrifugadan foydalanilganda, materialni unga yuklash va siqilgan materialni olish jarayonini tezlatish hamda qo'l kuchini ishlab chiqarishda kamaytirish uchun statsionar o'rnatilgan yuklash mexanizmlari ishlatiladi. Shunday mexanizmli sentrifuganing umumiy ko'rinishi 156- rasmda keltirilgan.



156- rasm. Statsionar yuklash-olish mexanizmi:

1 – yo'naltiruvchi halqa; 2 – baraban; 3 – elektrodvigatel; 4 – ichki truba;  
5 – flanes; 6 – tashqi truba.

Materialni mashina korzinasiga yuklash-olish mexanizmining asosiy elementlarini fundamentga mahkamlangan tashqi truba (6), uning ichiga kiruvchi kichik diametrali truba (4) va kronshteynga o'matilgan baraban (2) tashkil qiladi.

Aravachadan olingen material jguti yo'naltiruvchi halqadan o'tkaziladi va baraban (3) ustiga tashlanadi, so'ng mashina korzinasiga tushiriladi. Barabanning yurituvchi elektrodvigateldan harakat olishi natijasida, ishqalanish kuchi ta'sirida material aravachadan tortib olinadi va korzinaga yuklaniladi. Ishlov olgan matoni korzinadan tortib olishda esa baraban boshqa tarafga aylanadi va material jguti aravachaga yuklanadi. Truba (4)ning o'z o'qi atrofida aylanishi barabanni mashina ustidan boshqa tomonga bursish imkonini beradi.


Mato sentirufugada siqilgandan so'ng, materialni tashkil qiluvchi polimer tabiatiga qarab, unda havoda quruq mate-

rial og'irligiga nisbatan foiz hisobida quyida keltirilgan har xil miqdordagi namlik qoladi: ip-gazlamada – 55 – 60%; merserlangan ip-gazlamada – 65 – 70%; viskoza tolasida – 85 – 90%; jun va yarim jun matolarda – 70 – 75% hamda kapron tolalarida – 18 – 22%.

## Vakuum va siqilgan havo yordamida mahsulotni suvsizlantiruvchi jihozlar

Ho'l materialdan yoki bobinaga o'rالган ip qatlamidan havoni jadal so'rib olish yoki siqilgan havoni o'tkazish ulardagi qo'pol kapillar namlikni chiqarish imkonini beradi. Buning uchun materialning ikki tarafida bosim farqini yaratish lozim. Shu usul bilan siqish darajasining 90 – 110% bo'lishiga erishish mumkin. Materialni vakuum uskunada suvsizlantirish uchun u yoyilgan holatda so'ruvchi saplo ustidan o'tkaziladi. Saplo ichida vakkum nasos yordamida 600 – 700 mm sim. ust. darajasida havo siyraklashuvi (vakuum) hosil qilinadi, natijada tashqaridan havo oqimi mato qalinligidan o'tadi va o'zi bilan suv tomchilarini olib ketadi. So'ngra bu havo saploga biriktirilgan truba orqali filtrga yuboriladi va to'plovchi apparatda to'planadi hamda undan sistema tashqarisiga chiqariladi. 157- rasmida tirkishsimon saplo (157 – A rasm) va setkali saplodan (157 – B rasm) mato o'tish sxemalari keltirilgan. Birinchi saplodan og'ir va o'rta vazndagi matolar uchun foydalansila, ikkinchi saplodan esa yengil matolar uchun foydalansiladi.

Vakuum so'rish qurilmasi tirkishsimon saploga ega bo'lib, uning ustidan mato yoyilgan holatda o'tkaziladi.




157- rasm. Vakuum so'rish johozi:

A – tirqishli sapli; B – setkali saplo.

1 – vakuum silindr; 2 – tirqish; 3 – valik; 4 – zichlagich; 5 – silindr.

Uning mato qoplamagan chetlaridan havo so'rilmasligi uchun val (3)ga mahkamlangan rezinali "ko'ylagi" bor. Yuzasi teshiklangan silindr (5) bilan saplo orasidan havo so'rilmasligi uchun rezina zichlagichi (4) tirqish korpusi ariqchasiga joylashtirilgan va u prujina ta'sirida silindr ichki yuzasiga itarilib turadi. Teshikli silindrning aylanib turishi mato tarangligini kamaytirish imkonini yaratadi.



158- rasm. MOV – 180 mashinasining texnologik sxemasi:

1 – mato; 2 – mato kengaytiruvchi;  
3 – so'rish golovkasi; 4 – tortish qu-rilmasi.

Bunday so'rish mashinalarida mato siqish vallariga nisbatan birmuncha tekis suvsizlanadi.

Hozirgi zamon bobinada ip quritish apparatlarida quritish jarayonidan oldin ip qatlamidan siqilgan havo haydash yo'li bilan mato suvsizlantiriladi. 158- rasmda Rossiyaning "Ivtexmash" firmasi yaratgan va mashinalar tizimi tarkibida ishlashga mo'ljallangan MOV – 180 so'rish mashinasining sxemasi keltirilgan. Bu mashinaning yakka ishlaydigan, matoni rulonga o'rash va aravachaga taxlash mexanizmli turlari ham mavjud.

### 23- jadval

Ishlov olayotgan mato xarakteriatiksi

Mato ko'rsatkichi	Ko'rsatkich miqdori
Kengligi, sm.	160 gacha
Massasi, g/m <sup>2</sup>	950 gacha
Havoda quruq holatga nisbatan boshlang'ich namlik, %	250 gacha
Havoda quruq holatga nisbatan qoldiq namlik, %	30 – 130
Mato kengligi bo'yicha namlikni noteksligi, %	1,5
Uzunligi bo'yicha maksimal cho'zilish, %	1,0

### 24- jadval


MOV rusumdag'i mashinalarning texnik xarakteristikalarini

Ko'rsatkichlar	MOV-180	MOV-180 – 1	MOV-180 – 2
Ishchi kengligi, mm	1800	1800	1800
Mato tezligi, m/min	8-80	8-80	8-80

Elektrosvigatellarning o'rnatilgan quvati, kVt: asosiy yurituvchini vakuum nasosniki	5,5 15	5,5 15	5,5 15
Gabarit o'lchamlari, mm: uzunligi kengligi balandligi	1100 3100 1520	3620 3100 2850	3150 3100 2850
Massasi, kg.	1410	2900	2840

## 2. To'qimachilik yarim mahsulotlarini qurituvchi agregat

To'qimachilik yarim mahsulotlari bo'yash va yuvish jarayonidan so'ng, yuqorida ta'kidlanganidek, sentrifugada siqiladi, natijada ozod holdagi suvning asosiy qismi materialdan chiqib ketadi. Ammo namlikning bir qismi materialda qoladi va u faqat quritish orqali chiqariladi. Bunday yarim mahsulotlarni qurituvchi quritgichning tuzilishi va ishslash prinsipini "Tiss" firmasining davriy ishlaydigan quritgichi misolida ko'rib chiqamiz. Bu firma havo berk sistemada sirkulatsiya qilinadigan bunday quritgich konstruksiyasini 1953- yili yaratgan va patentlagan, shundan beri uning konstruksiyasi takomillashtirilmoqda. Hozirda ishlab chiqarilayotgan quritgichlar komputer boshqaruviiga ega bo'lib, energiya, suv sarfi minimumga keltirilgan. Quritgichning vertikal va gorizontal apparatlar bilan jihozlangan turlari mijozlarga taqdim etilmoqda. 159- rasmda vertikal apparatli quritgichning sxemasi keltirilgan.



159- rasm. "Tiss" firmasi quritgichining sxemasi:

- 1 – quritish apparati;
- 2 – havo isitgichi;
- 3 – havo sovitgichi;
- 4 – ventilator; 5 – bobinalar o'matilgan tutqich.


Ishlash prinsipi va tuzilishi: agregatning hamma konstruktiv qismlari zanglamaydigan po'lat markasidan tayyorlangan. Mahsulot tutqich (5)da quritish apparati (1)ga yuklanib, qopqog'i berkitilib zichlanadi. Shundan so'ng vantilator (4) sovitgich (3)dan kelayotgan havoni isitgicha haydaydi. Talab qilingan haroratgacha qizdirilgan havoni apparat ichidagi tutqichning ichiga yoki apparat ichiga yo'llaydi. Havo yo'nalishi ma'lum belgilangan vaqtida programma asosida o'zgartirib turiladi, bu mahsulotning qalinligi bo'yicha bir tekisda qurishini ta'minlaydi. Ishlab bo'lgan havo sovitgich (3)da sovitilib, undan suv tomchilari ajratiladi va shundan so'ng yana ventilator orqali ichitgichga yuboriladi, shu tarzda sikl qaytarilaveradi. Bu agregatning o'ziga xosligi shundaki, yuklangan materialdan bosim ostida berilayotgan havo ta'sirida ozod holdagi suvning bir qismi materialdan siqib chiqariladi, bu quritgichning iqtisodiy ko'rsatkichlarini yaxshilaydi. Quyida quritgichning ba'zi ko'rsatkichlari keltirilgan (paxtadan tayyorlangan ip uchun).

## Quritgichning ba'zi ko'rsatkichlari (1kg ip uchun)

Ko'rsat-kichlar	Apparat diametri, mm	Bug' sarfi, kg kg	Sovuq suv sarfi, kg kg	Energiya sarfi, kwt kg
Miqdori	600 – 2500	0.8 (0,3)	5	0,29

\* – agregat tarkibiga bug'dan qayta foydalananadigan uskunalar kiritilganda.

Yuqorida keltirilgan to'qimachilik yarim mahsulotlarini bo'yovchi va qurituvchi davriy ishlaydigan hozirgi zamон jihozlaridan iborat korxonaning loyihasi 160- rasmda keltirilgan.




160- rasm. To'qimachilik yarim mahsulotlarini bo'yash korxonasining loyihasi:

1 – telexizmat bo'limi; 2 – jarayonni boshqaruв bo'limi; 3 – mahsulotni tortish va tutqichga joylash bo'limi; 4 – issiq suv tayyorlash bo'limi; 5 – bo'yash va quritish mashinalari.

### 3. Barabanli quritish mashinasi

Mato kontakt usulida barabanli quritish mashinasida quritiladi. Bu mashina, pardozlash texnologiyasi jarayon-



161- rasm. SBMO mashinasidan matoning o'tish sxemasi:

1 – gardish; 2 – baraban; 3 – mato;  
4 – havo so'rish tuynigi.

larining ketma-ketligida tutgan o'miga qarab, agregatning oxiriga yoki matoni eni bo'yicha kengaytirish mashinasidan oldin o'rnatilishi mumkin. Birinchi holatda u matoni konditsion namligigacha quritadi, ikkinchi holatda esa qoldiq namligi 30 – 40% bo'lguncha quritadi. Mato shunday qoldiq namlikka ega bo'lganda, eni bo'yicha kengaytirish jarayoni kam kuch bilan amalgalashiriladi.

Rossiya Federatsiyasida ishlab chiqarilgan SBMO markali barabanli quritish mashinalari gorizontal o'rnatilgan 8 ta quritish barabanlariga ega va uchuvchi bo'limgan kimyoiy eritmalar bilan shimdirilgan ip-gazlamalarni, viskoza, shtapel va zig'ir tolasidan tayyorlangan matolarni selgitish uchun ishlataladi. Quyida ushbu mashinadan matoning o'tish sxemasi keltirilgan.

### 26- jadval

#### SBMO markali mashinalarning texnik xarakteristikalari

Ko'rsatkichlar	SBMO2 – 8/120	SBMO2 – 8/140	SBMO2 – 8/180	SBMO2 – 8/220
Ishchi kengligi, mm	1200	1400	1800	2200
Ishlov oluvchi matoning maksimal kengligi, sm	105	125	165	205

$1\ m^2$ matoning og'irligi, g	60 – 500	60 – 500	60 – 500	60 – 500
Matoning o'tish tezligi, m/min	25 – 125	25 – 125	25 – 125	25 – 125
Isitish bug'ining bosimi, MPa	0,6 gacha	0,6 gacha	0,6 gacha	0,6 gacha
Qurigich korpusi ichidagi vakuum, MPa	0,001 gacha	0,001 gacha	0,001 gacha	0,001 gacha
Ventilator dvigatelining quvvati, kWt	11	11	11	11
Barabanlar dvigatelining quvvati, kVt	4		4	4
Gabarit o'lchamlari, mm:				
uzunligi	5500	5500	5500	5500
kengligi	3500	3600	4000	4500
balandligi	4500	4500	4500	4500
Massasi, kg	6000	6200	6600	7000


Kontakt kuritish usulini amalga oshiradigan kuritish barabanlari vertikal kolonnada o'rnatilgan kuritgichlar par-dozlash texnologiyasida keng qo'llaniladi.

Quritgichning ishchi organi mashina gardishida shoh-mot shaklida o'rnatilgan silindr-barabanlar bo'lib, ular ichki tarafidan bug' bilan qizdiriladi. Buning uchun barabonlar bug' beruvchi va baraban ichida hosil bo'lувchi kondensatni chiqaruvchi trubalarga ulanadi. Mato silindrarning qizdirilgan yuzasiga tegib quriydi va dazmollanadi. Mato yaxshi dazmollanishi uchun quritish davomida tarang tortilib turilishi kerak, bu esa quritish mashinasini ishlatish doirasini toraytiradi, shu tufayli bu mashinalar.

asosan, ip-gazlamalarni, zig'ir tolasidan tayyorlangan matolar va boshqalarni quritish uchun ishlatiladi. Quritish jarayonida matoning yaxshi dazmollanishi bo'yashda yo'l-yo'l bo'yalish nuqsoni hosil bo'lishining oldini oladi. Mashinada mato silindrilar yuzasiga ikkala tarafi bilan yoki faqat bir tarafi (ich tarafi) bilan tegadigan qilib zapravka qilinishi mumkin.

Rossiya Federatsiyasida ishlab chiqarilgan SBM2 – 20/120 barabanli quritish mashinasining texnologik sxemasi 162- rasmda keltirilgan.

Sxemadan ko'rinish turganidek, mashinada mato ikki tarafidan quritiladi. Mato (5) mashinaning mato kiritish mexanizmlari: rolikli kompensator, mato yo'naltiruvchi, mato yo'llovchi roliklar va yoysimon mato rostlovchidan o'tib, quritish silindri (2)ga keladi. Mato silindrlardan o'tib quriydi va sovitish kamerasi (4)da sovitilib, so'ng mato taxlagich (3) uni aravachaga yoki stolga taxlaydi. Mato baraban yuzasini 2650 burchakda quchoqlab turadi. Chet




162- rasm. SBM2 – 20/120 mashinasining texnologik sxemasi:

1 – havo tortish ventilatori; 2 – baraban; 3 – mato taxlagich; 4 – sovitish kamerasi; 5 – mato; 6 – rolikli tezlik datchigi.

el firmalari ham jahon bozoriga barabanli quritish mashinalarining ko'p turlarini taqdim etmoqda. 163- rasmda "Goller" firmasining barabanli quritish mashinasining sxemasini keltirilgan.

Bu rasmda matoni bir tarafidan qurituvchi mashina sxemasi keltirilgan. Matoni bunday zapravka qilishda zapravka roliklari (5) xizmat qiladi. Firma matoni ikki tarafidan qurituvchi mashinani ham taklif qiladi. Mijozning talabi bilan mashinadagi barabalar soni 1 – 40 ta orasida bo'lishi, qurituvchi silindrlar diametri esa 420, 570 va 800 mm qilib tayyorlanishi mumkin. Ularning yuzalariga maxsus ishlov beriladi yoki teflon qoplamasi bo'ladi. Har qaysi kolonna silindrlari individual yurituvchiga ega va undan oldingi va keyingi mashinalar tezligi bilan moslovchi sistemaga ega. Mashinadan matoning o'tish tezligi 32 – 200 m/min bo'lib, yurituvchi tarkibidagi doimiy tokda ishlovchi elektrodvigatel tezligini o'zgartirish orqali kerakli miqdorini o'rnatish mumkin.




163- rasm. "Goller" firmasi quritish mashinasining sxemasi:

1 – mato; 2 – mato kiritish mexanizmlari; 3 – mashina gardishi; 4 – quritish silindri; 5 – zapravka roliklari; 6 – kompensator – tezlik datchigi; 7 – tayyor mato roligi.


Mashina gardishi ish davrida harakatlanuvchi mashina elementlarida hosil bo'ladigan hamma dinamik kuchlarni qabul qilib oladi. Shuning uchun mashina gardishi dinamik kuchlar ta'siriga, tebranishlarga chidamli bo'lishi, shu bilan birga, yengil va oson yig'ilishi kerak. Harorat ta'sirida sezilarli deformatsiyalanmasligi ham lozim. Gardishga mashinaning harakatlanuvchi elementlari mahkamlanganligi tufayli uning detallari katta aniqlik bilan tayyorlanishi va yig'ilishi talab qilinadi.

Hozirgi zamon barabanli quritish mashinalarining gardishi payvandlash usullari tayyorlangan ramadan iborat bo'lib, unga barabanlar va issiqlik saqlaydigan shitlar mahkamlanadi. Shunday mashina gardishi 164- rasmda keltirilgan. Barabanli quritish mashinasining asosiy ishchi elementi bu quritish silindri – barabandir. SBM rusumidagi mashina barabanining konstruksiyasi 165- rasmda keltirilgan.



164- rasm. SBM – 20 quritish mashinasining yig'ma gardishi:

- 1 – vertikal ustun;
- 2 – ko'ndalang bog'lagich;
- 3 – uzunasiga bog'lagich;
- 4 – baraban podshipnigi gardishi o'rnatiladigan asos.




65- rasm. Quritish mashinasi silindrining konstruksiyasi:

1 – podshipnik korpusi; 2 – baraban obechaykasi; 3 – baraban qopqog'i; 4 – tishli g'ildirak; 5 – sifon; 6 – bug' berish shtutseri; 7 – kondensat chiqarish shtutseri.

Hozirgi zamon barabanli quritish mashinalarida baraban yuzasini qizdirish uchun ishchi bosimi  $588,6 \text{ kN/m}^2$  ( $6 \text{ kgs/sm}^2$ ) bo'lgan bug'dan foydalilanadi. Barabanga bug' berish va hosil bo'lgan kondensatni chiqarish uning bir tarafidagi sapfa orqali amalga oshiriladi, bu mashina konstruksiyasini va unga xizmat ko'rsatishni oddiylashtiradi. Barabanlarga bug' berish va hosil bo'lgan kondensatni chiqarish sistemasi mashinaning muhim elementlarilari biri hisoblanadi. Quyida SBM – 20 mashinasining shunday sistemasining sxemasi keltirilgan.

Bug' liniyasining boshlanishiga zaporniy ventil, himoyalovchi va bug' bosimini moslovchi klapan o'rnatiladi. Mashina fabrikaning bug' liniyasidan ajratilganda va mashina sovitilib, barabanlar ichidagi bug' kondensatga aylan ganda, atmosfera havosini bug' sistemasiga berish uchun xizmat qiladigan vakuum klapan ham bug' liniyasining boshlanishiga o'rnatiladi. Har bir barabanlar kolonnasiga




166- rasm. SMB – 20 mashinasining bug' berish va kondensat chiqarish sistemasi:

1 – bug' liniyasi; 2 – kondensat liniyasi; 3 – zaporniy ventil; 4 – bosim moslagich; 5 – silfonli zaporniy ventil; 6 – himoyalovchi klapan; 7 – manometr; 8 – kondensat chiqaruvchi; 9 – filtr; 10 – quritish silindri.

o'rnatilgan zaporniy ventil (3) yordamida barabanlar yuzasida talab qilingan haroratga erishish uchun beriladigan bug' miqdori rostlab turiladi. Har bir barabanning kondensat liniyasiga shaxsiy kondensat chiqaruvchi o'rnatiladi va u kondensat liniyasiga bug' o'tib ketishidan saqlaydi. Quritish mashinalarida har xil konstruksiyaga ega bo'lgan kondensat chiqaruvchilardan foydalilanadi. Misol tariqasida 167- rasmda keltirilgan kichik o'lchamli, ignasimon klapanli kondensat chiqaruvchining tuzilishi va ishslash prinsipini ko'rib chiqamiz.

Kondensat chapdan o'ngga harakatlanadi. Klapan (7) ning yuqori tarelkasidagi bosim farqi natijasida u ko'tariladi va klapan bilan egar (5) orasidagi halqasimon zazordan kondensat tepadan pastga o'tadi. Kondensat sovuq holatda bo'lganda, klapan doim ko'tarilgan holatda bo'ladi. Harorati to'yingan bug' haroratiga yaqin kondensat chiqarilganda, tarelka yuqorisidagi hajmda kondensatning qaynashi natijasida klapan davriy ravishda egarga o'tiradi; kondensat impulsli ravishda chiqariladi. Kondensat chiq-



167- rasm. Kichik o'chamli kondensat chiqaruvchi:

1 – qopoq; 2 – shayba; 3 – zinchlagich (prokladka); 4 – bolt; 5 – ear; 6 – gardish; 7 – klapan; 8 – yo'nalti – ruvchi silindr; 9 – nazoratchi silindr; 10 – kontrgayka



168- rasm. Quritish barabonlarining bug' berish va kondensat chiqarish tarafidan ko'rinishi:

1 – quritish barabani; 2 – bug' trubasi; 3 – kondensat trubasi.

ruvchiga bug' berilganda, klapan yopiq holatda qoladi. Bug' klapan (7) tarelkasi va nazorat silindri (9) orasidagi halqasimon zazor orqali o'tib, markaziy teshikdan chiqadi. Ammo markaziy kanalning kesimi kichikligi tufayli undan o'tadigan bug' miqdori juda kam. Klapan tarelkasi ostidagi va ustidagi bosim farqi natijasida hosil bo'ladigan kuch klapanni ko'tarishga yetarli emas, shuning uchun klapan ko'tarilmaydi va kondensatga aylanmagan bug' o'tib ketmaydi.

168- rasmda barabanli quritish mashinasining bug' berish va kondensat chiqarish tarafidan ko'rinishi keltirilgan.

#### **4. Barabanli quritish mashinalarini takomillashtirish yo‘nalishlari**


Barabanli quritish mashinalari konstruksiyasini takomillashtirish energiya sarfini kamaytirish va mashina tezligini oshirishga qaratilgan quritish jarayonini jadallashtirishga, shu bilan birga, mato sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi hamda mashinani qo‘llash imkoniyatlarini cheklaydigan omillarni yo‘qotishga qaratilgan. Quritish jarayonini jadallashtirishning imkoniyatlaridan biri bu barabarlarga berilayotgan bug‘ bosimini oshirishdir, shu bilan bir qatorda, silindr dan kondensat va havoni to‘liq siqib chiqarish muhim omil hisoblanadi. Quritish barabarlari yuzasini toza tutish quritish tezligining pasayishi oldini oladi. Ammo, ayniqsa, appretlovchi agregatlar tarkibida ishlovchi quritish mashinalarida baraban yuzasini tozalash ko‘p vaqt tab lab qiladi. Shuning uchun baraban yuzasiga antiadgezion qoplama qoplash bu muammoni hal qiladi. Bunday qoplama materiali sifatida ftoroplast va teflondan foydalanish tavsiya etilgan.

Barabanga bug‘ berish uzellarining nosozligini vaqtida bartaraf etish, quritgichning teploizolatsion qoplamasini si fatini oshirish, uning germetligini ta‘minlash quritish uchun sarflanadiga bug‘ miqdorini kamaytirishning muhim omil laridan hisoblanadi.

Odatda, barabanli quritish mashinalarining tezligi 100 – 120 m/min ni tashkil qiladi. Mashina ishchi tezligini oshirish, uning elementlarining mexanik mustahkamligini oshirish gardishning bardoshligini ta‘minlash va harakat-

lanuvchi detallarni muvozanatlashni (balansirovka qilish) talab qiladi. Bu talablarni qondirish maqsadida mashina yurituvchisida tishli g'ildirakli uzatma zanjirli uzatma bilan almashtiriladi, barabanlar konstruksiyasi balansirovka qilinadi va mato taxlagich o'rniغا, matoni rulonga o'rash mexanizmi qo'llanadi.

Quritish jarayoni unumdorligini oshirishning yana bir omillaridan biri bu barabanlar yuzasini, ayniqsa, yuzasi antiadgezion qoplama bilan qoplangan va texnologiya tabbi bo'yicha baraban yuzasining harorati uncha yuqori bo'limgan barabanlar uchun, qaynoq havo oqimi bilan puflashdir. Masalan, qaynoq havo bilan ko'p saploli konstruksiya yordamida barabanlar yuzasini puflash matoga shimdirilgan moddalar migratsiyasining oldini oladi, mato dag'allashmaydi va quritish jarayoni bir necha barobar jadallahadi. Bunday puflash imkonini beruvchi moslama sxemasi 169- rasmda keltirilgan.




169- rasm. Quritish barabanida matoni ko'p saploli moslama yordamida puflash sxemasi;

a) bir barabanli; b) ko'p barabanli.

1 – mato; 2 – baraban; 3 – ventilatrор; 4 – calorifer; 5 – soplolar.

Ventilator (3) calorifer (4)da qizdirilgan havoni so'rib oladi va uni saplolar (5) orqali mato yuzasiga yo'naltiradi. Mato yuzasiga qizdirilmagan havo yo'naltirilganda ham, quritish unumdorligini 20 – 30% ga oshiradi.

Quritish davomida matoni tarangsiz holda harakatlantirish imkonini beradigan barabanli quritgichlarning maxsus turlari ham mavjud. Shular qatoriga cheksiz movut bilan jihozlangan kontakt barabanli quritgich kiradi. Uning sxemasi 170- rasmda keltirilgan.



170- rasm. Movut ostida quritish va pardozlash mashinasi sxemasi:

1 – quritish barabani; 2 – movutni quritish silindirlari; 3 – mato; 4 – movut; 5 – mato taxlagich.

Mashinaning quritish barabani 1,5 – 2,5 metr diametrli silindr bo'lib, u matoning movut ostida harakatlanishi ni ta'minlaydi. Qizdirilgan silindr yuzasiga tegib, tashqi tarafdan movut bilan himoyalangan mato bunday ishlov natijasida yumshoqlik va ma'lum darajada silliqlik oladi. Matodan bug'lanayotgan namlikning bir qismini movut o'ziga oladi, shuning uchun u quritish silindrlari (2)da quritilib, yana mato kirish zonasiga beriladi.

## 5. Barabanli quritgichning issiqlik hisob-kitobi

Ma'lumki, ishlab chiqarilayotgan mahsulotning tannarxi tarkibiga uni quritish uchun sarf bo'layotgan energiya qiy-mati ham kiradi. Shuning uchun imkonim boricha energiya sarfini kamaytirishga intilish lozim. Buning uchun kam enegiya sarf qiluvchi quritgich konstruksiyasini tanlash bilan bir qatorda. quritish mashinasini ekspluatatsiya qilish qoidalariga amal qilish talab qilinadi. Texnologik jarayoni amalga oshirish uchun sarf bo'ladigan energiya miqdori hisoblanadi hamda uning amalda bajarilishi ta'minlanishi lozim bo'ladi. Ekspluatatsiya qilinayotgan barabanli quritish mashinasining issiqlik hisob-kitobini bajarishda jaryonning quyidagi ko'rsatkichlari aniqlanadi:

- quritilayotgan materialdan chiqarilishi lozim bo'lgan namlik miqdori;
- quritish jarayonini amalga oshirish uchun zarur bo'ladigan quruq havo miqdori;
- quritgichdan chiqarilishi lozim bo'lgan bug'-havo aralashmasining miqdori;
- quritish uchun sarf bo'layotgan issiqlik enegiyasining miqdori.

Mashinaning issiqlik hisob-kitobini bajarish uchun quyidagi boshlang'ich ma'lumot mavjud bo'lishi lozim:

- quritilayotgan material xarakteristikasi (tola turi; material kengligi, b; uning  $1 \text{ m}^2$  ga mos keluvchi og'irligi, g);
- matoning boshlang'ich va oxirgi namligi (materialning absolut quruq og'irligiga nisbatan berilgan namligi:  $\omega_1$  va  $\omega_2$ );

- matoning mashinadan o'tish tezligi (m/min) yoki mashinaning unumдорлигi, L (m/soat);
- quritish barabanlariga berilayotgan bug' bosimi ( $r$ );
- sex havosining parametrlari (harorati –  $t_0$ , nam tutuvchanligi –  $d_0$ );
- quritgich ichidan chiqarib tashlanayotgan bug'-havo aralashmasining parametrlari (harorati,  $t_0$ ; nam tutuvchanligi,  $d_2$ ).

Yuqorida keltirilgan, hisob-kitobda aniqlanishi lozim bo'lgan ko'rsatkichlarni aniqlash tartibini keltiramiz. Hisob-kitob quritgichning bir soatlik ish davomi uchun bajariladi.

### **Quritgichning material balansi**

1. Matodan quritish davomida chiqarilishi lozim bo'lgan namlik miqdori:

$$W = G_q \frac{\omega_1 - \omega_2}{100} (\text{kg/soat}).$$

Bu yerda:  $G_q$  – bir soatda quritiladigan absolut quruq matoning miqdori.

$$G_q = L_{\text{бг}}.$$

Miqdorlarini formulaga qo'yib, W ni hisoblablaymiz.

Barabanlarni qizdirish uchun uning ichiga bug' berish va hosil bo'lgan kondensatni chiqarish uzelij qanchalik mukammal bo'lmasin, ekspluatatsiya davomida yemirilishi tufayli bug'ni tashqariga chiqaradi. Har bir barabanlar kolonnasida shu yo'sinda chiqadigan bug' miqdorini  $G_{\text{салн}} = 10 - 20 \text{ kg/soat}$  deb qabul qilish mumkin. Biz 10 kg/soat

deb qabul qilamiz va quritgichimizda 3 ta kolonna bo‘lgani uchun:  $G_{\text{saln}} = 10 \cdot 3 = 30 \text{ kg/soat}$  ni tashkil qiladi. Bu bug‘ matodan chiqarilayotgan namlik miqdoriga qo‘shiladi. U holda, quritgich teploizolatsiyasidan tashqariga chiqarib tashlanishi lozim bo‘ladigan namlik miqdori quyidagicha aniqlanadi:

$$W_1 = W + G_{\text{saln}}$$

2. Bu miqdordagi namlikni qabul qilib oladigan absolut quruq havo miqdori quyidagicha aniqlanadi:

$$L_1 = W_1 \frac{1000}{d_2 - d_0} \text{ (kg absolut quruq havo/soat).}$$

Quritgichdan havo  $d_1$  namlik tutish miqdori bilan chiqariladi, shuning uchun chiqarib tashlanayotgan nam havoning (bug‘-havo aralashmasining) umumiy miqdori quyidagi tenglikdan hisoblanadi:

$$L_{\text{nam}} = L_1 + L_1 \frac{d_2}{1000} \text{ (kg/soat).}$$

Hisoblangan nam havo hajmini aniqlaymiz. Buning uchun, avvalo, nam havoning solishtirma og‘irligini hisoblaymiz.

Bu yerda:  $V$  – barometrik bosim (745 mm sim. ust.);  $T$  – absolut harorat.

Chiqarib tashlanayotgan nam havoning umumiy hajmi:

$$V_{\text{nam havo}} = \frac{L_{\text{nam x}}}{\gamma_{\text{nam.x}}} \text{ (m}^3/\text{soat).}$$

Quritgichning issiqlik balansi

Issiqlik balansini tuzish orqali quritgichda bir soatda sarf bo‘ladigan issiqlik miqdorini, so‘ng esa bug‘ miqdorini aniqlaymiz.

Quritgichda issiqlik quyidagilar uchun sarf bo'ladi:

$Q_1$  – materialdan namlikni bug'latish uchun sarf bo'ladijan issiqlik miqdori, kDj/soat;

$Q_2$  – havoni isitish uchun sarf bo'ladijan issiqlik miqdori, kDj/soat;

$Q_{mat}$  – qurigan material o'zi bilan olib ketayotgan issiqlik miqdori, kDj/soat;

$Q_{saln}$  – salniklarda yo'qolayotgan issiqlik miqdori, kDj/soat;

$Q_{kond}$  – kondensat bilan yo'qalayotgan issiqlik miqdori, kDj/soat;

$Q_5$  – tashqi muhitga sarf bo'layotgan issiqlik miqdori, kDj/soat.

Issiqlik balansidan bug' berayotgan issiqlik miqdori quyidagi tenglama bilan ifodalanadi:

$$Q_{bug'} = Q_1 + Q_2 + Q_{mat} + Q_{saln} + Q_{kond} + Q_5.$$

Tenglamaning o'ng tarafidagi hadlarni hisoblaymiz:

$$Q_1 = (i_{bug'} - v_1)W, \text{ kDj/soat.}$$

Bu yerda:  $i_{bug'}$  – quritgichdan chiqarib tashlanayotgan havo parametrlarida bug'ning issiqlik tutish miqdori ( $t_b = 595 + 0,47t_s$ );  $v_1$  – quritgichga kirayotgan mato harorati, °C.

$$Q_{mat} = G_{mat}(v_2 - v_1)$$

Bu yerda:  $G_m$  –  $\omega$ , namlikka ega bo'lgan qurigan material og'irligi, kg/soat;  $v_2$  – quritgichdan chiqayotgan mato harorati, °C;  $sm$  –  $\omega$ , namlikka ega bo'lgan qurigan mato ning issiqlik sig'imi

$$sm = \frac{c_s(100 - \omega_2) + \omega_1}{100}$$

Bu yerda:  $c_s$  – absolut quruq mato issiqlik sig'imi.

$$G_m = G_k + G_k \frac{\omega_1}{100} (\text{kg/soat}).$$

Tenglama hadlarini o'rniغا qo'yib, Qmat miqdori hisoblaymiz.

$$Q_{\text{saln}} = 30 \cdot i_{\text{bug}}.$$

Bu yerda:  $i_{\text{bug}}$  – barabarlarni qizdirish uchun berila-yotgan bug'ning isiqlik tutish miqdori.

$$Q_{\text{kond}} = G_{\text{kond}} \cdot i_{\text{kond}}$$

Bu yerda:  $G_{\text{kond}}$  – kondensat miqdori (kg/soat);  $G_{\text{kond}} = G_{\text{bug}} - G_{\text{saln}}$ ;  $i_{\text{kond}}$  – kondensatning isiqlik tutish miqdori.

$$Q_s = K F (t_i - t_f)$$

Bu yerda:  $K$  – issiqlik uzatish koeffitsiyenti;  $F$  – quritgichning hamma to'siqlari (teploizolatsiyasi) yuzasi,  $m^2$ ;  $t_i$  – quritgich ichidagi harorat;  $t_f$  – sexdag'i havo harorati.

Issiqlik uzatish koeffitsiyenti  $K$  quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$K = \frac{1}{\frac{1}{\alpha_1} + \frac{\delta}{\lambda} + \frac{1}{\alpha_2}}.$$

Bu yerda:  $\alpha_1$  – issiq havodan izolatsiya devoriga issiqlik berish koeffitsiyenti;  $\alpha_2$  – izolatsiya devorida tashqi havoga issiqlik o'tish koeffitsiyenti;  $\delta$  – izolatsiya devori (azbodaraxt) plitasining qalinligi;  $\lambda$  – izolatsiya devori (azbodaraxt) materialining issiqlik o'tkazish koeffitsiyenti.

Barabanlarning aylanishi va ventilatorning quritgich ichidan havoni so'rib olishi natijasida hosil bo'ladigan havo oqimini hisobga olib, quritgich ichidagi havo oqimi tezligini  $v = 1 \text{ m/sek}$  deb qabul qilamiz. U holda,  $\alpha_1$  ni hisoblash uchun  $\alpha_1 = 5,3 + 3,6v$  formulasidan foydalanamiz.

$\alpha_2$  ni quyidagi emfirk formuladan foydalanib hisoblaymiz:  $\alpha_2 = 8 + 0,0 t_{\text{devor}}$ .

Bu yerda:  $t_{\text{devor}}$  – izolatsiya devorining tashqi yuzasini harorati,  $^{\circ}\text{C}$ .

Hisoblangan formula elementlarini joyiga qo'yib,  $Q_s$  ni hisoblab topamiz.

Endi  $Q_{\text{bug}} = Q_1 + Q_2 + Q_{\text{mat}} + Q_{\text{saln}} + Q_{\text{kond}} + Q_5$ . tenglikdan  $Q_{\text{bug}}$  ni hisoblashimiz mumkin:

$$Q_{\text{bug}} = G_{\text{bug}} \cdot i_{\text{bug}}, \text{ bo'lgani uchun } G_{\text{bug}} = \frac{Q_s}{i_{\text{bug}}} \text{ (kg/soat)}.$$

Shunday qilib, hisob-kitob natijasida matoni talab qilingan tezlikda, berilgan rejimda quritish uchun bir soatda sarf bo'ladigan bug' miqdorini aniqlandik.

### *Takrorlash uchun savollar:*

1. Havo holatini belgilovchi parametrlar haqida gapirib bering.
2. Quritilayotgan mato qaysi parametrlar bilan baholanishi ni tushuntiring.
3. Nam matoning issiqlik sig'imi qanday hisoblanadi?
4. Matodan suvni siqib chiqaradigan suv kalandri to'g'risida gapirib bering.
5. Sentrifuganing tuzilishi va ishlash prinsipini tushuntirib bering.

6. Vakuum ostida matoni suvsizlantirish jihozи haqida ға-  
pirib bering.

7. Barabanli quritish mashinasidan matoning o'tish sxemasi  
to'g'risida gapirib bering.

8. Barabanli quritish mashinasi gardishiga qo'yiladigan ta-  
lablar nimalardan iborat?

9. Quritish mashinasi barabaniga bug' berish va kondensat  
chiqarish sxemasi to'g'risida gapirib bering.

10. Barabanli quritish mashinasida quritishni jadallashti-  
rish yo'llarini tushuntiring.

11. Barabanli quritish mashinasida quritish jarayoni issiqlik  
hisobi tartibini tushuntiring.


### 3- §. Konvektiv quritish mashinalari

Konvektiv quritish mashinalari matolarni ho'l ishlov-  
lardan so'ng, gul bosishdan, azotol va bo'yash eritmalari,  
yakunlovchi pardoz beruvchi tarkiblar bilan shimdiril-  
gandan so'ng quritish uchun ishlatiladi. Shuning uchun  
ko'pincha bu mashinalar plusovkalar va gul bosish mashin-  
alari bilan agregat tarzida ishlaydi. Matoni o'tkazish usu-  
liga qarab, bu mashinalar konvektiv-rolikli, mato osilgan  
holda, mato gorizontal va vertikal holda o'tuvchi turlarga  
ajratiladi. Matoga nisbatan havo yo'nalishiga qarab, umu-  
miy uzunasiga puflashli, soploli va kombinirlangan puf-  
lashli turlariga ajratiladi. Bu quritgich va termoishlov be-  
rish mashinalarida havo oqimi issiqlik va namlik tashuvchi  
muhit vazifasini o'taydi.

# 1. Konvektiv-rolikli umumkamerada puflaydigan quritgichlar

Bu turdag'i quritgichda mato, 171- rasmida ko'rsatilganidek, yuqori va pastki qator roliklarga zapravka qilingan holda quritgich kamerasida harakatlanadi.

Mato (10) yuqori (7) va pastki (8) roliklarga birin-ke-tin tashqi va ichki yuzasi bilan tegib o'tadi. Kalorifer (3) da qizdirilgan havo oqimi yo'naltirish kamerasi (4) yordamida pastdan yuqoriga qarab mato yuzasiga 4 m/sek tezlikda yo'naltiriladi. Bunday sharoitda quritish jadalligi kam bo'lganligi tufayli zapravka qilingan mato uzunligini oshirish hisobiga quritgich unum dorligini oshirishga erishiladi. Buning uchun yuqori (7) va pastki (8) roliklar qatori orasidagi masofa uch metrgacha yetkaziladi. Bunday masofada matoda buklangan yoki buralgan joylari hosil bo'lmasligi uchun asosiy roliklar orasiga qo'shimcha roliklar (9) yoki sterjenlar qatori o'rnatiladi. Quritish havosi har bir mashina seksiyasida ikkita ventilatorlar yordamida




171- rasm. Rolikli quritish mashinasining sxemasi

sirkulatsiya qilinadi. Ishlab bo'lgan havoni chiqarib tashlash uchun quritgichning mato kirish qismiga alohida ventilator o'rnatilgan. Quritgichga toza havo quritgich oxiriga o'rnatilgan sovitish seksiyasi orqali sexdan kiradi. Bu quritgichda matoning umumiy zapravka uzunligi – 160 metr, quritishning jadalligi – 1,4 kg bug'langan namlik/m<sup>2</sup> soat, bug'ning solishtirma sarfi 1 kg bug'langan namlik uchun 1,8 kg ni tashkil qiladi.

Mato osilgan holda quritgichda mato quritish davrida uzunligi bo'yicha kirishish imkoniyatiga ega bo'ladi. 172-rasmda shunday quritish mashinasining prinsipial sxemasi keltirilgan.

Bunday quritgichlarda mato roliklarga yoyilgan holda osilib quritiladi. Buning uchun kamera ichida ikki tarasda uzliksiz harakat qiladigan cheksiz zanjir mavjud. U yuri-tuvchidan harakat oladi, uning elementlariga mato osib qo'yiladigan roliklar o'rnatiladi. Aksariyat hollarda roliklar ham tishli yulduzchalarga ega bo'lib, o'z o'qlari atrofida sekin-asta harakatlanadi. natijada matoning rolik yuzasiga tegib turgan joyida izing qolmaydi. Ushbu sxemasi keltirilgan quritgichda gorelkada gazni yonishidan hosil



172- rasm. Mato sirtmog'ini osilgan holatda quritish mashinasini sxemasi.


1 – mato; 2 – zanjir; 3 – rolik; 4 – ventilator; 5 – gaz gorelkasi.

bo‘lgan gazlar sexdan kirayotgan havo bilan aralashtirilib, kerakli haroratli aralashma hosil qilinadi. Bu gazlar aralashmasini ventilator (4) kameraning yon tarafida joylashgan kanal orqali yuqoriga haydaydi va u mato sirtmog‘ini yuqoridan pastga qarab silab o‘tadi, natijada quriydi.

Mato quritish va termoishlov berish mashinalarining issiqlikni tashqariga chiqishidan saqlaydigan to‘siqlari (teploizolatsion to‘siqlar) quritish va termoishlov berish kameralarini hosil qiladi, shu tufayli ular mashina konstruksiyasining tarkibiy qismi hisoblanadi. Teploizolatsion to‘siqlar alohida shitlardan iborat yig‘ma konstruksiya bo‘lib, ular mashina gardishiga mahkamlanadi. Ba’zi shitlar eshik shaklida tayyorlangan bo‘lib, mashina faoliyatini nazorat qilish uchun xizmat qilsa, ba’zilari oyna solingan derazali qilib tayyorlanadi.

Teploizolatsion to‘siqlar ishlov berish kamerasida talab qilingan sharoitni (harorat, namlik darajasi va hokazolar) yaratishdan tashqari, tashqi muhitga issiqlik sarfini kamaytiradi. Bu esa, o‘z navbatida, energiya sarfini kamaytiradi va ishchilarga normal sanitarni-gigiyenik sharoit yaratish imkonini beradi. 173- rasmida barabanli quritish mashinasining teploizolatsion to‘sig‘i shitining konstruksiyasi va uni quritgich gardishiga mahkamlash usulining sxemasi keltirilgan.

Keltirilgan konstruksiyadan ko‘rinib turganidek, har bir shit metall listlar (1)dan tayyorlangan korobkani eslatadi. Uning ichiga azbodaraxt plita o‘rnatilgan, korobkaning yon tarafini esa paronit yoki kartondan tayyorlangan polosha tashkil qiladi. Teploizolatsion shitning yuqori va pastki



173- rasm. Barabanli quritgichning teploizolatsion to'sig'i konstruksiyasi:

1 – matal list; 2 – azbodaraxt plita; 3 – paronitdan tayyorlangan yon to'siq. polosa; 4 – azbest shnuri; 5 – mashina gardishi; 6 – vint; 7 – zaklyopka.


listlari o'zaro zaklyopka (7)lar bilan bog'langan, shitlarning o'zi mashina gardishi (5)ga vintlar (6) bilan mahkamlangan. Konstruksiyaning zichligi (germetikligi)ga elastik azbest shnurlari (4)ni o'rnatish orqali erishiladi.

## 2. Soploli quritgichlar

Ma'lumki, quritish mashinalari ko'p energiya sarflaydigan jihozlar turkumiga kiradi. Quritilayotgan mato yuzasiga issiqlik va nam tashuvchi muhitni sapolar orqali yuqori tezlikda (20 – 40 m/sek) yuborish qo'shimcha energiya sarflashni talab qiladi. Ammo buning natijasida quritish jarayonining jadallahishi, mashina gabarit o'lchamlarining qisqarishi, matoning kam taranglikda bo'lishi, quritish muhiti haroratini oshirish imkonining yaratilishi va mato sifatining oshishi qo'shimcha energiya sarfini oqlaydi.

Saplordan matoni puflab quritish mashinalari jadal quritish imkoniyatiga egaligi bilan xarakterlanadi. Masalan, matoni ikki tomonlama puflashda quritish unumдорligi

20 – 30 kg/m<sup>2</sup> soatga teng. Mato gorizontal zaparavkalanadigan saploli quritish mashinasi turiga sxemasi 174-rasmida keltirilgan “Vits” firmasining mashinasi kiradi.



174- rasm. “Vits” firmasi quritish mashinasi bir seksiyasining sxemasi:


1 – mato yo'nalihi; 2 – ventilator; 3 – calorifer; 4 – saplo; 5 – saplolar korbkasi;

Bunday mashinada matoning zapravka uzunligi quritish kamerasi uzunligiga teng, ammo mashina balandligi oddiy konvektiv mashinalarinikidan birmuncha past. Bu esa mashinani ekpluatatsiya qilishda qulayliklar yaratadi, ammo mashina uzunligi katta, shuning uchun o'rnatish uchun katta maydon talab qiladi.

Mashina kamerasiga kiritilgan mato ikki tarafdan qizdirilgan havo oqimi bilan saplolardan puflanganligi uchun fazoda osilgan holatda harakatlanadi. Puflashning mato kengligi bo'yicha bir tekisdaligi uni chap yoki o'ng tarafga siljitmaydi. Bunday quritish mashinalari matolarni quritish-kengaytirish mashinasiga kiritish oldidan qoldiq namlikgacha quritishda ishlatalidi.

Shu prinsipda ishlaydigan, ammo mato ikki va undan ortiq marta gorizontal o'tadigan saploli quritgichlar gul

bosilgan matolarni quritishda keng qo'llaniladi, chunki ular uncha baland bo'lmagani uchun o'rnatishga kam maydon talab qiladi. Shunday mashinaga misol tariqasida sxemasi 175- rasmda keltirilgan "Artos" (Germaniya) firmasining mashinasini ko'rib chiqamiz.




175-rasm. "Artos" firmasi mashinasi bir seksiyasining sxemasi:

1 – ventilator; 2 – bosimli havo yo'naltirgich; 3, 8, 9 – saplo apparatlari; 4 – to'qli filtr; 5 – calorifer; 6 – mato tutib turuvchi sterjen; 7 – ventilatorni yo'naltiruvchi apparati; 10 – gul bosilgan mato; 11 – chehol.

Mashinaning quritish kamerasi seksiya tarzida yaratilgan bo'lib, namni bug'latish miqdori talabiga qarab, seksiyalar sonini tanlash mumkin. Mashinaning har bir seksiyasi o'zining teploventilatsion sistemasiga ega. Bu sitema tarkibiga asosiy ventilator (1) ikkita bug'kaloriferi (5) va saplo apparatlari o'rnatilgan ikkita bosimli havo yo'naltirgich (2) (pastki va yuqorida joylashgan) kiradi.

Mato mashina seksiyalaridan o'tib, bir tomonlama havo oqimi ostida quritiladi. Buning uchun matoning yuqorida harakatlanayotgan qismiga havo yuqorida joylashgan saplolardan puflansa, burilib kelayotganda esa, pastki saplolar dan puflanadi. Saplolar orasidagi masofa – 150 mm, saplo qirrasi bilan mato orasidagi masofa – 25 mm va saploning 6 mm li tirkishidan chiqayotgan havo oqimining tezligi 25 m/min ni tashkil qiladi.


Bundan tashqari, mato quritish kamerasidan zig-zag va vertikal holatda o'tadigan saploli quritish mashinalari ham mavjud. Ularning ishlash prinsiplari biz yuqorida ko'rib o'tgan mashinalardan farq qilmaydi. Trikotaj polotnolarini tarangsiz, ozod holda quritish tolada hosil bo'lgan kuchlanishlarning relaksatsiya bo'lishiga imkon beradi. Bunday jarayonni amalga oshirish uchun "Monforts" (Germaniya) firmasi bir va ikki yarusli mashinalarni ishlab chiqaradi. Ikki yarusli mashinaing sxemasi 176- rasmda keltirilgan.



176- rasm. Ikki yarusli trikotaj polotnosini quritish mashinası:

1 – kiritilayotgan polotno; 2 – quritilgan polotno; 3 – yuqoridagi konveyer; 4 – pastki konveyer; 5 – birinchi yarus; 6 – ikkinchchi yarus.

Trikotaj polotnosi yuqori va pastki konveyerlar lentalari orasida ozod holda joylashadi; bu konveyer lentalari orasidagi masofa 40 – 80 mm ni tashkil qiladi. Konveyer tezligi 5 – 50 m/min orasida regulirovka qilinadi. 177- rasmda polotnoni transportirlovchi konveyerlar fotosurati keltirilgan.




177- rasm Konveyer lentalarining  
ko'rinishi

1 – yuqoridagi konveyer; 2 – pastki konveyer.

Konveyer lentasi shisha tolasidan to'qilgan bo'lib,

yuzasi teflon bilan qoplangan. Konveyer lentalari orasida joylashgan polotno yuqorida va pastda o'rnatilgan saplo teshiklaridan chiqayotgan havo oqimi bilan quritiladi. Polotno tepasida joylashgan saplo teshiklaridan chiqayotgan havo oqimi doimiy bo'lsa, polotno pastida joylashgan saplo teshiklaridan chiqayotgan havo oqimi to'xtatilishi yoki pulsatsiya rejimida chiqarilishi mumkin, bu bilan ishlov berish sharoitini tanlash mumkin bo'ladi.

Konvektiv quritish mashinalari qatoriga yuzasi to'r barabanli mashinalar ham kiradi. Bu mashinalar to'qilgan mato, tikotaj polotnosi va kimyoviy tolalar lentasini (masalan, nitron tolasi jgutini) quritishda keng qo'llanadi. Bunday quritgichning prinsipial sxemasi 178- rasmida keltirilgan.



178- rasm. To'r barabanli quritgichning sxemasi:

1 – yuzasi to'r baraban; 2 – to'sgich; 3 – calorifer; 4 – ventilator; 5 – mato; 6 – havo yo'naltirgich; 7 – transportyor.

Mato (tola lentasi) transportyor (7) yordamida quritgichning birinchi barabaniga uzatiladi. Keltirilgan sxemada barabanlar bir qator gorizontal tekslidka joylashtirilgan. Barabanlar shohmot shaklida ikki qator qilib joylashtirilishi ham mumkin, masalan, nitron tolasini quritish mash-

nasida barabanlar shunday joydashtirilgan. Baraban ichida to'sgich (2) o'rnatilgan bo'lib, u birinchi barabanning yuqori yarim aylanasini havo o'tishidan to'sib turadi, keyingi barabanda esa shunday to'siq baraban ichki aylana-sining pastki qismini to'sib turadi va hokazo.

Baraban ichidan ventilator (4) yordamida havo so'rib olinganligi tufayli, u mato qalinligidan o'tib uni quritadi, natijada mato baraban to'ri yuzasiga yopishib turadi. Baraban to'sgich atrofida aylanadi va mato bir barabandan ikinchisiga o'tadi. Bunda oldingi barabanda matoning ichki tarafi bo'lgani keyingi barabanda tashqi taraf bo'ladi va mato bir tekisda quriydi. Har bir baraban qarshisiga o'qsimon ventilator o'rnatilgan, u baraban ichidan so'rib olgan havoni quritish kamerasining yuqori va pastki qismlarida joylashgan kaloriferga yo'naltiradi. Qizigan havo esa yo'naltiruvchilar (6) yordamida baraban yuzasiga yo'naltiriladi. Mashinaning barabanlar soni bug'lantirilishi lozim bo'lgan namlik miqdoriga qarab tanlanadi. Qurigan matoni mashinaning chiqish qismiga o'rnatilgan transportyor qabul qilib olishi mumkin yoki matoni rulonga o'rovchi, yoki mato taxlagich yordamida qabul qilib olinishi mumkin. Baraban ichiga o'rnatilgan to'siq tufayli material bir barabandan ikinchisiga osonlik bilan o'tadi, havo material qalinligidan jadal so'rib olinadi, natijada u bir tekisda, yuqori tezlikda quriydi. Bu turdag'i mashinalar sintetik tolali materiallarni termofiksatsiyalash uchun ham ishlatalishi mumkin. Ko'p funksiyali bunday mashinalar kelajakda yanada keng qo'llanishi kutilmoqda.

### 3. Quritish-kengaytirish mashinalari


Quritish-kengaytirish (QKM) va quritish-kengaytirish-stabillash mashinalari (QKSM) tolali materiallarga yakuniy pardoz beruvchi jihozlar turiga kiradi va pardozlash jihozlari ichida narxi yuqori va konstruksiyasi mu-rakkab hisoblanadi. Mato kengaytirish mashinalaridek, bu mashinalarda ham mato chetini zanjirga o'rnatilgan klupplar ushlab turadi. Oldingi boblarda ta'kidlanganidek, mato (trikotaj polotnosi) pardozlash jarayonlaridagi ishlovlarda mexanik, nam va issiqqlik muhitlari ta'sirida zarur iste'mol sifatlariga, ya'ni oqlik darajasiga, rangbaranglikka, naqshga, gidrofoblikka va boshqalarga ega bo'ladi. Ma'lumki, bu ishlovlarda mato uzunasiga cho'ziladi, kengligi qisqaradi; unda buklangan joylar paydo bo'lishi mumkin. mato chetlari buralib qolish hollari paydo bo'ladi va matoning to'qilganda olingan strukturasi qisman buziladi. Bu paydo bo'lgan kamchiliklar to'liq yoki qisman matoni QKM va QKSM yordamida yakuniy pardozlashda kengaytirish va tanda iplari bo'yicha kirishtirish orqali yo'qotiladi.

QKM yordamida har doim ham matoning zarur kirishganligiga erishib bo'lmaydi. Ba'zi hollarda ip-gazlamarlar va zig'ir tolasidan tayyorlangan matolarning iste'mol kirishishi 5 – 7% ni tashkil qiladi. Bunday matolarni QKMda matoning mashina zanjiri tezligiga nisbatan oshirilgan tezlikda berish yo'li bilan bunday kirishishni 1 – 2% ga kamaytirishga erishiladi. Shunda ham qoldiq kirishuvchanlik mumkin bo'lgan iste'mol kirishishdan yuqoriligi-chi qoladi. Bunday hollarda matoga mexanik usulda kam

kirishuvchanlik yoki termoreaktiv smolalar bilan ishlov beriladi. Matolarga kam g'ijimlanuvchanlik, o'tga chidam-lilik, kam kirishuvchanlik, suvni itaruvchanlik va boshqa maxsus xossalar berish maqsadida termoreaktiv smolalar yoki boshqa appretlar bilan shimdirilgan matolarni quritish, asosan, QKMda olib boriladi. Buning sababi shundaki, issiq ishlov natijasida termoreaktiv smolalarning polimerizatsiyalanishi boshlanadi. Agar quritish jarayoni boshqa turdag'i quritgichda olib borilsa, mato holatidagi buzilishlar muhrlanib qoladi va uni keyingi ishlovlarda to'g'rilib bo'lmaydi.

Sintetik tolalar va ularning tabiiy tolalar bilan aralashmasidan tayyorlangan mato va trikotaj polotnolarini quritish va stabillash uchun QKSMdan foydalanish yanada muhimdir.

Bir maydonli va ko'p maydonli QKSMlar mavjud bo'lib, ko'p maydonli mashinalar og'ir matolarga ishlov berishga mo'ljallangan, chunki ular uchun mashinadagi mato zapravkasining uzunligi katta bo'lishi talab qilinadi. Yengil va o'rta massaga ega matolarga bir maydonli mashinalarda ishlov beriladi. Ko'p hollarda QKM oxirigacha quritgich sifatida ishlatiladi. Masalan, matoni appretlash-pardozlash mashinalar tizimida mato plusovkada appret bilan shimdirilib, 80 – 90% namlikgacha siqiladi. So'ng QKM oldida o'rnatilgan barabanli quritgich yoki konvektiv usulda ishlovchi quritgichda 30 – 40% namligi qolguncha quritiladi va shundan so'ngina zanjirli QKM da oxiriga-chaga quritiladi. Kamdan-kam holatlarda, masalan, jun matolalini va ipak matolarini pardozlashda QKM va QKSMlar




179 – rasm. Quritish-kengaytirish mashinasining sxemasi:

1 – mato; 2 – arqoq iplar holatini rostlash roliklari; 3 – matoni kluppa mahkamlash mexanizmi; 4 – bug'lash uskunasi; 5 – quritish kamerasi; 6 – saplo teshiklari; 7 – matoni kluppdan chiqarish mexanizmi; 8 – sovitish zonası; 9 – mato o'rash mexanizmi; 10 – mato taxlagich.

alohida mustaqil mashina sifatida ishlatiladi. 179- rasmda bir maydonli QKM ning sxemasi keltirilgan.

Mato (1) arqoq iplar holatini rostlovchi roliklar (2)dan o'tib, mexanizm (3) yordamida zanjirning klupplariga kiritiladi. Shundan so'ng zanjir maydonining kirish qismida mato kengligi bo'yicha tortiladi. Bu jarayonni osonlashtirish uchun matoga bug'lash uskunasi (4)dan ochiq bug-purkaladi. Talab qilingan kenglikdagi matoni ikki tarafagi kluppli zanjirlar quritish kamerasiga olib kiradi. U yerda matoga saplo teshiklari (6)dan chiqqan quritish havosi ishlov berib quritadi. Quritish kamerasidan chiqqan mato sex havosida sovitiladi, mato chetlari klupplardan ozod qilinib, rulonga o'rash mexanizmi (9)da rulonga o'raladi yoki mato taxlagich (10) yordamida aravachaga taxlanadi. Mashina zanjirlari orasidagi masofa (mato kengligi) 500 – 2200 mm orasida o'zgartirilishi mumkin, mato tezligi – 0 – 50 m/min. Maksimal ishlov harorati – 220°C, isitish imkoniyati 300 000 kkal/soatni tashkil qiladi.

180- rasmda "Moenus" (Germaniya) firmasining QKS mashinasi fotografik sxemasi keltirilgan. Bu rasmda mashi-




180- rasm. QKS mashinasining umumiy ko'rinishi:

1 – boshqarish platformasi; 2 – mato kirish qismi; 3 – nazorat paneli; 4 – zanjir maydonining kirish-tortish qismi; 5 – bug'lash kamerasi; 6 – izolatsiya zonası; 7 – quritish kamerasi; 8 – yoritish tuyningi; 9 – sovitish zonası; 10 – mato chiqarish zonası; 11 – sovitish roliklari; 12 – matoni roliko'rash mexanizmi; 13 – mato taxlagich.

naning konstruktiv elementlarining joylashishi va o'zaro bog'liqligi ko'rsatilgan.

Quritish kamerasida saplo teshiklaridan chiqayotgan havo oqimi uning tezligidan qat'i nazar, doimo matoga perpendicular yo'naltiriladi; bu namlikning bug'lanishining maksimal effektini ta'minlaydi. Bundan tashqari, teshikli saplo plitalari tozalash uchun kameradan oson olinadi, bu xizmat vaqtini tejaydi. Quritish (termoishlov berish) kamerasida havo sirkulatsiyasi sxemasi 181- rasmda keltirilgan.

Matoni klupplarga sanchish mexanizmiga berish oldidan uning tarangligini, buklangan joylarini to'g'rilash va mashina markaziga mos holatga keltirish sifatli ishlov berishning garovidir. Shuning uchun matoni mashinaga uza-




181- rasm. Havoning sirkulatsiya sxemasi:

1 – ventilator; 2 – kalorifer; 3 – saplo korbkasi; 4 – havo oqimini bo'luvchi; 5 – mato; 6 – zanjir elementi.

tish maxanizmi tarkibiga mato yo'naltiruvchilar, vintsimon mato kengaytiruvchilar (ularning soni uchtagacha yetishi mumkin) kiradi. Bu mashina elementlaridan o'tgan matoni klupplarga tortuvchi vallar juftligi yoki tortuvchi val yetkazib beradi. Umuman olganda, mashinaning mato kiritish qismi mexanizmlarining konstruksiyasi va ularning soni ishlov oladigan material turi bilan aniqlanadi. Masalan, ip-gazlamalari, zig'ir tolasidan yoki jun tolasidan tayyorlangan matolarga ishlov berishga mo'ljallangan mashinalarning bu qismida o'z o'qi atrofida aylanadigan rolik va yurituvchisi bor tortish roligi bo'lishi yetarli; boshqa turdag'i matolarga ishlov beruvchi mashinada esa ikkita yurituvchisi bor rolik, bir nechta o'z o'qi atrofida aylanadigan roliklar va mato kengaytiruvchilar bo'lishi shart.

Mashinaga kiritilayotgan mato chetining turgan joyini aniqlash uchun quyidagi datchiklardan foydalaniladi: elektrokontaktli shup, fotoqarshiligining mato cheti holatiga



182- rasm. Mato chetining holatini moslovchi mexanizm sxemasi:

1 – konussimon tishli g’ildirak; 2 – harakatlanuvchi rama; 3 – yurituvchi vint; 4 – konussimon tishli g’ildirak; 5 – tasmali uzatma; 6 – yarim mufta; 7 – yarim mufta; 8 – konussimon tishli g’ildirak; 9 – yarim mufta; 10 – elektrodvigatel; 11 – mexanizm gardishi; 12 – yarim mufta; 13 – tormozlovchi mufta.


qarab yoritilganlik darajasi o’zgaradigan fotoelektrik datchik va qaytar nur prinsipida ishlovchi elektron datchik. Mashinaga o’rnatilgan bunday datchikdan olingan signal bajaruvchi mexanizmga uzatiladi va u, o’z navbatida, zanjirlar harakatlanadigan rama kirish qismini harakatga keltiradi. Misol tariqasida 182- rasmda keltirilgan bajaruvchi mexanizmni ko’rib chiqamiz. Mato cheti klupplarga normal holatda kelayotganda, elektrodvigatel (10) konus shaklidagi shesternyalar (1 va 4)ni shesternya orqali harakatga keltiradi. Shesternya (1 va 4) valda ozod holda o’tiradi va, o’z navbatida, yarim muftalar (7 va 9) bilan birikkan. Agar mato normal holatdan chapga yoki o’ngga siljsa, yarim mufta (6 yoki 12) ishga tushadi. Natijada tasmali uzatmadan harakat olayotgan vint (3) soat strelkasi bo’yicha yoki soat strelkasiga qarshi tarafga aylanadi, natijada vintga gayka yordamida biriktirilgan kluppli zanjirni yo’naltiruvchi ramalar chapga yoki o’ngga mato ketidan

siljiydi, natijada mato chetini ignalarga normal holatda sanchilishi ta'minlanadi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, turli firmalar mashinalari ning mato kiritish uzeli tarkibi bir-biridan farqlanadi. 183-rasmida "Kioto" (Yaponiya) firmasi QKMning mato kiritish uzeli texnologik sxemasi keltirilgan.


Mato (1) mato uzatuvchi rolik (2)ga yetib kelguncha taranglanib, mato yo'naltiruvchilar yordamida mashina markaziy o'qiga moslanib, kengaytiruvchilarda buklangan joylari va cheti rostlanib keladi.

Mato uzatuvchi rolik (2)ning yurituvchisi tarkibiga sinxronlovchi motor (3) kiradi. Uning yordamida mato tezligi klupplar zanjiri tezligi bilan moslanadi va matoni kerakli ilgarilash foizi o'rnatiladi. Yuzasiga rezina qoplangan g'ildirak (4) va cho'tkali g'ildirak (5) mato chetini klupp ignalari ustiga yo'naltiradi va cho'tkali qildirak (7) mato



183- rasm. "Kioto" firmasi quritish-kengaytirish mashinasining mato kiritish uzelini sxemasi:

1 – mato; 2 – mato uzatuvchi rolik; 3 – sinxronlovchi motor; 4 – yuzasiga rezina qoplangan g'ildirak; 5 – cho'tkali disk; 6 – motor; 7 – cho'tkali disk.



184- rasm. "Bobkok" firmasi quritish kengaytirish mashinasining mato kirish qismining ko'rinishi


chetining ignalarga sanchilishini tugallaydi. 184- rasmda "Bobkok" firmasi QKMning mato kirish qismi fotografiyasi keltirilgan.

Mato chetini ignaga sanchish mexanizmi mato chetini kuzatuvchi datchik va mato chetini rostlovchi mexanizm bilan birgalikda, mato chetining

ignalarga aniq sanchilishini ta'minlashi zarur. Bu jarayonda mato chetini ignalarga sanchuvchi diskning tezligi zanjir tezligi bilan moslanishi lozim. Bularning tezliklari tezlik variatori yoki moment dvigateli yordamida amalga oshiriladi. Mashinalarda turli konstruksiyali matoni ignalarga sanchish mexanizmlari ishlatiladi. 185- rasmda bu mexanizmlarning sxemalari keltirilgan.

Mato (1)ning cheti (185-A rasm) disk (2)yordamida aylanayotgan rolik (4) va stol (3)ga siqilib o'tadi va cho'tkali disk uni klupp ignalariiga sanchadi. Siqvchi stol (3) po'lat listdan tayyorlangan bo'lib, klupp zanjiri yo'naltiruvchi ramaga mahkamlanadi. Matoni zapravka qilish vaqtida mexanizm richag yordamida mato chetidan orqaga ag'dariladi. (186- rasmda qarang).


Keyingi mexanizm siqvchi stolsiz tayyorlangan (185-B rasm) bo'lib, uning tarkibiga cho'tkali disk (2), yuzasiga rezina qoplangan qo'shimcha disk (3) va po'lat rolik (4) kiradi. Mexanizm yetarlicha ravishda ishonchli ishlaydi va uning detallarini ta'mir uchun yechib olish oson.



185- rasm. Mato chetini ignalarga sanchish mexanizmlar sxemalari:

A. 1 – mato; 2 – cho’tkali disk; 3 – stol; 4 – rolik. B. 1 – mato; 2 – cho’tkali disk; 3 – disk; 4 – rolik. D. 1 – mato; 2 – disk; 3 – rolik; 4 – lenta. E. 1 – mato; 2 – val; 3, 4 – rolik.

Sxemasi 185- D rasmda keltirilgan mexanizmda mato cheti ignalarga aniq sanchiladi. Mato cheti (1) ikkita roliklar (3 va 5) yordamida haraklanuvchi, yuzasi qovurg’asimon noteks bo’lgan rezina lenta (4)ga yuzasiga rezina qoplangan disk (2) bilan siqiladi. Rezina lenta yuzasidagi ko’ndalang qovurg’alar mato ilgarilab berilayotganda sirpanishidan saqlaydi. Ammo bu lentaning borligi konstruksiyani mu-rakkablashtiradi.



186- rasm. Mato chetini ignalarga chanchish mexanizmining ko’rinishi

Boshqa bir mexanizmda (185- E rasm) mato (1) yurituv-chili, yuzasi rezina qoplangan val (2)ga roliklar (3 va 4) yordamida siqilib turadi. Val (2)ning diametri mato chetini ignaga sanchuvchi cho'tka diametriga teng. Pastki siqish roligi (3) mayda buklamalar bilan taxlangan matoni val (2) ga ignaga sanchiladigan joyda siqib turadi. Ikkita siqish roliklari (3 va 4) matoning yuzasiga rezina qoplangan val yuzasiga zinch va katta yoyda siqilib turishini ta'minlaydi. Bu mexanizm alohida yurituvchiga ega bo'lganligi tufayli mashinaga o'rnatilgan o'ng yoki chap mexanizm tezligini 10% gacha o'zgartirib, matoda mavjud bo'lgan arqoq iplar qiyshiqligini to'g'rilash imkonini bor.


Matoni ignalarga sanchish mexanizmi oldida uning chetini buralishdan ozod etuvchi shaxsiy yurituvchiga ega vintli rostlovchilar o'rnatiladi. Ularning soni ishlov oladi-gan mato (trikotaj polotnosi) turiga bog'liq. Masalan, ipak matosi va trikotaj polotnosiga ishlov beruvchi mashinalar-da ularning soni 4 tagacha yetishi mumkin. 187- rasmda mato chetini vintsimon rostlovchi va mato chetini ignaga sanchuvchi mexanizm ishchi holatda ko'rsatilgan.



187- rasm. Mato chetini rostlovchi va ignaga sanchuvchi mexanizsmlar ishchi holatida

Mashinaning mato chetini ushlaydigan asosiy elementi bu uning klupplaridir. Oldin ta'kidlaganimizdek, klupp-larning uch turidan foy-dalaniladi: pichoqli (biz uning tuzilishini oldin ko'rib o'tganmiz), igna-

li va kombinirlangan turlari. Ignali klupp ishlov davomida matoga uzunasiga kirishish imkonini beradi. Buning uchun mato klupp ignalariga mayda buklangan holatda mahkamlanadi va quritish davrida mato kirishib, buklangan joylari to‘g‘rlanadi. 188- rasmda ignali klupping sxemasi va fotografiyasi keltirilgan.




188- rasm. Ignali klupp sxemasi va uning fotografiyasi:  
1 – gardish; 2 – igna; 3 – mato.

Har bir klupp zanjirning bir elementiga mahkamlanadi, uni mahkamlovchi bolt va u o‘rnashtiriladigan gardishdagи teshik fotografiyada ko‘rinib turibdi. Klupp maydonida ignalar ikki yoki uch qator qilib teriladi, mato chetiga klupp ignalari 5 – 7 mm qoldirilib sanchiladi.

Mato cheti klupp ignalariga maxsus mexanizm yordamida sanchiladi. Shunday mexanizmning bir variantining sxemasi 189- rasmda keltirilgan.

Mato (5)ni uzatuvchi valiklar (1) stolik (2)ka tushiradi va cho‘tka (4) mato chetini ignalarga sanchadi. Agar valik (1)lar matoni zanjir maydoniga ilgarilab bersa ( $V_m > V_z$ ), mato ignalar orasida osilib qoladi, bu matoni kengaytirishni osonlashtiradi va arqoq iplari bir-biriga oson yaqinlashadi. Matoning ilgarilash darajasini regulirovkalash mumkin, ba’zi mashinalarda matoni 40% gacha ilgarilab




189- rasm Mato chetini klupp ignalariga sanchish mexanizsmining sxemasi:  
1 – uzatuvchi valiklar; 2 – stolik; 3 – ignali zanjir maydoni; 4 – cho'tka;  
5 – mato.

berish mumkin. Bunday imkoniyat QKS mashinalarida matoni kengaytirish, quritish va stabillash jarayonlarini uni uzunasiga kirishtirish bilan birgalikda olib borishda juda muhim hisoblanadi.

Matoni klupplarga sanchish mexanizmiga berish oldidan, uning tarangligini, buklangan joylarini to'g'rilash va mashina markaziga mos holatga keltirish sifatli ishlov berishning garovidir. Shuning uchun matoni mashinaga uzatish maxanizmi tarkibiga mato yo'naltiruvchilar, vintsimon mato kengaytiruvchilar (ularning soni uchtagacha yetishi mumkin) kiradi. Bu mashina elementlaridan o'tgan matoni klupplarga tortuvchi vallar juftligi yoki tortuvchi val yetkazib beradi.

Pardozlanayotgan matolarga yuqori sifat berish uchun mashinasozlik firmalari quritish va quritish-kengaytirish-stabillash mashinalarining kombinatsiyalarini ham taklif qilishgan. 190- rasmda "Vakayama" (Yaponiya) firmasining shunday agreti sxemasi keltirilgan.



190- rasm. "Vakayama" yakuniy ishlov beruvchi agregatining sxemasi:

1 – mato kiritish mexanizmi; 2 – plusovka; 3 – mato uzatuvchi (yurituvchis) bor rolik; 4 – quritgich; 5 – sirkulatsion ventilator; 6 – havo kanali va teshiklar; 7 – ishlab bo'lgan havoni chiqarib tashlash ventilatori; 8 – zanjirli konveyer; 9 – konveyer tishli g'ildiragi; 10 – ta'minlovchi rolik; 11 – suv bilan sovitiluvchi silindr; 12 – mato qabul qiluvchi uskuna; 13 – mato kiritish mexanizmi; 14 – mato yo'naltiruvchi mexanizm; 15 – quritish-kengaytirish mashinasi; 16 – yo'naltiruvchi rama; 17 – yurituvchi korobkasi; 18 – suv bilan sovitiluvchi silindr; 19 – mato qabul qiluvchi uskuna; 20 – radiator; 21 – sirkulatsion ventilator; 22 – radiator.


Bu agregat tarkibiga plusovka, quritgich va quritish-kengaytirish-stabilash mashinalari kirganligi tufayli u ko'p maqsadli bo'lib, unda quyidagi jarayonlarni amalga oshirish mumkin: matoni oqartirishdan so'ng quritish; matoga appretlovchi ishlov berish; dastlabki (oldindan) teplostabilash, yakuniy teplostabilash va boshqa jarayonlar.

Avvalo, quritgichda mato kiritish tezligi konveyer tezligidan katta qilib o'rnatilishi (uning miqdori regulirovka qilinadi, maksimum 50%) tufayli mato konveyerga ozod holdagi mayda buklamalar tarzida joylashadi, natijada tarangsiz holda quriydi. Bunday quritish natijasida mato yumshoqlik xossasiga erishadi. Bu quritgichdan mato avtomatik ravishda quritish-kengaytirish-stabilash mashinasiga kiritiladi. Bu mashinada ham mato quritiladi, yuqori haroratda termoishlov oladi, kengligi standart o'lchovgacha yetkaziladi.

Quritgich alohida mashina bo'lib, termoishlov mashinasini ustida maxsus po'lat tayanchlarga o'rnatilgan, natijada mashinalar egallaydigan maydon qisqarishiga erishilgan. Termoishlov berish kamerasida havo haroratini  $220^{\circ}\text{C}$  gacha yetkazish imkoniyati bo'lsa, quritish kamerasida esa harorat  $130^{\circ}\text{C}$  gacha bo'lishi ta'minlanadi. Mashinalarning havo qizdirish sistemasi alohida. Shu tufayli mashinalar kamerasida havoning bir tekisda taqsimlanishiga va issiqlik yo'qotilishini minimallashtirishga erishiladi. Ushbu mashinalar yurituvchilari o'zaro bog'langan bo'lib, ularning tezligi jarayon davomida sinxronlashtirib turiladi.

Turli xil tolalardan tayyorlangan paypoq mahsulotlarni shakllantirish uchun ularga quritish-shakllantirish mashinalarida qizdirilgan havo oqimida ishlov beriladi. Bunday mashinalarning tuzilishini va ishlash prinsipini Rossiyada ishlab chiqarilgan ChNF – 90 mashinasini misolida ko'rib chiqamiz. Mashinaning sxemasi 191- rasmda keltirilgan.

Mahsulotga ishlov berish kamerasi (1) uch zonadan iborat bo'lib, har bir zona o'zining isitish va havoni sirkulatsiya qilish sistemasiga ega. Kalorifer (2)da qizdirilgan



191- rasm. ChNF – 90 mashinasining sxemasi:

1 – ishlov berish kamerasi; 2 – kalorifer; 3 – konveyer; 4 – elektrodvigatel; 5 – zanjirli variator; 6 – olti burchakli yetaklovchi g'ildirak; 7 – yetaklanuvchi g'ildirak. 8 – xizmat ko'rsatish zonasasi.


havoni ventilator ishlov kamerasiga yo'naltiradi. Mahsulot ilinadigan formalar ikki shinali konveyer (3)ning zvenolari ga mahkamlanadi va uzliksiz ravishda xizmat ko'rsatish va ishlov berish zonalarida harakatlanadi. Konveyerni harakatlantiruvchi yurituvchi tarkibiga elektrodvigatel (4), reduktor va variatordan iborat blok (5), zanjirli uzatma kiradi. Konveyerni oltiburchakli g'ildirak (6) harakatga keltiradi.

Quritish-shakllantirish kamerasining kesimi 192- rasm-da keltirilgan.

Quritish kamerasi shaklli metalldan tayorlangan kar-kas konstruksiyaga ega bo'lib, teploizolatsion shitlar (1) ga ega. Kamera havoni isitish zonasasi (I) va ishchi zona (II)ga bo'lingan. Mahsulot kiygiziladigan forma (7) ning yo'nalishi bo'yicha kamera uch harorat bo'limiga bo'linadi. Har bir isitish zonasida havoni isituvchi kalorifer

192- rasm. ChNF – 90  
mashinasining quritish-  
shakllantirish kamerasi:

- 1 – teploizolatsion shit;
- 2 – filtr;
- 3 – kalorifer;
- 4 – drossel klapani;
- 5 – shakl;
- 6 – ventilator;
- 7 – rolik;
- 8 – yo'naltirchi rama;
- 9 – konuchsimon g'ildirakli uzatma;
- 10 – cho'yan ustun;
- 11 – rama;
- 12 – cho'yan plita;
- 13 – elektrodvigatel;
- 14 – tasmali uzatma.



(3) sirkulatsion ventilator (8) va filtr (2) o'rmatilgan. Birinchi zonada nam mahsulotdan namlikni jadal bug'latishga erishish uchun ikkita kalorifer o'rnatilgan, qolgan zonalar bittadan kaloriferga ega. Ishchi zonada formaga kiygizilgan mahsulot yuqoridan pastga qarab harakatlanayotgan havo oqimi ta'sirida quriydi. Mahsulotning pastki qalin qismiga qo'shimcha havo havo kanali (5) orqali yo'naltiriladi, nati-jada mahsulot bir tekisda quriydi. Kanalga (5) oqayotgan havo miqdorini drossel klapani (4)ning ochilganlik holati belgilaydi. Kamera bo'limganlari uchun har bir ventilator elek-trosvigatel (15) va tasmali uzatma (16) orqali harakatlan-tiriladi. Kameraning uchinchi zonasiga toza havo sexdan so'rildi, undan ikkinchi, so'ng birinchi zonaga o'tadi va ishlab bo'lgan havo kameraning sexni ventelatsiya siste-masiga ulovchi trubasi orqali chiqariladi.

Konveyer formalarga kiygizilgan mahsulotni uzluk-siz ravishda quritish va xizmat ko'rsatish qismlarida ha-rakatlantirish uchun xizmat qiladi. Zanjirning har bir ikkinchi zvenosiga mahsulot kiygiziladigan forma mah-kamlanadi. Zanjirning roliklari ikkita parallel joylashgan yo'naltiruvchi shinalarda harakatlanadi. Shinalar orasida-gi masofa kamerada xizmat ko'rsatish zonasiga nisbatan 4 marta kichikligi tufayli, kameradagi formalar orasidagi masofa 65 mm ga teng bo'lsa, xizmat ko'rsatish zonasida bu masofa 260 mm ga teng. Shu tufayli kamerada 90 ta formadan 78 tasi joylashadi. xizmat ko'rsatish zonasida 12 ta forma joylashadi.

Kamera va mashinaning asosiy qismlari gardishga mah-kamlanadi. Gardish to'rtta cho'yan ustun mahkamlangan,

payvandlash usulida tayyorlangan rama (13)dan iborat. Bu ustunlarga mashinaning qismlari: karkas, konveyer, harakatlanuvchi yo'naltiruvchi shinalar va boshqa qismlar o'rnatilgan cho'yan plitalar (14) mahkamlangan.

Quritish-ishlov berish kamerasida harorat  $80 - 125^{\circ}\text{C}$  chegarasida moslanadi. Yuqori harorat birinchi zonada o'rnatiladi. Formalar kamerada  $1,72 - 8 \text{ m/min}$ , xizmat ko'rsatish zonasida  $6,9 - 32 \text{ m/min}$  tezlikda harakatlanadi. Quritish-ishlov berish davomiyligi –  $2,35 - 9,4$  daqiqa. Mashina unumdorligi 500 paypoq/soat yoki 720 paypoq/soatni tashkil qiladi.

#### **4. Konvektiv usulda ishlovchi quritgichning issiqlik hisobi**

Issiqlik va namlik tashuvchisi havo bo'lган quritgichning material va issiqlik balansini tuzishni ko'rib chiqamiz.

Qurtish jarayonining material va issiqlik balansini tuzish uchun isitish elementi quritgichdan tashqariga chiqarilgan uskunanining prinsipial sxemasidan foydalanamiz. Qabul qilingan belgilashga muvofiq, quritish kamerasiga kirayotgan material og'irligi –  $G_1$ ; namligi –  $\omega_1$  va harorati –  $\gamma_1$ , quritilgan material og'irligi –  $G_2$ ; namligi –  $\omega_2$  va harorati –  $\gamma_2$ . Shuningdek, jarayonda ishtirok etayotgan absolut quruq havo miqdori –  $L$ ; uning quritish kamerasiga kirish oldidagi nam tutishi va harorati –  $d_1$  va  $t_1$ ; entalpiyasi –  $J_0$ ; ishlab bo'lган havoning parametrlari:  $d_1$  va  $t_1$ ; entalpiyasi esa  $J_1$ . Dastlabki havo parametrlari –  $d_0$ ,  $t_0$  va  $J_0$ .

Material balansining mohiyatini quritish kamerasinga kirayotgan material miqdorining undan chiqib ketayotgan material miqdoriga tengligi tashkil qiladi va u quyidagi nisbat bilan ifodalanadi:

$$G_c + G_c \frac{\omega_1}{100} + L + L \frac{d_1}{1000} = G_c + G_c \frac{\omega_2}{100} + L + L \frac{d_2}{1000}$$

Materialdan bug'lanayotgan namlik havoga o'tadi:

$$G_c \left( \frac{\omega_1 - \omega_2}{100} \right) = L \left( \frac{d_2 - d_1}{1000} \right)$$

Agar materialdan chiqarilayotgan namlikni  $W$  bilan belgilasak, u holda:

$$W = G_c \left( \frac{\omega_1 - \omega_2}{100} \right).$$


Quritish uchun zarur bo'lган absolut quruq havo miqdorini quyidagi ifodadan hisoblash mumkin:

$$L = \frac{W}{d_2 - d_1} \cdot 100 ; \quad \frac{L}{W} = l = \frac{1000}{d_2 - d_1} .$$

Bu yerda:  $l$  – 1 kg namlikni chiqarish uchun zarur bo'ladigan absolut quruq havo miqdori.

Material balansini tuzishdan ko'zlangan maqsad quritish jarayonida materialdan chiqarilishi zarur bo'lган namlik miqdorini va buning uchun kerak bo'ladigan absolut quruq havo miqdorini aniqlashdir.

Quritish uskunasining issiqlik balansini tuzish. 193-rasmda keltirilgan sxemadan foydalanib, quritish uskunasining havo isitgichining va quritish kamerasinging alohida-alohida yoki birgalikdagi issiqlik balanslarini tuzish mumkin.



193- rasm. Quritish uskunasining principial sxemasi:  
1 – isitgich; 2 – quritish kamerasi; 3 – qo'shimcha isitgich.

Yangi quritish uskunasini loyihalashda issiqlik hisobini bajarishning vazifasi havoni isituvchi issiqlik almashtirgichning yuzasini topish bo'lsa, mavjud quritish uskunasining issiqlik hisobi qabul qilingan texnologiya sharoitida bo'ladigan issiqlik tashuvchi (bug', elektroenergiya va hokazo) sarfini aniqlash uchun bajariladi.

Umumiy uskunaning issiqlik balansini tuzamiz, ammo oldin balansning alohida qismlarini, ya'ni issiqlik kirimi va chiqimlarini aniqlaymiz.

Quritsh kamerasiga kirim issiqliknинг moddaları:

1) isitilgan havo bilan:  $Q_{v1} = LI_1 = LI_0 + Q_{pv}$ ;

2) ho'l mato bilan:  $Q_{M1} = G_1 \cdot c_1 \cdot \gamma_1$ ;

3) transport vositasi bilan:  $Q_{tr} = G_{tr} \cdot c_{tr} \cdot \gamma_{tr}$ ;

4) quritish kamerasiga kiritladigan qo'shimcha issiqlik:

Qdop.

Quritish kamerasidan chiqadigan issiqlik moddaları:

1) ishlab bo'lgan havo bilan:  $Q_{v2} = L_{12}$ ;

2) quritilgan material bilan:  $Q_{M2} = G_2 \cdot c_2 \cdot \gamma_2$ ;

3) transport vositasi bilan:  $Q_{tr} = Q_{tr} \cdot c_{tr} \cdot \gamma_{tr}$ ;

4) issiqliknинг atrof muhitga tarqalishi:  $Q_s$ .

Issiqlik balansining mohiyatini kirayotgan issiqlik mod-

daları yig'indisining sarf moddalari yig'indisiga tengligi tashkil qiladi.

$$LI_1 + G_1 C_1 \gamma_1 + G_{tr1} C_{tr1} \gamma_{tr1} + Q_{dop} = L_{l2} + G_2 C_2 \gamma_2 + G_{tr2} C_{tr2} \gamma_{tr2} + Q_5$$

Bu tenglikdan quyidagini yozishimiz mumkin:

$$L(I_2 - I_1) = G_1 C_1 \gamma_1 + G_{tr1} C_{tr1} \gamma_{tr1} + Q_{dop} - G_2 C_2 \gamma_2 - G_{tr2} C_{tr2} \gamma_{tr2} - Q_5.$$

Shunday qilib,  $L(I_2 - I_1) = \sum Q$ . Bu issiqlik sarfi yig'indisini beradi.

1 kg bug'langan namlikka nisbatan issiqlik sarfi yig'indisi:

$$\frac{L}{W}(I_2 - I_1) = \frac{\sum Q}{W}; \quad \frac{\sum Q}{W} = \Delta; \quad l(I_2 - I_1) = \Delta; \quad I_2 = I_1 +$$

$$\frac{\Delta}{l};$$

Bu yerda:  $\Delta$  – 1 kg bug'langan namlikka nisbatan olingan kameraga kirgan va sarf bo'lgan issiqlik farqini ko'rsatadi.

### **Mavjud quritish jarayonini Ramzinning I-d diagrammasida ifodalash**

Professor Ramzinning I-d diagrammasi ho'l havo holtini ifodalaydi va undan foydalanish "Kemyoviy texnologiya asosiy jarayon va qurilmalari" kursida ko'rib chiqilgan. Biz esa mavjud quritish jarayonining shu diagrammada ifodalash usulini ko'rib chiqamiz.

Normal quritish jarayoni uchun caloriferdag'i issiqlik sarfi 193- rasmida foydalanilgan belgilashga muvofiq quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$Q_k = L(I_1 - I_0) \cdot$$

Bu yerda:  $I_1$  – havo entalpiyasi

Quritish kamerasi uchun quyidagicha yozish mumkin:

$$Q_i = L(I_2 - I_0) + \sum Q_i$$

Bu yerda:  $\sum Q_i$  – materialni, transport vositalarini qizdirish uchun sarf bo'lgan va atrof muhitga tarqalgan issiqlik yig'indisi.

1 kg bug'langan namlikka nisbatan olingan issiqlik sarfi, ya'ni solishtirma issiqlik sarfi:

$$q = \frac{Q_k}{W} = \frac{I_1 - I_0}{d_2 - d_0} = l(I_1 - I_0) \cdot$$

Havoning provard holatini hisobga olgan holda, nazariv quritgich uchun shunday yozish mumkin:

$$q_T = \frac{I_2 - I_0}{d_2 - d_0} \cdot$$

Mavjud va nazariy quritgichdagi solishtirma issiqlik sarfi o'rtaсидаги farqni quyidagicha ifodalash mumkin:

$$q - q_T = \frac{I_1 - I_2}{d_2 - d_0} = \Delta \cdot$$

Quritish kamerasida qo'shimcha havo isitgichi bo'l-magan hol uchun:

$$\Delta = \frac{\sum Q_i}{W} = q_m + q_r + q_{power} - C\gamma_m$$

Bu yerda:  $C$  – suvning issiqlik sig'imi.

Keltirilgan bu ifodaning alohida tarkibiy qismlariga aniqlik kiritamiz:

$$q_M = \frac{G_M \cdot c_M}{W} (\gamma_2 - \gamma_1); \quad q_{pot} = \frac{Q_{pot}}{W};$$

$$q_n = \frac{G_n \cdot c_n}{W} (\gamma_2 - \gamma_1).$$

Quritgichning issiqlik Foydali ish koefitsiyenti (FIK):

$$\eta = \frac{r}{q}.$$

Bu yerda:  $r$  – suvning solishtirma bug‘lanish issiqligi.

Quritish jarayonini xarakterlovchi kuch:

$$\chi = t - t_M;$$

Bu yerda:  $t$  – havo harorati;  $t_M$  – material harorati

$\chi$  – quritish potentsiali ham deyiladi.

Quritish uskunasining umumiy issiqlik balansi:

$$q = q_T + \Delta = \frac{I_2 - I_0}{d_2 - d_0} + \frac{I_1 - I_2}{d_2 - d_0}.$$

Bu ifoda quritish kamerasida havoning qo‘sishimcha istadigan quritish uskunasi uchun quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ladi:

$$q_k + q_{dop} + \gamma_1 = i_n - q_2 + q_m + q_n + q_5;$$

$$\Delta = \gamma_1 + q_{dop} - (q_m + q_n + q_5).$$

Bu quritgichning ichki balansi:

$$q_k + \Delta = i_n + q_2.$$

Bu hisob-kitoblar natijasini I-d diagrammaga ko‘chirish mumkin. 194- rasmda quritish grafigining qurish usuli

namoyon qilingan. Diagrammadagi A nuqtaning koordinatalari dastlabki, ya'ni sex havosi parametrlarini ifodalaydi. Havoni caloriferda qizdirish AV chizig'i bo'yicha boradi va V nuqtaning koordinatalari quritish kamerasiga berilayotgan isitilgan havo parametrlarini xarakterlaydi.


Nazariy quritish jarayoni

VS chizig'i bo'yicha entalpiyaning doimiyligida boradi. Mavjud quritish jarayoni chizig'inining holati quritgichning ichki issiqlik balansini ifodalovchi  $\Delta$  ning ishorasi va miqdoriga bog'liq. Mavjud quritish jarayoni chizig'inining holatini aniqlash uchun VS<sub>0</sub> chizig'ida e nuqtasini saylab olamiz va eE chizig'i uzunligini hisoblaymiz:

$$eE = \frac{\Delta}{m} \cdot ef .$$

Bu yerda  $m = \frac{M_J}{M_d} \cdot 1000$  diagramma masshtabi;  $M_J$  – J bo'yicha diagramma masshtabi;  $M_d$  – d diagramma masshtabi.

Agar  $\Delta$  musbat bo'lsa, unda eE kesimi yuqoriga, manfiy bo'lganda, pastga qo'yiladi. V va E nuqtalari birlashtiriladi va bu chiziq qabul qilingan  $\varphi$  chizig'i bilan kesishguncha davom ettiriladi. Kesishish nuqtalari S<sub>1</sub> va S<sub>2</sub> larning koordinatalari ishlab bo'lgan havo parametrlarini ifodalaydi. VS<sub>1</sub> va VS<sub>2</sub> chiziqlari real (mavjud) quritish jarayonini ifo-



194- rasm. Quritish grafigini ifodalash

dalaydi. S<sub>1</sub> va S<sub>2</sub> nuqtalarini birlashtirib quritish jarayonini ifodallovchi uchburchakni olamiz.

*Takrorlash uchun savollar:*

1. Konvektiv-rolikli quritgichdagi mato zapravkasini tu-shuntirib bering.
2. Mato sirtmog'i osilgan holda quritish mashinasining ish-lash prinsipini gapirib bering.
3. Quritgichlar tashqi muhitdan qanday izolatsiya qilinishi to'g'risida gapirib bering.
4. Saplodan havoni matoga yo'naltirishning afzalliklarini tushuntirib bering.
5. "Atros" firmasi quritish mashinasidagi havo sirkulatsiya-sini gapirib bering.
6. Nima uchun ko'p yarusli quritish mashinasidan foy-dalanishga majbur bo'linadi?
7. To'r barabanli qurigish mashinasi to'g'risida gapirib bering.
8. Quritish-kengaytirish mashinasining konstruktiv qismlari to'g'risida gapirib bering.
9. Quritish-kengaytirish mashinasida mato nimaning hiso-biga uzunasiga qisqaradi.
10. Mato chetini klupplar ignalariga sanchish mexanizmlari to'g'risida gapirib bering.
11. Konvektiv usulda mato qurituvchi jihozning material va issiqlik balansini tuzish tartibini gapirib bering.

## **VI BOB. MATOGA (TRIKOTAJ POLOTNOLARIGA) GUL BOSISH MASHINALARI**

To'qimachilik materiallarini rang-baranglash va bezash ularning sifatini belgilovchi omillar qatoriga kiradi. Matolar yuzasiga rasm va bezaklarni tushirish gul bosish jarayonining vazifasi hisoblanadi. Zamon talablariga javob beruvchi to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish gul bosish texnologiyasi va jihozlariga alohida e'tibor qaratishni talab qiladi, chunki ishlab chiqariladigan matolar va trikotaj mahsulotlarining qariyib 60% i pardozlashning gul bosish bo'limidan o'tadi. Tarixchilarining ta'kidlashlaricha, gul bosish yo'li bilan matolarni bezash usuli Hindiston, Xitoy va Misr mamlakatlarida boshlangan. U tarixiy davrda mato yuzasiga bo'yovchi moddani ustalar cho'tka (kist) bilan surganlar. Keyinchalik mato yuzasini zaxiralash uchun eritilgan mumdan foydalanilgan. Balki shu zaxira usuli gul bosishning paydo bo'lishiga turki bo'lgan bo'lsa, ajab emas. "Xon atlas" matosini ishlab chiqarish texnologiyasida hozirgacha qo'llaniladigan aberband usuli shu gul bosish usulining bir ko'rinishidir. Bu usulda matoning bo'yalishi lozim bo'limgan joylari ip bilan mahkam o'rabi qo'yiladi.

Daraxtdan tayyorlanadigan va bo'rtib chiqib taradigan joyiga gul bosish bo'yog'i yoki zaxiralovchi moda surtiladigan kleshe, ya'ni gul bosish andozasining paydo

bo‘lishi gul bosish jarayoni mexanizatsiyalanishining boshlanishi bo‘ldi, deb hisoblasa bo‘ladi. Tarixchilar bergen ma‘lumotlarga asoslanib, matoga gul bosishning bu usuli Hindistonda yaratilgan deyishga asos bor. Vaqt o‘tishi bilan kleshe takomillasha bordi va uning yordamida yuqori badiiy qimmatga ega naqshlar olish imkonи bo‘ldi.

Birinchi gul bosish fabrikasi 1676- yili Angliyada, undan so‘ng 1698- yili Germaniyada ishga tushirilgan. 1783- yili Shotlandiyalik Bell tomonidan silindrsimon valli mashinaning ixtiro qilinishi gul bosish texnikasi rivojida keskin burilish yasadi. Mis valli bu gul bosish mashinasining ishlash prinsipi hozirgi zamon gul bosish mashinalari-da ham saqlanib qolgan. 1805- yili valli yuzasi gravyurali gul bosish mashinasi taklif qilindi. 1823- yili Charch uch rangli rasm bosuvchi gul bosish mashinasiga patent oldi. Bu texnik takomillar ishlab chiqarish unumdorligini tubdan oshirish va mashinada gul bosish usulini ishlab chiqarishda qo‘llash uchun zamin tayyorladi. Ammo gul bosish andozalaridan foydalanib, qo‘lda gul bosish usuli laboratoriya izlanishlarida va jun ro‘mol va sharflarga yuqori badiiy naqshlar tushirishda hanuzgacha qo‘llanib kelinmoqda. Rasm yuzasiga o‘yib tushirilgan valli mashinalar ishlab chiqarishda, ayniqsa, ip-gazlamalar tayyorlashda keng qo‘llaniladi. Ammo mato sifatiga o‘sib borayotgan talablarni qondirish, hosil bo‘lishi mumkin bo‘lgan braklar (nuqsonli mahsulot) miqdorini kamaytirish va mashina ekspluatatsiyasini tobora xavfsizroq qilish uchun mashina konstruksiyasi doimo takomillashtirilib borilmoqda.

## **1- §. Valli (rotatsion) gul bosish mashinasi**

### **1. Mashinaning ishlash prinsipi**


Rotatsion gul bosish mashinalarida yuzasiga naqshlar (gullar) tushirilgan, tez aylanadigan vallar yordamida bezalgan matolar olinadi. Bunday mashinalar yuqori unumdoorlikka ega, chunki mato tezligi 120 – 200 м/min gacha yetadi. Val yuzasiga rasm elementi o'yib tushirilgan bo'lishi va uning yuzasidan bo'rtib chiqib turgan bo'lishi mumkin. Rasm elementi bo'rtib chiqib turgan valli gul bosish mashinalari qog'ozdan tayyorllangan oboylarga, klyonkalarga va linoleum kabi gidrofob materiallarga gul bosish uchun xizmat qiladi.

To'qimachilik sanoatida yuzasiga rasm o'yib tushirilgan valli mashinalar keng qo'llaniladi. Ular bir va ko'p valli bo'ladi, umuman olganda, matodagi rasminning ranglar soni mashina vallari soni bilan belgilanadi. Valiga rasm o'yib tushirilgan mashinalar chexolli va chexolsiz ishlashlari mumkin. Chexolsiz ishlaydigan mashinalar, o'z navbatida, kirza yuvish uskunali yoki gruzovigi yuzasiga rezina qatlammi qoplangan bo'ladi. Chexoldan foydalanish qo'shimcha mablag' talab qilsada, gul bosishishning bu usuli ko'p rangli bezakli matolar ishlab chiqarishda va o'zidan bo'yoqni oson o'tkazadigan yupqa materiallarga gul bosishda uning o'rmini bosadigan usul yo'q. Bu usulda chexol bir marta ishlatilgandan so'ng oqartirilib, tayyor mahsulot sifatida sotiladi yoki har bir ishlatilganidan so'ng yuvilib, quritilib, to ishga yaroqsiz bo'lib qolguncha foydalaniladi. Chexol

sifatida ip-gazlama – bo'z va sintetik tolalar – kapron va lavsandan tayyorlangan matolar ishlatiladi. Sintetik toladan tayyorlangan matolar yuqori mustahkamliliklari va bo'yoq muhitiga chidamliliklari tufayli bo'zga nisbatan 10 barobar ko'p marta ishlatishga yaraydi. Ammo chexolsiz gul bosish usuli unumdar bo'lgani uchun ishlab chiqarishda keng qo'llaniladi.

Gruzovigi yuzasiga rezina qatlami qoplangan gul bosish mashinasi qo'shimcha yuvish uskunalarini o'rnatishni talab qilganligi tufayli ishlab chiqarishda o'z o'mini topmadi. Valli gul bosish mashinasining ishlash prinsipi va tuzilishi 195- rasmda keltirilgan to'rt valli mashina sxemasi asosida ko'rib chiqamiz.

Keltirilgan sxemadan ko'rinish turibdiki, gul bosish valari (2) gruzovik deb ataluvchi silindr (1) atrofida joylashgan. Silindr yuzasiga 10 – 16 qavat mato o'ralib, laping deb



195-rasm. To'rt valli gul bosish mashinasining sxemasi:


1 – gruzovik; 2 – gul bosish vali; 3 – laping; 4 – raklya; 5 – bo'yoq vannasi;  
6 – cho'tka; 7 – kontrraklya; 8 – mato; 9 – chehol; 10 – kirza.

ataluvchi elastik yuza hosil qilinadi. Gul bosish bo'yog'i tepaga ko'tarilish-tushirish konstruksiyasiga ega vanna (5)ga quyiladi va uning ichiga o'rmatilgan cho'tka (6) bo'yoqni val yuzasiga surtadi. Gul bosish vali yuzasidan bo'yoqni sidirib, uni faqat gravyura ichida qoldiradigan raklya deb ataluvchi pichoq valning aylanish yo'nalishiga qarshi holda o'rnatiladi.

Raklya yuqori sifatli legirlangan po'lat markasidan tayyorlanadi va gul bosish vali yuzasiga pishang va yuk yordamida chiqib turadi. Uning tig'i bir tekisda yoyilishi va uzoq vaqt xizmat qilishini ta'minlash maqsadida unga bordi-keldi harakat beriladi. Umuman, raklyaning vazifasi bo'yoqni faqat gul bosish vali yuzasining uning rasm tushirilgan joyida qoldirib, qolgan tekis qismini tozalashdan iborat.

Rossiya standartiga muvofiq, raklyaning oltita (1 – 6) nomeri belgilangan va ular raklya plastinkasining qalinligi bilan farqlanadi. Birinchi nomerli raklyaning qalinligi 0,75 mm bo'lsa, oltinchi nomerniki esa 0,50 mm ni tashkil qiladi va har bir raklya nomerdan nomerga qalinligi 0,05 mm ga o'zgaradi.

196- rasmda raklyaning gul bosish valiga nisbatan joylashishi ko'rsatilgan. Raklyaga qarama-qarshi tarafda gul bosish vali harakati yo'lishiga mos ravishda konrraklya (7) o'rnatiladi. Konrraklya metallar qotishmasi –




196- rasm. Raklyaning gul bosish vali yuzasiga nisbatan joylashishi;  
1 – val yuzasi; 2 – raklya; 3 – raklyaning charxlangan tig'i.

latundan tayyorlanadi. Ma'lumki, bu qotishma bo'yoq muhitiga chidamli va yumshoq. Uning vazifasi gul bosish vali yuzasini matodan o'tgan tolachalar va bo'yoqdan tozalashdir. Shuning uchun ko'p valli mashina har bir gul bosish valida bezakning bir rangli qismi joylashgani bois, mato vallardan birin-ketin o'tib, uning yuzasida ko'p rangli bezak hosil bo'ladi.

Lapingni 10 – 16 qavat mato hosil qiladi va uning vazifasi gruzovik yuzasida elastik qatlama hosil qilish; bu qatlama gul bosish bo'yog'ining val gravyurasidan mato yuzasiga o'tishi uchun sharoit yaratadi. Lapingning ustida 5 – 6 qavat ip-gazlamadan iborat, qalinligi 1,5 – 5,0 mm li, o'ng yuzasiga rezina qoplangan kirza deb ataluvchi mato harakatlanadi. Kirza gruzovik yuzasiga tarang tortilgan holda butun gul bosish agregatidan o'tadi. Natijada bu mato tortilish, egilish deformatsiyalari ta'sirida bo'ladi, shuning uchun undan o'ta mustahkamlik talab qilinadi. Ba'zi mashinalarda kirza gul bosish aggregati tarkibiga kiruvchi kirzaning yuvish, quritish mashinalari ishchi organlarini ham harakatga keltiradi. Ammo hozirgi zamon gul bosish aggregatining har bir mashinasi o'zining shaxsiy yurituvchisiga ega. Kirzani tashkil qiluvchi alohida matolar o'zaro yelimlanadi, bu kirzaga zarur bikirlik va mustahkamlik beradi. bundan tashqari, kirza yuzasining tekis bo'lishini ta'minlaydi. Yuzasi rezinalashtirilgan kirzani gul bosish jarayonidan so'ng tozalash osonlashadi. Ishdan chiqqan kirzaning o'rning yangisini mashinaga kiygizish ishchilardan katta mahorat talab qiladi. Masalan, uzlusiz bo'lgan kirzani mashinaga kiygizish uchun hamma gul bosish vallari

chiqarilib, mashina stani nasining bir tarafi yechilishi lozim. Ammo hozirda ikki uchi bo'lgan kirzadan foydalaniлади va uning uchlari mashinaning o'zida o'zaro tikiladi. Hosil bo'lgan chok izi matoda qolmasligi uchun chok tepasidan yupqa mato "poloskasi" yelimlab qo'yiladi. Kirza uchlarni o'zaro yelimlash usuli bilan birlashtirish keng qo'llaniladi. Bunday biriktirishning bir usulida kirzani tashkil qiluvchi matolar pog'anali ravishda qatlamlari kesilib, bir-birining ustiga tushirilib yelimlanadi. Kirza uchlarni birlashtirish usullari 197- rasmda ko'rsatilgan. Yelimlash usulining ikkinchi bir usulida kirza uchlari bir pog'anali qilib kesilib kleylanadi (197- D rasmga qarang).

Gruzovik gul bosish vallari uchun tayanch vazifasini bajaradi. Uning diametri mashina vallari soniga bog'liq. Ular sonining ortishi gruzovik diametrining ortishiga olib keladi. Masalan, 10 valli mashina gruzovigining diametri 1500 mm ni tashkil qiladi. Gruzovik o'z podshipniklarida gul bosish vallariga siqilishi orqali aylanadi. Uni vertikal yo'nalishda yuqoriga yoki pastga harakatlantirish mumkin.



197- rasm. Kirza uchlarni biriktirish usullari.

A – tikish usuli; B – pog'anali kesilgan qavatlarni kleylash usuli; D – bir pog'anali kleylash usuli.

Bunday harakat gul bosish vallari diametri o'zgarganda va kirzani zapravka qilish uchun zarur. Lapingni tashkil qiluvchi matoning uprugaelastiklik hossalari muhim rol o'yynaydi. Oldin bunday material sifatida keng byaz ishlatilgan bo'lsa, hozirda tanda ipi zig'ir tolasidan arqoq ipi esa jun tolasidan tayyorlangan va bir tarafiga rezina qoplangan mato yoki poliamid hamda poliefir sintetik tolalariдан тайзорланган матолардан фойдаланиш яхши натија бермоқда.

## **2. Gul bosish vali va unga bo'yoqni surtish mexanizmi**

Gul bosish vali yuqori tozalikka va mayda kristallik strukturaga ega bo'lgan misdan tayyorlangan, devori qalin silindr dan iborat. Misni tejash maqsadida val po'latdan tayyorlangan choksiz truba yuzasiga galvanik usulda 2 – 10 mm qalinlikda mis qatlami hosil qilish yo'li bilan tayyorlangan yoki bo'lmasa, po'lat trubaga devor qalinligi 10 – 15 mm bo'lgan mis silindri presslash yo'li bilan kiygiziladi. Gul bosish valini tayyorlashda qo'llaniladigan misning mustahkamligi 35 kG/mm<sup>2</sup> dan kam bo'lmasligi talab qilinadi. Bunday valda elementlari o'zaro mustahkam birikishi uchun po'lat val tashqi yuzasi va mis silindrning ichki yuzasi konussimon qilinadi yoki biriktirish uchun shponkadan foydalilaniladi. 198- rasmda mis valning shponka uchun ariqchali va ichki yuzasi silliq turlari keltirilgan. Matoga bir bezak tushiradigan gul bosish vallari aylanasining

uzunligi o'zaro teng bo'lishi  
 (odatda, 330 – 800 mm), ular  
 orasidagi mavjud farq  $\pm$  0,2 mm  
 dan oshmaslishi lozim. Rasm  
 (gul) raporti esa gul bosish vali  
 aylana uzunligiga butun son  
 marta joylanishi kerak. Valning  
 yuzasi tekis oqartirilgan va gul  
 bosadigan qismlardan iborat.  
 Tekis oqartirilgan qismi shli-  
 ffovkalangan silindrik yuzani  
 tashkil qilsa, gul bosish qismi  
 esa gravyuralangan yuzadan  
 iborat. Gul bosish qismi tor kesishgan ariqchalardan iborat  
 bo'lib, yacheykalarida gul bosish bo'yog'i ushlab turiladi,  
 yacheykalarning devorlari esa raklya uchun tayanch bo'lib  
 turadi, shuning uchun raklya egilmaydi. Yacheykalarning  
 o'lchami "rastra" deb ataluvchi mayda to'rlarning chiz-  
 gisiga bog'liq. Shakli bo'yicha rastra koreshkali, tochkali  
 (piko) va chiziqchali bo'ladi. Odatda, valning 1 sm aylana  
 uzunligida 10 – 30 ta rastra chiziqchalari joylashadi. Rast-  
 ra chiziqchalari mato yo'nalishiga nisbatan burchak ostida  
 (45 – 500) joylashtiriladi va ular hosil qiladigan ariqcha-  
 larning chuqurligi 0,05 – 0,3 mm ni tashkil qilishi mum-  
 kin. Ariqcha chuqurligini o'zgartirib, matodagi rasm rangi  
 quyuqligini o'zgartirish mumkin, shu yo'l bilan yarim tonli  
 (polutonoviy) rasmlar olish imkonii bor. Gul bosish vali-  
 ning xizmat davrini uzaytirish uchun uning yuzasi silliqla-  
 nadi (shlifovkalanadi) va xromlanadi.



198- rasm. Gul bosish vali  
silindrlarining turlari:

A – shponka uchun ariqchali;  
 V – ichki yuzasi silliq.

Gul bosish jarayonida gul bosish vali yuzasiga bo'yоqni uzluksiz surkash uchun vanna va uning ichiga o'rnatilgan cho'tkadan iborat mexanizm xizmat qiladi. Mexanizmning vannasi gul bosish bo'yog'i muhitiga chidamli materialdan, masalan, oldinlari misdan, hozirda esa tarkibida xrom, nikel, molibden, titan kabi metallar tutgan legirlangan po'lat markalaridan tayyorlanadi. Gul bosish vali yuzasidan rakklya sidirib oladigan bo'yоqning vannaga oqib tushishini ta'minlash uchun vanna holatini gul bosish valiga nisbatan o'zgartirish mumkin. Vanna ichiga bo'yоqni gul bosish vali yuziga surtivchi val o'rnatilgan. Bu val yuzasiga rezina qoplangan bo'lib, bo'yоq yaxshi ushlanib turishi uchun uning yuzasida ariqchalar hosil qilingan. U gul bosish vali gravyurasi chuqurchalari bo'yоqqa to'lmay qoladi, aksincha, bu vallar orasida 2 – 3 mm masofa qoldiriladi. Bo'yоq surtish vali gul bosish validan harakat oladi.


Gul bosish valiga bo'yоqni surtish uchun cho'tkali vallar ham ishlatiladi. Bunday val cho'tkasi uchun ot yolidan, hozirda esa poliamid tolasidan foydalaniladi, chunki bu tola bo'yоq muhitiga chidamli. Cho'tkali valning cho'tkasi gul bosish vali yuzasiga tegib turadi, shuning uchun ular val gravyurasini tozalab ham turadi, va bunday cho'tkali mexanizm mashinanig birinchi gul bosish valiga o'rnatiladi.

### **3. Kirzani yuvish va quritish uskunasi**

Chexolsiz gul bosish usulida gul bosish jarayonidan o'tgan kirza yuvilishi, quritilishi va sovitilishi lozim, shundan so'ng u yana gul bosish jarayoniga qaytariladi. Bu

vazifa gul bosish agregati tarkibiga kiruvchi maxsus uskuna na yordamida amalga oshiriladi. Shunday uskunaga misol tarzida Rossiyada ishlab chiqarilgan MKS – 120 uskuna sining texnologik sxemasi 199- rasmda keltirilgan.

Gul bosiladigan mato ortiqcha bo'yoqni o'ziga oladigan kirza ustiga yotqiziladi. Gul bosish jaryonidan o'tgan mato (1) qurituvchi quritgichga yuboriladi, bo'yoq bilan yuzasi ifloslangan kirza (2) esa uni yuvuvchi uskunaga yo'naltiriladi. Bu uskuna tarkibiga kiruvchi, yuzasiga rezina qoplama kiygilgan val (4) uning asosiy ishchi organi hisoblanadi va u kirzadan harakat oladi. Uning atrofida uchta yuvish cho'tkalari (5), siqish vali (6) va quritish cho'tkalari (7) joylashtirilgan. Bu cho'tkalar kirza harakatiga qarshi tarafga o'zlarining shaxsiy yurituvchisi yordamida aylanadi. Yuvish cho'tkalari kapron tolasidan, quritish cho'tkalari esa cho'chqa junidan tayyorlanadi. Yuvish cho'tkalari purkagichlar bilan ta'minlangan bo'lib, ulardan 50 – 60°C li suv kirza yuzasiga purkaladi.



199- rasm. MKS – 120 uskunasining texnologik sxemasi:

- 1 – mato;
- 2 – kirza;
- 3 – gul bosish mashinasi;
- 4 – yuzasiga rezina qoplangan val;
- 5 – yuvish cho'tkalari;
- 6 – siqish vali;
- 7 – quritish cho'tkalari;
- 8 – quritgich;
- 9 – kompensator;
- 10 – sovitgich;
- 11 – kirzaning mashina markazidan o'tishini ta'minlovchi rolik.


Yuvish uskunasi atrof-muhitdan ajratuvchi germetik qopqoq bilan ajratilgan. Toza qilib yuvilgan va cho'tkalar yordamida suvsizlantirilgan kirza quritgich (8)da qizdirilgan havo oqimida quritiladi. Shundan so'ng u kompensator (9) orqali havo yordamida sovituvchi sovitgich (10)da sovitiladi; rolik (11) yordamida gul bosish mashinasiga kirish oldidan mashina markaziga moslashtiriladi.

Kirzaning ishslash davrini uzaytirish maqsadida uning yuzasiga polixlorvinil qoplama yotqizish va yuzada ariqchalar hosil qilish taklif etilgan. Bu ariqchalar ortiqcha bo'yoyqning yaxshi shimalishini ta'minlaydi. Chuqurligi 0.17 mm bo'lган bu ariqchalarni mayda, 1 sm da 20 tadan iborat shtixlarchalar hosil qiladi. Bunday qoplamali kirza oddiy kirzaga nisbatan 5 – 6 marta ko'proq xizmat qiladi va yuvilgandan so'ng saploli quritgichda tez quriydi.

#### **4. Valli gul bosish mashinasining yurituvchisi**

200- rasmda valli gul bosish mashinasi yurituvchisi ning kinematik sxemasi keltirilgan. Ma'lumki, mashina yurituvchisi uning tezligini keng diapazonda regulirovka qilish imkonini berishi lozim. Hozirgi zamon ko'p valli gul bosish mashinalarining yurituvchida doimiy tokda ishlaydigan elektrodvigatellardan foydalaniladi va agregatning har bir ishchi organi o'zining shaxsiy yurituvchisiga ega bo'ladi. Bunday yurituvchili gul bosish agregati o'zgaruvchan tokni doimiy tokka aylantirib beruvchi uskuna bilan ta'minlanadi.

Bir valli gul bosish mashinalari yurituvchisida o'zgaruvchan tokda ishlovchi kollektorli elektrodvigateldan foydalanish ham taklif qilingan. Gul bosish tezligini



200- rasm. Gul bosish mashinasi yurituvchisining kinematik sxemasi:

1 – gul bosish vali; 2 – elektrodvigatel; 3 – reduktor; 4 – tasmali uzatgich; 5 – “ona” g’ildirak; 6 – raport shesternyasasi.

variatorlar yordamida o’zgartiruvchi yurituvchiga ega gul bosish mashinalari ham mavjud. Ammo, yuqorida ta’kidlanganidek, hozirda doimiy tokda ishlovchi elektrodvigatelli yurituvchilardan keng foydalaniladi. Buning sababi agregat tezligini o’zgartirish diapazoni keng va boshqa usullarga nisbatan arzon. Bunday yurituvchili agregatda mato tezligi doimiy tokning kuchlanishini o’zgartirish orqali regulirovka qilinsa, alohida ishchi organlarning tezligi elektrodvigatel xarakteristikasini o’zgartirish orqali o’zaro moslashtiriladi.


Yuqorida keltirilgan yurituvchining kinematik sxemasidan ko’riib turibdiki, gruzovik atrofiga joylashtirilgan gul bosish vallari (1) raport shesternyalari (6) orqali “ona” g’ildirak (5)dan harakatlanadi. “Ona” g’ildirak, o’z navbatida, reduktor valida o’tiruvchi  $Z_1$  shesternyasidan harakat oladi.

## 5. Trafleniye qilish mexanizmlari

Gul bosish mashinasining trafleniye qilish mexanizmlari matoga tushirilayotgan naqshning alohida vallarda joylashtirilgan qismlarini o’zaro moslash maqsadida gul bosish vallari holatini o’zgartirish uchun xizmat qiladi. Bu

mexanizmlar ikki va undan ortiq valli mashinalarda mavjud bo'ldi. Naqsh elementlarining mos tushishi uchun gul bosish vallari o'zaro parallel va mashina gruzovigi o'qiga ham parallel qilib o'rnatilishi lozim. Bundan tashqari, naqsh elementlari val o'qi va val aylanasi bo'yicha ham mos tushishi talab qilinadi. Shuning uchun gul bosish valining holati quyidagi uch yo'nalishda regulirovka qilinishi kerak: vertical bo'yicha (ko'chirma trafleniye), val o'qi bo'yicha (o'q bo'yicha trafleniye) va val aylanasi bo'yicha (aylanma trafleniye). Vallarning o'zaro parallelligi uning bir tarafidagi podshipnigi korpusini tepaga yoki pastga tushirish orqali erishiladi. Podshipnik korpusini o'q bo'yicha siljitim orqali o'q bo'yicha trafleniye qilishga erishiladi. Misol tariqasida 201- rasmda keltirilgan val podshipnigi korpusini mashina gardishiga biriktirish mexanizmini ko'rib chiqamiz.

Mexanizmning asosi bo'lib mashina korpusi yo'naltiruvchisida gul bosish valining shipi bilan harakatlana oladigan kub shaklidagi buksa (1) hisoblanadi. Gul bosish valini gruzovikka siqish uchun kalit vint (3) teshigi (5)ga kirgizib buraladi, natijada vtulka (2) va mahkamlovchi halqa (4)dan o'tuvchi vint (3) vtulka (2)ga ichkari tomondan kiygilgan tarelkasimon prujina orqali buksaning itarib gul bosish valini gruzovikka siqadi. Vint (3)ning buralish darajasini



*201- rasm Gul bosish valining mashina gardishiga mahkamlash mexanizmi:*


- 1 – buksa; 2 – vtulka; 3 – vint; 4 – halqa; 5 – teshik; 6 – qiyshaytirish vinti; 7 – buksaning bo'rtib chiqqan joyi; 8 – gayka va kontrgayka; 9 – qisqich; 10 – gayka; 11 – val; 12 – vint; 13 – mashina korpusi.

o'zgartirib, gul bosish valining gruzovikka siqilish darajasini o'zgartirish mumkin bo'ladi. Hozirgi zamon mashinalarida vintli siqish mexanizmi o'rniغا, pnevmo yoki gidravlik mexanizmlardan foydalaniladi. Bu mexanizmlar gul bosish valining siqilish darajasini aniq regulirovka qilish imkonini beradi.

Gul bosish vallarining paralelligiga qiyshaytirish vinti (6)ini burash orqali erishiladi. Bu vint buksaning bo'rtib turgan joyiga kirgizilgan bo'lib, gayka va kontrgayka (8) bilan mahkamlangan. Bunday mexanizmni valning bir tarafida o'rnatish kifoya. Valni o'qi bo'yicha siljituvchi mexanizm tarkibiga buksaning yon tarafiga presslangan vint (12), unda o'tiruvchi qisqich (9) va unga mahkamlangan podshipnikli ajraladigan halqa kiradi. Gayka (10)larni kalit bilan aylantirish orqali buksani val shipi bilan birgalikda siljitish mumkin.

Naqsh elementlarini val aylanasi bo'yicha trafleniye qilish mexanizmi konstruksiysi yuqorida keltirilgan mexanizmga nisbatan ancha murakkab. Buning uchun raport shesternyasidan yoki alohida raport uzelidan foydalaniladi. 202- rasmda aylanma trafleniye qilish imkonini beradigan raport shesternyasining konstruksiysi keltirilgan.

Bu shesternya yordamida uni "ona" g'ildirak bilan ilashishdan chiqarmasdan, u o'rnatilgan gul bosish valini katta bo'Imagan burchakka burish mumkin. Tishli g'ildirakning markazidagi teshikka gul bosish vali shipi shponka va vint (5) bilan mahkamlanadigan vtulka (2) zich kiygizilgan. Vtulka bir tarafidagi bo'rtigi (6) bilan tishli g'ildirakka zichlanib turadi. Uning ikkinchi trafiga uchta vint va chervyak




202- rasm. Raport  
shesternyasi:

1 – tishli g'ildirak; 2 – vtulka;  
3 – chervyakli tishi bor halqa;  
4 – chervyak; 5 – vint; 6 – bo'r-tik.

(4) bilan ilashuvchi chervyaksimon tishli halqa (3) mahkamlangan. Chervyak (4) tishli g'ildirak tanasidagi teshiklarga kiygizilgan. Bu chervyak bosh qismida raport kaliti kirgiziladigan teshigi bo'lib, uni kalit bilan burab, vtulka (2)ning va unga mahkamlangan gul bosish vali shipiga qo'shimcha bir necha gradusga buralish beriladi. Gul bosish valining diametri o'zgarganda, raport shesternyasining tishlar sonini o'zgartirish zarur bo'ladi. Bu esa mashinada tishlar soni har xil bo'lgan bir necha raport shesternyalarini saqlashni talab qiladi. Bundan tashqari, bu shesternya yordamida trafleniye past tezlikda qo'l yordamida amalga oshiriladi va ishchidan katta mahorat talab qiladi. Bu shesternya tuzilishini tushunish hozirgi zamon mashinalaridagi trafleniye uzellarining ishlash prinsipini tushunish imkonini beradi.

Yangi gul bosish mashinalarida bunday trafleniyeneye bajarishni mexanizatsiyalashga katta e'tibor qaratilmogda. 203- rasmida Chexiyaning "Kovo" firmasi mashinasining aylanma trafleniyesining masofadan amalga oshirish imkoniga ega raport uzelining sxemasi keltirilgan. "Ona" g'ildirak gul bosish valida o'tiruvchi shesternya (10)ni chervyakli uzatma (8 va 9) bilan bog'langan



203- rasm. "Kovo" firmasi mashinasining masofadan boshqariluvchi trafleniye uzeli.

1 – "Ona" g'ildirak; 2 – shesternya; 3 – planetar aylanuvchi shesternyalar; 4 – tormoz barabani; 5 – tormoz kolodka – lari; 6 – shesternya; 7 – chevyakli uzatma; 8 – chervyak; 9 – chervyak g'ildiragi; 10 – shesternya; 11 – gul bosish vali.


kontr uzatma (2 va 6) orqali harakatlantiradi. Chervyak (8) "ona" g'ildirakdan harakat oluvchi shesternya (2) bilan bog'langan, chervyak g'ildiragi (9) esa yetaklanuvchi shesternya (6) bilan bog'langan. Agar chervyak (8) o'z o'qi atrofida boshqa yurituvchidan qo'shimcha aylantirilsa, bu harakat g'ildirak (9)ga va u orqali shesternya (6) ga, so'ng gul bosish vali (11)ga uzatiladi. Shu qo'shimcha harakat aylanma trafleniyyeni ta'minlaydi. Chervyak (8)ka qo'shimcha harakat g'ildiragi chervyak o'qida o'tiruvchi boshqa chervyakli uzatma orqali beriladi. Bu uzatmaning chervyagi (7) ikkita planetar aylanuvchi shesternyalar (3) bilan bog'langan. Bu planetar shesternyalar (3) harakatni raport uzeli o'qida o'tiruvchi tormoz barabanlariga beradi. Agar rasm rapporti o'zgarmasa, rapport uzeli harakatni "ona" g'ildirakdan shesternya (10)ga shesternyalar (1, 2, 6, 10) uzatishlar soniga muvofiq beradi. Bunda ikkala tormoz barabani bir xil aylanma tezlik bilan aylanadi. Raportni o'zgartirish (trafleniye qilish) uchun (5) tormoz kolodkalarining biri bilan barabanlarning birini tormozlash kifoya. Bunday holatda boshqa barabanning burchak tezligi ka-

mayadi va bu planetar uzatmaga ta'sir qiladi, natijada ik-kita chervyakli uzatma (7, 8, 9)ni harakatga keltiradi. Bu esa, o'z navbatida, yetaklanuvchi shesternya (6) va gul bosish vali (11)ning aylanish tezligini o'zgartiradi. Bunday avtomatlashtirilgan trafleniyeda bu uzelni boshqaruvi mashinani boshqarish paneliga chiqariladi va raklist mashina tezligini o'zgartirmagan holda jarayonni boshqaradi.

"Kovo" firmasi elektromagnit yordamida boshqariluvchi trafleniyeye uzelni konstruksiyasini ham taklif qilgan. Bunday uzelning ishlash prinsipini tushuntiruvchi sxema 204- rasmda keltirilgan.

Trafleniyeye qiluvchi shunday uzel bilan har bir gul bosish vali ta'minlangan. Yurituvchining normal ishlash rejimida gul bosish vallari shesternya ( $Z_1$ ), chervyakli bloklar ( $Z_{ch1}$  –  $Z_{13}$  va  $Z_{ch2} - Z_{13}$ ), va bosh val (2) orqali "ona" g'ildirak (1) dan bir xil va teng harakat oladi. Bunday sharoitda hamma yordamchi planetar uzatgichilar aylanadi, ammo bosh val (2)ga qo'shimcha harakat yetkazmaydi.

Trafleniyeye uchun elektromagnit tormozlardan foydalaniadi, ular yordamida  $Z_g$  yoki  $Z_{11}$  shesternyasini tormozlab,



204- rasm. "Kovo" firmasi mashinasining aylana bo'yicha trafleniyeye qilish uzelini sxemasi:

1 – ona g'ildirak; 2 – markaziy val; 3 – gul bosish vali shesternysi; A, B – elektromagnit muflari; Z – harakat uzatish shesternyalari.


bosh val (2)ga ma'lum burchakda qo'shimcha buralish berish imkoniga erishiladi.

Elektromagnit B yordamida qo'shimcha harakat berish variantini ko'rib chiqamiz. Elektromagnit ishga tushirilganda  $Z^8$ ,  $Z_7$  va  $Z_6$  shesternyalar tormozlanadi, bunda harakatsiz shesternya (6) ustida dumalash uchun shesternya  $Z_7$  o'z o'qi atrofida aylanishga majbur bo'ladi. Bu aylanma harakat chervyakli juftlik orqali qo'shimcha buralish sifatida bosh valga va u orqali gul bosish valiga beriladi. Trafeniye jarayoni tugallanishi bilanoq, elektromagnit tormozi B ishdan to'xtatiladi va qo'shimcha harakat tugatiladi. Agar elektromagnit A dan foydalanilsa, gul bosish vali qarama-qarshi tomonga qo'shimcha buralish oladi.

Raport bo'limi shesternyasining "ona" g'ildirak tishlari bilan normal ilashishini ta'minlash alohida masala hisoblanadi. Gul bosish vali diametrining o'zgarishi bilan, "ona" g'ildirak o'qi va raport bo'limi o'qlari orasidagi masofa o'zgaradi, bu esa g'ildiraklar tishlarining bir-biriga ilashish sharoiti o'zgarishiga olib keladi. Bu g'ildiraklar tishlarining bir-biri bilan normal ilashishi uchun mashinada raport shesternyalarning to'plami bo'lishi lozim.

"Mater-Platt" firmasi raport bo'limi elementlarining "ona" g'ildirak tishlari bilan normal ilashishi uchun alohida halqaga mahkamlangan shesternyalar blokidan foydalanishni taklif qilgan. Yurituvchining bu elementi sxemasi 205- rasmda keltirilgan.

Ishlash prinsipi: harakat ona g'ildirak (1)dan shesternyalar bloki (3)ning katta g'ildiragiga uzatiladi va uning kichik g'ildiragi harakatni gul bosish valida o'tiruvchi shesternya



205- rasm "Mater-Plat" firmasi mashinasi shesternyalar blokining mahkamlanish sxemasi:

1 – ona g'ildirak; 2 – gul bosish vali shesternysi; 3 – shesternyalar bloki; 4 – halqa – tayanch.

Valida naqsh o'yib tushirilgan valli mashinalarning rivoji ishlash prinsipi saqlab qolning holda, ularning elementlari konstruksiysi takomillashtirilmoqda. Bunga asosiy sabab ularning unumdarligi yuqoriligi, mashina konstruksiyasining mato tezligi 200 m/min gacha borganda ham titramasligidir. Bu, o'z navbatida, yuqori sifatli mahsulot olishni ta'minlaydi. Hozirgi zamон mashinalarida gul bosish valini gruzovikka siquvchi pnevmo va gidravlik mexanizmlardan foydalanilmoqda. Bundan tashqari, har bir gul bosish vali o'zining gruzovigiga ega bo'lган mashinalar ishlab chiqarilmoqda. Bunday mashinalarga misol qilib "Bryukner" (Germaniya), "Jon Uoldron Korp" ("Geliofast" mashinasi) firmalarining mashinalarini keltirish mumkin.

206- rasmda "Geliofast" mashinasidan mato o'tish sxemasi keltirilgan. Bu mashinada diametri katta bitta gruzovik оrniga, aylana bo'ylab joylashtirilgan shaxsiy gruzoviklardan (presslardan) foydalaniladi. Shaxsiy gruzovikdan foydalanish bir qator afzalliliklarga ega. Gul bo-


(2)ga beradi. Gul bosish vali o'zgartirilganda, "ona" g'ildirak va shesternyalar bloki (3) orasidagi masofaning o'zgarishi halqa (4)ni aylana bo'yicha siljitim bilan kompensatsiya qilinadi; bunda shesternyalar bloki (3) bilan "ona" g'ildirak orasidagi masofa o'zgarishsiz qoladi.

Valida naqsh o'yib tushirilgan valli mashinalarning rivoji ishlash prinsipi saqlab qolning holda, ularning elementlari konstruksi-

sish vali bilan gruzovik siqilish yuzasining kichikligi matoga aniq naqsh tushirishga yaxshi imkoniyat yaratadi. Eng muhimmi, mashinada energiya sarfi kamayadi. Mashina konstruksiyasi aylana uzunligi 450 – 1000 mm bo‘lgan har xil diametrndagi gul bosish vallarini o‘rnatish imkonini beradi. Mashina maksimum 8 ta gul bosish vali bilan ishlaydi, mato tezligi 210 m/min gacha yetadi. Gul bosish agregati tarkibiga, gul bosish mashinasidan tashqari, kirzani yuvish mashinasi kiradi va bu agregat chexolli va chexolsiz usullarda matoga gul bosishi mumkin.


“Brukner” firmasi mashinasida shaxsiy gruzoviklar horizontalga 450 burchak ostida joylashgan harakatsiz ramada bir-biriga yaqin holatda mahkamlanadi. Bu mashina ham yuqoridagi kabi chexolli va chexolsiz usullarda matoga gul bosishi mumkin. Ammo bu mashinani ekpluatatsiya qilish tajribasi haqida ma‘lumot yo‘q. Shaxsiy gruzovikli gul bosish vallari vertikal chiziqdagi o‘rnatilgan mashinalar trikotaj polotnolariga gul bosishda keng o‘rin egallamoqda.

Bunday mashinada mato yuqorida pastga yoki pastdan yuqoriga qarab harakatlanishi mumkin. 207- rasmida gul bosish agregatidan gul bosilayotgan matoning o‘tish sxemasi keltirilgan.



206- rasm. “Geliofast” mashinasidan mato o‘tish sxemasi:

1 – kirza; 2 – gul bosilayotgan mato; 3 – press (shaxsiy gruzovik); 4 – gul bosish vali.




207- rasm. Gul bosish agregatidan gul bosilayotgan matoning o'tish sxemasi:

1 – mato o'rami; 2 – gul bosish bo'yog'i vannasi; 3 – cho'tka; 4 – gul bosish vali; 5 – gruzovik; 6 – raklya; 7 – gul bosilgan mato; 8 – quritgich.

O'ramdan olingan mato yo'naltiruvchi roliklardan o'tib, gul bosish bo'limiga keladi. Mashinada 8 tagacha gul bosish vallari o'rnatiladi. Bunday gul bosish agregati tarkibiga kirza yuvish mashinasi ham kiradi va mashinada cheholli yoki chexolsiz usulda gul bosish mumkin.

Shunday aggregatning texnologik sxemasi 208- rasmda keltirilgan. Sxemada chexol bilan gul bosish usuli tasvirlangan. Gul bosilayotgan mato yuvish va suvsizlantirish uskunasi (11)dan kelayotgan kirza (10) ustiga yotqizilgan chexol (3)ning ustiga tushadi. Bu uchta ustma-ust tushgan elementlar qatlam holda gul bosish bo'limiga keladi va gul bosish vali (6) bilan press (gruzovik) orasidan o'tadi.

Cho'tka (5) vannadan bo'yoqni olib gul bosish vali yuzasiga surtadi. Raklya (7) esa uni faqat naqsh chuqurchalarida qoldirib, valning silliq joyidan sidirib vannaga tushradi. Gul bosish valining gruzovikka siqilib turishi tufayli bo'yoq val naqishidan matoga o'tadi. Ko'rinish turibdiki, mashinaning ishlash prinsipi Bell ixtiro qilgan mashina ishslash prinsipiga mos keladi.



208-rasm. Gul bosish agregatining texnologik sxemasi:

1 – mato o'rami; 2 – mato yo'naltiruvchi roliklar; 3 – chehol; 4 – gul bosish bo'yog'i vannasi; 5 – cho'tka; 6 – gul bosish vali; 7 – raklya; 8 – gul bosilgan mato; 9 – chehol; 10 – kirza; 11 – kirzani yuvish va suv-sizlantirish uskunasi.


## 2- §. To'rli andozali gul bosish mashinalari

To'rli andoza yordamida gul bosish usuli Yaponiyada yaratilgan bo'lib (yutsen usuli), Yevropa mamlakatlariiga ham kirib kelgan. Bu usulda naqsh matoga ko'p qavatlari qog'ozdan kesib tayyorlangan trafaret orqali tushiriladi. Buning uchun bo'yoq daraxtdan yasalgan raklya (yoki cho'tka) yordamida trafaretga sartaladi. Keyinchalik bu usul mukammalashtirilib, trafaretning naqsh tushirilgan joylarini mustahkamlash maqsadida tabiiy ipak iplari tortilgan ya'ni, to'r hosil qilingan. Vaqt o'tishi bilan mustahkamlikni oshirish uchun tabiiy ipak iplari inson sochi bilan almashtirilgan. Bunday trafaretlar yordamida matoga aniqligi yuqori bo'lgan naqshlar bosilgan. Shu maqsadda uchun Amerikada birinchilar qatorida yupqa mato, so'ng esa to'r ishlataligan. 1907- yili Angliyalik Samuel Simon shu usulga tegishli patentni olgan. Ammo sanoat miqosida bu usul Yevropada 1926- yildan qo'llanila boshlangan. Bu sul "to'rli andoza bilan gul bosish" yoki "fotofilm-

pechat" usuli deb yuritiladi. Lekin bu usulning fotografiya usuliga aloqasi yo'q; bu nom andozaning bo'yoq o'tishi lozim bo'lmanan joylarining lok plyonka bilan qoplanishi bilan bog'liq bo'lsa kerak.

Bu usulni amalga oshiruvchi gul bosish mashinasining bir-biridan to'rli andoza konstruksiyasi bilan farqlanuvchi ikki xil konstruksiyasi mavjud. Birinchisi yassi ko'rinishli andozali bo'lsa, ikkinchisi dumaloq andozali mashinadir. 209- rasmda yassi andozali gul bosish mashinasining sxemasini keltirilgan.

Gul bosilishi lozim bo'lgan mato (1) tekislangan holda kirza (4) ustiga yelimlanadi, buning uchun kirza yuzasiga yelim surtaladi. Kirza ustiga birin-ketin yassi andozalar (3) o'rnatilgan va ularning ichiga gul bosish bo'yog'i quyiladi. Har bir andozaga bir rangdagi bo'yoq quyiladi. Gul bosish sikli to'xtab turgan kirza ustiga andozalarning tushishidan boshlanadi. Andoza ichidagi raklya bo'yoqni naqshli to'rdan o'tkazish uchun bordi-keldi harakatni amalga oshiradi, shundan so'ng andoza ko'tariladi va kirza bir raport uzunligiga siljiydi. Shunday qilib, birinchi andoza tagiga matoning yangi uchastkasi, ikkinchi andoza tagiga birinchi



209- rasm. Yassi andozali gul bosish mashinasining sxemasi:


1 – mato o'rami; 2 – kirzaga yelim surtish uskunasi; 3 – andoza; 4 – kirza; 5 – gul bosilgan mato; 6 – quritgich; 7 – tezlik datchigi; 8 – mato taxlagich.

andozada gul bosilgan mato uchastkasi keladi va hokazo. Gul bosilgan mato quritgich (6)ga boradi va quritiladi. Qurigan matoni aravachaga taxlagich (8) taxlaydi, so'ngra bo'yovchi moddani fiksatsiyalash mashinasiga jo'natiladi.

Gul bosish mashinasining muhim ishchi organlaridan biri bu gul bosish andozasidir. Yassi andoza to'rtburchak ramadan va unga tortilgan to'rdan iborat. Ramaning materiali sifatida oldinlari daraxtning qattiq turlaridan foydalilanigan bo'lsa, hozirda mustahkam yengil metall va qotishmalar ishlatiladi. To'rni tayyorlash uchun, asosan, uch xil materialdan: tabiiy ipak, fosforli bronza va poliamid tolasidan foydalilanildi. Tabiiy ipakdan tayyorlangan to'r elastik bo'lib, deformatsiyalarga chidamli; ishlatish qoidalariga rioya qilinsa, bunday to'r uzoq xizmat qilishi mumkin. Ammo ishqorli bo'yoq ishlatilganda, tabiiy ipakning yemirilish xavfi mavjud, shuning uchun u, ishlatib bo'lingandan so'ng, yaxshilab yuvilishi va sirka kislotasi eritmasida ishlov berilishi lozim. Ekspluatatsiya davridagi ehtiyyotsizliklar bunday to'rning yirtilishiga olib keladi.

Fosforli bronzadan (93% mis, 6.75% qalay va 0,25% fosfor) tayyorlangan to'r tabiiy ipakdan tayyorlangan to'rning yaxshi xossalariiga ega, shu bilan birga, bunday to'r ishlatiladigan ishqor va kislotalar ta'siriga chidamli. Ammo bunday to'r siqilish va urish ta'siriga chidamsiz, bu – ularning kamchiligi.

Kimyoviy tola ishlab chiqarish rivoji to'r uchun yangi mustahkam material – poliamid tolasini taklif etdi. Tola yuzasining silliqligi undan tayyorlangan to'rdan bo'yoqning oson o'tishiga sabab bo'ladi, shu bilan birga, u mustah-



210- rasm. Ramaga to'mi mahkamlash usuli:

1 – rama; 2 – termoplastik qoplama; 3 – to'r; 4 – qizitish uskunasi.

lar qotishmasidan tayyorlangan ramaga to'rni mahkamlash usuli keltirilgan.

To'rni ramaga mahkamlash uchun plastmassa qoplama qizdirilib, unga to'r suqiladi, plastmassa qoplama sovigan- dan so'ng, to'r u bilan mahkam birikkan holda qoladi.


Matoga yuqori sifatli naqsh tushirishda mashina stoli- ning konstruksiyasi muhim rol o'yнaydi. Unga qo'yiladigan asosiy talab bu uning yuzasining absolut tekisligidir, chun- ki mato yuzasida naqshning aniq chiqishining omillaridan biri andoza to'rining mato yuzasiga yaxshi yotishidir; bun- ga faqat mashina stolining yuzasi bir tekis bo'lгandagina erishish mumkin. Mashina stoli metall konstruksiyaga ega bo'lib, uning yuzasini ko'p qatlamlı fanera tashkil qiladi. Uning ustidan elastik yuza hosil qilish uchun namat qat- lam yotqiziladi. Stol ustida transportyor lentasi harakatla- nadi va unga gul bosiladigan mato yelimlanadi. Bu lentaga qo'yiladigan asosiy talab uning cho'zilmasligidir. Shuning uchun u o'zaro kauchuk bilan kleylangan ko'p qavatli ma- todan tayyorlanadi yoki metall karkasdan, yoki mis to'r dan

kam hamda kimyoviy moddalar ta'siriga chidamli. Tolaning yuqori elastikligi to'rning ba'zi kamchiliklariga (uning uzayishiga) sabab bo'lishi mumkin, lekin bu kam- chilik tolaga maxsus ishlov berish yo'li bilan bartaraf etiladi. 210- rasmda metal-

tayyorlanib, yuzasi poliefir smola bilan qoplanadi. Stat-sionar yassi andozali gul bosish mashinasining o'rtacha tezligi 3 – 20 m/min ni tashkil qiladi. Dumaloq silindrli andozali mashinaning tezligi esa 20 – 70 m/min ni tashkil qiladi.

Gul bosish jarayonining asosiy elementlaridan bir bu raklyadir. Raklyaning vazifasi andoza to'ridan bo'yqni mato yuzasiga o'tkazishdir. Gul bosish texnikasining ri-voji raklya konstruksiyasining ham o'zgarishini talab qildi. Amalda raklya kimyoviy materiallar ta'siriga chidamli rezinadan tayyorlanadi. Shu bilan birga, metall raklyalar, uchi charxlangan yoki shar shaklidagi raklyalar ham qo'llaniladi. 211- rasmda raklyalarning har xil shakllari keltirilgan.

Raklya uchun foydalanilgan rezinaning qattiqligi va raklya uchining shakli kata rol o'ynaydi. Umumiyl holatda rezina qanchalik qattiq bo'lsa, uning andoza to'riga yopishib turishi kamroq, natijada naqshdan bo'yqning o'tish darajasi kam bo'ladi, ammo naqsh chegarasi aniq bo'ladi. Rezinaning qattiqligi kamayishi bilan, naqsh chegarasi ning aniqligi ham kamayib boradi. Raklya uchining charx-



211- rasm Turli andoza yordamida gul bosishda ishlataladigan raklyalar:  
A – bir tomonlama raklya; B – ikki tomonlama raklya; D – roliksimon raklya.

lanish darajasi ham naqsh ko'rinishiga xuddi shunday ta'sir o'tkazadi, ya'ni uni o'tkirligi oshishi bilan, naqshdan o'tgan bo'yoq miqdori kamayadi, ammo naqsh chegarasining aniqligi oshadi.

Yassi andozali mashinada matoning uzliksiz harakatlanmasligi mashina unumdorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu-ning uchun bu andozani ishilab chiqarishdan dumaloq (silindr) shakldagi andozalar siqib chiqarmoqda. 212-rasmda dumaloq andozali gul bosish agregatining sxemasi keltirilgan.

Gul bosish mashinasi stoli ustidan uzlusiz harakatlanayotgan kirzaga mato kleylanadi va u bilan harakatlanadi. Mato yuzasiga dumaloq andozalar siqilib turadi. Andoza ichiga alohida nasos yordamida gul bosish bo'yog'i beriladi va u raklya yordamida andoza naqshidan mato yuzasiga o'tkaziladi.

213- rasmda Gollandiyaning "Stork" firmasi mashinasi ning gul bosish zonasidan fragment keltirilgan.

Mashinaning ishchi kengligi 3200 mm gacha yetadi. Mashinaning ishchi organlaridan biri bu silindr shaklidagi andozadir, u 0,2 diametrli simdan tayyorlangan to'rдан ya-



212- rasm Dumaloq (tsilidrsimon) andozali gul bosish agregatining sxemasi:

1 – gul bosilayotgan mato; 2 – mashina gardishi; 3 – chang so'rish uskunasi; 4 – kirza; 5 – yelim surtish uskunasi; 6 – kirzani qizdirish uskunasi; 7 – dumaloq andoza; 8 – bo'yoq berish va uni naqshdan o'tkazish uskunasi; 9 – tezlik datchigi; 10 – gul bosilgan mato; 11 – quritigich.

saladi. To'r materialini korroziyadan saqlash uchun unga elektroliz yo'li bilan nikel qoplanadi. 214- rasmida silindr shaklidagi andoza keltirilgan.

Mashinaning muhim elementlaridan biri raklya ichiga bo'yoq berish sistemasi va raklyasidir. 215- rasmida "Buser" (Shveytsariya) firmasining shunday sistemasi sxemasi keltirilgan.

Metall raklya andoza ichki yuzasiga siqilib turishi uchun mashina stoli tagiga elektromagnit o'rnatilgan. Nasos yordamida berilayotgan bo'yoq pastasi uzluksiz ravishda andoza ichiga tushib turadi va raklya yordamida naqshdan matoga siqib chiqariladi.




213- rasm. Gul bosish mashinasi elementlarinin ko'rinishi:

1 – mato; 2 – andoza; 3 – gul bosilgan mato; 4 – quritgich konveyeri.



214- rasm. Silindr ko'rinishidagi andoza



215- rasm. Raklya sistemasi:

A – lezviyeli raklyali; B – rolikli raklyali; 1 – andoza; 2 – bo'yoq oqimi; 3 – raklya; 4 – mato; 5 – chexol; 6 – kirza; 7 – magnit; 8 – siqish mexanizmi.

### 3- §. Bug'lab pishitish apparatlari – zrelniklar

Gul bosilgan matoda rangning hosil bo'lishi va uni mustahkamlanishi issiqlik va namlik ta'sirida bug'lash kameralarida amalga oshiriladi. Rangning hosil bo'lishida kechadigan reaksiyalar xarakteriga qarab, pishitish apparatlari ikki turga: oksidlovchi va qaytaruvchi turlarga bo'linadi.


Qaytaruvchi pishitish apparati uzluksiz ishlaydigan apparat bo'lib, kub bo'yovchi moddalarning rangini hosil qilish uchun, tezoblash tarkiblarni va boshqa qaytarishni tablab qiluvchi bo'yovchi moddalarni namoyon qilish uchun ishlatiladi. Rossiyada ZV – 2/120, ZV – 3/120, ZV – 4/120 va ZV – 4/220, ZV – 6/220, ZV – 8/220 markali apparatlar ishlab chiqarilgan. Bu apparatlarda mato ikki, uch yoki to'rt qatlam holida, bir qator yoki ikki qator qilib ishlov olishi mumkin. 216- rasmda qaytaruvchi zrelnik sxemasi keltirilgan.

Mato zrelnikning bug'lash kamerasi (7)da ishlov oladi. Buning uchun u ikki qator: yuqoridagi va pastki qator roliklarga zapravka qilingan holatda harakatlanadi. Yuqoridagi roliklarning har uchtaidan bittasi yurituvchidan harakat oladi. Bug'lash kamerasida bir vaqtning o'zida 161 metr mato ishlov oladi.

Mato tezligi yurituvchi tarkibidagi to'rt pog'anali tezlikka ega elektrosvigatel yordamida  $14.7 - 44.5 \text{ m/min}$  chegarasida o'zgartiriladi, natijada  $3,6 - 11,0$  daqiqa davomida bug'lash imkoniyatiga ega bo'linadi. Bug'lash kamerasida  $102 - 103^{\circ}\text{C}$  haroratdagi,  $99,7 - 99,8\%$  namlikdagi to'yingan bug' muhitini ta'minlanadi. Bunga erishish uchun

bug'lash kamerasi tubiga yassi vanna (10) o'rnatilgan bo'lib, undagi suv bug' caloriferi (11) bilan qaynatilib turiladi. Bunday uskuna paroumformer deb ataladi va qaynatgan suvning bug'lanish yuzasi katta bo'lganligi tufayli yetarlicha bug' hosil qilish imkoniyatiga ega (bir kg quruq mato hisobiga – 0,8 – 1,4 kg bug'). Hosil bo'lib, yuqoriga ko'tarilayotgan bug' bilan suv tomchilari mato yuzasiga tegmasligi uchun vanna yuzasiga ikki qavat to'r (9) qoplangan. Kamerada talab qilingan haroratni ta'minlash va mato bilan kirib keladigan havoni siqib chiqarish uchun kameraga qo'shimcha miqdordagi bug' truba (6) orqali kiritiladi. Bug' havo bilan tirkish (13) orqali siqib chiqariladi va bug' kondensatsiyalanmasligi uchun uning ustiga qizdiriladigan plita (12) o'matilgan.

Kamerada matoga ishlov berish davomida kechadigan egzotermik reaksiyalar hisobiga harorat  $108 - 115^{\circ}\text{C}$  ga ko'tarilish xavfi bor. Haroratning talab qilingan  $102 - 103^{\circ}\text{C}$  chegarasida bo'lishini ta'minlash maqsadida kameraga oldindan sovitilgan va  $12 - 16\%$  gacha namlangan



216- rasm. Qaytaruvchi zrelnik sxemasi:

1 – sovitish kamerasi; 2 – shaber; 3 – oldingi kamera; 4 – shaber; 5 – shaber; 6 – bug' kiritish trubasi ; 7 – bug'lash kamerasi; 8 – roliklar; 9 – ikki qavat to'r; 10 – vanna; 11 – bug' caloriferi; 12 – qizdiriladigan plita; 13 – tirkish.

mato kiritiladi yoki kamera ichiga bug'ni sovitish uchun sovuq suv purkaladi. Bug' sirkulatsiyasini ta'minlash uchun sovitish kamerasi va oldingi kameralarda shaberlar (2, 4) mavjud, bug'lash kamerasini sovitish uchun esa shaber (5) xizmat qiladi. Sovitish va oldingi kameralar po'lat listlardan tayyorlangan; bug'lash kamerasi cho'yan plitallardan tayyorlangan va tashqi tarafdan issiqlik izolatsiyasi bilan qoplangan. Kamera tomini hosil qiluvchi plitalar ichki tarafidan isitilishi tufayli suv tomchilarining hosil bo'lishi oldi olinadi.


Oksidlovchi zrelnikning konstruksiyasi yuqorida ko'rib o'tilgan qaytaruvchi zrelnik konstruksiyasiga o'xshash, faqat sovitish va oldingi kameralar o'rtasiga ammiak kamerasi o'rnatilganligi bilan farqlanadi. Bu zrelnikning gabarit o'lchamlari kichikroq, ammo mato o'tish tezligi 12.5 – 100 m/min ni tashkil qiladi. Oksidlash zrelnigining vazifasi qora anilin bilan gul bosilgan ip-gazlamalar, gidrat selluloza matolari, qora anilin bilan shimdirilgan matolar ustidan oksidlovchi tezoblovchilar bilan ishlov berish va rezerv tarkiblar bilan gul bosilgan matolarga ishlov berishdan iborat. Ma'lumki, qora anilin hosil bo'lishidan xlorid kislotasi hosil bo'ladi va u ammiak kamerasida neytrallanadi. Oksidlovchi kameradagi muhit xarakteristikasi: harorat – 100 – 102°C, namligi – 95 – 98%. Shu muhitda mato 42 – 84 soniya davomida ishlov oladi. Bu zrelnik konstruksiyasida zichlik talab qilinmaydi va uning ichiga kiradigan havo unda kechadigan reaksiyalarga ta'sir o'tkazmaydi. Bu konstruksiyadan tashqari, mato osilib turadigan zrelniklar ham mavjud, ammo ularning ishlash prinsipi biz yuqorida

ko'rib o'tgan zrelniklarniki bilan bir xil. Misol tariqasida "Kristovitsa" sistemali qaytarish zrelnigi sxemasini keltirramiz (217- rasm).

Bu zrelnikda mato kamera roliklari yuzasiga ichki tarafi bilan tegib o'tadi va mato kameraga isitiluvchi tirqishlar orqali kiritiladi. Mato spirali kamera markaziga yetganda, ag'daruvchi rolik yordamida o'z yo'nalishini 900° ga o'zgartirib, kameraning yon tarafidan chiqadi. Bug'lash kamerasiga 125 – 200 metr mato zapravka qilinishi mumkin. Kameraning matoning kirishi va chiqishi bir tarafdan bo'lgan konstruksiyasi ham mavjud.


"Arioli" (Italiya) firmasining bug'lash mashinasini hozirgi zamон konstruksiyasi va kamera ichida namlik miqdorini berilayotgan bug' miqdoriga bog'liq bo'limgan holda regulirovka qilish imkonи borligi bilan boshqa mashinalardan ajralib turadi. 218- rasmда shu firmanın "Minivapo" ("Model G") mashinasining sxemasi keltirilgan.

Bu mashina maxsus uskuna bilan jihozlangan bo'lib, unda bug' kameraga kirishidan oldin, suv qatlamidan o'tkaziladi. Bu jarayonda bug'dagi suv miqdori optimal-



217-rasm. "Kristovitsa" sistemasidagi zrelnik sxemasi:

1 – mato; 2 – namlash roliklari; 3 – kamera gardishi; 4 – matonning spiral o'rami.



218- rasm. "Arioli" firmasining "Minivapo" bug'lash mashinasini sxemasi:  
1 – mato; 2 – kamera devori; 3 – uzliksiz zanjir; 4 – rolik; 5 – ventilator; 6 – korifer.

lashadi va uning namligi talab qilingan darajaga keltiriladi. Shu yo'l bilan kamerada kechadigan egzotermik reaksiya ta'sirining oldi olinadi.

Bug'lash kamerasi yopiq tusda bo'lib, zanglamaydigan po'lat markasidan tayyorlangan. Mato kameraning bir tarafidan kirib, qarama-qarshi tarafidan chiqadi. Mato uzluksiz haraktlanadigan zanjirga mahkamlangan rolklarga osilgan holda harakatlanadi.

Mashinaning 130 – 500 metr mato sig'adigan kamerali modellari mavjud. Kameraga bug' uning yon devorlariga o'rnatilgan va toza suv to'ldirilgan maxsus moslamadan o'tib kiradi. Buning natijasida bug'ning namligi oshadi va bosimning kamayishida to'plangan energiyasini yo'qotadi. Shunday yo'l bilan kamerada hosil qilingan muhit bo'yovchi modda fiksatsiyasi bilan kechuvchi tola absorbsiyasi uchun optimal bo'ladi. Kameraga o'rnatilgan ventilatorlar muhitni sirkulayatsiya qilish orqali uning hajmida bir xil sharoit yaratadi.

Kamera toming bug' bilan qizdirib turilishi suv tomchilari hosil bo'lishining oldini oladi. Kameraga maxsus te-

shiklar orqali suv purkalishi egzotermik reaksiya ta'sirida harorat ko'tarilishiga yo'l qo'ymaydi. Ventilatorlardan keyin o'rnatilgan issiqlik almashuv uskunasi kamerda haroratni kerak bo'lganda 190°C gacha ko'tarish imkonini beradi.

#### 24- jadval.

Firma mashinalarining texnik xarakteristikasi

Mato miqdori, m	130	200	280	350	500
Ishchi kengligi, sm	180 – 350				
Mato tezligi, m/min	2.6 – 26	4 – 40	5.6 – 56	5.8 – 58	8 – 80
Ishlov davomiyligi, min	5 – 50	5 – 50	5 – 50	6 – 60	6.2 – 62
Bug'ning o'rtacha sarfi, kg/soat	300 – 600	600 – 1000	700 — 1200	900 – 1300	1100 – 1600
Oddiy bug'lash harorati, °C	102 – 106				
Bug'lashning yuqori harorati, °C	165 – 190				
Qizdirilgan havoda ishlash harorati, °C	90 – 190				
Gabarit o'lchamlari: uzunligi, mm	10150	12750	15350	7950	20550
kengligi, mm	Ishchi kengligi + 1500				
balandligi, mm	4200				

Germaniyaning "Bobkok" firmasi ham gul bosilgan matolarda (trikotaj polotnolprida) bo'yovchi moddalarni fiksatsiyalash uchun zanjirli bug'lash (termoishlov be-


rish) mashinalarining bir necha turlarini ishalab chiqqan. 219- rasmda ikki seksiyali kamerali mashinaning sxemasi keltirilgan. Bu mashinada bo'yovchi moddaning bir bos-qichli fiksatsiyasi amalga oshiriladi.

“Bobkok” firmasining ushbu bug'lash mashinasi gul bosilgan matoda bo'yovchi moddani fiksatsiyalash va ayrim holatlarda yuqori sifatli yakuniy pardozlash jarayonlarida kondensatsiyalash uchun yaratilgan. Mashina kamerasida mato tolasi va bo'yovchi moda klassiga mos muhit yaratiladi. Masalan:

- to'yinga bug' muhiti;
- o'ta qizdirilgan bug'li muhit (harorat – 165 – 185°C);
- qizdirilgan havo muhiti (harorat – 150 – 160°C).

Mashinada to'qilgan matolar, trikotaj polotnolar va noto'qima materiallarning keng assortimentiga ishlov berish mumkin. Bu mashina bug'lash mashinasi sifatida yaratilgan bo'lsa-da, matolarga yakuniy pardoz berishda qo'llanilishi ham mumkin.

Kiritish mexanizmi yordamida mato kerakli taranglikda mashina kamerasiga beriladi. Tortish vallari (3) o'rnatilgan



219- rasm. Bug'lash kamerasining sxemasi:


1 – mato; 2 – kiritish mexanizmi; 3 – tortish vallari; 4 – zanjir; 5 – rolik; 6 – mato sirtmog'i; 7 – matoni chiqarish roligi; 8 – mato taxlagich; 9 – ventilator.

joy jipslashtirilgan bo'lib, kameraga havo kiritilmaydi va kameradan bug' sexga chiqarilmaydi. Ishlov berish davomida mato sirtmoqlari zanjirga o'rnatilgan roliklarga osilgan holatda bo'ladi, shuning uchun ozod holda uzinasiga kirishishi mumkin. Cheksiz zanjirning harakati tufayli roliklarga osilgan mato kameraning chiqarish tarafiga harakatlanadi. Ishlov olgan mato chiqarish roliklari (7) orqali chiqariladi va taxlagich (8) uni aravachaga taxlaydi. Kameraning har bir seksiyasi o'zining muhitni sirkulatsiya qiluvchi ventilatoriga ega. Natijada ventilator muhitning tepadan pastga qarab harakatlanishini ta'minlaydi. 220-rasmida muhitning sirkulatsiya sxemasi keltirilgan.

Ventilator (4) bug'lash kamerasining ikki tarafiga o'rnatilgan va ular muhitni so'rib, bug' ko'tarilish tirqishi (3)ga haydaydi. Ko'tarilgan bug' rolik (1)da osilib turgan mato sirtmog'i (2)ni tepadan pastga o'rab. silab o'tadi va unga bir tekisda ishlov beradi.

"Vakayama" (Yaponiya) firmasi ko'p maqsadli ishlov berish kamerasini taklif etgan. Uning sxemasi 221- rasmida keltirilgan. Bu mashina matolarni appretlash liniyalarida fiksatsiyalash va termoishlov berish, ularga suv itarish hossasini berishda fiksatsiyalash, bo'yash agregatlari tarkibida pigment, dispers va faol bo'yovchi moddalar bilan bo'yashda ularni fiksatsiyalash, gul bosishdan so'ng esa faol bo'yovchi moddalarini fiksatsiyalash uchun ishlatishga mo'ljallangan.

Mashina kamerasida mato roliklar seriyasiga zapravka qilingan holda o'tadi. Bu roliklarning yuqori qatori maxsus motordan, masalan, moment motoridan harakat olish-




220- rasm. To'yigan bug' sirkulatsiya sxemasi:

1 – rolik; 2 – mato sirtmog'i; 3 – bug' ko'tarilish tirqishi; 4 – ventilator.

mumkin, bunga kamera o'lchamlarini o'zgartirish orqali erishiladi.

Matoga ishlov berishning maksimal harorati  $220^{\circ}\text{C}$  bo'lib, unga elektr kaloriferlar yordamida, gaz yoqish orqali yoki yuqori darajada qaynovchi issiqlik uzatuvchi moylarda ishlaydigan kaloriferlardan foydalanish orqali erishish mumkin.



221- rasm. Zrelnik sxemasi:

1 – mato; 2 – mato kiritish mexanizmlari; 3 – kiritish vallari; 4 – germetik kamera; 5 – ventilator va kalorifer; 6 – havo haydash kanallari; 7 – matoni tortib olish mexanizmi; 8 – mato taxlagich.

lari mumkin, natijada mato kam taranglikda harakatlanadi. Havoni isitish va uning sirkulatsiya sistemasi kameraning o'ng va chap taraflarida joylashtirilgan, shuning uchun bo'yovchi moda bir tekis fiksatsiyalanadi. Bunda haroratning avtomatik ravishda nazorat qilinishi qo'l keladi.

Mijozning talabiga muvo-

fiq kameraga zapravka qilin-

gan mato uzunligi 60, 100, 150,

200 metr va undan ortiq bo'lishi

mumkin, bunga kamera o'lchamlarini o'zgartirish orqali erishiladi.

Matoni tortib oluvchi roliklar (7) ichki qismidan sovuq suv bilan sovitilib turiladi.

*Takrorlash uchun savollar:*

1. Ko'p valli gul bosish mashinasining tuzilishini gapirib bering.
2. Gruzovikning vazifasi va tuzilishi to'g'risida gapirib bering.
3. Raklyaning vazifasi nimadan iboratligini tushuntiring.
4. Kirza qanday materialdan tayyorlanadi va u qarday vazifani bajaradi?
5. Gul bosish valining tuzilishi to'g'risida gapirib bering.
6. "Trafleniye" deganda nimani tushunasiz?
7. Raport shesternysi va uning yordamida aylana bo'yicha trafleniye qilish to'g'risida gapirib bering.
8. "Kovo" firmasi mashinasining aylana bo'yicha trafleniye qilish uzelining ishslash prinsipini tushuntiring.
9. Vallari vertikal joylashgan gul bosish mashinasida mato o'tishi va gul bosilishi to'g'risida gapirib bering.
10. Yassi andozali gul bosish mashinasining tuzilishi to'g'risida nimalarni bilasiz?
11. Dumaloq andozali gul bosish mashinasining afzalliklari nimalardan iboratligini tushuntiring.
12. Oksidlovchi zrelnikning ishslash prinsipi to'g'risida gapirib bering.
13. Qaytaruvchi zrelnik haqida nimalarni bilasiz?
14. Matoga osilgan holatda termo ishlov beruvchi mashinalar haqida gapirib bering.

## VII BOB. YAKUNIY PARDOZLASH JIHOZLARI

Matolarni (trikotaj polotnolarni) yakuniy pardozlash jarayonlari ularning tashqi ko'rinishlarini yaxshilash bilan bir qatorda, yemirilishga chidamliligini va sifatini oshiradi. Yakuniy jarayonlar ikki katta guruhgaga ajratiladi: fizika-mexanikaviy va kimyoviy.

Fizika-mexanikaviy jarayonlar mato yuzasidagi tuklarni kesish, paxmoqlash, eniga kengaytirish, kalandrlash, matoni uzinasiga kirishtirish va boshqa jarayonlarni o'z ichiga oladi. Ularning ba'zilari oldingi boblarda ko'rib o'tilgan edi. Kimyoviy yakuniy pardozlashga matolarni har xil kolloid eritmalar bilan appretlash jarayonlari kiradi. Bunday appretlash natijasida matoga kam kirishuvchanlik, o'tga chidamlilik, gidrofoblik, kam g'ijimlanuvchanlik, elastilik va yuqori sifatlilik kabi xossalar beriladi.

Matolarga bunday xossalar berish uchun alohida mashinalar tizimi – appretlash liniyalari yaratilgan. Ular tarkibini biz oldingi boblarda ko'rib o'tgan mashinalar tashkil qiladi. Pardozlash texnologiyasidan ma'lumki, matoni appretlash jarayoni matoni appretlash eritmasi (supenziyası) bilan shimdирish va quritishdan iborat. Buning uchun tarkibiga ikki yoki uch valli plusovka va barabanli quritish mashinasi yoki quritish-kengaytirish mashinasi kiruvchi agregatlardan foydalilaniladi.

Quritish-kengaytirish mashinanalari ignali yoki pichoqli klupplar bilan jihozlangan bo'lishi mumkin. Masalan.

Rossiyada ishlab chiqarilgan LKS – 220 agregati tarkibiga ikkita ikki valli PLD – 120 plusovkasi, barabanli quritish mashinasi SBM – 1 – 20/220 – 1 va lyulkali mato taxlagich SL – 220 kiradi. Bu agregatning tarkibiga ikkita uch valli plusovka kiruvchi modifikatsiyalangan turi ham ishlab chiqarilgan.

Quritish mashinasida barabanlar sonining 30 taga yetkazilganligi va ishlatiladigan bug‘ bosimining 600 kN/m<sup>2</sup> gacha oshirilganligi massasi 350 g/ m<sup>2</sup> gacha bo‘lgan matolarga 25 – 125 m/min tezlikda ishlov berish imkonini yaratdi.

Yuqorida keltirilgan agregatdan farqliroq appretlash-pardozlash mashinalari tizimida ip-gazlama matolari appret bilan shimdiriladi, quritiladi, eniga kengaytiriladi, arqoq iplarining holati to‘g‘rulanadi va rulonga o‘raladi. Rossiyada bunday mashinalar tizimi LAO markasi ostida ishlab chiqarilgan. Ular kengligi 120, 180 va 220 sm bo‘lgan matolarni pardozlash uchun mo‘ljallangan edi. Bunday aggregat tarkibiga uch valli plusovka (PLT markali), matoni boshlang‘ich quritish uchun 10 barabanli quritish mashinasi, to‘rt seksiyali quritish-kengaytirish mashinasi va matoni rulonga o‘rash mashinasi kiradi. Matoga to‘liq yakunlovchi pardoz berish uchun bu mashinalardan tashqari, aggregat tarkibiga siquvchi va pardozlovchi kalandrlar kiritiladi. Shunday aggregatga misol tariqasida 222- rasmda LAO – 120 – B – 1 aggregatining sxemasi keltirilgan.

Mato siqish kalandri (1)da suv bilan namlanadi va uch valli plusovka (2)da appretlovchi tarkib bilan shimdiriladi, so‘ng quritish barabani (3)da 30 – 35% namligi qolgun-


cha quritiladi. Bunday namlik mato arqoq iplari holatini to'g'rilash va eniga kengaytirish uchun optimal sharoit yaratish bilan birga, massasi  $170 \text{ g/m}^2$  bo'lgan ip-gazlama mato tezligini  $25 \text{ m/min}$  dan  $125 \text{ m/min}$  gacha, massasi  $250 - 420 \text{ g/m}^2$  bo'lgan zig'ir tolasidan tayyorlangan matolar uchun esa mato tezligini  $12,5$  dan  $63 \text{ m/min}$  gacha oshirish imkonini yaratadi. Ignali kluppli quritish-kengaytirish mashinasida matoni quritish jarayonida uzunasiga kirishish uchun sharoit yaratiladi. Bunga matoni mashina klupplariga ularning tezligiga nisbatan  $20\%$  gacha ilgari-lash bilan uzatish orqali erishiladi.

## **1- §. Matolarga kam g'ijimlanuvchanlik va kam kirishuvchanlik berish jihozlari**

Kimyovmy preparatlar yordamida matolarga kam g'ijimlanuvchanlik, kam kirishuvchanlik hamda boshqa maxsus xossalalar berish yakuniy pardozlashning muhim texnologiyalari hisoblanadi. Bunga yangi sintezlangan smolalar turining ko'payishi keng yo'l ochib bermoqda. Bu texnologiyalar bir-biriga juda yaqin bo'lib, jihozlarning universal tizimlarida amalga oshiriladi. Ta'kidlash joizki, matolarga kam kirishuvchanlik mexanik usulda, ya'ni ularni tanda iplari bo'yicha siqish orqali erishish mumkin, bundan tashqari, matolarni ozod holda quritish ham shunday natijaga erishish imkonini beradi.

Kam g'ijimlanuvchanlik pardozini beruvchi jihozlar tizimida matolarga kimyoviy usulda kam kirishuvchanlik va

B – 1 appretlash-pardozlash tizimining sxemasi:



- 1 – siqish kalandri;
- 2 – uch valli plusovka;
- 3 – barabanli quritish mashinasi;
- 4 – quritish-kengaytirish mashinasi;
- 5 – lotokli kompensator;
- 6 – uch valli pardozlash kalandri;
- 7 – matoni rulon-ga o'rash mashinası.

kam g'ijimlanuvchanlik xossalari beriladi. Bunday ishlovdan so'ng matolar ho'l va quruq holatlarda kam kirishuvchanlik va kam g'ijimlanuvchanlik xossalarini saqlaydi hamda ulardan tayyorlangan mahsulotlar ekspluatatsiya davomida o'z shakllarini saqlaydi va yuvish, kiyish jarayonida kam kirishadi. Ammo bunday ishlov mato mustahkamligiga putur yetkazadi va noxush hid beruvchi, uchuvchi zaharli moddalar ajralib chiqadi. Bunday kamchilikdan holi bo'lish uchun jihozlar kuchli ventilatsiyaga ega bo'lishlari va tarkibida yuvish va quritish mashinalari bo'lishi talab qilinadi. Ishlov berish davrida smola bilan shmdirilgan matoning tez qurishiga yo'l qo'ymaslik lozim, aks holda, predkondensat tola ichki qismidan mato yuzasiga migratsiyalanadi, bu, o'z navbatida, matoga dag'allik beradi va uning g'ijimlanishga bo'lgan qarshiligini susaytiradi. Bunday ishlovlar beruvchi mashinalar tizimining tarkibi tolali material turiga va tanlangan pardozlash usuliga bog'liq. Bunda quyidagi uch usulni eslatib o'tish mumkin: ho'l, quruq va nam usullar.

Ho'l usulda to'la bo'kkan selluloza makromolekulalari o'zaro "tikiladi". Bu usul ikki bosqichli bo'lib, birinchi bosqichda mato uch valli plusovkada predkondensat bilan shimdiriladi, siqiladi va rulonga o'ralib, 24 soatga qoldiriladi. Ikkinci bosqichda esa mato rolikdan olinib yuviladi. siqiladi va quritish-kengaytirish mashinasida quritiladi.


Quruq usulda namligi 0 – 2% bo'lgan tola sellulozasining makromolekulalari "tikiladi". Bu usulning birinchi bosqichida mato uch valli plusovkada predkondensat bilan shimdirilib siqiladi, quritish-kengaytirish mashinasida 60 – 70°C haroratda yumshoq sharoitda quritiladi. Shundan so'ng matoga zrelnikda termoishlov beriladi va rulonga o'raladi. Jarayonning ikkinchi bosqichida esa ho'l usuldagidek yuviladi va quritiladi. Bu usulda mato mustahkamligining kamayishi yanada yuqori.

Nam usulda namligi 4 – 14% ni tashkil qiluvchi, biroz bo'kkan tola sellulozasining makromolekulalari "tikiladi". Bu sulda mato plusovkada predkondensatga shimdirilib, ignali kluppli quritish-kengaytirish mashinasida talab qilingan namlikkacha quritilib, rolika o'raladi. Rolikdagi mato xona haroratida 24 – 30 soat yoki yuqori haroratda bir necha daqiqa (soat) ushlab turiladi, so'ng yuvilib quritiladi. Bunday ishlov natijasida mato ho'l va quruq holatlarda kam g'ijimlanuvchanlik xossasiga erishadi. Matoga kam g'ijimlanuvchanlik va kam kirishuvchanlik beruvchi bu usulning kelajagi bor, faqat quritish davrida mato namligini aniq regulirovkalashni talab qiladi.

Hamdo'stlik mamlakatlarida quruq usul keng taraqlagan. Kam g'ijimlanish xususyatini beruvchi Rossiyada

ishlab chiqarilgan LNO – 120, LSO – 180, Yaponianing “Kioto”, “Vakayama” firmalari, Fransiyaning “Amdes” firmasi tomonidan ishlab chiqarilgan mashina tizimlari shtapel, yarim jun va boshqa turdag'i matolar sifatini yaxshilash imkonini beradi. Misol tariqasida sxemasi 223- rasmida keltirilgan “Kioto” firmasining matoga kam g'ijimlanuvchanlik beruvchi tizimini ko'rib o'tamiz

Tizim ikki bo'lidan iborat. Birinchi bo'lim tarkibiga mato rulonidan uni mashinaga zapravkalash mexanizmi, ikkita ikki valli plusovka (2) ( birinchisida kam (10 kN) siqish darajasiga va ikkinchisida yuqori (100 kN) siqish darajasiga erishiladi), oldindan quritish kamerasi (3), quritish-kengaytirish mashinası (4), termoishlov berish mashinası (5), sovitish kamerasi (6) va matoni rulonga o'rash mashinası (7) kiradi. Yuqori siqish darajali ikkinchi plusovkadan so'ng matoda 80 – 85% namlik qoladi. Oldindan quritish mashinasida havo harorati 100°C atro-



223- rasm “Kioto” firmasi mashinalar tizimining sxemasi:

- 1 – rolikka o'ralgan mato;
- 2 – ikkita plusovka;
- 3 – oldindagi quritish mashinası;
- 4 – quritish – kengaytirish mashinası;
- 5 – termoishlov berish mashinası;
- 6 – sovitish kamerasi;
- 7 – matoni rulonga o'rash mashinası.

Ho'l usulda to'la bo'kkan selluloza makromolekulalari o'zaro "tikiladi". Bu usul ikki bosqichli bo'lib, birinchi bosqichda mato uch valli plusovkada predkondensat bilan shimdiriladi, siqiladi va rulonga o'ralib, 24 soatga qoldiriladi. Ikkinci bosqichda esa mato rolikdan olinib yuviladi. siqiladi va quritish-kengaytirish mashinasida quritiladi.


Quruq usulda namligi 0 – 2% bo'lgan tola sellulozasining makromolekulalari "tikiladi". Bu usulning birinchi bosqichida mato uch valli plusovkada predkondensat bilan shimdirilib siqiladi, quritish-kengaytirish mashinasida 60 – 70°C haroratda yumshoq sharoitda quritiladi. Shundan so'ng matoga zrelnikda termoishlov beriladi va rulonga o'raladi. Jarayonning ikkinchi bosqichida esa ho'l usuldagidek yuviladi va quritiladi. Bu usulda mato mustahkamligining kamayishi yanada yuqori.

Nam usulda namligi 4 – 14% ni tashkil qiluvchi, biroz bo'kkan tola sellulozasining makromolekulalari "tikiladi". Bu sulda mato plusovkada predkondensatga shimdirilib, ignali kluppli quritish-kengaytirish mashinasida talab qilingan namlikkacha quritilib, rolika o'raladi. Rolikdagi mato xona haroratida 24 – 30 soat yoki yuqori haroratda bir necha daqiqa (soat) ushlab turiladi, so'ng yuvilib quritiladi. Bunday ishlov natijasida mato ho'l va quruq holatlarda kam g'ijimlanuvchanlik xossasiga erishadi. Matoga kam g'ijimlanuvchanlik va kam kirishuvchanlik beruvchi bu usulning kelajagi bor, faqat quritish davrida mato namligini aniq regulirovkalashni talab qiladi.

Hamdo'stlik mamlakatlarda quruq usul keng taraqalgan. Kam g'ijimlanish xususyatini beruvchi Rossiyada

ishlab chiqarilgan LNO – 120, LSO – 180, Yaponianing “Kioto”, “Vakayama” firmalari, Fransiyaning “Amdes” firmasi tomonidan ishlab chiqarilgan mashina tizimlari shtapel, yarim jun va boshqa turdag'i matolar sifatini yaxshilash imkonini beradi. Misol tariqasida sxemasi 223- rasmida keltirilgan “Kioto” firmasining matoga kam g'ijimlanuvchanlik beruvchi tizimini ko'rib o'tamiz

Tizim ikki bo'limdan iborat. Birinchi bo'lim tarkibiga mato rulonidan uni mashinaga zapravkalash mexanizmi, ikkita ikki valli plusovka (2) ( birinchisida kam (10 kN) siqish darajasiga va ikkinchisida yuqori (100 kN) siqish darajasiga erishiladi), oldindan quritish kamerasi (3), quritish-kengaytirish mashinasini (4), termoishlov berish mashinasini (5), sovitish kamerasi (6) va matoni rulonga o'rash mashinasini (7) kiradi. Yuqori siqish darajali ikkinchi plusovkadan so'ng matoda 80 – 85% namlik qoladi. Oldindan quritish mashinasida havo harorati 100°C atro-



223- rasm. “Kioto” firmasi mashinalar tizimining sxemasi:

1 – rolikka o'ralgan mato; 2 – ikkita plusovka; 3 – oldindagi quritish mashinasini;  
4 – quritish – kengaytirish mashinasini; 5 – termoishlov berish mashinasini;  
6 – sovitish kamerasi; 7 – matoni rulonga o'rash mashinasini.

fida bo'lib, mato yana 7 – 10% namligini yo'qatadi. Besh seksiyali quritish-kengaytirish mashinasida sekin-asta 115°C dan 140°C gacha ko'tarilayotgan haroratda mato talab qilingan namlikka erishilgunicha quritiladi. Bunday sharoitda mato eniga kengaytiriladi va uzunasiga kirishi-di. natijada relaksatsiyalanadi. Matoga termoishlov berish kamerasingning yuqori qator roliklari yurituvchidan harakatlanishi mato tarangligini kamaytiradi. Bu kamerada mato 130 – 180°C haroratda 3 – 5 daqiqa davomida termoishlov oladi; kameraga 202 metr uzunlikdagi mato zapravkalana-di. Bularning hammasi tizim-ning birinchi bo'limida matoga 30 – 90 m/min tezlikda ishlov berish imkonini beradi. Ikkinchi bo'lim tarkibi matoni rulondan chiqarish mashinasi, yuvish agregati (8), quritish-kengaytirish mashinasi (4) va rulonga o'rash mashinasi (7)dan iborat. Bu tizimda qo'llanilgan kimyoviy usul mato mustahkamligining ka-mayishiga olib kelishi tufayli, ba'zi matolarni, masalan. paxta va zig'ir tolalaridan tayyorlangan matolarni mexa-nik usulda kirishtirish ma'qul deb topilgan.

## **2- §. Matoga mexanik usulda kam kirishuvchanlik berish mashinalari**


Bu mashinalarda mato uning ishchi organlari orasida tanda iplari bo'yicha siqiladi, natijada u uzunligi bo'yicha qisqaradi hamda qalinligi oshadi. Buning uchun mashina ishchi organlari orasida tor tirqish bo'lib, unda mato buk-lam hosil qilmasdan siqiladi va mashina ishchi organiga ishqalgan holda harakatlanadi. 224- rasmda "Monforts" fir-

masining mato kirishtirish mashinasini ishslash prinsipini tushuntiruvchi sxema keltirilgan.

Yuqoridagi silindr (4)ning yuzasi silliq bo'lib, pastdagiga nisbatan kata tezlikka ega. Pastdagi silindr (5)ning yuzasi noteks bo'lib, yuqoridagi silindrga nisbatan kichik tezlikka ega. Nam mato (1) yuqoridagi silindr va tayanch plita (3) o'rtaсидаги тирқишда узунасига siqiladi va mexanik kuch ta'sirida bo'yiga qisqaradi, chunki yuqoridagi silindr pastdagiga qaraganda katta tezlik bilan harakatlanadi. Pastki silindr yuzasi yupqa rezina bilan qoplangan. Bu prinsipda ishlovchi mashina tezligi 10 – 40 m/min bo'lib, nazariy jihatdan matoga 20% gacha kirishish berish mumkin, ammo amalda 7 – 10% ga erishiladi, xolos.


"Tyubeteks" firmasi mashinasida ham tez harakatlanuvchi mato kiritish silindri va orqada qoluvchi, ya'ni sekin harakatlanuvchi silindr mavjud. Mashinaning texnologik sxe-masi va uning ishslash prinsipini oydinlashtiruvchi sxema 225- rasmida keltirilgan.

Orqada qoluvchi silindr (4)ning yuzasi noteks bo'lib, aluminiy oksidi bilan qoplangan. Pastdagi tayanch plita (2) qizdiriladi (224- rasmga qarang). Bu mashinada paxta va paxta aralash matolarga 20% gacha kirishish berish mumkin. Mato mashinaga kiritilishi oldidan bug'lanadi; mato tezligi 55 m/min gacha yetadi. Mashina silindrlari tezliklari



224- rasm. "Monforts" firmasi mato kirishtirish mashinasining sxemasi:

1 – kiritilayotgan mato;  
2 – siqilgan mato; 3 – tayanch plita; 4 – yuqoridagi silindr; 5 – pastki silindr.



225- rasm. "Tyubeteks" mashinasidan mato o'tish sxemasi:


1 – mato; 2 – metall detektori; 3 – mato uzatuvchi silindr; 4 – orqada qoluvchi silindr; 5 – mato o'rovchi rolik;

orasidagi farqni o'zgartirish orqali matoning kirishish darajasi o'zgartiriladi. Bu mashinaning ishlash prinsipini tu-shuntiruvchi sxema 226- rasmda keltirilgan

Bu ikki firmaning mashinasida matoning tez kirishishi ga erishilsa-da, ular kamchilikdan xoli emas. Masalan, matoning ikki metall yuzasi orasida siqilishi mato qo'lga ushlanganda noxush sezgi beradi va, bundan tashqari, mato yuzasi notabiiy yaltiroqlik oladi.

### 3- §. Namatli va isitiladigan silindrli mato kirishtrish mashinalari

Bu turdag'i mashinalarning ishlash prinsipi matoning qisqartiruvchi namat va isitilgan silindr orasidan siqilib



226- rasm "Tyubeteks" mashinasining prinsipial sxemasi:

1 – mashinaga kiritilayotgan mato; 2 – tayanch plita; 3 – kirituvchi rolik; 4 – orqada qoluvchi rolik; 5 – uzunasiga kirishgan mato.

o'tishiga asoslangan. 227- rasmning A sxemasida keltirilgan mashinada namat (2) kichik diametrli kirishtirish roligi (3)dan egilib o'tadi. Bunday egilishda namatning tashqi qavati cho'ziladi va shu cho'zilgan joyida uning yuzasiga mato yotqiziladi. Harakatlanayotgan mato bilan namat uzasasi qizdirilgan silindr (4) yuzasiga o'tadi, natijada namatning tashqi qavati endi ichki qavatga aylanadi va qisqaradi, shuning uchun namat bilan silindr orasidagi mato ham uzunasiga qisqaradi. Matoning uzunasiga qisqargan holati silindrning qizdirilgan yuzasiga tegib, haroratining oshishi natijasida fiksatsiyalanadi. Matoning uzunasiga qisqarish darajasi namat qalinligiga, kirishtirish roligi diametriga va mato tolalarining elastiklik xossalariiga bog'liq.

Namat qalinligi qanchakatta va kirishtirish roligining diametri qancha kichik bo'lsa, matoni kirishishi shuncha katta bo'ladi. Masalan, namatning qalinligi 6,9 mm bo'lganda, matoning kirishish darajasi 10% ni tashkil qilishi kerak. Ammo tajribada bu ko'rsatgich undan past bo'ladi. Ushbu mashinaning kamchiligi uning konstruksiyasi murak-




227- rasm. Namatli mato qisqartirish mashinalari:

A – qisqaruvchi rolikli: 1 – kiritilayotgan mato; 2 – namatdan tayyorlangan keng tasma; 3 – kirishtirish roligi; 4 – ichki tarafidan qizdiriladigan silindr.

B – qizdirilgan rolikli: 1 – kiritilayotgan mato; 2 – namatdan tayyorlangan uzuksiz keng tasma; 3 – namatni harakatlantiruvchi rolik; 4 – siquvchi, ichki tarafidan qizdiriladigan rolik.

kabligi, matoning kirishish darajasini o'zgartirish uchun boshqa diametrli kirishtirish roligi o'rnatilishining talab qilinishidir. Mato kirishtirishning bu usuli chet el tajribasida "sanforizatsiya" deb yuritiladi.

227- rasmning B sxemasida matoni kirishtirishning oddiyroq usulida ishlovchi mashina sxemasi keltirilgan. Oldingi mashinaga o'xshab, bu mashinada ham mato (1) uzluksiz namat tasma (2)ning tashqi iplari uzaygan joyida uning yuzasiga yotadi. Mato va namat namatni harakatlartiruvchi rolik (3) bilan siquvchi rolik o'rtasida siqladi. Namat qizdirilgan rolikdan egilib o'tayotganda, oldin cho'zilgan tashqi iplari endi ichki kichraygan iplarga aylanadi, natijada u bilan kontaktda siqilib turgan mato ham uzunasiga qisqaradi. Rolik (4)ning yuzasi qizdirilganligi natijasida matoning uzunasiga qisqargan holati termofiksatsiyalanadi. Bu mashinada matoning uzunasi bo'yicha 3 – 7% ga qisqarishiga erishish mumkin. 228- rasmda tarki-



228- rasm. Ikkita kirishtirish mexanizmli mashina sxemasi:


1 – lotokli kompensator; 2 – mato uzatuvchi; 3 – ikkita pnevmato mato taranglovchi; 4 – vertikal bug'lovchi kamera; 5 – ortiqcha bug'lanish va kondensatsiyadan saqlash uskunasi; 6 – matoni uzunasiga kirishtirish mexanizmlari; 7 – konveyer; 8 – konveyer; 9 – qoldiq namlikni so'rib oluvchi uskuna; 10 – mato taxlagich.

bida ikkita kirishtiruvchi mexanizmi bor agregat sxemasi keltirilgan.

Mato aravachadan lotokli kompensator (1)ga tushadi va bu yerda mashinaning uzlusiz ishlashini ta'minlovchi mato zaxirasi bo'ladi. Mato ikkita uzatuvchi (2) va taranglovchi (3)dan o'tib, bug'lash kamerasiga kiradi. Matoning bug'lanishi uning oson deformatsiyalanib kirishish imkonini yaratadi. Shundan so'ng mato kirishtirish mexanizmlari (6)da kirishtiriladi va uni konveyer (7) taxlash mashinasiga uzatadi. Taxlash mashinasi matoni (polotnoni) taxlaydi.


Yuqorida keltirilgan prinsipda ishlovchi mato kirishtirish mashinalari Rossiya zavodlarida ham ishlab chiqarilgan. 229- rasmida mato kirishtirish tizimi LU – 120 ning sxemasi keltirilgan.

Mato kiritish mexanizmi (1)dan o'tib, namlash kamerasi (2)ga kiradi va u yerda ikki tarafidan forsunkadan purkalanyotgan qaynoq suv tomchilarini bilan namlanadi. Materialda namlikning bir tekisda tarqalishi uchun mato cheksiz namatlari quritish silindri (4)dan o'tkaziladi. Shun-



229- rasm. LU – 120 mato kirishtirish tizimi:

1 – mato kiritish mexanizmi; 2 – namlash kamerasi; 3 – cheksiz namat; 4 – quritish silindri; 5 – kompensator; 6 – kengaytirish mashinasi; 7 – cheksiz rezina tasmasi; 8 – kirishtirish mashinasi; 9 – pardozlash barabani; 10 – cheksiz namat; 11 – mato taxlagich.



230- rasm Kengaytirish va kirishtirish mashinali agregatning sxemasi:

1 – mato; 2 – kengaytirish mashinasi; 3 – bug’lash kamerasi; 4 – kirishtirish mashinalari; 5 – ishlov olgan mato; 6 – tayyor mato o’rami.

dan so‘ng material kompensator (5) orqali qisqa kengaytirish mashinasi (6)ga zapravkalanadi va rezina kamarli (7) kirishtirish mashinasi (8)ga beriladi. Kirishtirish mashinasidan chiqqan mato namat (10)li pardozlash barabani (9)da ishlov oladi va tayyor mato taxlagich (11) bilan taxlanadi.

Chet elda tirikotaj polotnosi uchun chiqarilgan shu kabi agregatning texnologik sxemasi 230- rasmida keltirilgan.

Kengaytirish mashinasidan o’tayotganda mato ochiq bug’ bilan ishlov oladi. Bu tizimda mato 30 m/min tezlikda ishlov oladi.

#### **4- §. Matoni fizik-mexanik usulda pardozlash jihozlari**

Matoga pardoz beruvchi valli mashinalar – kalandrlardan matoni o’tkazishdan oldin uni namlash muhim texnologik usul hisoblanadi. Matoni namlash uchun suv saplo va forsunkalardan mayda oqim tarzida qaytaruvchi yuzaga beriladi, unga urilgan mayda tomchilar tuman hosil qiladi va u yonidan harakatlanib o’tayotgan matoni namlaydi. Bu namlash mexanizmi yopiq kameradan iborat bo’lib, uning ikkala tarafi qarshisiga qator sapolalar bor uriluvchi setkalar

simmetrik ravishda o'rnatilgan. Mato yoyilgan holda set-kalar orasidan o'tadi va mayda suv tomchilari bilan nam-lanadi. Setka faqat mayda suv zarrachalarini qaytaradi va ishlatilmagan suv oqib to'plagichga tushadi. Mato nam-ligini kengligi bo'yicha bixillash uchun namatli quritish barabani xizmat qiladi. Matoni namlash uchun uni kichik bug' kamerasidan o'tkazish usulidan ham foydalilanadi. Bu usul matoni kengligi bo'yicha bir tekisda namlash im-konini beradi.

Pardozlash kalandrlari matolarga va trikotaj polotnolari-ga yakuniy pardoz berishda keng qo'llaniladigan mashinalar hisoblanadi. Kalandrlarning ishchi organi bu massiv – og'ir vallar bo'lib. ular mashinada bir-birlarining ustiga o'rnatiladi. Tajribada ikki va uch valli kalandrlar keng qo'llanadi, ammo to'rt valli mashinalardan ham foydalani-ladi. Vallar bir-biriga gidravlik, pnevmatik va gidropnev-matik siqish mexanizmlari yordamida 100 – 250 kN/sm va undan yuqori siqilish darajasida siqilib turadi. Vallardan bittasi yurituvchidan harakat oladi, qolganlari esa unga si-qilib turganliklari tufayli aylanadi.

Matoga pardoz berish sifati ko'p omillarga bog'liq bo'lib, ulardan asosiyлари: vallarni qoplovchi material xos-sasi, vallarning o'zaro siqilish darjasasi, ishlov berish harorati, matoning o'tish tezligi, uning namligi va boshqalar. Kalandrga ichi bo'sh va yuzasi elastik qoplama ega val-lar o'rnatiladi. Ichi bo'sh metall vallar bug' bilan (110 – 120°C gacha), elektroenergiyasi va gaz bilan (150 – 200°C gacha) qizdiriladi. Elastik qoplama materiali sifatida tarki-bida 20 – 50% gacha jun tolasi bo'lgan qog'oz ishlatiladi.

Bunday elastik qoplama matoning ulangan choklarini valarni bir-biridan uzoqlashtirmsandan o'tkazib yuboraveradi.

Kalandr vallari orasidan o'tganda, mato dazmollanadi, zichlanadi, ip shakli ovalga yaqinlashadi, strukturasi to'lganga o'xshaydi va mato yuzasi ma'lum tus oladi. Matoga beradigan ishloviga qarab, kalandrlar quyidagi tur-larga ajratiladi:


– pardozlovchi kalandrlar – mato zichligini oshiradi, dazmollaydi, yaltiroqlik yoki jilosiz tusini beradi. Bu kalandrlarning ishchi valining yuzasi tekis silliqlangan bo'ladi;

– kumushsimon ishlov beruvchi kalandrlar – matolarga "issiq", ipaksimon yaltiroqlik beradi. Bunday ishlov kalandrning metall vali yuzasida uning o'qiga burchak ostida nozik shtrixlardan iborat naqsh tushiriladi (val yuzasini bir sm uzunligida 50 – 200 shtrix bo'ladi);

– bosib naqsh tushirish kalandrlari matolarni gofrlash uchun ishlatiladi. Buning uchun kalandrning metall vali yuzasi bo'rtib chiqqan relefli naqshga ega bo'ladi;

– chezing kalandrlar ichki ust-bosh matolariga zig'ir tolasidan tayyorlangan matoni eslatuvchi muar tus berish uchun ishlatiladi. Bunday natijani olish uchun mato kalandr vallari orasidan bir necha mato ko'p qatlam qilib o'tkaziladi. Bulardan tashqari, maxsus kalandrlar ham mavjud.

231- rasmda metall va elastik yuzali vallarning kalandrlarda joylashishlariga misollar keltirilgan. Sxemalarni oson tushunish uchun metall valni M, yuzasi elastik valni esa E harfi bilan belgilab olamiz



231- rasm Kalandrlarga matoni zapravka qilish sxemalari

I. M – E. ya'ni yuqorida metall va pastda elastik val joylashgan ikki valli tipovoy kalandr sxemasi. Bunday sxemada matoga yaltiroqlik, kumushsimon pardoz va siqib naqsh tushiruvchi ikki valli kalandrlar ishlaydi. Matoga yaltiroqli berish uchun ikkala val ham yurituvchidan harakat oladi va metall valning tezligi elastik yuzali valning tezligidan 8 – 40% ga yuqori bo'ladi. Bunda mato o'ng yuza tarafi bilan metall valga qaratib zapravka qilinadi, natijada elastik yuzali val tezligi bilan harakatlanayotgan mato yuzasini yuzasi polirovkalangan metall val silab o'tishi tufayli mato yuzasi yaltiroq tus oladi.

Matoning elastik val tezligi bilan harakatlanishiga sabab uning elastik qoplama materialiga ilashuvchanligining kattaligidir. Mato yuzasiga yaltiroqlik beruvchi kalandrlar friktsion kalandrlar deb ham yuritiladi va ularning tezligi 75 – 150 m/ min ni tashkil qiladi. Kumushsimon ishlov beruvchi (mato tezligi – 20 – 100 m/min) va siqib naqsh tushiruvchi kalandrlarda (mato tezligi – 15 – 20 m/min) vallar bir xil tezlikda harakatlanadi. Odatda, metall val yetaklovchi bo'ladi, elastik yuzali val esa unga siqilib, undan

harakat oladi. Elastik vall tepada joylashgan ikki valli kalandrlar juda kam uchraydi. Ikkala vali ham metall bo'lgan kalandr noto'qima materialni kalandrlash uchun ishlatiladi.


II. Uch valli kalandrlarning metall vali o'rtada joylashgan turi ( $E - M - E$  sxema) ko'p uchraydi. Bunday kalandrlar matoga jilosiz ishlov berish va yaltiroqlik berish uchun ishlatiladi. Jilosiz ishlov berishda mato birin-ketin ikkala siqish zonasidan o'tadi va uning tezligi vallar tezligiga teng bo'ladi. Yaltiroqlik berishda mato o'rta va pastki vallar orasiga zapravka qilinadi va vallar friksiya bilan harakatlanadi.

O'rtadagi vali metall bo'lgan (III.  $M - E - M$  sxemasi) kalandrda mato ikkala siqish zonasiga alohida zapravka qilinadi va ikkita ikki valli mashina sifatida ishlaydi. Ammo bu sxemali kalandr kam uchraydi.  $E - E - M$  va  $M - E - E$  sxemali kalandrlar matoga jilosiz ishlov berishda va yaltiroqli berishda ishlatiladi.  $M - M - E$ , asosan, noto'qima materiallari pardozlashda qo'llaniladi.  $E - E - E$  sxemali kalandr matoga chezing ishlov berish uchun zarur bo'ladi. To'rt valli kalandrda vallarning yuqoridan pastga  $E - E - M - E$  sxemada joylashishi ikkita  $E - E - M$  va  $E - M - E$  sxemali uch valli kalandrlarning kombinatsiyasidir. Bunday to'rt valli kalandrning imkoniyatlari yuqori va matoga kam vaqtda ishlov beriladi. Vallari  $M - E - E - M$  sxemada (V - sxema) joylashgan to'rt valli kalandr chezing pardoz uchun qo'llaniladi. Ammo bunday sxemada ikkala elastik yuzali val ham bombirovka (bombirovka - valning markaziy qismining kuchaytirilganligi) qilishni talab qiladi, bu, o'z navbatida, vallarning tez emirilishiga olib keladi.

Besh valli kalandr takomillashgan uch va to'rt valli kalandrlarni eslatadi. Bu kalandrlar bitta va ikkita metall valli sxemada ishlatilishi mumkin. E – E – M – E – M sxemali kalandr kumushsimon ishlov berish va siqib naqsh tushirishdan boshqa hamma pardozlar uchun ishlatilishi mumkin. M – E – E – M – E sxemali kalandrda kumushsimon pardoz ham berish mumkin. Oxirgi (VI sxema) E – E – E – E – M sxemali besh valli kalandr matoga jilosiz va chezing pardoz berish uchun ishlatiladi.


Germaniyaning “Beninger” va “Kusters” firmalari kalandrlar ishlab chiqarishda dunyo miqyosida yetakchilik qilishadi. 232- rasmida “Kusters” firmasining besh valli kalandrining texnologik sxemasi keltirilgan.

Yakunlovchi dekatir mato yaltiroqligini kamaytirishga, mato tolasida o'tgan jarayonlarda hosil bo'lgan ichki kuchlanishlarni relaksatsiyalashga, mato o'lchamlarini mahkamlashga va unga kam kirishuvchanlik berishga xizmat qiladi. Shu tufayli bu mashina jun va ipak matolarni pardozlashda keng qo'llaniladi. Jun matosi bu ishlovdan so'ng qo'lga ushlaganda mayinlik beradi, yoqimli tabiiy yaltiroqligini tiklaydi va namga chidamliligi oshadi. Bunday natijaga kuchsiz tortilgan matoga 10 – 30 daqiqa davomida to'yigan ochiq bug'da ishlov berish bilan erishiladi. Bu jarayon davriy ishlaydigan dekatir mashinasi.



232- rasm. Besh valli kalandr sxemasi:

1 – kiruvchi mato o'rami; 2 – mashina gardishi; 3 – vallar; 4 – ishlov olgan mato o'rami.



233- rasm. DZ – 180 – Sh dekatirining sxemasi:

1 – mato; 2 – bremza; 3 – devori teshikli baraban; 4 – rolik; 5 – taglik – "yo'ldosh" mato; 6 – mato taxlagich.

nasida yuqori sifat bilan amalga oshiriladi. 233- rasmida Rosiyada ishlab chiqarilgan DZ – 180 – Sh dekatirining sxemasi keltirilgan.

Ichi bo'sh, devorlari teshikli misdan tayyorlangan silindrler mashinaning asosiy ishchi organi bo'ladi va ular yopiq kojux ichiga o'rnatilgan. Mato (1) va taglik (5) birgalikda silindrarga o'raladi va shundan so'ng silindrler ichiga bosim ostida ochiq bug' beriladi. Bug' matolar qatlamidan o'tadi va ventilatsion zont orqali chiqarib tashlanadi. Sex havosini silindr ichiga so'rish orqali ishlov olgan mato sovitiladi, shundan so'ng mato taxlagich orqali aravachaga taxlanadi, taglik esa o'z roligiga o'raladi. Ishlov berish siki li 30 daqiqa davom etadi, mashina unumdorligi esa 480 m/soatni tashkil qiladi.

## 5- §. Mato sifatini tekshirish, o'lchash va o'rash mashinalari


Tayyor mato (polotno) sifatini aniqlash, nuqson joylarini belgilash, mato uzunligini o'lchash va tovar holiga

keltirib o'rash nuqsonni aniqlash-o'lchash mashinalari da amalga oshiriladi. Misol tariqasida Rossiya da ishlab chiqarilgan BMN – 120 mashinasining sxemasi va ishslash prinsipini ko'rib chiqamiz (mashina sxemasi 234- rasmda keltirilgan).

Mato rulondan olinib, uzatuvchi rolik (2) va kompensator (3) orqali yurituvchisi bor val (4)ga zapravka qilinadi. Bu valga val (5) siqilib turadi, siqish juftligi matoning 30 – 40 m/min tezlikda harakatlanishini ta'minlaydi. Zaruriyat bo'lsa, nazorat stoli holatini o'zgartirish mumkin. Stolda mato kengligini ko'rsatib turuvchi lineyka mavjud.


O'lchovchi rolik (7)ka tegib, mato o'lchash g'ildiragi (8) harakatga keladi va bu aylanma harakat o'lchagich (9)ga uzatiladi hamda u o'tgan mato uzunligini ko'rsatadi. Pedal (11) yordamida yurituvchi tarkibidagi mufta ularnishdan chiqariladi va matoning harakati to'xtaydi. Bundan tashqari, harakatni revers qilib, matoni teskari tarafga harakatlantirish mumkin.

Korxonalarda keng matolarning sifatini aniqlab, uni kengligi bo'yicha uzunasiga taxlaydigan o'lchash-buklash mashinalari ham keng qo'llaniladi.



234- rasm. BMN – 120  
mashinasining sxemasi:

1 – mato ruloni; 2 – uzatuvchi val;  
3 – kompensator; 4 – yuritvchisi bor  
val; 5 – siquvchi val; 6 – tekshirish  
stoli; 7 – o'lchovchi rolik; 8 – o'lchash  
g'ildiragi; 9 – o'lchagich; 10 – mato  
o'rami; 11 – pedal



235- rasm. RB/T - 05 sifat nazorat mashinasining sxemasi:

1 – kiruvchi mato o’rami; 2 – mato tortish vallari juftligi; 3 – nazorat stoli; 4 – mato tortish vali; 5 – kompensator; 6 – tayyor mato o’rami.

“Demsan” (Turkiya) firmasi mato (polotno) sifatini nazorat qiladigan, o’lchaydigan mashinalarning va bu jayonda matoni uzunasiga buklaydigan mashinalarning 30 dan ortiq konstruktiv turlarini ishlab chiqarib, jahon bozoriga taqdim qilmoqda. Misol tariqasida 235- rasmida RB/T – 05 markali sifat nazorat mashinasining sxemasi,

236- rasmda esa uning tashqi ko’rinishi keltirilgan.

Matoni aravachadan yoki o’ramdan yo’naltiruvchi roliklar orqali mato tortish vallari juftligi (2) tortib oladi va mato tortish vali (4) yordamida nazorat stoli (3)dan o’tkaziladi. Bu



236- rasm. RB/T - 05 sifat nazorat mashinasining tashqi ko’rinishi

stol yorug'lik beruvchi lampa bilan jihozlangan. Ko'rikdan o'tgan mato valyan yordamida rulonga o'raladi.

Nazorat stoli holatini gorizontalga nisbatan 45° – 55° burchak ostida o'zgartirish mumkin. Mashinadan matoning o'tish tezligi 0 – 70 m/min ni tashkil qiladi. Mato uzunligi elektron sistemali o'lchagich bilan o'lchanadi.

*Takrorlash uchun savollar:*

1. Matolarga qanday yakuniy pardozlash berilishi to'g'risida gapirib bering.
2. Matoga yakuniy pardoz beruvchi universal agregat tarkibini tushuntiring.
3. Matoga kam g'ijimlanuvchanlik va kam kirishuvchanlik beradigan agregat to'g'risida gapirib bering.
4. Matoga mexanik usulda kam kirishuvchanlik beruvchi mashinalarning iglash prinsiplarini tushuntiring.
5. Matoga kam kirishuvchanlik beruvchi namatlari mashina to'g'risida gapirib bering.
6. Kalandrlar turlarini sanab bering.
7. Yakunlovchi dekatir vazifasini tushuntirib bering.
8. Tayyor mato (trikotaj polotnosi) sifatini tekshiruvchi mashinalar to'g'risida gapirib bering.

## **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. M. Yakartepe, Z. Yakartepe. Textile Finishing in General. "T.K.A.M. Texile & Clothing Research Center", Istanbul. 2006.
2. M. Yakartepe, Z. Yakartepe. Finishing of knits pill. Volume 7. "T.K.A.M. Texile & Clothing Research Center", Istanbul. 2006.
3. M. Yakartepe, Z. Yakartepe. Dyeing and printing pill. Volume 9. "T.K.A.M. Texile & Clothing Research Center", Istanbul. 2006.
4. K. E. Ergashev, M. Z. Abdurakimova. Pardozlash korxonalari texnika va texnologiyasidagi yangiliklar. – Toshkent: Talqin, 2006.
5. V. A. Mirboboyev. Konstruksion materiallar texnologiyasi. – T.: O'zbekiston, 2004.
6. Г. Е. Кричевский. Химическая технология текстильных материалов (в 3 томах). Том 1. Волокна. подготовка. Т.1., 2000.
7. Г. Е. Кричевский. Химическая технология текстильных материалов (в 3 томах). Том 2. Колорированиэ текстильных материалов. Т.2., 2001.
8. Г. Е. Кричевский. Химическая технология текстильных материалов (в 3 томах). Том 3. Заключительная отделка. Т.3., 2001.
9. Эргашев К. Э. Оборудованиэ отделочных производств. Текст лекции. – Ташкент, 2001.

10. Справочник. Отделка хлопчатобумажных тканей. Часть 2. – М. Легпромиздат. 1991.
11. В. П. Коретко, В. П. Павлов. Технология и техника опаливания суровых хлопчатобумажных тканей. – М., "Легкая индустрия". 1977.
12. К. Шпитцнер. Печатание текстильных материалов (оборудование и способы печатания). Перевод с немецкого. – М. Легкая индустрия. 1984.
13. В. М. Белцов Технологическое оборудование отделочных фабрик текстильной промышленности. Ленинград Ленинградское отделение издательства "Машиностроение". 1974.
14. Технологические расчеты в химической технологии волокнистых материалов. Под редакцией проф. д.т.н. Л. И. Беленского. – М. Ж. Легкая индустрия, 1973.
15. О. А. Бунин, Ю. А. Малков. Машины для сушки и термообработки ткани. – М. Машиностроение, 1971.
16. K. Ergashev. Pardozlash korxonalari jihozlari fani dan amaliy dars vazifalarini bajarish uchun uslubiy ko'rsatma. – T., 2006.
17. Firmalar jihozlarining prospektlari.

## Mundarija

### I B O B. PARDOZLASH JIHOZLARINING UMUMIY UZEL VA MEXANIZMLARI

1- §. Pardozlash jihozlarining ishslash muhiti.....	6
2- §. Pardozlash jihozlarini qurishda ishlataladigan konstruksion materiallar .....	7
3- §. Pardozlash jihozlarining umumiy mexanizmlari.....	25

### II BOB. MATOLAR VA TRIKOTAJ POLOTNO-LARINI BO'YASHGA VA GUL BOSISHGA TAYYORLASH JIHOZLARI

1- §. Agregat va potok liniyalar .....	54
2- §. Tolali materiallarni yuvish jarayoni.....	91
3- §. Yuvish mashinalari va jarayonni jadallashtirish usullari.....	104
4- §. Matoni bo'yashga va gul bosishgatayyorlash agregatlari.....	130
5- §. Matolarni merserlash jihozlari.....	134
6- §. Jun matolarni bo'yashga tayyorlash jihozlari .....	153

### III B O B. MATO YUZASIGA ISHLOV BERUVCHI VA UNI ENIGA KENGAYTIRUVCHI JIHOZLAR

1- §. To'qilgan mato va trikotaj polotnolarini vorsovkalash (paxmoqlash) jihozlari .....	165
2- §. Qirqish mashinasining sxemasi va ishslash prinsipi .....	190
3- §. Matoni eniga kengaytirish va arqoq iplar qiyishiqligini tuzatish mexanizmlari .....	197

### IV BOB. TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARINI BO'YASH JIHOZLARI

1- §. Tola va to'qimachilik yarim mahsulotlarini bo'yash jihozlari.....	203
---	-----

2- §. To'qilgan mato va trikotaj polotnolarini davriy bo'yaydigan jihozlar .....	119
3- §. Matolarni yoyilgan holatda bo'yash jihozlari .....	238

## V B O B. TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARINI QURITISH JIHOZLARI

1- §. Quritish jarayoni tahlili.....	261
2- §. Quritish jihozlari.....	271
3- §. Konvektiv quritish mashinalari .....	301

## VI BOB. MATOGA (TRIKOTAJ POOTNOLARIGA) GUL BOSISH MASHINALARI

1- §. Valli (rotatsion) gul bosish mashinasi.....	337
2- §. To'rli andozali gul bosish mashinalari.....	357
3- §. Bug'lab pishitish apparatlari – zrelniklar .....	364

## VII BOB. YAKUNIY PARDOZLASH JIHOZLARI

1- §. Matolarga kam g'ijimlanuvchanlik va kam kirishuvchanlik berish jihozlari.....	376
2- §. Matoga mexanik usulda kam kirishuvchanlik berish mashinalari .....	380
3- §. Namatli va isitiladigan silindrli mato kirishtirish mashinalari .....	382
4- §. Matoni fizik-mexanik usulda pardozlash jihozlari .....	386
5- §. Mato sifatini tekshirish, o'lchash va o'rash mashinalari .....	392
Foydalilanilgan adabiyotlar .....	396

*O'quv nashri*

Karim ERGASHEV

**TOLALI MATERIALLARNI  
PARDOZLASH KORXONALARI  
JIHOZLARI**

*Darslik*

Muharrir J. Qo'nishov  
Badiiy muharrir A. Aqilov  
Texnik muharrir U. Kim  
Musahhih Z. Irisboyeva  
Sahifalovchi B. Usmonov

Bosishga 16. 11. 2010- yilda ruxsat etildi.  
Bichimi 60x84 <sub>116</sub>. Hajmi 25 b. t.  
Adadi 500 nusxa. Buyurtma № 59.

“YANGI NASHR” nashriyoti

“MEDIANASHR” MCHJ bosmaxonasi  
Toshkent shahri, Chilonzor ko'chasi. 1- uy.

26.